

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA‘LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

BERDIQUL TO‘YCHIYEV, BAXTIYOR OMONOV

SIYOSIY MADANIYAT

MONOGRAFIYA

**Toshkent
TAFSIR BOOKS
2024**

UO‘K: 32.01. (575.1)

KBK: 66.3 (5Ÿ)6

T – 95

To‘ychiyev B., Omonov B. Siyosiy madaniyat. Monografiya. Toshkent, Tafsir Books, 2024. – 216 bet.

Monografiyada bugungi kunda jamiyatimiz hayotida dolzarblashib borayotgan siyosiy madaniyat masalasi tadqiq etilgan.

Kitobda siyosiy madaniyat tushunchasi, uning maqsad-mohiyati, turlari, darajalari, modellari, shuningdek, shaxs, jamiyat, davlat hayotida tutgan o‘rni, modernizatsiya va globallashuv jarayonlarida siyosiy madaniyatda yuz berayotgan murakkabliklar hamda O‘zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini takomillashtirish usullari va mexanizmlari ilmiy yoritilgan.

Monografiya talabalar, magistrantlar, yosh izlanuvchi olimlar, professor-o‘qituvchilar va keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

UO‘K: 32.01. (575.1)

BBK: 66.3 (5Ÿ)6

Taqrizchilar:

Sh. Paxrutdinov – siyosiy fanlar doktori, professor.

S.Otamuratov – falsafa fanlari doktori, professor.

I.Ergashev – siyosiy fanlar doktori, professor.

O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2024-yil 26 yanvardagi 1-son bayonnomasiga binoan, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9308-6-7

© B. To‘ychiyev, B.Omonov, 2024.

MUNDARIJA	
KIRISH	5
BIRINCHI BOB.	
SIYOSIY MADANIYATGA OID QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	
1.1.SIYOSIY MADANIYATNING MAQSAD VA VAZIFALARI	
1.1.1. Siyosiy madaniyat g‘oyasi paydo bo‘lishining shart-sharoitlari.....	6
1.1.2. Siyosiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	14
1.1.3. Siyosiy madaniyat haqida ta’limotlar va ularning tahlili.....	18
1.2. SIYOSIY MADANIYAT KONSEPSIYALARI VA FUNKSIYALARI	
1.2.1. Siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyalari.....	23
1.2.2. Siyosiy madaniyatning funksiyalari.....	31
1.2.3. Siyosiy madaniyatni turkumlash.....	38
1.3. SIYOSIY MADANIYAT TALQINLARI	
1.3.1. G‘arb olimlari siyosiy madaniyat haqida.....	45
1.3.2. Siyosiy va huquqiy madaniyatning aloqadorligi.....	52
1.3.3. Siyosiy ongdan fuqarolar madaniyatiga o‘tish jarayoni va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	56
IKKINCHI BOB	
SIYOSIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI	
2.1. SIYOSIY ONG VA SIYOSIY MADANIYAT	
2.1.1. Siyosiy ongning tuzilishi, tarkibi va funksiyalari.....	60
2.1.2. Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o‘zaro munosabatlari.....	70
2.1.3. Siyosiy madaniyatda demokratik qadriyatlarning shakllanish jarayoni.....	75
2.2. SHAXS VA SIYOSIY MADANIYAT	
2.2.1. Yuksak siyosiy madaniyat – farovon jamiyat qurishning muhim sharti.....	81
2.2.2. Axborot xavfsizligi va yoshlar.....	89
2.2.3. Siyosiy yetuk shaxsning ijtimoiylashuvi.....	106
2.3. SIYOSIY MADANIYAT TAKOMILIDA MODERNIZATSIYA OMILI	
2.3.1. Modernizatsiya jarayonining siyosiy madaniyatdagi o‘rni.....	111
2.3.2. Siyosiy modernizatsiyaning maqsad va vazifalari.....	115
2.3.3. O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlari: yutuqlar va muammolar.....	121

UCHINCHI BOB
O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY MADANIYAT:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

3.1. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR

3.1.1. Globallashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri.....	127
3.1.2. Yoshlarga oid qonun – yosh avlod siyosiy madaniyatini yuksaltirishning huquqiy asosi.....	132
3.1.3. Siyosiy islohotlar – yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish omili.....	139

3.2. O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI YGKSALTIRISH VAZIFALARI

3.2.1. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlari.....	147
3.2.2. Intellektual yoshlar – siyosiy madaniyatning negizi sifatida.....	152
3.2.3. Jamiyatda yoshlar siyosiy madaniyatining o‘rni.....	156

3.3. O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI – SIYOSIY MADANIYATNING RIVOJLANISH ASOSI

3.3.1. O‘zbekiston Konstitutsiyasida siyosiy institutlarning takomillashuvi jarayoni.....	159
3.3.2. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining istiqbollari.....	170
3.3.3. Siyosiy madaniyat yo‘nalishidagi... vazifalar	175

3.4. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINING HOLATI VA ISTIQBOLLARI

3.4.1. O‘zbekiston yoshlari siyosiy madaniyati haqida mulohazalar.....	179
3.4.2. Yoshlar siyosiy madaniyatining o‘ziga xos jihatlari.....	183
3.4.3. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari.....	187

3.5. JAMIYATDA SIYOSIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

3.5.1. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning imkoniyatlari.....	192
3.5.2. Yangicha siyosiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omillari, yo‘llari va usullari.....	197
3.5.3. Jamiyat siyosiy madaniyatini oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni.....	202

Xotima.....	208
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	209

KIRISH

“Siyosiy madaniyat” nomli monografiyada madaniyatning tarixiy-falsafiy asoslari, tushunchasi, ta’riflari, konsepsiyalari, strukturasi va funksiyalari, siyosiy ong va siyosiy madaniyat, siyosiy madaniyat va shaxs, siyosiy madaniyat va modernizatsiya, siyosiy madaniyat va ijtimoiy institutlar, globallashtirish va siyosiy madaniyat, yoshlar siyosiy madaniyatidagi yutuqlar va muammolar, jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uygʻunligi kabi mavzular ketma-ketlikda izchil yoritilgan.

Siyosiy madaniyat deganda siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni oʻzida uygʻunlashtirgan holda shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar umum manfaatlar va maqsadlar yoʻlida oʻz faoliyatlarida amal qilishining koʻrsatkichi tushuniladi. Shu jihatdan olganda, ushbu mavzu oʻta dolzarb hisoblanadi va barchada qiziqish tugʻdiradi.

Ma’lumki, 2022-yildan boshlab Oʻzbekiston Milliy universitetida “Siyosatshunoslik” yoʻnalishi talabalari uchun “Siyosiy madaniyat” fani kiritilgan edi. Bugungi murakkab globallashtirish sharoitida haqiqatan ham ushbu sohaga qiziqish va ehtiyoj kuchayib boraveradi.

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatori yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlariga ham alohida eʼtibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarning ma’nan va siyosiy jihatdan barkamol boʻlib ulgʻayishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Yuqoridagi talab va istaklarga muvofiq, qoʻlingizdagi monografiya dunyoga keldi. Shuni ta’kidlash lozimki, kitobni yozish vaqtida yoshlarning siyosiy madaniyati shakllanishida uchraydigan tendensiyalar, muammolarga koʻproq eʼtibor qaratildi. Bu esa yoshlarning kelajak yaratuvchisi, bunyodkori sifatida oʻzini anglashi va namoyon etishiga turtki berishiga ishonamiz.

.

BIRINCHI BOB

SIYOSIY MADANIYATGA OID QARASHLAR VA YONDASHUVLAR



1.1.SIYOSIY MADANIYATNING MAQSAD VA VAZIFALARI

1.1.1. Siyosiy madaniyat g'oyasi paydo bo'lishining shart-sharoitlari

G'arb siyosatshunosligida siyosiy madaniyat g'oyasining faol rivojlanishi XX asrning 50-yillarida boshlandi. Bu dunyodagi tezkor siyosiy o'zgarishlarning mohiyatini tushuntira oladigan va ularning salbiy oqibatlarini oldini olishga yordam beradigan universal g'oya bo'lib qoladi, deb taxmin qilingan. O'sha paytda jahon rivojlanishiga global omil sifatida passiv aholi qismining keng qatlamlarini faol siyosiy faoliyatga jalb qilish zarurati tug'ilgan edi. Biroq, ommaning siyosiy ishtiroki tahlili fuqaro siyosiy madaniyatining past darajasiga tushib qolgani sababli, bu G'arb mamlakatlarida siyosiy tanglikni keltirib chiqardi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar aholisining aksar qismi moddiy ehtiyojlari qondirilishi xilma-xilligi, parlament demokratiyasi institutlariga aholi ishonchsizlik bilan qaraganligi davlat manfaat va ehtiyojlaridan ancha orqada qolayotgan edi.

Nihoyat, G'arb siyosiy institutlari ushbu g'oyani hukumat shakllarini tanlash holatida turgan Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasining yangi mustaqil davlatlariga o'tkazishga qaror qildilar. Aslida, bu to'g'ri qaror bo'lgan edi. Ba'zi jamiyatlarning demokratiya g'oyalariga, boshqalarning bag'rikenglik, siyosiy raqobat, plyuralizm tamoyillariga moyilligi hokimiyat va shaxsning o'zaro munosabatlarini qiyosiy o'rganish metodologiyasidan unumli foydalanish, turli mamlakatlardagi siyosiy institutlarning turg'unlik holati siyosiy madaniyat tushunchasining ommalashishi va shakllanishiga turtki berdi.

Bizga ma'lumki, "siyosat" tushunchasi qadim zamonlarda vujudga kelgan. U bizgacha yetib kelib, ijtimoiy hayotimizdan o'rin olgan

qadriyat hisoblanadi. Sodda qilib aytganda, u an'anaviy tarzda davlat va jamoat ishlarini; odamlar, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, millatlar va davlatlar o'rtasidagi hokimiyat bilan bog'liq faoliyat sohasini anglatib keladi. Siyosat — muayyan subyektlar o'rtasidagi hokimiyatga oid munosabatlar ifodasi bo'lib, bunda ular o'z manfaatlarini qondirish uchun hokimiyatga intiladilar yoki hokimiyatdan foydalanadilar. Siyosat hokimiyat yordamida eng muhim umumiy manfaatlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan munosabatlar majmuidir”¹

Siyosiy madaniyat g'oyasini amerikalik siyosatshunos G. Almond ishlab chiqqan bo'lib, uning rivojlanishida Ijtimoiy fanlar tadqiqot kengashi qoshidagi Qiyosiy siyosatshunoslik qo'mitasi a'zolari bo'lgan L. Pay, S. Verba, J. Pauell ham faol ishtirok etganlar. Siyosiy madaniyatni tahlil qilishda G. Almond funksional yondashuvdan foydalangan, avvalo, unga birinchi navbatda psixologik hodisa sifatida qaralgan.

“Har bir siyosiy tizim,— deydi G. Almond, — siyosiy harakatga yo'naltirilgan tajribaviy empirik yondashuvga asoslanadi (beliefs), biz uni “siyosiy madaniyat”, deb ataymiz². Siyosiy madaniyatning muhim tarkibiy qismlari ro'yxatini S. Verba keltirib o'tadi: “Jamiyatning siyosiy madaniyati siyosiy harakatlar sodir bo'lgan vaziyatni belgilaydigan empirik e'tiqodlar, ta'sirchan qadriyatlar tizimidan iborat. U siyosatga nisbatan subyektiv yo'nalishni tashkil etadi”³.

1958-1962-yillarda P. Almond va S. Verba Buyuk Britaniya, AQSh, G'arbiy Germaniya, Italiya va Meksikaning siyosiy madaniyatlarini qiyosiy empirik tadqiq qiladilar. Tadqiqot natijasi o'laroq, “Fuqarolik madaniyati” (1963) nomli asar dunyoga keladi. Olimlar o'rtacha har bir mamlakatda jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga mansub mingga yaqin kishidan intervyu olishdi. Tadqiqot mavzusi to'rtta asosiy obyekt — siyosiy tizim, hukumat, milliy

¹ Batafsilroq qarang: Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. –T., 2002. – B. 60.

² Qarang.: Almond G. Comparative Political Systems //The Journal of politiks. 1956. Vol. 18. №3.

³Qarang.: Odilqoriyev X. T., G'oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat.– T.: IIV akademiyasi, 2004. –B. 41.

saylovlar, shaxsning tafakkuri siyosiy yoʻnalishi (kognitiv, taʼsirchan, baholash) ni qamrab olgan edi.

G. Almond va S. Verba maʼlumotlariga koʻra, siyosiy madaniyat jamiyatda hukmronlik qiladigan uchta siyosiy yoʻnalish — patriarxal, subordinatsiyalashgan va faol shaxs ishtiroki hisoblanadi.

Patriarxal siyosiy madaniyat mahalliy qadriyatlarga (klan, qabila, klan qadriyatlari) yoʻnaltirilganligi bilan ajralib turadi va u koʻpincha vatanparvarlik, nepotizm, korrupsiya shaklida namoyon boʻladi. Shaxs siyosiy madaniyatga moyil boʻlmaydi va siyosiy rollarni bajarmaydi. Madaniyatning bu turi siyosiy madaniyat mahalliy subkulturalarning qatlamiga aylangan yosh mustaqil davlatlarga xos boʻladi.

Subordinatsiyalashgan siyosiy madaniyat shaxsning siyosiy tizimga passiv munosabatini koʻzda tutadi, u siyosiy ongli boʻlsa-da, anʼanalarga amal qiladi, hokimiyatga boʻysunadi, shaxs undan turli imtiyozlar (ijtimoiy nafaqalar, kafolatlar)ni kutadi.

Ishtirok etish madaniyati siyosiy faollik, ratsionallik bilan xarakterlanadi. Bunda fuqarolar siyosiy hokimiyatga faol taʼsir koʻrsatishga, uning faoliyatini qonuniy taʼsir vositalari – saylovlar, namoyishlar va boshqalar yordamida boshqarishga intiladi.

Siyosiy madaniyat siyosiy fanlarning oʻziga xos *kategoriyasi* sifatida birinchi marta amerikalik tadqiqotchilar G. Almond va S. Verba tomonidan “Fuqarolik madaniyati: siyosiy qarashlar va besh mamlakatda demokratiya” nomli kitobida qoʻllanilgan. Ayni shu yoʻnalishdagi tadqiqot sabab 1959-1960-yillarda AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya va Meksikada keng qamrovli jamoatchilik soʻrovi oʻtkazilgan.

G. Almond siyosiy xulq va siyosiy jarayonlarni oʻrganish uchun maqbul boʻlgan yangi siyosiy madaniyat konsepsiyasining birinchi boʻlib ilmiy muomalaga kiritgan. Uning fikricha, siyosiy madaniyat siyosiy tizimga asoslangan siyosiy obyektlarga yoʻnaltirilgan maxsus bilim shaklidir. G. Almond va S. Verba bu haqida shunday deb yozadilar: “Siyosiy madaniyat” atamasi siyosiy tuzum va uning turli qismlariga va har bir insonni mavjud siyosiy tizimdagi oʻz roliga

nisbatan munosabati, siyosiy qarashlarini anglatadi". G. Almond va S. Verba siyosiy madaniyatni bilim (siyosat haqida bilim va tasavvurlar), hissiyot (siyosatga nisbatan his-tuyg'ular) va baholash (siyosiy obyektlar haqidagi fikrlarni qiyoslash) kabilardan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadilar¹.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilar siyosiy madaniyatga tegishli bo'lgan bu yondashuvni rad etadilar, uni subyektiv va noaniq asosga ega, deb hisoblaydilar. Ma'lumki, siyosiy madaniyat, siyosiy mentalitet va milliy xarakter ajratib, alohida tushuniladigan hodisa emas. Amerikalik tadqiqotchi R. Dalton bu haqida to'xtalib, uning milliy mentalitet, ijtimoiy-madaniy intellektual darajasi bilan bog'liq yana bir qancha muhim jihatlariga mualliflar e'tibor bermaganligini ta'kidlab o'tadi. L. Pay 1972-yilda siyosiy madaniyat konsepsiyasini "siyosiy fan vakillari va, ayniqsa, ziyolilar orasida keng tarqalgan"ligiga e'tibor berib, uni "qiyin" va "boshqa siyosiy kategoriyalar"ga o'xshash, yaqin jihatlar borligiga urg'u beradi. Bizning nazarimizda, siyosiy madaniyat – siyosiy munosabatlar tizimi, ayni paytda avlodlar almashinuvi natijasi, uni tashkil etuvchi unsurlarni ishlab chiqish va qayta tayyorlash jarayonidir. Siyosiy madaniyat muntazam ravishda rivojlanib va takomillashib boruvchi dinamik hodisadir.

Siyosiy madaniyatning tamoyillari va omillarini tadqiq etish asosida konseptual yondashuvlar shakllangan. Jumladan, AQSh va Yevropada siyosiy madaniyat xususida bir necha yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotdan ma'lum bo'lishicha, dunyo olimlari tomonidan siyosiy madaniyat sohasidagi ilmiy izlanishlar XX asrning o'rtalaridan boshlab keng miqyosda rivojlantirilgan. AQShda D.Bolindjer, V.F. Devison, P.Laynbardjer, Germaniyada F.Klemperer, Fransiyada P.Serio, A. Peshe, P.Anri, R. Bart va boshqalar siyosiy madaniyatning konseptual tomonlarini yoritishga harakat qilganlar. Bugungi kunda siyosiy madaniyatning ilmiy-metodologik

¹ Almond G., Verba S. The Civil Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Countries. -Princeton, 1963. – P. 28.

asoslari Ye.I.Sheygal, A.P. Chudinov, K.V.Nikitin kabi olimlar tomonidan ham tadqiq etilmoqda.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy-funksional, umummilliy nazariy asoslarini, avvalo, madaniyat tushunchasi, mohiyati va mazmunini tahlil etishni taqozo etadi.

“Madaniyat” atamasini ilk bor qadimgi Rim jamoat arbobi Mark Porsiy Katon o‘zining “Agrikola” (“Dehqonchilik haqida”) asarida qo‘llagan bo‘lib, u madaniyatni yerga ishlov berish, o‘simliklar yetishtirish, hayvonlarni parvarishlash, “cultor” iborasini esa yerga ishlov beruvchi, ziroatchi, chorvador, ya’ni qishloq fuqarosi va dehqonni ifodalash uchun qo‘llagan¹.

Yunon mutafakkiri Mark Tulliy Sitseron “madaniyat” tushunchasini ma’rifatlilik, tarbiyalilik, tarbiyachi va ustoz ma’nosida ishlatgan. Umuman olganda, qadimgi Yunonistonda Yevropa madaniyati an’alariga asos solingan bo‘lib, hozirgi kunda madaniyatshunoslik ilmining asosiy tushunchalarini ilk bor ana shu yunon-rim mutafakkirlari ta’riflagan edilar.

“Madaniyat” tushunchasining eng qadimgi ma’nolarini qadimgi grek polisi misolida talqin qilish mumkin. Polis – nisbatan kam aholi yashaydigan shahar. Ammo polisning o‘zagini tashkil etuvchi aholi uning fuqarolari bo‘lib, polisning o‘zi davlat hisoblangan. Ana shunday shahar-davlatda “madaniyat” ham, “tarbiya” ham “ibodat” bo‘lgan. *Antik polisda murg‘ak boladan yetuk erkakni tarbiyalash jarayonini yunonlar “paydeyya” (pais-bola) tushunchasi orqali ifodalashgan. Yunoncha “paydeyya” atamasi bevosita tarbiyalash, ta’lim berish ma’nosini, kengroq talqinda esa ta’lim, ziyolilik, ma’rifat, madaniyat ma’nosini ham anglatadi.*

Yunonlar shunday ta’lim tizimini yaratdilar, uning asosida inson ma’lum sohaning bilimdoni emas, balki qadriyatlarni o‘zida chuqur mujassam etgan yetuk shaxs sifatida shakllanadi. Qadimgi

¹Qarang.: Odilqoriyev X., G‘oyibnazarov Sh. Siyosiy madaniyat.–T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. –B. 12.

davrga xos madaniyatni bunday tushunish zamirida madaniy taraqqiyot maqsadi sanalgan inson ideali yotadi

Madaniyat haqidagi bilimlar keyinroq kulturfilosofiya – falsafiy madaniyat doirasida rivojlandi. Madaniyat falsafasi (kulturfilosofiya) madaniyatni falsafiy kategoriyalar – borliq, ong, jamiyat, shaxs kabilar nuqtai-nazaridan o‘rganuvchi mustaqil yo‘nalishi. XVIII-XIX asrlarda madaniyat muammolari madaniyatning tarixiy rivojlanishi, inson va jamiyat hayotida madaniyatning tutgan o‘rni hamda mohiyat-mazmuni nuqtayi nazaridan madaniyat falsafasi doirasida maxsus ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunga kelib madaniyatni yaxlit hodisa sifatida o‘rganish tarix, filologiya, psixologiya, falsafiya, siyosat, huquq va boshqa fanlar doirasida amalga oshirilmoqda.

Madaniy borliq va uning in’ikosi bo‘lgan madaniyat falsafasi, ya’ni *madaniyatshunoslik ilmi rivojining tarixini quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin*¹:

- 1) Qadimgi davr (mil. av. davr — mil. V asr);
- 2) O‘rta asrlar davri (V-XVI asrlar);
- 3) Yangi davr (XVII-XIX asrlar);
- 4) Eng yangi davr (XX-XXI asrlar).

Madaniyatshunoslik mustaqil fan sifatida yangi klassik falsafa doirasida shakllana boshladi. Madaniyat haqidagi tasavvurlar (madaniyat falsafasidan tashqari) kulturantropologiya va madaniyat sotsiologiyasi doirasida rivojlandi. "Kulturantropologiya" atamasi "kultura" (ishlov berish, parvarishlash, tarbiyalash) hamda yunoncha "antropos" (odam) va "logos" (fan) so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, madaniylashgan odam haqidagi fan degan ma’noni bildiradi². Kulturantropologiya G‘arb etnografiyasidagi yo‘nalishlardan biri bo‘lib, unda mazkur fanni ifodalash uchun boshqa atama – "antropologiya" atamasi qo‘llaniladi.

"Kulturologiya"ni yaratishga qo‘lurgan dastlabki olimlardan biri amerikalik taniqli kulturantropolog Lesli Uayt bo‘lib, u "kulturologiya"

¹ O‘sha joyda. – B. 13.

² O‘sha joyda.

atamasidan “madaniyat haqidagi fan” atamasining sinonimi sifatida foydalangan. “Madaniyat” tushunchasi, Uayt talqiniga ko‘ra, voqelikning alohida obyektini, ijtimoiy hodisalarning alohida turkumini qamrab oladi. Madaniyat tizim sifatida individdan ustun turadi: “Madaniyat o‘ziga xos atamalar bilan tushuntirilishi kerak, bu kimgadir ajabtovur tuyular, ammo insoniyatni o‘rganishning bevosita obyekti inson emas, balki madaniyatdir”¹. Madaniyat, L. Uayt nazarida, alohida odamga va odamlar jamoasiga bog‘liq bo‘lmagan, faqat rivojlanishning ichki mantig‘iga bo‘ysunuvchi obyektiv tuzilmadir. Mazkur obyektiv tuzilmaning konseptual asoslarini ko‘rib chiqish lozim.

Ma'lumki, ilmiy tadqiqotlar uyushgan yaxlit tizim sifatida madaniyatda uch kichik tizimni ajratadi: birinchi (texnologik) tizim insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini, uning texnika vositalari va mehnat qurollaridan, yashash joylarining turlari kabilardan foydalanishini; ikkinchisi arab madaniyati, G'arbiy Yevropa madaniyatini, uchinchisi Janubiy Amerikadagi Mayya madaniyati kabilarni qamrab oladi.

Rus olimi N.Ya.Danilevskiy madaniyatlarning tarixiy xilma-xilligi va ichki mazmuni har xilligi muammosiga haqqoniy boshlang‘ich qoida deb qaraydi. Uning fikricha, tarix butun o‘zligi bilan mavjuddir, tabiat bilan va bir-biri bilan tinimsiz kurash olib boruvchi etnik jamoalarning, alohida, mahalliy “madaniy-tarixiy” tiplar (“sivilizatsiyalar”) ning mavjudligi tarixiy voqelikdir. *XX asrning yirik sotsiolog va kulturologlaridan biri P.A.Sorokin madaniyatning uch tipini e’tirof etadi*²:

1. *Hissiy madaniyat (unda voqelikni hissiy idrok etish ustunlik qiladi);*
2. *Ratsional madaniyat (ratsional fikrlash ustunlik qiladi);*
3. *Idealistik madaniyat (intuitiv bilish ustunlik qiladi).*

“Hozirgi zamon madaniyati” tushunchasi madaniyatning inqirozini, inson va tabiat uygʻunligiga erishish mumkin emasligini anglab yetish jarayonida yuzaga keldi. Mazkur uygʻunlikning ratsional

¹ White L. The science about culture. – Washington, 1943. – R. 21.

² <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B8%D0%BF%D0%BE%D0%BB%D0%> Tipologiya kulturi Pitirima Sorokina.

asoslarini izlashdan voz kechildi. Hayot falsafasi zahirida shakllangan “madaniyat” tushunchasi kulturologiya nazariyasining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Zamonaviy ijtimoiy falsafa madaniyatni anglab yetishga nisbatan bir qator yondashuvlarni taklif qildi. Ularning ba’zilariga to’xtalib o’tamiz.

E. Kassirer o’z asarlarida madaniyatning ramziy xossalarini aniqlab, quyidagi fikrlarni bayon etadi: “Insonni qurshab olgan narsalarning aynan ramziy ahamiyati va harakatlar simbolikasi madaniyat dunyosini namoyon etadi, ya’ni yagona predmet butun bir hodisalar turkumining ramzini ifoda etadi, uning vakili bo’lib xizmat qiladi hamda insonning dunyoga nisbatan munosabatini belgilab beradi”¹.

Y. Xeyzingening o’yin bilan bog’liq madaniyat nazariyasi hozirgi zamon “madaniyat” tushunchasi uchun alohida ahamiyatga ega. Xeyzinge o’yinni madaniyatning negizi va manbai deb biladi. U o’yin madaniyatdan ilgari paydo bo’lganini, uning asosiy jihatlarini hayvonot olamida kuzatish mumkinligini qayd etadi. Shunga qaramay, o’yin biologiya chegarasidan chetga chiqqan va inson ratsional faoliyatining barcha shakllarida — san’at, falsafa, huquq va boshqalarda ishtirok etadi. Deyarli har bir inson “madaniyat” so’zini ishlatadi. Ammo unga hamma har xil ma’no beradi. Madaniyatning ko’plab ta’riflari hamda uni tushunish va baholashga nisbatan ko’plab yondashuvlar mavjud.

AQSh kulturologlari Alfred Kreber va Klayd Klakso madaniyatga berilgan ta’riflarning yuzdan ortig’ini tahlildan o’tkazib, ularni quyidagi turkumlarga ajratganlar: tavsifiy ta’riflar, tarixiy ta’riflar, normativ ta’riflar, qadriyatlar bilan bog’liq ta’riflar, psixologik ta’riflar, mafkuraviy ta’riflar.

Madaniyat haqidagi qarashlar xilma-xilligiga qaramay, ularda madaniyatni tadqiq etuvchilarning barchasini birlashtiradigan bir umumiy jihat mavjud. Bu umumiylik — *“madaniyat” so’zining dastlabki ma’nosi lotinchadan tarjimada ishlov berish, yetishtirish, parvarish*

¹ Qarang.: Sharipova S.B. Bo’lajak chet tili o’qituvchilarida umummadaniy dunyoqarashni shakllanti-rish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedag. fan. bo’yicha falsafa doktori (PhD) diss. Avtoref. Samarqand, 2019. – B. 11.

qilish, yaxshilash, degan ma'nolarni bildiradi. Vaqt o'tishi bilan u qadriyatlarni yaxshilash, takomillashtirish va yaratish ma'nosida qo'llana boshlandi.

1.1.2. Siyosiy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati

Inson ijtimoiy faoliyatining har bir turi madaniy ahamiyatga ega. Masalan, moddiy ishlab chiqarishda mehnat shaxsning rivojlanishiga qay darajada ta'sir ko'rsatsa, mehnatning madaniy mohiyati shu darajada to'liq namoyon bo'ladi va shu darajada madaniy faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Ammo moddiy ishlab chiqarishning asosiy vazifasi hamisha insonning yashashi uchun zarur ne'matlar ishlab chiqarishdir.

Xo'sh, siyosiy madaniyatning yuqorida qayd etilgan faoliyatlarning qay biriga kiritish mumkin?

Siyosiy madaniyat – siyosiy faoliyat madaniyati. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni va butun jamiyatni o'zgartirish. Ammo ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni o'zgartirish jarayonida odamlar o'zlari ham o'zgarib boradilar.

Siyosiy madaniyat ikki ijtimoiy tizim – siyosat va madaniyatning birikuvidan hosil bo'luvchi hodisa. U jamiyat siyosiy tizimining bir qismi sifatida jamiyat, sinf, alohida shaxslar siyosiy faoliyatining barcha elementlarini qay darajada o'zlashtirgani, siyosiy bilimlari, his-tuyg'ulari, siyosiy tafakkuri, ko'nikmalari qandayligini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat siyosiy faoliyat subyektining umumlashtirilgan, sintezlashtirilgan ta'rifi.

Siyosiy madaniyat o'tgan va hozirgi zamon siyosiy kurashi tajribasi qay darajada o'zlashtirilgani, hozirgi zamon siyosiy faoliyatida bu tajriba qay darajada e'tiborga olinayotgani hamda ilgari yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar takrorlanmasligi ta'minlanganini ko'rsatadi.

Jamiyatda madaniyat siyosatdan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Madaniyatning bosh vazifasi – u yoki bu ijtimoiy guruh manfaatlariga mos tarzda muayyan shaxsni shakllantirishdan iborat. Jamiyatda “sof”

madaniyat bo‘lmagan va bo‘lishi ham mumkin emas. Shuning uchun ham odamlar ijtimoiy faoliyatining har bir turi u yoki bu darajada, bevosita yoki bilvosita siyosat bilan bog‘liq kechadi.

Shaxsning siyosiy madaniyati jamiyatda shakllanadi, uning ishlarini boshqarishda ishtirok etish ehtiyoji keng ommaning siyosiy madaniyatni o‘zlashtirishning asosiy mezonlari va ko‘rsatkichiga aylanadi. Taklif etilgan mezonlarning ikkalasi ham bahslidir. Birinchi mezon yetarli darajada amaliy emas, zero ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga u yoki bu xulq-atvortarlari, shaxs yoki guruh faoliyatining muvofiqligi yoki muvofiq emasligini aniqlash juda mushkul. Ikkinchi mezonning kamchiligi shundaki, boshqarishda ishtirok etish ehtiyojining mavjudligi ham yuksak siyosiy madaniyat ko‘rsatkichi hisoblanmaydi. Bizningcha, faqat real amaliy faoliyatning o‘zi siyosiy madaniyatni o‘zlashtirish darajasining mezonlari bo‘la oladi. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat faqat inson yoki shaxslar guruhining siyosiy fikrlash, faktlar va hodisalarga to‘g‘ri siyosiy baho berish qobiliyatiga emas, hattoki turli hayotiy vaziyatlarda siyosiy jihatdan oqilona ish tutish qobiliyatini ham namoyon qiladi.

Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, u siyosat subyektlarining o‘zaro munosabatlarini, ularning ongilligi, faolligi hamda u yoki bu siyosiy harakatlarga tayyorgarlik darajasini ochib beradi.

Siyosiy madaniyat o‘zgaruvchan hodisa bo‘lib, jamiyat rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Madaniy qadriyatlar, an’analarining o‘zgarishi hayotning texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy jabhalaridagi o‘zgarishlarga qaraganda birmuncha sust kechadi. Bu madaniyatda barqaror va beqaror, eski va yangi tarkibiy qismlar o‘ziga xos tarzda uyg‘unlashib boradi. Barqaror qismlar o‘tmishning siyosiy tajribasini o‘zida jamlagan an’analardan kelib chiqadi. An’analar siyosiy tizimlar faoliyatida vorislikni ta’minlaydi. Har qanday yangilanish an’analar bilan uyg‘unlashadi yoki an’analar ularni inkor etadi.

Jamiyatni isloh qilish – yangilanishning shakli. Uning mexanizmi eskilik va an’anaviylikning buzilishini ham, yangilanishlarning vujudga

kelishini ham qamrab oladi. Bu jarayonlar eskirgan e'tiqodlar, odatlar, an'analarning tizimlari bilan qadriyatlar va normalarning yangi tizimi o'rtasidagi ziddiyat barham topganidan keyin rivojlanadi. Shuning uchun ham har bir mamlakatda milliy an'analar va modernizatsiyalashning maqbul nisbatini topish davlat rahbarlari islohotchilik faoliyatining bosh muammosi hisoblanadi.

Jamiyatning siyosiy tizimida siyosiy madaniyatning ahamiyati uning birlashtiruvchi funksiyasi bilan belgilanadi. Umum e'tirof etilgan siyosiy-madaniy qadriyatlar, xulq-atvor andozalari va an'analar odamlarni yagona siyosiy tizimga birlashtiradi, bir jamiyatni boshqa jamiyatdan farqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, *siyosiy madaniyat negizida odamlar o'zlarining yagona davlat fuqarolari ekanliklarini anglab yetadilar. Siyosiy madaniyatning ramziy elementlari jamiyatni birlashtirish va vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashda muhim o'rinni egallaydi.*

Siyosiy ramz – muhim siyosiy g'oyalarning shartli namunasi, ularni targ'ib qilish va mustahkamlab qo'yishning muhim vositasi. Siyosiy madaniyatning ramziy qismiga davlat ramzlari (gerb, madhiya, bayroq); milliy bayramlar va davlat marosimlari (Prezidentning qasamyodi); me'morchilik majmualari (Vashingtonda – Oq uy, Toshkentda – Oqsaroy) tashkil etadi. Tarixiy shaxslar ham ramz bo'lib xizmat qilishi mumkin (J.Vashington, Amir Temur). Siyosiy miflar mamlakat aholisini g'oyalar va qadriyatlar atrofiga jipslashtirish funksiyasini bajaradi. Ular jamiyatning asosiy qadriyatlarini e'tiqodlar asosida ramziy ifoda etadi. V.R.Legoyda ta'kidlaganidek, “fuqarolik dini” AQSh siyosiy madaniyatining o'zagidir¹.

Siyosiy madaniyat pog'onalari haqida gap ketganda, ularning bir nechtasini ajratib ko'rsatish mumkin. Xususan, jamiyat, ijtimoiy guruh va alohida shaxsning siyosiy madaniyati farqlanadi.

Ilmiy manbalarga ko'ra, siyosiy madaniyat quyidagi darajalarga ajratiladi:

¹Legoyda V.R Grajdanskaya religiya SSHA: nekotoriye simvoli i rituali //Politiya, 1999. № 4. –S. 28.

1. *Dunyoqarash darajasi*: jamiyat, guruh va alohida shaxsning siyosat hamda dunyoning siyosiy manzarasi haqidagi tasavvurlari, shuningdek siyosiy hayot ishtirokchilari amal qiluvchi normalar, qadriyatlar, ramzlar, ko'rsatmalar;

2. *Fuqarolik darajasi*: odamlarning siyosat bilan shug'ullanishiga turtki beruvchi sabablar, ularning siyosatda o'z maqsadlariga erishishiga yordam beruvchi ko'nikma, vosita va usullar;

3. *Siyosiy daraja*: siyosat subyektlarining muayyan muammoga doir qarashlari, ya'ni siyosiy tizim va tartibotga, davlat hokimiyati idoralarining siyosatni amalga oshirishda qo'llovchi usullari o'z tarafdorlari va raqiblariga nisbatan munosabatlari.

Siyosiy madaniyat ancha qadimiy hodisa. Uning mazmunini tashkil etuvchi ko'pgina jihatlar Konfutsiy, Shan Yan, Platon, Aristotel singari qadimgi davr mutafakkirlarining asarlarida tilga olingan.

Fanda siyosiy madaniyatning tabiatini tushunishga nisbatan ikki xil yondashuv vujudga kelgan. Ba'zi olimlar (G.Almond, S.Verba, D.Divayn, Yu.Krasnov va boshqalar) siyosiy madaniyatni siyosatning subyektiv mazmuniga teng deb hisoblaydi va unga siyosiy ongning turli shakllarini, barcha siyosat subyektlari siyosiy xulq-atvorining xususiyatini belgilovchi ko'rsatmalar, stereotiplar va qadriyatlarni kiritadilar.

Boshqa guruh olimlar siyosiy madaniyatga siyosiy xulq-atvorga nisbatan normativ talablarning ifodasini (S.Vayt), siyosatdagi xulq-atvorning tipik namunalari majmuini (J.Pleyno), siyosiy faoliyat usulini (U.Rozenbaum) ko'rib, uni siyosatning ajralmas qismi hamda ko'rinishlaridan biri, deb hisoblashadi.

Xulosa shuki, siyosiy madaniyatni ikki murakkab ijtimoiy tizim - *siyosat va madaniyat o'rtasida bog'lovchi bo'g'in* sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa, deb ta'riflash mumkin.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy subyekt (jamiyat, guruh, shaxs)ning kuchlarini vujudga keltirish hamda ularni ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, uning maqsadlari, vositalari, usullari va natijalarida ro'yobga chiqarish jarayoni demak. U insonning ijtimoiy munosabatlarni

o'zgartirish subyekti sifatidagi ijtimoiy rivojlanish mezoniga negiz bo'ladi.

1.1.3. Siyosiy madaniyat haqida ta'limotlar va ularning tahlili

Siyosiy madaniyat tushunchasiga ilk marta *nemis ma'rifatparvar faylasufi Iogan Gerder (1744-1803) asos solgan*. Unga klassik ta'riflardan birida ta'kidlanganidek, "*Siyosiy madaniyat umuman siyosiy tizimga, uning tarkibiy qismlari va siyosiy ishtirokchilarga nisbatan xilma-xil, ammo barqaror tarzda takrorlanuvchi qonuniyatlar va baholovchi mezondir*". Ushbu talqindan olimlar bir qator nuqsonlarni aniqlashdi: birinchisi, bunda siyosiy institutlarning funksiyalari ko'zga tashlanmaydi; ikkinchisi, siyosatning xulq-atvor jihatida chetda qoladi; uchinchisi, baholovchi me'yoriy tizim sifatidagi roli ko'rinmaydi. Mazkur talqinlarni umumlashtirgan *rus olimi Ye.Ya. Batalov o'zining shunday ta'rifini taklif qiladi*: "siyosiy madaniyat – individlar va guruhlarining ongi, xulq-atvor modellarining tarixan shakllanib kelgan andozalari, shuningdek siyosiy jarayon subyektlarining faoliyatida namoyon bo'luvchi siyosiy institutlarning faoliyat ko'rsatuvchi modellari tizimi"¹.

Siyosiy madaniyat insonning ma'naviy tabiati va rivojlanish darajasidan ajralmasdir. U siyosiy institutlarning shakllanishi, faoliyat ko'rsatishi va takomillashishiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi, umuman siyosiy jarayonga, siyosiy faoliyatga va keng aholi ommasining xulq-atvoriga yo'nalish beruvchi ijtimoiy ong elementlari va hodisalarining majmui hisoblanadi.

Atamaga berilgan ta'riflarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchisi, siyosiy madaniyatni individlarning siyosiy yo'nalishi, moyilliklari va xulq-atvorlari majmui bilan bog'lovchi tushunchaning tor talqini, ikkinchisi siyosat bilan bog'liq umumiy madaniyatning muhim qismi.

¹ Qarang.: Batalov Ye. L. Politicheskaya kultura // Obshaya i prikladnaya politologiya / Pod obsh. red. V. Jukova, B. Krasnova. – M., 1997. – S. 697.

Siyosiy madaniyat siyosiy faoliyat bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, uni amalga oshirishning muayyan yo‘nalishi va “texnologiyasi”ni belgilab beradi. U individlar va siyosiy guruhlarining siyosiy ongi bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Shu bois, unga faqat siyosat subyektlarining bilim va qadriyatlari, tajriba va an‘analari, faollik darajasining majmui deb qaramaslik lozim. Siyosiy madaniyat odamlarning muayyan siyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni va usuli hamdir.

Odatda, siyosiy madaniyat uch asosiy shaklda namoyon bo‘ladi:

a) siyosiy tajriba, an‘ana, qadriyatlar, mo‘ljallar va ko‘rsatmalarni, sezgi va hissiyotlarni ifodalash hamda siyosiy fikrlash usullarini o‘z ichiga oluvchi ma‘naviy faoliyatda;

b) siyosiy institutlarni tashkil etishning ma‘lum usullari va namunalari, ilmiy tafakkur yutuqlarini moddiylashtiruvchi siyosiy faoliyat usullarini qamrab oluvchi predmetli faoliyatda;

v) siyosiy faoliyat usullari, uslubi va vositalarini, siyosiy jarayon xususiyatini belgilovchi funksional faoliyatda.

Bular bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, odamlar siyosiy erkinligining muayyan-tarixiy darajasini ifoda etadi.

Siyosiy madaniyat alohida hodisa emas, balki umumbashariy jamiyat madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. U jamiyatning iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy, diniy, boshqaruv kabi tizimlari bilan o‘zaro aloqador. U jamiyat, ijtimoiy guruhlar va individlarning urf-odatlar va qonunlarda qayd etilgan siyosiy tajribasini, ularning davlat hokimiyati va siyosiy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy hodisalarga to‘g‘ri baho berish va muayyan siyosiy faoliyatda ifodalangan mavqeyini egallash qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shuning uchun siyosiy madaniyat umuman jamiyatning siyosiy hayotiga, hokimiyat va boshqaruv muammolari hamda siyosatda ishtirok etish bilan bog‘liq jamiki hodisalarga, shuningdek siyosat va huquq, siyosat va iqtisod, siyosat va ma‘naviyatga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ana shu omilning o‘ziyoq, uni ma‘naviy hayotning elementigina emas, balki jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi deb

qarash imkonini beradi. Ushbu masalada darajamiz siyosat haqidagi tasavvurimizni kengaytiradi, jamiyat siyosiy hayoti rivojlanishning mezonlarini o'rganishga imkoniyat beradi.

Siyosiy madaniyat insonning siyosiy institut va qadriyatlarda qayd etilgan ijodiy faoliyatining tavsifi va in'ikosi. Shu ma'noda, u faqat natija emas, balki yaratish va jamiyatga xos siyosiy qadriyatlar va yo'nalishlarni o'zlashtirishning yagona, o'zgaruvchan jarayoni hamdir.

Siyosiy madaniyatga shaxs faoliyati bilan bog'liq jihatlarni kiritish muayyan faoliyatni madaniyat bilan aynan bir deb hisoblashga asos bermaydi, balki insonning siyosat sohasidagi faoliyatining sifat jihatini, uning fikrlash usuli va xulq-atvorini ta'riflaydi. Bunga G.Almond va S.Verba ham e'tibor berishgan. Ularning fikricha, siyosiy madaniyat mazkur tizim ishtirokchilarining individual qarashlari va mo'ljallari majmui, siyosiy harakatlar negizida yotuvchi va ularga ma'no baxsh etuvchi subyektiv soha.

Siyosiy madaniyat ta'riflarining xilma-xilligi bir necha omillarga, jumladan, uni o'rganishga nisbatan yondashuvlarning xilma-xilligiga (ular ko'pincha hukmron ilmiy paradigma va g'oyaviy aqidalar bilan belgilanadi), tadqiqot qaysi fan doirasida o'tkazilganiga, mamlakatga (to'g'rirog'i, unda hukmron siyosiy tuzumga) va, nihoyat, tadqiqot o'tkazilgan davrga (zamon) ham bog'liq bo'ladi. Bu haqida misollar keltiramiz: "Siyosiy madaniyat atamasiga G.Almond 1956-yilda "Qiyosiy siyosiy tizimlar" maqolasida "Siyosiy madaniyat – siyosiy tizimlarni ham o'z ichiga oluvchi siyosat obyektlariga nisbatan yo'naltirilganlikning o'ziga xos namunasi"¹, deb ilk ta'rifni bergan edi.

Sobiq ittifoq olimlari ham bu tushunchaga ko'plab ta'riflar berganlar. Ya'ni: "Siyosiy madaniyat – turli ijtimoiy tabaqalar, millatlar va xalqlarning tub manfaatlarini, shuningdek fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy institutlar, normalarni mustahkamlash, qayta tuzish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-amaliy faoliyatining xususiyati, usulini aks ettiruvchi siyosiy qarashlar, bilimlar va e'tiqodlar majmui"².

¹ Almond G. Somparative Political Sustems. The journal of Politics. Vo1.18. –1956. –№ 3.–P. 8.

² Keyzerov M.N. Politicheskaya i pravovaya kultura. Metodologicheskiye problemi. – M., 1983. – S. 14.

Sotsiologlar va siyosatshunoslar nuqtayi nazaricha, siyosiy madaniyat “jamiyat madaniyatining o‘ziga xos tarkibiy qismi sifatida odamlar, ularning guruhlar va birlashmalarining siyosiy hayot sohasidagi tasavvurlari, qadriyatlari va normalarini qamrab oladi hamda siyosiy jarayon subyektlarining xulq-atvor modellari, namunalarini va ularning turmush tarzini belgilaydi”¹.

Akademik V.Babosovning fikricha, siyosiy madaniyat – ijtimoiy subyekt (shaxs, sinf)ning siyosiy bilimlari, qadriyatlari, mo‘ljallari, xulq-atvor namunalarini ma’lum tarixiy faoliyatda ro‘yobga chiqarish demak. U jamiyatning urf-odatlar va qonunlarida mustahkamlangan siyosiy tajribani, hokimiyatning bir tomonda harakat qilishi uchun mos pozitsiyani egallash haqidagi tasavvurlari darajasini o‘z ichiga oladi.

Psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, siyosiy madaniyat “siyosiy tizim faoliyatidagi ruhiy shart-sharoitlar (kayfiyatlar, fikrlar, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar va boshqalar) majmuidir”.

Aslini olganda, siyosiy madaniyat har qanday jamiyat siyosiy tizimining muhim elementi bo‘lib, xulq-atvor namunalari, qadriyatlar, hissiyotlar, qarashlar, turmush tarzi orqali siyosiy institutlar va jarayonlarni bir-biri bilan bog‘lovchi siyosatning “insoniy mezon”ni o‘zida aks ettiradi. Bu ta’rif ma’no jihatidan siyosiy madaniyatni davlat, fuqarolik jamiyati va shaxs o‘zaro aloqasining bir qismi deb tushunishga ancha mos keladi, deyish mumkin.

Professor B.To‘ychiyevning fikricha², siyosiy madaniyat ijtimoiy ong va umumiy madaniyatning siyosiy institutlar hamda siyosiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qismi va jihatlarini qamrab oladi. Siyosiy madaniyat tarkibiga siyosiy tizim doirasida namoyon bo‘luvchi e’tiqod va fikr yo‘nalishlari ham kiradi.

Ta’kidlash joizki, “siyosiy madaniyat” atamasi ikki sababga ko‘ra qo‘llaniladi: birinchidan, siyosiy va nosiyosiy qarashlar hamda xulq-atvor modellari o‘rtasidagi munosabatni aniqlamoqchi bo‘lsak, biz siyosiy qarashlar va xulq-atvor modellarini nosiyosiy qarashlar va

¹ Slovar-spravochnik po sotsiologii i politologii. – M., 1996. – S. 115.

²To‘ychiyev B. Problemi formirovaniya politicheskoy kulturi i demokratizatsiya sovremennogo obshchestva. – T., 1991. – S. 33-34.

xulq-atvor modellaridan ajratishimiz lozim. Bu holda “siyosiy madaniyat” atamasi aynan siyosiy mo‘ljallarga – siyosiy tizim va uning turli qismlariga doir qarashlarga hamda uning mazkur tizimdagi o‘z o‘rniga doir qarashlariga tegishli bo‘ladi. Iqtisodiy madaniyat yoki diniy madaniyat haqida qanday gapirsak, siyosiy madaniyat haqida ham shunday gapirishimiz lozim.

Basharti siyosiy madaniyat boshqa ijtimoiy hodisalar orasidan ajratib alohida olinsa, bu antropologiya, sotsiologiya va psixologiya nazariy tizimi va yondashuvlarini keng ko‘lamda universal qo‘llash imkonini beradi. Masalan, antropologiya va psixologiya “ijtimoiylashtirish”, “madaniy ziddiyat”, “madaniy birlashish” singari tushunchalaridan foydalanib, o‘z tafakkurimizni boyitib boramiz. Ijtimoiy tuzilish va jarayonlarning umumiy jihatlariga tegishli bo‘lgan nazariyaning tuzilishidan foydalanganimizda ham siyosiy tizimning kelib chiqishi va rivojlanishini tushunish borasidagi imkoniyatlarimiz xuddi shunday tarzda ortib boradi. Siyosiy madaniyatlar o‘rtasidagi ziddiyatlar madaniyatga xos boshqa ziddiyatlarga ko‘p jihatdan o‘xshash; siyosiy madaniyatga birlashish jarayonlariga umuman madaniy o‘zgarishlarning birlashtiruvchi va ajratuvchi tendensiyalari nuqtayi nazaridan qarasak, mazkur jarayonlar yanada tushunarliroq bo‘ladi.

Shunday qilib, siyosiy madaniyat jamiyat uchun ko‘proq xos bo‘lgan stereotiplar, siyosiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlar, an’analar va siyosiy xulq-atvor ramzlarining majmui bo‘lib, u siyosiy tizimni barqarorlashtiruvchi, ma’rifiylashtiruvchi omil vazifasini bajarish bilan birga, siyosiy an’analar, urf-odatlar, ijtimoiy va tarixiy tajribaning vorisiyligini ta’minlaydi.

Siyosiy madaniyatning o‘ziga xos jihati shundaki, u ommaning siyosiy ongi va siyosiy xulq-atvorini belgilaydi; jamiyat tabiiy-tarixiy rivojlanishi, jamoaviy siyosiy ijodning mahsuli; mamlakatdagi siyosiy jarayonning elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni namoyon etadi va siyosiy tajribani mustahkamlaydi.

1.2. SIYOSIY MADANIYAT KONSEPSIYALARI VA FUNKSIYALARI

1.2.1. Siyosiy madaniyatning hozirgi zamon konsepsiyalari

Hozirgi zamon siyosatshunoslik fani nazariyotchilari *siyosiy madaniyatning uchta darajasini tilga oladilar*:

- a) tafakkur qilish, anglash darajasi;
- b) fuqarolik darajasi;
- v) siyosiy daraja.

Bulardan xulosa shuki, *“Siyosiy madaniyat – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo‘lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyatidir”*¹. Davlat hokimiyati faoliyatida siyosiy madaniyatning muhim ko‘rsatkichi uning siyosiy boshqaruvda kuchga emas, balki adolat, ishonch va siyosiy vazminlik tamoyillariga tayanishida namoyon bo‘ladi.

G.Almond va S.Verba konsepsiyasiga ko‘ra, o‘rganilayotgan mamlakatlarning siyosiy madaniyati “fuqarolik madaniyati” deb nomlangan maxsus aralash madaniyatni o‘zida ifodalaydi. Fuqarolik madaniyatining xarakterli xususiyati fuqarolarning demokratik siyosiy tizimga mos keladigan oqilona va faol xatti-harakatidir. Empirik tadqiqot natijalari G. Almond va S. Verbaning nazariy taxminlariga sezilarli o‘zgarishlar kiritdi. Fuqarolarning siyosatda faol ishtiroki haqidagi taxminlar utopiya bo‘lib chiqdi. Bu olimlarning tahlilicha, “fuqarolik madaniyati” tushunchasining jamiyat hayotidagi afzalliklari quyidagilardan iborat edi²:

- 1) milliy hukumat faoliyatining shaxsan o‘zi foydasi uchun muhimligini umumiy ijobiy baholash va bu haqiqatni chuqur anglash;
- 2) hukumat faoliyatiga yuqori darajada qiziqish va bu sohadan yaxshi xabardorlik;
- 3) o‘z millatining siyosiy institutlaridan faxrlanish hissi;
- 4) faollikning mansabdor shaxslar tomonidan iliq kutib olinishi;

¹ Aliev B. Siyosatshunoslik: darslik. – T.: AdlB, 2014. – B. 223.

² O‘sha joyda. – B. 224.

5) siyosatga doir mavzularni do'stlar va tanishlar doirasida ochiq muhokama qilish istagi;

6) muxolifat hissiyotlarining ochiqqligi va sadoqatga yo'g'rilganligi;

7) milliy siyosiy tadbirlar, xususan, saylov kampaniyalarini o'tkazishdan qoniqish hosil qilinishi;

8) hukumat siyosati vazifalarini tushunish va o'zi yoki fuqarolar bilan birgalikda bu siyosatga yaxshi ta'sir ko'rsata bilish;

9) o'zboshimchalik aktlariga qarshi kurashish uchun qonunlarning mohiyatini tushunish;

10) demokratiya, qonun ustuvorligi davlat boshqaruvining zarur va muhim tizimi ekanligiga ishonish.

So'rov natijasida siyosiy madaniyatning bu "ideal modeli" so'ralgan beshta mamlakat fuqarolarining haqiqiy siyosiy pozitsiyalari quyidagicha bo'ldi: amerikalik 11%, ingliz 23%, nemis 17%, italiyalik 19%, meksikalikning 66% siyosatning o'z kundalik hayotlariga ta'sirini butunlay inkor etdilar. Rivojlangan mamlakatlardagi mavjud demokratik siyosiy tuzumga nisbatan bildirilgan salbiy munosabat uning barqaror va ijtimoiy samarali bo'lib qolishiga to'sqinlik qilmadi.

G. Almondning siyosiy madaniyat konsepsiyasini tanqid qilish va bu hodisaning asosan psixologik talqinidan norozi bo'lish siyosiy fanga ta'siridan xalos qilmadi. Olimlar "siyosatning pirovard sababi muayyan jamiyatning madaniy tizimidir, bu tushunchaning shakllanishi siyosiy fanga turtki beradi", degan fikrga keldilar.

G. Almond siyosiy madaniyatning tabiati va darajasiga qarab, to'rt turdagi siyosiy tizimlarni ajratdi:

1) Angliya-Amerika siyosiy tizimlari bir xil va sekulyativ siyosiy madaniyat bilan xarakterlanadi;

2) aralash siyosiy subkulturalardan tashkil topgan parchalangan siyosiy madaniyatga ega kontinental G'arbiy Yevropa tizimlari;

3) tabaqalashtirilgan siyosiy madaniyatlar bilan qisman sanoatlashgan davlatlarning siyosiy tizimlari;

4) bir xil siyosiy madaniyatga ega totalitar siyosiy tizimlar.

Shuni qayd etish kerakki, tarixiy taraqqiyot jarayonida siyosiy madaniyat tuzilishida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmagan. Shuning uchun ham biz "umuman" siyosiy madaniyatning emas, balki aynan hozirgi zamon siyosiy madaniyatining tuzilishini hech qanday ijtimoiy-siyosiy tuzumga bog'lamasdan ko'rib chiqamiz. Siyosiy madaniyatning mazmunini jamiyat a'zolari fuqarolar, ularning ijtimoiy guruhlar va tabaqalari, sinflar siyosiy madaniyati darajasining barcha ko'rsatkichlari bilan ham, jamiyatni yagona va bo'linmas vujud sifatida ta'riflovchi ko'rsatkichlar bilan ham tahlil qilish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

- jamiyat siyosiy tashkilotining xususiyati,
 - siyosiy institutlarning faoliyat ko'rsatish shakllari va usullari,
 - jamiyat siyosiy hayotida fuqarolar ishtiroki darajasi,
 - to'plangan ijtimoiy-siyosiy tajriba,
 - siyosiy an'ana va urf-odatlar,
 - ijtimoiy taraqqiyotda qo'llaniluvchi siyosiy g'oyalar, bilimlar, prinsiplar tizimi.
- Polshalik olim A. Bodnarning fikricha, umuman olganda, siyosiy madaniyat "siyosiy hayotning turli jihatlari haqidagi aniq va botiniy tasavvurlarning tarixan shakllangan majmui bo'lib, unga: a) siyosiy qadriyatlar; b) siyosiy normalar; v) siyosiy institutlar; g) siyosiy namunalar; d) individlar va ijtimoiy tabaqalarning siyosiy faoliyat usullari kiradi"¹.

Siyosiy madaniyat – chuqur tarixiy va ijtimoiy ildizlarga ega bo'lgan ko'p qirrali hodisa. Uning doirasida, oqilona munosabatlar va maqsadli harakatlar bilan bir qatorda, noratsional omillar bilan bog'liq hodisalar ham yuz beradi. Umuman, siyosiy madaniyat tuzilishiga yondashishning metodologik prinsipi unda ikkita katta bo'limni – substansional va funksional elementlarni ajratishni nazarda tutadi.

<i>"Siyosiy madaniyat" kategoriyasi darajalari</i>	
1.	Ommaning davlat siyosatini bilishi, tushunishi, o'zlashtirishi va hayotga tatbiq

¹ Nauka o politike. Podreznik akademicki / pod. redak. A.Bodnara. – Warszawa, 1988. –S. 186-187. (Internetdagi ruscha tarjimasidan foydalanildi).

	etishi;
2.	Fuqarolarning huquq va erkinliklari haqidagi bilim hamda undan foydalanish;
3	Siyosiy e'tiqod va onglikning teranligi;
4.	Siyosiy institutlarning rivojlanganligi;
5.	Mavjud siyosiy tizim, uning xalqchilligi va samaradorligi.

1-jadval. Siyosiy madaniyatning kategoriyalari¹.

“Siyosiy madaniyat – siyosiy hokimiyat va siyosiy hayotga bo‘lgan munosabat, uni idrok etishdagi siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyat madaniyati!”².

Yuqorida keltirilgan fikrlar va ta’riflarda siyosiy madaniyatning o‘ziga xos turli jihatlari o‘z ifodasini topgan. Ularga qo‘shilgan holda, ushbu tushunchaga qisqagina izoh berib o‘taylik:

birinchidan, siyosiy madaniyat jamiyat ma’naviyatining bir bo‘lagi;

ikkinchidan, davlat hokimiyati faoliyatida siyosiy madaniyatning amal qilishi siyosiy jarayonlarning ijobiy yo‘nalishda ketayotganligi belgisi;

uchinchidan, siyosiy madaniyat siyosiy jarayonlarda ishtirok qiladigan fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarni amaliy faoliyatda amal qilishini tashkil qila bilish ko‘rsatkichi.

Shu o‘rinda siyosiy madaniyatning asosiy elementlarini quyida keltirib o‘tmoqchimiz (2-jadval).

<i>Siyosiy madaniyat elementlari:</i>	
Siyosiy ong	siyosiy ong siyosiy jarayonlar haqidagi siyosiy tasavvurlar, qarashlar, ko‘nikmalar va bilimlar majmui.
Siyosiy tafakkur	davlat hokimiyati, uning faoliyat, maqsad va manfaatlari, o‘zaro ichki munosabatlarining bog‘lanishlari haqidagi real bilimlar.
Siyosiy mafkura	hokimiyatining siyosiy hayoti, siyosiy tizimi, turli siyosiy va ijtimoiy guruhlarining o‘rni, roli to‘g‘risidagi g‘oyalar, qarashlar hamda ularning siyosiy hokimiyatga intilishdagi maqsadlar faoliyati.
Siyosiy axloq	siyosiy dunyoqarash, siyosiy qadriyatlar, fuqarolarning

¹ Qarang.: Shegrsev V.A. Politicheskaya kultura: modeli i realnost. – M., 1990. – S. 31.

² Politologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: Abdulla Qodiriy, 2002. –B.178.

	xulq-atvori va ularning siyosiy institutlar bilan bo‘ladigan munosabatlari majmui.
Siyosiy xulq-atvor	siyosiy jarayonlarda ishtirok qiluvchi subyektlar ma’naviy-axloqiy darajalarining holati.
Siyosiy kayfiyat	siyosiy jarayonlarda qatnashayotgan subyektlarning ularni qay darajada anglab yetishi, tasavvur etishi va ularga nisbatan qarashlaridagi ruhiy holati.
Siyosiy tarixiy tajriba	davlat hokimiyatini shakllantirish, uni boshqarish va barqaror ishlashini ta’minlash, fuqarolar bilan ular o‘rtasidagi munosabatlarda barqaror muvozanatga erishish borasida yillar davomida to‘plangan faoliyatning natijasi.
Siyosiy immunitet	fuqarolar ongi va dunyoqarashida tashqaridan kirib keladigan hamda mamlakat ichkarisida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, uning xavfsizligiga tahdid soluvchi siyosiy kuchlar, yovuz va buzg‘unchi siyosiy oqimlarga va ularning g‘oyalariga qarshi tura oladigan siyosiy-ruhiy salohiyat.
Siyosiy qadriyatlar	davlat hokimiyati va fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi faoliyatlarida to‘plangan yutuqlari va ularning ana shu institutlarining bugungi, istiqboli uchun ahamiyatli bo‘lgan va ularga xizmat qiladigan siyosiy tajribaviy boyliklar yig‘indisi.

2-jadval. Siyosiy madaniyatning elementlari.

Ko‘rinib turibdiki, siyosiy madaniyat qadriyatlari o‘zaro uzviy bog‘langan tizimni tashkil etadi. Demokratiya, plyuralizm, fuqarolik jamiyati, inson huquq va erkinliklari – bular barcha fuqarolar u yoki bu darajada e’zozlaydigan asosiy qadriyatlardir.

Siyosiy madaniyat normalari. “Shaxslar va ijtimoiy guruhlarining psixik jarayonlari hamda xulq-atvor tarzini shakllantiruvchi, ijtimoiy jamoaning tarixiy tajribasini o‘zida mujassamlashtirgan, jamoa a’zolariga nisbatan imperativ, ijtimoiylashtirish va nazorat mexanizmlari majmui bilan ta’minlanadigan, nisbatan turg‘un (stereotip) namunalar”, deydi K. S. Saringulyan.

Madaniyat normalarini o‘zlashtirish jarayonida inson uning barcha shakllarini o‘ziga singdiradi va shu tariqa shaxsning ijtimoiy darajaga ko‘tarilishi sodir bo‘ladi. Jamiyat eskirgan madaniy normalar va stereotiplarga qarshi kurash olib borishi, ularning inson aqli va sezgisiga

ta'sirini to'xtatishga erishishi lozim. Madaniyat normasi hech qachon shaxsning rivojlanishiga befarq bo'la olmaydi, u shaxsga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy madaniyat qadriyatlari va normalarini hayotga singdirish, tatbiq etish, ya'ni muvaffaqiyatli siyosiy faoliyat olib borishga erishish uchun jamiyat ijtimoiy institutlarga ega bo'lishi lozim.

Siyosiy madaniyat institutlari. Ijtimoiy institut deganda, fuqarolarni uyushtirish, ularning ijtimoiy hayotini tartibga solishning barqaror shakllari tushuniladi.

Ijtimoiy institutlar ikki shaklda mavjud bo'ladi:

a) *tashkilotlar deb* davlat va uning idoralari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar, kasaba uyushmalari, madaniy-oqartuv muassasalari kabilar ijtimoiy institutlar anglashiladi;

b) *barqaror madaniy normalar majmui deb* nikoh, meros qoldirish, xususiy mulkdorlik, mehnat taqsimoti tushuniladi.

Siyosiy madaniyat normalari jamiyatimizning ijtimoiy institutlari vazifasini bajaradi, zero ular odamlar xulq-atvorini tartibga soladi. Siyosiy madaniyat institutlari boshqa ijtimoiy institutlardan ushbu hatlari bilan farqlanadi:

a) ijtimoiy guruhlar manfaatlari bilan bog'lanadi;

b) aholining ijtimoiy tabaqalariga ta'sir ko'rsatishga intiladi;

v) jamiyatni boshqarish, jamiyat hayoti barcha sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Siyosiy madaniyat – yaxlit hodisa, u ixtiyoriy tanlangan turli qismlarning oddiy majmui emas, balki ularning ma'lum tartibda pog'onama-pog'ona joylashuvi. Uning elementlari majmui yangi sifatni kasb etadi, aynan ana shu yangi sifat siyosiy madaniyatning mazmunini tashkil qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda siyosiy madaniyat deganda, faqat insonning bilim saviyasi hamda erishilgan onglilik va faollik darajasi haqida gap ketadi. Tushunchaga odamlar ma'naviy hayoti va faoliyatining siyosiy bilimlar, qarashlar, e'tiqodlar, ijtimoiy faollik xususiyati va siyosiy

faoliyat darajasini ifodalovchi g‘oyaviy qadriyatlar tizimini o‘z ichiga oluvchi alohida jihati, deb qaraladi.

Shaxsning siyosiy madaniyati tuzilishida uch asosiy funksional pog‘ona bo‘ladi:

birinchi pog‘ona shaxsning siyosiy bilimi va sezgilari, siyosiy qarashlari va moyilliklari hamda shakllangan siyosiy tafakkuri;

ikkinchi pog‘ona siyosiy bilimlarning real siyosiy harakatlarga aylanishini ta’riflovchi va buning mexanizmini aniqlovchi qismlar;

uchinchi pog‘ona uning amaliy tomoni – shaxsning ijtimoiy-siyosiy faolligi, siyosiy xulq-atvori va siyosiy faoliyati.

Polshalik sotsiolog A. Bodnarning fikricha, siyosiy madaniyat quyidagilarni o‘zida jamlaydi:

a) siyosatni, faktlarni bilish hamda ulardan manfaatdorlik;

b) siyosiy hodisalarni baholash, hokimiyat qanday amalga oshirilishi haqidagi baholovchi qarashlar;

v) siyosiy qarashlarning ehtirosiga oid tomoni, masalan, Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat;

g) u yoki bu vaziyatda qanday ish tutish lozimligini belgilovchi siyosiy xulq-atvor namunalarining jamiyatda e’tirof etilganligi.

Professor S. Otamuratovning fikricha, jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelishi barcha aholi, jumladan, yoshlar o‘rtasida ishsizlikning yuzaga kelishiga, shuning bilan birga, iqtisodiy ahvolining yomonlashuviga olib keladi. Har bir davlat yoshlarning talab-ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan davlat dasturiga ega bo‘lishi lozim. Agar bu davlat faoliyatida hisobga olinmas ekan, yoshlarning davlatga nisbatan ishonchi barbod bo‘ladi va bu jarayonning zimdan rivojlanib kelishi, kuni kelib birdan yuzaga qalqib chiqishiga olib keladi. Mana shu holat barqaror rivojlanib kelayotgan siyosiy madaniyatning yuzaga kelgan vaziyatni “yumshatish”ga kuchi yetmay qolishiga, uning o‘rniga siyosiy ongning keskin o‘sib ketishini tezlashtirib yuboradi¹.

¹ Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – T.: O‘zbekiston, 2015. – B. 71.

Bugungi kunda yoshlar siyosiy ongining shakllanishi va o‘shida *siyosiy partiyalar* yetakchi kuch hisoblanadi. Siyosiy fanlar doktori, professor M. Qirg‘izboyev “Siyosiy madaniyat qayoqdan paydo bo‘ladi”, degan savolni o‘rtaga qo‘yib, unga o‘zining javoblarini quyidagicha ifodalaydi: “Ko‘p o‘qigan va nazariy bilimlarni egallagan bilan insonda siyosiy madaniyat paydo bo‘lib qolmaydi. Kishilar o‘zlarini ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlari yoki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun amaliyotda ishtirok eta boshlagandagina ularda siyosiy madaniyat kurtak otib boradi. Bunday madaniyatni egallash faqat siyosiy partiyalar, manfaatlar guruhlar faoliyatida ishtirok etish orqaligina ro‘y beradi. Hech bir inson yakka o‘zi harakat qilib, o‘zining moddiy, siyosiy, huquqiy manfaatini yoki erkin fikrlash huquqini qo‘lga kiritolmaydi. Bu manfaat va huquqlar biron bir jamoat tashkiloti vositasidagina qondiriladi. Shu sababli ham siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlarining maqomi har bir demokratik davlatda yuqori darajaga ko‘tarilgan”¹. Olimning fikriga to‘liq qo‘shilamiz. Haqiqatan ham, ijtimoiy-siyosiy tadbirlar, siyosiy partiyalar faoliyatidagi ishtirok yoshlarning siyosiy bilimlari, imkoniyatlarini oshirish bilan birga, ularni faollikka undaydi.

Siyosiy madaniyatning ikki elementi alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, siyosiy fikrlash qobiliyati siyosiy voqealar va hodisalarni inson ongida aks ettiruvchi asosiy tushunchalarni bilishgina emas, balki ularni “o‘zlashtirish”, ularning ortida siyosiy hayotning real jarayonlarini ko‘rish va boshqara olish demakdir.

Ikkinchidan, siyosiy tafakkur qobiliyati dunyoni bilish usulini, ilmiy fikrlash usuli va dialektikani bilish hamda uni amalda qo‘llay olish demak. Asli, dialektik fikrlay oladigan shaxsgina siyosiy tafakkurga ega bo‘ladi.

Shunday qilib, siyosiy tafakkur siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shaxsning ijtimoiy voqelikni bilish usuli (vositasi) orqali namoyon bo‘lishini ifodalaydi. U bilimni real harakatga aylantirish

¹ Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. –T.: Yangi asr avlodi, 2013. –B. 387.

sohasidagi muhim qadam sifatida ijtimoiy-siyosiy bilimlar, doktrinalar, nazariyalar bilan qurollanadi.

Siyosiy madaniyatni o'zlashtirish uchun siyosiy axborot va bilimlarning soni emas, balki sifati muhim, deb o'ylaymiz. Hozirgi kunda deyarli har bir odam muayyan axborot va bilimlarni jamlovchi sohibga aylangan. Bu bilimlarni u bevosita siyosiy hodisalarga boy real hayotdan, uning ishtirokchisi yoki zamondoshi sifatida, qudratli ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, televideniye va Internet kompyuter tarmog'idan oladi.

Biroq, siyosiy madaniyat tarqoq bilimlar yig'indisi, deb qabul qilmaslik kerak. Unda voqelikni tartibli tushunish, voqea-hodisalar mohiyatini teran anglab yetish yo'li bilan olingan bilimlar mujassamlashadi. Shuning uchun ham siyosiy madaniyat siyosiy bilimlarni ifodalash madaniyati, ularning rivojlanish darajasi, bir tizimga solinganlik va anglab yetilganlik darajasini aks ettiradi, desak to'g'ri bo'ladi. Siyosiy madaniyat faqat o'tmishning ilg'or siyosiy tafakkuriga emas, balki jahon madaniyatining yutuqlariga asoslanadi.

1.2.2.Siyosiy madaniyatning funksiyalari

Falsafaga oid lug'atlarda *funksiya deganda, munosabatlar tizimidagi biron-bir obyekt xossalariining tashqi ifodasi tushuniladi.* Funksiya muayyan harakatni, faoliyat yuritishni va vazifani bajarishni anglatadi. Siyosiy madaniyatga tatbiqan gapiradigan bo'lsak, uning insonlar xulq-atvori hamda yurish-turishlariga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri ko'zda tutiladi.

Siyosiy madaniyatning funksiyalarini aynan shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqishga urinamiz. Madaniyatning funksiyalarini aniqlash uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini ko'rsatish demakdir. Siyosiy madaniyatning vazifalarini ikki nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin:

birinchidan, siyosiy madaniyat siyosiy faoliyatining takomillashuviga olib keladi;

ikkinchidan, siyosiy madaniyat shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi hamda uni har tomonlama takomiliga xizmat qiladi.

Amalda birinchi jihat shaxsning rivojlanishiga siyosiy faoliyatni takomillashtirish orqali bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchi jihatga kelsak, shaxsning shakllanishi va rivojlanishiga siyosiy madaniyatning bevosita ta'siri haqida gap boradi.

Siyosiy madaniyat – serqirra hodisa va u bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy-siyosiy funksiyalarni bajaradi. U har bir insonda o'z huquq va majburiyatlarining birligini har kuni ro'yobga chiqarishga intilishni tarbiyalaydi. Avvalo, fuqarolik huquqi, his-tuyg'usini tarbiyalash uning bosh vazifasiga aylanadi.

Siyosiy ong va siyosiy madaniyat o'zaro munosabatlarida muvozanatning amal qilishiga erishish davlat siyosiy faoliyatidagi muhim yo'nalishdir. Siyosiy ongning siyosiy madaniyatga nisbatan keskin ravishda o'sib ketishi bir tomondan mamlakat xavfsizligini ta'minlashda ijobiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan mamlakat ichki siyosiy hayotiga daxldor sohalarda salbiy rol o'ynashi mumkin. Shu bilan birga, siyosiy ongning siyosiy madaniyatga muvofiq yoki qariyb teng ravishda rivojlanishi har qanday siyosiy jarayonlar, siyosiy faoliyat maydoni uchun samarali kechadi. Ayni shu siyosiy jarayonlarda siyosiy madaniyat omili siyosiy ongni tartibga solib, mamlakat va xalq manfaatlari, tinchligi va barqarorligiga zid bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelmasligi oldini olishga yordam beradi. "Siyosiy madaniyat ijtimoiy ongning unsurlari va fenomenlarini, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-siyosiy institutlari va siyosiy jarayonlari bilan aloqador bo'lgan ma'naviy madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, u davlat hamda siyosiy institutlarning shakllanishiga, qizg'in faoliyati va taraqqiyotiga ham muhim ta'sir ko'rsatadi"¹.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, siyosiy madaniyat siyosiy ongga qaraganda mamlakatda barqaror taraqqiyotni ta'minlashda ko'proq yetakchilik qiladi.

<i>Siyosiy madaniyatning funksiyalari²</i>	
1. Siyosiy ongni	Siyosiy ongning jamiyatda mavjud turli manfaatlarni

¹ Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. T.: Yangi asr avlodi, 2013. –B. 379.

² Jadval falsafa fanlari doktori, professor S. Otamuratovning "Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari" kitobidagi tahlillarg suyanib tuzilgan.

tartibga solish	muvozanatda bo'lishida uning siyosiy madaniyat uyg'unlikda rivojlanishini ham bildiradi. Agar ular o'rtasidagi munosabatda uzilish yuzaga kelsa, bu eng avvalo, siyosiy madaniyatning sayozligi bilan bog'liq bo'ladi.
2.Milliy o'ziga xoslikni aks ettirish	Millatning o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyatlari va mentalitetlarini, xalqning asrlar davomida ajdodlari tomonidan milliy davlatchilikni shakllantirishdagi tajribalari, xususan, fuqarolar, ijtimoiy tabaqalar va siyosiy kuchlarning qonunlarga itoatkorligi, siyosiy elitaga nisbatan hurmat, siyosiy munozarali masalalarni bosiqlik, vazminlik, hamjihatlik bilan hal etishga moyillikning kuchliligi yoki ularning taqchilligi holatlarida namoyon bo'ladi.
3.Shaxslar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlar manfaatlarini muvozanatga keltirish	Bu funksiya amalda siyosiy jarayonlarning avj olishi sharoitida kechadi. Agar siyosiy ong yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, siyosiy beqarorlikning jamiyatda mavjud barcha insonlar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlar uchun xatarli ekanligi anglab yetiladi va unga vazminlik bilan munosabatda bo'lish vaziyati yuzaga keladi. Ammo yuzaga kelgan siyosiy beqarorlikni faqat siyosiy ongning yuksak darajada bo'lishi bilan hal etib bo'lmaydi, buning uchun, albatta, siyosiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi ham talab etiladi.
4.Siyosiy kuchlar siyosiy madaniyati va siyosiy maqsadlarining darajalarini aniqlash	Mazkur funksiyaning ma'nosi shundaki, siyosiy kuchlarning asosiy maqsadi davlat hokimiyatini qo'lga kiritish hisoblanadi. Ammo, uni qanday yo'l bilan qo'lga kiritish siyosiy madaniyatning darajalariga borib taqaladi. Agar siyosiy kuchlar davlat hokimiyatini qo'lga kiritishda dunyoda amal qiladigan demokratik qadriyatlarga tayansa, bu ular siyosiy madaniyatining barqaror rivojlanganligining ko'rsatkichi bo'ladi.
5.Tashqi tahdidlarga qarshi fuqarolarda siyosiy immunitetni shakllantirish	Bunday og'ir sharoitda fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirish va uning mamlakat xavfsizligiga bo'lgan ehtiyoj oshib boradi. Bu jarayonda harbiy qurollar emas, balki ko'zga ko'rinmas ma'naviy-ruhiy (g'oya, mafkura) quroldan foydalanilayotganligi bois, mamlakat aholisi,

	ayniqsa, yoshlar ijtimoiy guruhi ongi va qalbida siyosiy immunitetni shakllantirishda siyosiy madaniyatning amaliy ahamiyati kuchayadi.
6.Milliy va umum-insoniy manfaatlarni uyg'unlashtirish	Xalq va millatning o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohadagi manfaatlari barqaror bo'lishi dunyoda kechadigan jarayonlarga, xususan, XXI asr boshidan dunyo mamlakatlarini bir-biriga bog'lab qo'ygan globallashuv jarayonlari qanday kechishi va uning asoratlariga bog'liq kechadi. Bu xatarli va murakkab holatdan chiqishda milliy va umuminsoniy manfaatlarni uyg'unlashtirgan holda harakat qilishga o'rgatib boriladi.
7.Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy munosabatlar hamda hamkorliklarning rivojlanishi va takomillashuvi	Bu borada siyosiy hamkorlikni rivojlantirish, birgalikda mintaqa mamlakatlari va ularda yashayotgan xalqlarga katta xavf solayotgan ekstremizm, terrorizm, yovuz diniy oqimlar, narkotik moddalar tarqalishining oldini olish, odam savdosiga qarshi kurash, turli qurollarning yovuz kuchlar qo'liga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kabi umum manfaatlardan iborat bo'lgan muammolarni hal etishga ko'mak beradi. Siyosiy madaniyatning bu jarayondagi o'rni shundaki, uning rivojlanishi va davr taraqqiyotiga muvofiq takomillashuvi siyosiy ambitsiyalarning avj olinishiga, davlatlar, mintaqalarning manfaatlarini har qanday siyosiy "men"likni namoyish etishdan ustun qo'yishga, fuqarolararo va davlatlararo siyosiy vazminlik, o'zaro manfaatlarini hisobga olish muhitining rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

4-jadval. Siyosiy madaniyatning funksiyalari.

Shunday qilib, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, ularning rivojlanishi, tobora takomillashuvi fuqarolar, millatlar, xalqlar va davlatlardagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ularni bugungi yoshlar ongida rivojlantirishga alohida e'tibor berilishi mamlakatimiz kelajagini ta'minlaydi.

Siyosiy madaniyat – ijtimoiy faollikni shakllantirish va tarbiyalashning muhim vositasi. Uni o‘zlashtirish darajasiga qarab shaxs yoki guruhning ijtimoiy faolligi ortib boraveradi. Shaxs (guruh)ning ijtimoiy faolligi ijtimoiy faoliyat jarayonida va uning natijasida shaxsni (guruhni) qurshagan tabiiy va ijtimoiy muhitda amalga oshiriluvchi o‘zgarishlar, shuningdek mazkur shaxs (guruh) o‘zidagi o‘zgarishlarning xususiyati (ijtimoiy ahamiyati)ni va ko‘lamini ifodalovchi mezon bo‘ladi.

Ijtimoiy faollikni “faoliyat mezoniga” tenglashtirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Nazarimizda, ijtimoiy faollik ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo‘lib, u amaliy faoliyat jarayonida voqelikka aylanadi. Faol pozitsiyada shaxsning muayyan hayotiy vaziyatlardagi ijtimoiy faolligi namoyon bo‘ladi. Umuman, hayotga nisbatan shaxsning faol pozitsiyasi haqida gapiradigan bo‘lsak, bu holda hayotiy pozitsiya umuman ijtimoiy faollikka mos tushadi. Ammo biz odatda hayotning u yoki bu jihatlari, hodisalariga nisbatan faol hayotiy pozitsiya haqida gapiramiz. Pozitsiya hamisha muayyan munosabatdir.

Yoshlarda faol hayotiy pozitsiya deyilganda, quyidagilar nazarda tutiladi:

1. Shaxsning ma’lum izchil ijtimoiy harakatlarga tayyorligi, bu harakatlarni amalga oshirishga ichki e’tiqodining mavjudligi;

2. Jamiyatning rivojlanish qonunlari buzilishiga, barcha intizomni buzish hollariga, salbiy hodisalarga nisbatan shaxsning murosasizligi va salbiy hodisalarga qarshi kurashishga tayyorligi;

3. Shaxsning o‘zi bajarayotgan ish uchun yuksak ijtimoiy mas’uliyati;

4. Jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlari, deb bilishi;

5. Egalik hissining rivojlanganligi, jamoa ijtimoiy faoliyatining barcha jihatlari haqida qayg‘urish, o‘z ishi uchun mas’uliyat hissining qaror topganligi.

Bularning barchasi shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini tashkil etadi. Shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini, uning yuqorida sanab o‘tilgan jihatlari shakllantirish siyosiy madaniyat funksiyasidir.

Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat insonni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Zero, vatanparvarlik shaxsning faol hayotiy pozitsiyasini, jamiyat boyligini qoʻriqlash va uni koʻpaytirish haqida qaygʻurishni koʻzlaydi.

Vatanparvarlik tuygʻusi insonni Vatan ravnaqi yoʻlida mehnat qilish va izchil faoliyat yuritishga undaydi. Siyosiy madaniyat shaxsda mana shu jihatlarni tarbiyalaydi.

Bundan siyosiy madaniyatning yana bir funksiyasi kelib chiqadi, biz uni mafkuraviy funksiya, deb ataymiz. U odamlarda oʻzini oʻzi anglash, ijtimoiy hayot hodisalariga yondashishda qatʼiy pozitsiyaga ega boʻlish koʻnikmasini tarbiyalaydi.

Siyosiy madaniyatning tartibga solish funksiyasi:

1) oʻz guruhi, jamoasi va umuman, jamiyat ishlarini boshqarishga fuqarolarni jalb etish;

2) shaxsning kundalik xulq-atvorini tartibga solishni ado etadi.

Inson xulq-atvorini tartibga solish oʻz xulq-atvorini oʻzi tartibga solishga asoslanishi lozim. Jamiyatning har bir ongli fuqarosi siyosiy madaniyatda mana shunday oʻzini oʻzi tartibga solish imkoniyati mavjudligini koʻrib, uni oʻzlashtirishga harakat qiladi. U oʻzining ijtimoiy hayot sohasidagi qilmishlarini ularning siyosiy oqibatlari nuqtayi nazaridan oldindan oʻylab koʻradi va bu xulq-atvor tarzi siyosiy madaniyat normalariga qay darajada muvofiqligini hal qiladi. Siyosiy jihatdan madaniyatli odam aynan shunday yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu maʼnoda siyosiy madaniyat oʻzining boshqarish funksiyasini faqat jamoa, guruh miqyosida emas, balki shaxs darajasida ham bajaradi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy tajribani oʻtkazish funksiyasiga ega. Bu funksiyaga, birinchidan, oʻtgan avlodlar toʻplagan siyosiy tajribani yangi, hayotga kirib kelayotgan avlodlarga oʻtkazish, ikkinchidan, boshqa mamlakatlar va xalqlar bilan siyosiy tajribani oʻrtoqlashish kiradi.

Shuningdek, jamiyatning siyosiy hayotida ham bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Siyosiy madaniyat boʻlmagan yoki past darajada

bo'lgan jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash, siyosiy tizimning normal ishlashini va shaxsning siyosatda to'laonli ishtirok etishini ta'minlash qiyin kechadi.

Bulardan tashqari, hozirgi zamon siyosatshunosligida siyosiy madaniyatning quyidagi funksiyalari tilga olinadi¹ (5-jadvalga qarang):

<i>Siyosiy madaniyatning zamonaviy funksiyalari</i>		
1.	Aynan moslashtirish (identifikatsiya) ²	siyosiy madaniyat shaxsda jamiyatga, mamlakatga yoki ma'lum ijtimoiy guruhga mansublik hissini mustahkamlaydi, siyosat institutlari va mexanizmlari orqali shaxs, guruh va jamiyat manfaatlarini ro'yobga chiqarish vosita va usullarini aniqlashga yordam beradi;
2.	Yo'naltirish	shaxsning siyosiy hodisalarni ongli idrok etishini ta'minlaydi, unga siyosat sohasidagi o'z o'rni va imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish, o'z huquq va manfaatlarini muayyan siyosiy tizim doirasida muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarishga yordam beradi;
3.	Moslashtirish	shaxsning o'zgaruvchi siyosiy vaziyatga, yangi imkoniyatlarga, siyosiy faoliyatdagi u yoki bu cheklashlarga moslashuviga ko'maklashadi;
4.	Ijtimoiylashtirish	shaxs jamiyatning siyosiy madaniyatini o'zlashtirish jarayonida siyosatdagi o'z manfaatlarini himoya qilish imkonini beruvchi ko'nikmalar va vositalarga ega bo'ladi;
5.	Siyosiy hayotni barqarorlashtirish	aynan siyosiy madaniyat jamiyat a'zolarida mavjud siyosiy tizim va uning institutlariga nisbatan xayrixoh munosabatning shakllanishiga yordam beradi;
6.	Birlashtirish	jamiyatning turli tabaqalari va guruhlarini umumiy milliy g'oyalar, tasavvurlar va qadriyatlar asosida birlashtirish orqali davlat va jamiyatning mushtarakligini mustahkamlashga ko'maklashadi;

¹ Odilqoriyev X. T., G'oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat. – T.: IIV akademiyasi, 2004.– B. 58-59.

² Identifikatsiya – axborot tizimlaridan foydalangan holda, mijozning shaxsini tekshirish va tasdiqlash.

7.	Aloqalarni ta'minlash	davlat hokimiyati institutlari va boshqa siyosat subyektlari (siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va diniy harakatlar, ijtimoiy tabaqa va guruhlar) umumiy qadriyatlar va siyosatdagi "o'yin qoidalar" asosida, shuningdek umumiy tushunchalar va ramzlardan foydalanish hisobiga o'zaro hamkorligini ta'minlaydi;
8.	Jamiyatning siyosiy tizimi va siyosiy hayotini yangilash	siyosiy madaniyat doirasida shakllangan va qaror topgan jamiyatning siyosiy tuzilishini o'zgartirish haqidagi yangi g'oyalar yangi siyosiy institutlar, jarayonlar va mexanizmlarning yaratilishiga olib keladi (masalan, monarxning vakolatlarini konstitutsiyaviy cheklash, hokimiyatning taqsimlanishi, umumiy saylov huquqi g'oyalari va h.k.)
9.	Siyosiy tuzilishda va siyosiy hayotda vorisiylikni ta'minlash	siyosiy madaniyat bu natijaga yangi g'oyalarni avvalgi siyosiy tajriba bilan bog'lash orqali erishadi.

5-jadval. Siyosiy madaniyatning zamonaviy funksiyalari.

Siyosiy madaniyatning asosiy funksiyalari ana shulardan iborat. Jamiyat hayotida bularning hammasini siyosiy madaniyatgina o'z zimmasiga oladi. Ushbu funksiyalar tahlili ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qiladi.

Shuning uchun ham siyosiy madaniyatni faqat ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasi bilan bog'langanligi bilan cheklash mumkin emas, kasbi va mansabidan qat'i nazar, u har bir shaxsda namoyon bo'ladi.

Zotan, siyosiy madaniyat – har bir mamlakat fuqarosining ijtimoiy va ma'naviy qiyofasidir.

1.2.3. Siyosiy madaniyatni turkumlash

Barcha ijtimoiy hodisalar singari, siyosiy madaniyat ham turli asoslarga ko'ra turkumlanadi. *Siyosiy madaniyatning turkumlari* quyida jadvaldan o'rin olgan¹.

¹ Odilqoriyev X. T., G'oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat. – T.: IIV akademiyasi, 2004. –B. 77.

<i>Siyosiy madaniyatning turkumlari</i>		
1.	Siyosat subyektiga ko'ra:	- umuminsoniy; - xalq, etnos, sivilizatsiya; - milliy, mintaqaviy, submadaniyat; -ijtimoiy tabaqa (ishchilar, dehqonlar, elita, byurokratiya, ziyolilar, rahbarlar); - jins va yosh bilan bog'liq madaniyat, ijtimoiy-demografik, kasbiy, diniy va boshqa guruhlar; - shaxs siyosiy madaniyati.
2.	Siyosiy jarayonga ko'ra	- hokimiyat, boshqaruv; - siyosiy ishtirok etish; - siyosiy muxolifat siyosiy madaniyati.
3.	Hokimiyatni amalga oshirish shakllariga ko'ra:	- demokratik; - avtoritar; - totalitar; -o'tish tipiga xos siyosiy madaniyatlar.
4.	Siyosatda ishtirok etish xususiyatiga ko'ra:	-fuqaroviy, demokratik; -tabaalik; -qavmlar siyosiy madaniyati.
5.	Siyosiy tizimdagi o'rniga ko'ra:	-yetakchi yoki ergashuvchi siyosiy madaniyat (submadaniyat).
6.	Qamrab olish darajasiga ko'ra:	ommaviy yoki elitar siyosiy madaniyat.

6-jadval. Siyosiy madaniyatning turkumlari.

Siyosiy madaniyatlarni tavsiflash uchun G'arb mamlakatlari fanida siyosiy madaniyatlarni fuqarolarning o'zlari yashaydigan davlatni rivojlantirishning bo'lg'usi konsepsiyasini ma'qullashi yoki ma'qullamasligi nuqtayi nazaridan turkumlashga nisbatan o'ziga xos yondashuv shakllandi: qutblashgan siyosiy madaniyat va konsessual siyosiy madaniyat.

Birinchi tilga olingan siyosiy madaniyat tipini "Discordia", ikkinchisini esa "Concordia" deb belgilash qabul qilingan. Bu ikki siyosiy madaniyat tipi o'rtasidagi farq shundaki, "Concordia"da

markazlashishga moyil mo‘tadil kuchlar, “Discordia”da esa ashaddiy o‘ng va so‘l radikallar yetakchilik qiladi. “Discordia” quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) mojarolarni hal qilishning rasmiy va amaliy tartib-qoidalari mavjud emas;

2) ijtimoiy guruhlar o‘rtasida bir-biriga nisbatan qattiq ishonchsizlik bor;

3) hukumatlar beqaror va qisqa muddatli. Tabiiyki, turli qutblarda bo‘lgan siyosiy madaniyatlar, konsessual siyosiy madaniyatlardan farqli o‘laroq, beqaror va noturg‘un.

G. Almond va S. Verba “Fuqarolar madaniyati” asarida taklif qilgan siyosiy madaniyatni turkumlash usuli fanda alohida dovrug‘i qozongan, deyish mumkin. Ikki olim Angliya, Italiya, GFR, AQSh va Meksika siyosiy tizimlarining asosiy qismlari va faoliyat shakllarini tahlil qilib va taqqoslab, siyosiy madaniyatning uch “sof” turini ajratishgan:

a) fuqarolar siyosiy hayotga qiziqmaydigan patriarxal;

b) siyosiy institutlarning ahamiyati beqiyos va fuqarolarning faolligi past bo‘lgan tabaalik;

v) fuqarolar siyosatda ishtirok etishdan va bunda faollik ko‘rsatishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beruvchi jo‘shqin.

Mualliflar siyosiy madaniyatning mazkur turlari amalda o‘zaro aloqada bo‘lib, u yoki bu qismlar yetakchilik qiluvchi aralash shakllarni hosil qilishini qayd etganlar.

Siyosiy madaniyat siyosiy submadaniyatlar miqyosida ham turkumlanadi. *Siyosiy submadaniyatlar deganda, boshqa ijtimoiy obyektlar, umuman, millatdan farq qiluvchi ijtimoiy tabaqalar va guruhlar uchun xos bo‘lgan siyosiy qarashlar va xulq-atvor modellarining tizimlari tushuniladi.*

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-etnik, institutsiyaviy, ijtimoiy-hududiy turlanishi siyosiy submadaniyatni vujudga keltiradi. Shu bois, an’anaga ko‘ra, elita, o‘rta sinf va quyi (marginal) qatlamlarning siyosiy-madaniy xususiyatlari ajratiladi. Shunga qaramay,

siyosatshunoslar submadaniyatning o‘ziga xos xususiyatlari majmuini ajratishga harakat qiladilar.

Amerikalik olim D. Elazarniڭ fikricha, Amerika siyosiy madaniyati uch siyosiy submadaniyat: “individualistik”, “moralistik” va “traditsionalistik” siyosiy madaniyatlar sintezi bo‘lib, ularning har biri butun Amerika siyosiy madaniyatining asoslari – “bozor maydoni” va “hamdo‘stlik” konsepsiyalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

“Siyosiy submadaniyat” tushunchasi siyosatshunoslik faniga G. Almond va S. Verba g‘oyalari ta’siridagi olimlar tomonidan kiritildi. Ma’lum (siyosiy, kasbiy, etnik, diniy va boshqa) guruhning siyosiy qarashlari va qadriyatlari jamiyatdagi ko‘pchilikning siyosiy madaniyati negizini tashkil etuvchi normalar, qadriyatlar va tasavvurlardan jiddiy farq qilgan holda siyosiy submadaniyat shakllanadi. Jahonda umummilliy siyosiy madaniyat umuman bo‘lmagan mamlakatlar ham bo‘lib, ularda submadaniyatni ajratish mumkin emas. Misol uchun, buni turli qabilalar va elatlararo ziddiyat uzoq muddatli mojaro va hatto urushlarga olib kelgan Afrika qit’asidagi ko‘pgina davlatlar misolida ko‘rish mumkin. Odatda, mamlakatning ma’lum qismi (mintaqasi)da yashovchi aholi siyosiy submadaniyat ifodachisi bo‘ladi. Masalan, Kanadaning Kvebek provinsiyasi, AQShning Luiziana shtati fransuz zabon aholisi va h.k.

Shu bilan birga, hududiy belgiga qarab emas, balki diniy, ijtimoiy-maishiy yoki jinsiy-yosh belgilariga qarab shakllangan hamda davlatlarning turli mintaqalarida tarqalgan submadaniyatlar ham mavjud. Jumladan, ko‘pgina radikal g‘oyalarga bog‘langan va G‘arbning ayrim mamlakatlarida 1960-yillarda tarqalgan yoshlar submadaniyati.

Jamiyatda submadaniyatlarning mavjudligi normal va tabiiy hodisadir. Buni quyidagicha izohlash mumkin:

1) ma’lum submadaniyatning qadriyatlari va normalari umummilliy madaniyat qadriyatlari bilan ayovsiz kurashib, hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyatga kirishmasa;

2) submadaniyatni ifodalovchi guruh boshqa guruhlarning submadaniyat va qadriyatlariga nisbatan bag'rikenglik va hurmat ko'rsatsa;

3) jamiyat va umummilliy madaniyat doirasida turli submadaniyat vakillari tayanuvchi umumiy qadriyatlar va normalar mavjud bo'lsa (masalan, demokratik institutlarga, inson huquq va erkinliklariga, qonun ustuvorligiga nisbatan hurmat).

Mazkur shartlarning bajarilishi jamiyatda barqarorlikni saqlash va jamiyat a'zolarining totuvligini ta'minlash imkonini beradi. Jamiyat hududiy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnik, yoshi va diniy belgilarga ko'ra farq qiluvchi birliklardan tarkib topadi. Binobarin, siyosiy madaniyat ham bir turli bo'lmaydi. Shu bois, siyosatshunoslikda siyosiy submadaniyatlarning alohida tiplari haqida so'z yuritiladi.

Iqlim va tabiiy resurslar mamlakatning turli mintaqalarida har xil bo'lishi ham iqtisodiy tafovutlarni, odamlar turmush sharoitlari va darajasini, shuningdek siyosiy madaniyatning darajasini ham belgilashi mumkin. Mintaqaviy submadaniyat mana shu omillarga, xususan, iqtisodiy yo'nalishga bog'liq.

Aholining etnik guruhleri siyosiy madaniyatiga milliy o'zlikni anglash, til va an'analar ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday etnolingvistik submadaniyatlarda milliy, etnik qadriyatlar va manfaatlar siyosiy qadriyatlar va manfaatlardan ustunlik qiladi. Siyosiy madaniyat hodisasini ko'rib chiqar ekanmiz, O'zbekiston siyosiy madaniyatining o'ziga xos jihatlariga alohida e'tibor qaratamiz. Bu madaniyatning xususiyatini ko'p jihatdan respublikaning milliy rivojlanish yo'nalishlari belgilab beradi. Mamlakatimiz ko'p asrlik tarixi davomida o'ziga xos siyosiy madaniyat shakllandi.

Bu jarayon quyidagi omillar ta'sirida sodir bo'ldi:

1) respublikaning o'ziga xos jug'rofiy-siyosiy o'rni, o'tmishda o'lkamizga qilingan bosqinchilik urushlari, uzluksiz urush tahdidi yoki mustamlaka zulmi natijasida siyosiy ongimiz g'arbdagiga nisbatan o'zgacha shakllandi;

2) islom dini kuchli an'analar va madaniyati ta'sirida jamoaviy turmush tarzi va shakllari ko'proq rivojlandi;

3) mustabid sho'ro tuzumi davrida ma'muriy-buyruqbozlik tazyiqi va cheklovlarning natijasi o'laroq, jamiyat kundalik turmush muammolarini hal qilishda o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tartibga solishu qadar rivoj topmadi.

O'z navbatida, urush va boshqa favqulodda holatlar paytida tahdidni bartaraf etish uchun milliy jipslashish va kuchlarni safarbar etish qobiliyati to'liq shakllanganini aytib o'tish lozim. Vatan himoyasi uchun safarbarlik tuyg'usi, ayniqsa, Toshkent shahrida 1999-yil 16-fevralda yuz bergan terrorchilik harakatlari, 2000-yilda Surxondaryo va Toshkent viloyatlari chegaralarini buzishga uringan terrorchi jangarilar bedodliklar sodir etganda, 2004-yil 28-30-martda Toshkent shahri va Buxoro viloyatida mudhish terrorchilik harakatlari yuz bergan chog'larda yaqqol namoyon bo'ldi.

Ijtimoiy-siyosiy omillar siyosiy madaniyatning ushbu xususiyatlarini namoyon qildi:

birinchidan, shaxs manfaatlari bilan jamiyat va davlat manfaatlari hamohangligi;

ikkinchidan, ijtimoiy muammolarni hal qilishda davlat va jamiyatning hal qiluvchilik rolining e'tirof etilganligi;

uchinchidan, davlat hokimiyatiga an'anaviy hurmat munosabati mavjudligi, rahbarlarning ma'naviy qiyofasiga yuksak talablar qo'yilganligi;

to'rtinchidan, parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi rolga munosabatning mavjudligi;

beshinchidan, siyosiy partiyalarning vakillari g'oya va prinsiplarining to'g'riligiga ishonchning paydo bo'layotganligi.

Ana shu omillar tahlili asosida yurtimizda siyosiy madaniyat tinchlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim omiliga aylanganligiga guvoh bo'lamiz.

G. Almond va S. Verba “Fuqarolar madaniyati” kitobida bir qator mamlakatlarning siyosiy tizimlarini tahlildan o‘tkazib va taqqoslab, *siyosiy madaniyat uchta “sof” tipini ajratib ko‘rsatganlar*¹.

1. *“Paroxial” siyosiy madaniyat (parochial culture)* ba’zan an’anaviy, patriarxal deb ataladi). Bu tip aholining siyosiy tizimdan butkul uzilib qolganligi, u haqda hech qanday bilimga ega emasligi bilan ajralib turadi. Bunday jamiyatda asosiy “aktorlar” (ishtirokchi dohiylar, shomonlar va boshqalar) siyosiy, iqtisodiy va diniy funksiyalarni baravar bajaradi. Bundan tashqari, aholining siyosiy, iqtisodiy va diniy yo‘nalishlari tabaqalashtirilmaydi, hududiy va ijtimoiy-madaniy aynanlashtirish ustunlik qiladi: shaxs o‘zini, avvalambor, mahalliy jamoa (qavm, qishloq)ning bir qismi, deb biladi.

Paroxial madaniyat sohiblari siyosiy tizimdan najot kutmaydi. Jumladan, Afrikaning markazlashgan qabila va knyazliklarida siyosiy madaniyat asosan paroxial (an’anaviy) bo‘lib, bu jamiyatlarda biron-bir ixtisoslashgan siyosiy rollarning rivojlanishi nisbatan tabaqalashgan siyosiy yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Hatto yirik va tabaqalashgan siyosiy tizimlarning negizida ham paroxial madaniyat yotadi.

Tabaqalashgan siyosiy tizimlarda paroxial madaniyat o‘zini o‘zi anglash bilan izohlanuvchi oddiy madaniyatdan ko‘ra ko‘proq normativ bo‘ladi. Masalan, Nigeriya yoki Gana qabilalarida yashovchi odamlar markaziy siyosiy tizimning mavjudligini g‘ira-shira anglashadi. Mavjud tizimga nisbatan ularning his-tuyg‘ulari noaniq yoki salbiy bo‘lib, o‘zaro munosabat shakllarini idrok etmaydilar.

2. *“Tabaalik” siyosiy madaniyati (subject culture).* Siyosiy madaniyatning bu tipiga passiv siyosiy xulq-atvor, hukmron rasmiy qadriyatlar va normalarga tayanish, qadriyatlarni mustaqil tushunib yetishga intilishning yo‘qligi xos bo‘ladi. Odamlarda siyosiy tizimga nisbatan boqimandalik – paternalistik munosabat ustunlik qiladi: jamiyat a‘zolari siyosiy tizimdan ne‘matlar kutadi yoki turli jazodan qo‘rqadi.

¹ O‘sha joyda. –B. 82-83.

3. *Ishtirokchilik siyosiy madaniyati (participant culture) yoki faol siyosiy madaniyat*. Ushbu tipda siyosiy hayotda individlarning faol ishtirok etishi xosdir. Bu ishtirokchilik fuqarolarning siyosiy jihatdan savodliligi va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga o'z ishtiroki bilan ta'sir ko'rsata olishiga bo'lgan ishonchiga asoslanadi. Bunday jamiyatlar yuksak darajada funksional tabaqalashganligi bilan ajralib turadi: jamiyat hayotining turli sohalari erkin, "kichik tizimlar" ham ancha rivojlangan va keng tarmoq otgan bo'ladi.

1.3. SIYOSIY MADANIYAT TALQINLARI

1.3.1. G'arb olimlari siyosiy madaniyat haqida

Taniqli olimlar G. Almond va S. Verba o'z metodologiyasi asosida siyosiy madaniyatning uch aralash tipi – provinsialistik-tabaalik, tabaalik-partisipator va provinsialistik-partisipatorni ajratadilar¹.

Birinchi aralash tipning xususiyati shundaki, "aholining katta qismi qabila, qishloq yoki feodal hokimiyatning da'volarini rad etib, ixtisoslashgan markaziy hukumat tuzilmalariga ega bo'lgan murakkab siyosiy tizimga nisbatan xayrixohlik bildiradi". Bu – yagona markazlashgan davlatga o'tish davri uchun xos bo'lgan madaniyat tipi.

Tabaalik-partisipator madaniyat tipida jamiyatning katta qismida siyosiy tizim elementlariga nisbatan "ixtisoslashgan munosabat" hamda "faol o'zini o'zi yo'naltirish" vujudga keladi. Ammo aholining ma'lum qismi avtoritar hukumat tuzilmasiga tayanishda va passiv o'zini o'zi yo'naltirish tizimiga amal qilishda davom etadi.

Provinsialistik-partisipator tipdagi siyosiy madaniyat ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarga xos. Ularda asosiy masala siyosiy hayotda fuqarolarning faol ishtirok etishini ta'minlashdir. Tipologiyaning afzalligi shundaki, u subyektning siyosiy institutlarga munosabati va siyosiy faolligi tarixiy rivojlanish jarayonida ijobiy tomonga o'zgarib borayotganini kuzatib boradi.

Ammo bu konsepsiya kamchilikdan xoli emas: fuqarolar madaniyatining modeliga faqat demokratik tizimlarga u yoki bu

¹ O'sha joyda. – B. 84.

darajada xos model deb emas, “etalon model” deb qarashadi. Bundan tashqari, mazkur yondashuvda individlar va *ijtimoiy guruhlarining siyosiy xulq-atvori* e’tibordan chetda qoladi.

Shuning uchun g‘arb olimlari muhim xulosani chiqargan: “Fuqarolar madaniyati, bu – aralash siyosiy madaniyat. Uning doirasida ko‘pgina fuqarolar siyosatda faol bo‘lishsa-da, ammo boshqa fuqarolar nisbatan passiv “tabaalar” rolini o‘ynaydi. Bundan tashqari, hatto fuqarolik rolining faol ijrochilarida ham ayrim tabaalik xislatlari saqlanib qoladi”¹.

G. Almond siyosiy madaniyatning boshqa bir tipologiyasini ham taklif qiladi, aniqrog‘i, uning qo‘shimcha mezon (kelishuvning mavjudligi yoki mavjud emasligi)ga asoslangan ikki “qarama-qarshi” tipini ajratdi. Bu mezonga asosan siyosiy madaniyatlarni qarama-qarshi va kelishuvga asoslangan tiplarga ajratiladi (ko‘pgina milliy madaniyatlarni qarama-qarshi tipdan kelishuvga asoslangan tipga qarab ketgan o‘q chizig‘ida joylashtirish mumkin). Qarama-qarshi siyosiy madaniyatda o‘ta o‘ng va so‘l radikal qarashlar ustunlik qiladi. Mo‘tadillik aholining faqat 25 % ga, radikalizm esa qariyb 45 % ga xos bo‘ladi. Rivojlanishning ustuvor qadriyatlari yuzasidan ham kelishuvga erishish qiyin kechadi. Konsensusli siyosiy madaniyat ko‘pchilikning kelishuviga asoslanadi. Unda markazchilik, mo‘tadil qarashlar ustunlik qiladi (taxminan 55 %), fuqarolarning atigi 10 % radikal munosabatda bo‘ladi.

Hozirgi kunda g‘arb mamlakatlarida kelishuvning mavjudligi yoki mavjud emasligi mezonni keng tarqalgan bo‘lib, yaxshi natijalar bermoqda. Shu bilan birga, siyosiy qarashlarning har xil majmuini ajratishga asoslangan tipologik sxema ham yanada rivojlangan.

*G‘arb olimlari siyosiy madaniyatni gomogen, parchalangan, aralash va totalitar tiplarga ajratib o‘rganishadi*²:

¹ Qarang: Antologiya mirovoy politicheskoy misli. V 5-ti tomax. T. 2. Zarubejnaya politicheskaya misl XX v. – M., 1997. – S. 601.

² Odilqoriyev X. T., G‘oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat. – T.: IIV akademiyasi, 2004. –B. 85-86.

1) *liberal-demokratik tizim* hukm suruvchi anglosakson mamlakatlaridagi gomogen tipga jamiyatda har xil, ammo tinch-totuv yashovchi, bir-birini to'ldiruvchi fikrlar va qarashlar (plyuralizm)ning mavjudligi, siyosiy mojaro va nizolar huquq normalari asosida hamda mojaroda ishtirok etuvchi barcha tomonlarning manfaatlaridan kelib chiqib tinch yo'l bilan hal qilish ustun turadi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ko'pchilik mavjud siyosiy tizimni, uning institutlari va mexanizmlarini qabul qiladi;

2) *parchalangan siyosiy madaniyat* tipi jamiyatda har xil ziddiyatli qarashlar va g'oyalar bo'lsa-da, siyosiy tuzum asosiy prinsiplari va siyosiy xulq-atvor qoidalariga nisbatan kelishuv bo'lmaganligidan siyosiy tuzumni kuch ishlatish yo'li bilan ag'darishni xohlovchi nufuzli kuchlar uchraydi. Bu siyosiy madaniyat tipi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan yaxshi rivojlanmagan, milliy, diniy, madaniy va siyosiy belgilarga ko'ra, bir-biriga dushman guruhlariga parchalangan mamlakat va jamiyatlar ("Uchinchi dunyo" mamlakatlari)ga xos;

3) *siyosiy madaniyatning aralash tipi* gomogen va parchalangan tiplarini o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni ba'zi masalalarda jamiyatda kelishuv bo'ladi, ammo ayrim masalalar bo'yicha kuchli ziddiyat saqlanib qoladi. Masalan, G'arbdagi ba'zi bir rivojlangan va ko'p millatli Kanada, Buyuk Britaniya, Belgiyada ijtimoiy-iqtisodiy modelga nisbatan kelishuv bo'lsa-da, millatlararo munosabatlarda ziddiyat va keskinlik saqlanib qolmoqda;

4) *siyosiy madaniyatning totalitar* tipiga jamiyatda jamoachilik kayfiyati va qarashlarning ustunlik qilishi, boshqacha fikrlovchilarga nisbatan murosasizlik, "umumxalq" manfaatlaridan farqli shaxsiy va jamoaviy fikrlar, manfaatlarni tan olmaslik, cheksiz darajada kuchli davlat hokimiyatiga sig'inish, mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish, jamiyatni jipslashtirish, safarbar etish maqsadida ichki va tashqi dushmanlarni izlash hamda umumxalq nafratini ularga yo'naltirish ko'zga tashlanadi. Bular, albatta, totalitar va qisman avtoritar tuzumlarda uchraydi.

Gollandiyalik olimlar F. Xyunks va F. Xikspurs 1990-yillarning oʻrtalarida siyosiy madaniyat tipologiyasini takomillashtirib, ushbu xulosaga keldilar¹:

1. *Fuqarolar ishtirokchilik madaniyati (civil participant culture)*,
2. *Klientelistik madaniyat (client culture)*,
3. *Protest madaniyati (protest culture)*,
4. *Avtonom madaniyat (autonomus culture)*,
5. *Kuzatuvchilar madaniyati (spectator culture)*.

Siyosiy madaniyatni tiplarga ajratishning klassik sxemasidan kelib chiqib, F. Xyunks va F. Xikspurs mazkur hodisani oʻlchash koʻrsatkichlarining majmuini taklif qildilar. Shaxslarning siyosatga qiziqishi darajasini ular siyosiy tizimga munosabatning koʻrsatkichi, deb qaradilar. Tizimning “mahsuli”ga nisbatan munosabat koʻrsatkichi sifatida davlat institutlari va boshqaruv apparatiga ishonch darajasini olishdi. Siyosatda shaxsan ishtirok etish imkoniyatini baholash oʻz siyosiy bilimdonligiga munosabat koʻrsatkichi boʻlib xizmat qildi.

Nemis sotsiologi N. Lumanning tarixiy davriylashtirish usuliga koʻra, siyosiy madaniyat quyidagi tiplarga ajratildi:

- oddiy yoki taraqqiy etgan segmentar jamiyatning siyosiy madaniyati;
- stratifikatsiyalashgan jamiyat siyosiy madaniyati;
- hozirgi zamon funksional tabaqalashgan jamiyatning siyosiy madaniyati.

Tabaqalashtirishning navbatdagi shakli oʻzaro teng birliklar (oilalar, qavmlar)ning tashkil topishi emas, balki teng boʻlmagan ijtimoiy tabaqalar – dehqonlar, shaharliklar, dvoryanlar va boshqalarning tafovut etilishi, deb koʻrsatildi.

Siyosiy madaniyatning jamiyat va individlarning tabaqalashish darajasiga qarab qismlarga ajratishga asoslangan hamda zamonaviylik gʻoyasiga tayanuvchi tipologik modeli istiqbolli boʻlib chiqdi.

¹ Oʻsha joyda.

Siyosiy madaniyatni parchalanish va birlashtirish darajasiga qarab farqlashni taklif qilgan U. Rozenbaum tipologiyasining mazmuni ham alohida o'rganiladi.

Parchalangan madaniyatga jamiyatning tarqoqligi xos, unda asosiy ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'rtasida kelishuv bo'lmaydi va davlat manfaatlaridan mahalliy manfaatlar ustun turadi.

Birlashgan siyosiy madaniyatda esa, milliy kelishuv, siyosiy tuzumga va mojarolarni hal qilish tartiblariga jamiyatning xayrixoh munosabati saqlanadi. Umuman olganda, har qanday siyosiy madaniyat milliy kelishuvning u yoki bu tipini ta'minlay oladi.

Siyosatshunoslar Amerika siyosiy madaniyatini – oqilona kelishuvga asoslangan, Buyuk Britaniyanikini – an'anaviy-kelishuvli, Germaniyanikini – davlat ustunligiga asoslangan tabaalik siyosiy madaniyati, deb ta'riflashadi¹.

Polshalik sotsiolog Ye. Vyatr muqobil yangi tipologiyani taklif qildi. Siyosiy madaniyatlarning siyosiy tizimlar va ular negizida yotgan ijtimoiy-siyosiy tuzumlar bilan aloqasini asos qilib olib, *u siyosiy madaniyatni quyidagi uch asosiy turga ajratdi:*

- 1. An'anaviy siyosiy madaniyat;*
- 2. Burjua-demokratik siyosiy madaniyati;*
- 3. Ijtimoiy demokratiya siyosiy madaniyati.*

So'ng ularni kichik turlarga ajratdi:

- tabaqalar demokratiyasi siyosiy madaniyati;
- avtokratik siyosiy madaniyat;
- qadimdan saqlanib qolgan avtokratik siyosiy madaniyat.

Bunda burjua-demokratik siyosiy madaniyati konservativ-liberal yo liberal-demokratik shaklga ega bo'ladi.

E Vyatrning fikricha, *avtoritar siyosiy madaniyat* fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini rivojlantirishni nazarda tutuvchi "kuchli hokimiyat"ni ideal deb e'tirof etadi, ammo odamlarni siyosiy hayotda faol ishtirok etishga yo'naltirmaydi.

¹ O'sha joyda. – B. 87.

Totalitar siyosiy madaniyat rahbar va kuchli hokimiyatni rahbar tomonidan belgilangan prinsiplarga muvofiq fuqarolarni siyosiy hayotda ishtirok etishga faol jalb qilish bilan birlashtiradi¹. Bu sharoitlarda fuqarolarning sirtidan siyosiy faolligi o'z fikrini ifodalash demokratik erkinligini bildirmaydi. E. Vyatr tipologiyasining bir qator qoidalari amerikalik olimlar konsepsiyasini to'ldiradi. Ammo unda bahsli o'rinlar yo'q emas. Jumladan, "ijtimoiy demokratiya siyosiy madaniyati" haqida gapirishga hali erta. Bizningcha, SSSR va Sharqiy Yevropa mamlakatlarining yaqin o'tmishiga tatbiqan "ma'muriy-buyruqbozlik ijtimoizmi siyosiy madaniyati" atamasi qo'llansa, to'g'riroq bo'ladi. Universal ma'rifiy hodisa sifatida davlat va bozorning ta'sirini e'tiborga oluvchi hamda *bozor iqtisodi siyosiy madaniyati va etatistik siyosiy madaniyat* haqida gapirish imkonini beruvchi hodisani o'rganishga nisbatan yondashuv ham e'tiborga molik.

Bozor iqtisodi fuqarolarni siyosiy jarayonlar va hodisalarni, siyosiy faoliyat mahsullarini erkin, plyuralistik almashish, M. Dyuverje ta'biri bilan aytganda, "barcha fuqarolarni jamiyatga birlashtirish va adolatli davlat qurish" vositasi, deb tushunishga yo'naltiradi. Bunda raqobatga asoslangan kurash jamiyat faoliyati va rivojlanishining universal prinsipi, deb tushuniladi.

Etatistik madaniyat tipi siyosiy jarayonlar davlat tomonidan qattiq tartibga solish sharoitlarida kechishi va rivojlanishini nazarda tutadi, bunda davlat, sinf yoki bir partiya manfaatlari boshqa tabaqa va tashkilotlarning manfaatlaridan ustun qo'yiladi, raqobatga asoslangan kurash va ijtimoiy mojarolar zarur holda kuch ishlatish yo'li bilan tartibga solinadi.

Shu bilan birga, siyosiy madaniyatning juda ko'p tiplari, mintaqaviy va milliy turlarini qayd etib o'tish lozim. Siyosiy madaniyatning G'arbiy Yevropa, Yaqin Sharq, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi va Markaziy Osiyoda bir xilda qo'llanadigan universal modelini ko'rsatishning iloji yo'q. Ammo mavjud siyosiy

¹Vyatr Y. Sotsiologiya politicheskix otnosheniy. – M., 1979. – S. 268

madaniyatlarning yutuqlaridan har qanday jamiyat foydalana olishi, ularni nazariy jihatdan o'rganishi galdagi vazifalardandir.

Bulardan tashqari, siyosiy tizimning tipiga qarab totalitar, avtoritar va demokratik madaniyatlar ham bo'ladi.

Totalitar siyosiy madaniyatda quyidagi belgilar yetakchilik qiladi:

- dunyoni dixotomik nuqtayi nazardan idrok etish. Bu “o'z odamlari”ni “begonalar”ga qarshi qo'yishda namoyon bo'ladi. Boshqa sinflar, millatlar, irqalar va g'oyaviy muholiflar “begonalar” jumlasiga kiritiladi hamda “begonalar”ga dushman, deb qaraladi;

- boshqacha fikrga, turmush tarziga nisbatan bag'rikenglik (tolerantlik) ko'rsatilmaydi;

- kelishish imkoniyati inkor qilinadi va mojarolarni kuch ishlatish yo'li bilan hal qilishga tayaniladi;

- dohiylarni ilohiylashtirish, ularning shaxsiga sig'inish kuchaytiriladi. Bunda omma ongida “dohiy” tirik odam xususiyatini yo'qotadi va ramziy ma'no kasb etadi;

- jamiyat ongida miflar, masalan, kommunizm yoki irqiy “jannat” haqidagi miflar yetakchilik qiladi; hokimiyat g'oyalarga mutaassiblik bilan xizmat qilishadi, hokimiyat bilan birdamlik hissi kuchayib boradi.

Avtoritar madaniyatda hokimiyat faol qo'llab-quvvatlanmaydi va o'z qadr-qimmatini yo'qotadi. Bunday madaniyat negizida aholining patriarxal yoki tabaalik qarashlari yotadi.

Demokratik siyosiy madaniyatda:

- *boshqacha qarashlarga nisbatan bag'rikenglik*, boshqacha fikrlovchilarning o'z qarashlarini himoya qilish huquqini e'tirof etish;

- *mojarolarni hal qilishning asosiy vositasi sifatida murosaga kelish yo'llarini izlash;*

- *asosiy liberal qadriyatlar: shaxs erkinligi, shaxs huquqlarining daxlsizligini tan olish yetakchilik qiladi..*

1.3.2. Siyosiy va huquqiy madaniyatning aloqadorligi

Siyosiy madaniyat madaniyatning barcha turlari, ayniqsa huquqiy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Quyida shu masalaga batafsil to‘xtalamiz.

Professor U. Tadjixanov, akademik A. Saidovlar talqiniga ko‘ra, jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ong, qonuniylik, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turidir. Shaxsning huquqiy madaniyati esa jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy qismi. Shaxsning huquqiy madaniyati – jamiyat huquqiy madaniyatning zaruriy shart-sharoiti va ilk bunyodkori, uning maqsadi va tarkibiy qismidir¹.

Huquqiy madaniyatga qisqacha shunday ta’rif berish mumkin: *huquqiy madaniyat – odamlarning huquqiy munosabatlari sohasidagi ijtimoiy ahamiyatga molik ijodiy faoliyat shakllaridan biri*. U huquq normalari, institutlarida va mazkur hodisalarni baholash qobiliyatida o‘z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat shaxsiy e’tiqodlarga emas, balki qonunga asoslanib harakat qilish qobiliyati.

Huquqiy madaniyat mazmun-mohiyatini ochib beradigan ta’riflar quyidagi jadvalda berilgan.

<i>Huquqiy madaniyat tushunchasi</i>	
1.	<i>Huquqiy tafakkur hamda huquqiy voqelikni hissiy idrok etishning muayyan darajasi;</i>
2.	<i>Aholining qonunlarni bilish darajasi;</i>
3.	<i>Huquq normalariga nisbatan hurmat, ularning nufuzi e’tirof etilganligining ifodasi;</i>
4.	<i>Huquq ijodkorligi va huquqni amalga oshirish jarayonlarining holati;</i>
5.	<i>Huquq faoliyati o‘ziga xos usullari (huquqni muhofaza qilish organlari ishi, konstitutsiyaviy nazorat va hokazo);</i>
6.	<i>Huquqiy faoliyatning odamlar yaratgan moddiy va ma’naviy ne’matlar ko‘rinishidagi natijalari (qonunlar, qonunchilik tizimlari, sud amaliyoti va hokazo).</i>

¹ Qarang.: Tadjixanov U., Saidov A.X. Huquqiy madaniyat nazariyasi. 1-jild. T.: IIV akademiyasi, 1998. – B. 89.

8-jadval. Huquqiy madaniyat tushunchasi mohiyati.

Huquqiy madaniyat o'zining ichki tuzilishi va ijtimoiy aloqalari boyligiga ko'ra o'ta murakkab hodisa. U faqat qonunlar, huquq normalarini bilishnigina nazarda tutmaydi. Huquqiy madaniyat, huquqiy ongdan tashqari, huquqiy tartibot va qonuniylikni ta'minlash va mustahkamlash manfaatlari yo'lida huquqni ijro etish faoliyatini ham o'z ichiga oladi. Huquqiy madaniyat ko'p qirrali hodisa sifatida ilmiy adabiyotda uning eng muhim jihatlari, belgilari, mezonlari va sifat xususiyatlari majmuini aniqlash yo'li bilan ochib beriladi. Quyida ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Huquqiy madaniyat jamiyatning ma'lum tarixiy bosqichdagi g'oyaviy huquqiy holatini aks ettiradi; huquqiy ong, huquqni bilish va qonunlarni hurmat qilish darajasini ifodalaydi. Ba'zi bir mualliflar huquqiy madaniyatni yuridik ustqurmaning barcha tarkibiy qismlari majmui, deb tushunadi. Bu o'rinda huquq sohasining oliy yutuqlari o'z tabiatiga ko'ra, normativ ekanligini qayd etib o'tish lozim, zero ular huquqni ijro etish, qonunni, huquq normalarini amalga oshirish faoliyatining samarali shakllari sanaladi.

Ijtimoiy manfaatlarni anglash va ro'yobga chiqarish huquqiy madaniyatning rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Huquqda aks ettiriladigan manfaat obyektiv xususiyatga ega, ammo bunda real manfaat bilan uning huquqiy ong va huquq normalaridagi tushunchani farqlay bilish kerak. Masalan, "manfaat haqida tasavvur", "huquqda mustahkamlangan manfaat", "obyektiv manfaat" bir xil tushunchalar emas, chunki ular o'rtasida ijtimoiy taraqqiyotdagi obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri dialektikasi bilan belgilanuvchi farqlar va hatto ziddiyatlar mavjud.

Siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro nisbatiga o'tar ekanmiz, siyosat va huquq – umumiy prinsiplar, o'zaro mos keluvchi maqsadlar, tarixiy taqdirlarning umumiyliigi bilan bir qatorda, har xil ijtimoiy funksiyalarga egaligini qayd etish lozim.

Huquqiy madaniyatning siyosiy madaniyatdan farqi, avvalambor, huquq ijodkorligi va huquqni ijro etish faoliyati, shaxs huquqiy

ongining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishining xususiyatlarida, huquq normalari va huquqiy munosabatlarning o'ziga xosliklarida ko'rinadi.

Siyosiy va huquqiy madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq; sababi, yuksak huquqiy madaniyatsiz, qonuniylik prinsipiga qat'iy rioya etmasdan turib yuksak siyosiy madaniyatga erishib bo'lmaydi.

Huquqiy madaniyat huquqni ijro etish faoliyatinigina emas, balki fuqarolarga qo'yilgan siyosiy va huquqiy talablar majmuini ham o'z ichiga oladi, qonunga muvofiq xulq-atvor namunalari va ideallarini saqlaydi va ularni muntazam boyitib boradi. Fuqarolarning siyosiy madaniyat normalariga amal qilishi huquqiy madaniyat namunasi deyiladi.

Siyosiy va huquqiy madaniyat o'zaro ta'sir etish jarayonida bir birini boyitib boradi. Zero, siyosiy madaniyat prinsiplari va normalari huquqning rivojlanishiga ta'sir etadi. Siyosiy madaniyatning normativligiga alohida normativlik deb qaraladi, zero siyosiy prinsiplar va normalar ijtimoiy hayotda alohida o'rinni egallaydi.

Siyosiy madaniyat bilan huquqiy madaniyat aksar hollarda aynan bir ma'naviy-axloqiy va madaniy qadriyatlarga tayanadi. Qadriyatlar, hech mubolag'asiz, xalq tarixi, millat qiyofasi demak. Milliy qadriyatlar so'zsiz har bir millatning mavjudlik belgisi hamdir. Madaniy qadriyatlar kishilar o'rtasidagi o'zaro ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni boshqaradi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy jipsligini mustahkamlaydi.

G'arb olimlari siyosiy va huquqiy madaniyatni ta'lim tizimida amalga oshiriladigan "ijtimoiylashish", deb bilishadi. Bu fikrda jon bor. Maktab va universitet shaxsga bilim va tarbiya beradi, uni shakllantiradi. Siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari esa siyosiy va huquqiy madaniyatni rivojlantiruvchi qudratli, hal qiluvchi omillarga aylanadi.

Siyosiy madaniyat va huquqiy madaniyat ijtimoiy manfaatlarni aks ettiruvchi ong, siyosiy va huquqiy mafkura, qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy amaliyot sohalariga, turmush tarziga, tarixiy va ijtimoiy tajribaning vorisiyligi hamda ularni o'tkazish mexanizmlariga singib ketadi. Bu esa ikki tushunchaning ko'rinishlarini sotsiologiyada ishlab

chiqilgan turli ko'rsatkichlar, mezonlar va metodikalar bo'yicha o'rganish imkonini beradi.

Huquq asoslarini bilish va uning asosiy qadriyatlarini o'zlashtirish madaniyatli odam shaxsining muhim jihatidir. U aholi barcha tabaqalarining ichki, ma'naviy ehtiyojiga, ularning turmush tarzi elementiga, avlodlardan avlodga o'tkaziluvchi an'anaga aylanishi lozim.

Ma'lumki, siyosiy va huquqiy madaniyat shakllanishi turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Odamlarning turmush tarzi siyosiy va huquqiy qarashlar, g'oyalarning "moddiylashtirilganlik" darajasini aks ettirib, hayotiy faoliyatning izchil va muntazam qayta tuziluvchi normasi bo'lib xizmat qiladi. Buni shaxs, ijtimoiy guruh, jamoat tashkilotlari va, umuman, ijtimoiy tizim siyosiy va huquqiy rivojlanishining normativ natijasi, deyish mumkin.

Mamlakatimiz asosiy normativ hujjatlarida ushbu masalalar to'laqonli aksini topgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023)ning "Siyosiy huquqlar" nomli VIII-bobida ushbu *masalalar yoritilgan*¹:

39-modda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek davlat hokimiyati vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas.

40-modda. Har kim bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda davlat organlariga hamda tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, mansabdor shaxslarga yoki xalq vakillariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Arizalar, takliflar va shikoyatlar qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqilishi shart.

54-modda. Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir.

¹ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi.

55-modda. Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, davlatimiz insonning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy huquqlarini ta'minlashga alohida g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Haqiqatan ham, bugungi fuqarolik jamiyatining negizlari vujudga kelishi jarayonida "insonning qadri, sha'ni va diyonati", "adolat va halollik", "insoniylik va ishonch" tushunchalari bilan siyosiy va huquqiy madaniyatning aloqasi tobora yaqinlashib boraveradi.

Davlat jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida kelishuvni ta'minlaydigan va o'z siyosatini amalga oshirishda inson manfaatini har tomonlama e'tiborga oladigan yurtdagina ijtimoiy adolat hukm suradi.

1.3.3. Siyosiy ongdan fuqarolar madaniyatiga o'tish jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari

Bu jarayon tadrijiy va tabiiy ravishda ro'y beradi. Fuqarolar madaniyati uning eng yuqori nuqtasidir. Xo'sh, unga qay yo'l bilan erishiladi, degan savol tug'iladi.

Avvalo, aytish kerakki, bu aslini olganda, siyosiy tizimga ijobiy yo'naltirilgan "xayrixoh tarzda ishtirok etish madaniyati"dir. Fuqarolar madaniyati mukammal va tizimga solingan ko'rinishda AQShda (dastlab Angliyada) o'rganilgan. Fuqarolar madaniyatida siyosiy institutlarning legitimligi (qonuniyligi), ijtimoiy siyosatning yo'nalishi va mazmuniga nisbatan konsensus (kelishuv), manfaatlar xilma-xilligiga nisbatan bag'rikenglik va ularning murosaga kelishiga ishonch, shuningdek fuqarolarning siyosiy bilimdonligi va o'zaro ishonchi keng tarqalgan bo'ladi. Mazkur tipologik modelda sanoatlashgan

mamlakatlar siyosiy tizimiga, birinchi navbatda, uning anglo-amerika turiga mos keluvchi o'ziga xos etalon siyosiy madaniyatni ko'rish qiyin.

Fuqarolar madaniyatida ikki "ziddiyat" ko'zga yaqqol tashlanadi:

1) o'zining siyosiy qarorlarga asosli ta'sir ko'rsata olish imkoniyatini yuqori baholash bilan real ta'sir ko'rsatish darajasining pastligi o'rtasidagi ziddiyat;

2) fuqarolar siyosiy hayotda ishtirok etishi shartligini yalpi e'tirof etishning darajasi bilan ishtirokning real ahamiyati va hajmi o'rtasidagi ziddiyat.

Fuqarolar siyosiy madaniyati rivojlangan mamlakatda fuqarolar ko'proq faoldir. U siyosiy jarayonning doimiy ishtirokchisi bo'lib, siyosiy guruhlarda kam ishtirok etsa-da, asosli ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, u zarur holda o'z ijtimoiy imkoniyatlarini siyosiy maqsadlar yo'lida safarbar eta oladi. Bunday mamlakatda yashovchi fuqaro siyosiy aloqalarini yuksak saviyada saqlashga, biron-bir tashkilotga a'zo bo'lishga va norasmiy siyosiy munozaralarda ishtirok etishga ko'proq moyildir. Mazkur faoliyat turlari siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol qatnashishga majbur etmaydi, ammo bunday qatnashish ehtimolini oshiradi.

Fuqarolar madaniyati, avvalambor, xayrixoh tarzda ishtirok etish madaniyati hamdir. Individlar faqat siyosatga "kirish"ga emas, siyosiy tashkilotlar va siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga ham ijobiy munosabat bildiradilar. Boshqacha aytganda, fuqarolar madaniyati – ishtirokchilik siyosiy madaniyati bo'lib, unda siyosiy madaniyat va siyosiy tuzilma mutanosib ravishda bir-biriga mos keladi.

Fuqarolar madaniyatida ishtirokchilik siyosiy qarashlari patriarxal va tabaalik siyosiy qarashlari bilan uyg'unlashadi, ammo ularni inkor etmaydi. Individlar siyosiy jarayon ishtirokchilariga aylanadi, ammo ular o'z tabaalik yoki patriarxal qarashlaridan voz kechmaydi. Buning ustiga, nisbatan oldin yuzaga kelgan bu siyosiy qarashlar ishtirokchilik qarashlari bilan qo'llab-quvvatlanibgina qolmay, ishtirokchilik qarashlariga ham mos keladi.

An'anaviy siyosiy qarashlar shaxsning siyosatga nisbatan majburiyatlarini cheklashga va bu majburiyatlarni "yumshatish"ga moyil. Tabaalik qarashlari va patriarxal qarashlar ishtirokchilik qarashlarini "boshqaradi" yoki yo'naltirib turadi. Bunday ko'rsatmalar siyosiy tizimdagi ishtirokchilik qarashlariga ijobiy ta'sir etadi hamda boshqa odamlarga ishonch va umuman ijtimoiy ishtirok siyosiy ko'rsatmalar kabi fuqarolar madaniyatida muhim o'rin tutadi. Bunday an'anaviy ko'rsatmalarni qo'llab-quvvatlash va ishtirokchilik qarashlariga qo'shilishida siyosiy faollik va maqsadga muvofiqlik mavjud bo'ladi. Ammo bu tobelik, an'analarni saqlash va jamoa qadriyatlariga sodiqlik bilan muvozanatga keltirilgan muvoziy siyosiy madaniyatga olib keladi.

Xo'sh, barqaror va rivojlangan demokratiyalardagi oqilona-faol model ideallari bilan siyosiy aloqalarning tiplari o'rtasidagi nomuvofiqlikning sababi nimada? G. Almond va S. Verbaning fikricha, bu nomuvofiqlik demokratiya yomon ishlayotganidan dalolatdir. Ma'lumotlarga ko'ra, fuqarolar madaniyati uning subyekti ham faol-ta'sirchan, ham passiv rol o'ynashini qo'llab-quvvatlaydigan ikki asosiy yo'nalish bor: bir tomondan, jamiyatda ikki qarama-qarshi fuqarolik maqsadlarini ko'zlagan individlarning taqsimlanishi sodir bo'ladi; ikkinchi tomondan individning qarashlaridagi ma'lum noizchilik unga nomuvofiq maqsadlarni birvarakay ko'zlash imkonini beradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, so'ralganlarning real siyosiy xulq-atvori bilan ularning o'z harakat qilish qobiliyati va majburiyatini idrok etishi o'rtasida uzilish ko'zga tashlanadi. Buyuk Britaniyada va AQShda respondentlar subyektiv siyosiy bilimdonlik namunalarini ko'rsatishgan. So'ralganlarning aksari mahalliy hokimiyatning qaroriga ta'sir ko'rsatishga qodir desa, yana bir qismi markaziy hokimiyatga nisbatan o'z imkoniyatiga kamtarona baho bergan. Ya'ni, fuqaro sifatidagi imkoniyatlarini yuqori baholash faol siyosiy xulq-atvor bilan mustahkamlanmagan. *Siyosiy hayotda ishtirok etishning majburiyligi hissi bilan reallik o'rtasida uzilish mavjud.* Oddiy fuqaro o'z mahalliy jamoasi ishlarida ishtirok etishi shart degan respondentlar soni amalda

bunday faoliyatda ishtirok etganlar sonidan ko'p bo'lib chiqdi; bu tamoyil AQSh va Buyuk Britaniyada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shunday qilib, jamiyat siyosiy madaniyati o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki fuqarolarning siyosiy ongi, siyosiy faolligi natijasida yuzaga keladi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, siyosiy ongning darajasi, uning kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qay darajada adekvat yoki noadekvat ekanligi jamiyatdagi tub islohotlarning strategik o'rnini tushunishga yordam beradi. Binobarin, shaxs siyosiy ongining uning siyosiy madaniyatida namoyon bo'lishi ziddiyatli va murakkab jarayon bo'lib, muayyan tarixiy shart-sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi.

IKKINCHI BOB

SIYOSIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH ZARURIYATI



2.1.SIYOSIY ONG VA SIYOSIY MADANIYAT

2.1.1. Siyosiy ongning tuzilishi, tarkibi va funksiyalari

Siyosiy ong deganda, dolzarb siyosiy mazmunga ega bo'lgan va ma'lum siyosiy oqibatlarga olib keladigan masalalarga nisbatan jamiyatning ommaviy ongi tushuniladi. Bu ma'noda siyosiy ong ommaviy ongning alohida, siyosiy lashgan segmentidir.

Siyosiy ong statik elementlar (qadriyatlar, qarashlar) hamda dinamik elementlar (kayfiyatlar)ni o'z ichiga oladi. Bular:

Birinchidan, odamlarning intilish darajasi va ularni ro'yobga chiqarish maqsadida siyosiy tizimga ta'sir ko'rsatish imkoniyati;

Ikkinchidan, mafkuraviy e'tiqod negizida yotgan ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (adolat, demokratiya, tenglik, barqarorlik, tartib va h. k.);

Uchinchidan, hokimiyat, rahbarlar faoliyati bilan bog'liq siyosiy tadbirlarni baholash chog'ida o'zgaruvchi fikrlar va kayfiyatlar.

Siyosiy ong – siyosatning subyektiv mezon. Siyosiy faoliyatni aks ettirish darajasi va shakllariga ko'ra, siyosiy ong tuzilishida dialektik jihatdan o'zaro bog'liq ikki daraja nazariy-mafkuralashtirilgan kundalik darajalar farqlanadi.

Oddiy siyosiy ong bir qator xususiyatlari, jumladan, elementlarining mazmunan o'xshashligi, chegarasizligi, noaniqligi, ziddiyatliligi, tizimga solinmaganligi, ko'p jihatdan tasodifiyligi, siyosat haqidagi kundalik tasavvurlar va qarashlar ta'sirida beqaror ravishda shakllanishi va rivojlanishi bilan farq qiladi.

Shu bilan bir vaqtda, oddiy siyosiy ong siyosiy xulq-atvorga barqaror va muntazam-uzluksiz ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Hatto nazariy, mafkuraviylashgan siyosiy ong bilan ziddiyatga kirishib

ham oddiy siyosiy ong bunday xulq-atvorni belgilashda davom etishi mumkin. Undan farqli o'laroq, nazariy-mafkuralashtirilgan siyosiy ong qarashlar va fikrlarning yaxlit oqilona tizimini, ma'lum dunyoqarashni tashkil etuvchi, insonni qurshagan siyosiy muhitni u yoki bu mafkuraviy konsepsiya asosida tushuntiruvchi qat'iy va izchil tasavvurlardan kelib chiqadi. *Siyosiy ong u yoki bu elementlarining bir shakldan ikkinchi shaklga o'tish dialektikasi deganda, ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichi, ichki rivojlanish va namoyon bo'lish yo'llari tushuniladi.*

Siyosiy ong nazariy darajada jamiyat siyosiy hayotining qonuniyatlarini ochib beradi va amaliy siyosiy faoliyatni tashkil etishda ulardan foydalanadi. Bu daraja mafkurachilar faoliyati bilan bevosita bog'liq, shuning uchun ham u ko'pincha mafkuralashtirilgan, deb ataladi. Siyosiy mafkura siyosiy ongga, jumladan oddiy ongga qaraganda serharakat va o'zgaruvchan bo'ladi. Siyosiy faoliyat subyektlari, siyosiy mafkurachilar ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hodisalarni muttasil tahlildan o'tkazib, umumlashtirib, siyosiy strategiya va taktikaga tegishli tuzatishlar kiritib borsa, ijtimoiy ehtiyojlardagi va qarama-qarshi kuchlarning mavqedagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra olsagina muvaffaqiyatga erishiladi.

Davlatga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatga qarab *siyosiy ongning ikki asosiy qarama-qarshi tipi – “davlatchilik” (etatizm) va “aksildavlatchilik” (anarxizm) tiplari* tafovut etiladi. Ularning har biri siyosiy ongning kichik tizimi bo'lgani holda, o'z murakkab tuzilishiga, g'oya va nazariyalarining keng doirasiga ega anarxizm va etatizm siyosiy ong tiplari sifatida siyosiy voqelikni aks ettiradi, o'zlashtiradi hamda siyosiy hayotda ziddiyatli jarayonlarning shakllanishi va har xil yo'nalishda rivojlanishi, tezlashishi yoki sustlashishiga ko'maklashadi.

Siyosiy ong tiplarining ichki yaxlitligi uning tegishli kichik tizimlarining tushunchalar, kategoriyalar apparatining o'ziga xos jihatlarini belgilaydi. Bu o'rinda anarxik ong anarxizm nazariyasidan ancha keng ekanligini qayd etib o'tish kerak. U oddiy anarxik ong va anarxik psixologiyaning tegishli qatlamlarini, shuningdek etatistik ong

nazariyasi va konsepsiyasiga singdirilgan anarxik ong elementlarini o‘z ichiga oladiki, bu, masalan, inqiloblar, yirik islohotlar, inqirozlar davrida keng tarqaladi. Jumladan, davlatga qarshi vayron etuvchi ong elementlari 1917-1918-yillarda va undan keyingi davrda bolsheviklar mafkurasida mavjud bo‘lgan edi.

Siyosiy ongning anarxik tipi, uning etatistik tipi singari, olis tarixga, davlat hokimiyatining ilk shakllari vujudga kelgan davrlarga borib taqaladi. Davlatga va qonunga nisbatan salbiy munosabatni ilgari suruvchi ilk g‘oyalar xotirasi ijtimoiy ongda saqlanib qolgan avvalgi qavm-qabila tuzumini ideallashtirish tarzida vujudga kelgan, deb faraz qilish mumkin. Bunday ongning yorqin namunalari qadimgi dunyoda, xususan, qadimgi Xitoyda Lao-szi, qadimgi Gretsiyada sofistlarning bir qismida kuzatiladi. O‘rta asrlarda bu an‘analari ayrim diniy sektantlik oqimlarining siyosiy g‘oyalarida saqlangan. XIX asrda anarxizm nazariy jihatdan shakllandi (M. Shtirner, P. J. Prudon, M. A. Bakunin, Elize Reklyu, J. Gilom, P. A. Kropotkin va boshqalar). XIX asr oxiri - XX asrning boshida nazariy siyosiy ong qarama-qarshi tizimi va uning kichik tizimlari - etatizm va anarxizmning shakllanish jarayoni yakunlandi. Shundan so‘ng kichik tizimlarning murakkablashuvi, tegishli tiplarning g‘oyalari va doktrinalarini ishlab chiqish, nazariyalar, siyosiy tafakkur oqimlarini tip doirasida turkumlash, ularni zamonga moslashtirish jarayonlari sodir bo‘ldi.

Professor L. S. Mamutning fikricha, siyosiy ong tuzilishining umumiy jihatlarini “faqat uning o‘ziga nazar tashlash bilan tushuntirib bo‘lmaydi, zero bu jihatlarni unga mazkur siyosiy ongga kiruvchi makrotizim tuzilishi, ya’ni umuman ong beradi”¹. Bu fikrga qo‘shilgan holda, siyosiy ong tiplarini o‘rganishda ong faoliyatini belgilovchi ayrim ontologik jihatlarni, jumladan, ijtimoiy ong va uning shakllari (madaniyat, jamiyat, tabiat) kiruvchi boshqa makrotizimlarni ham e’tiborga olish lozim.

¹ Mamut L.S. Etatizm i anarxizm kak tipi politicheskogo soznaniya. Domarksistskiy period – M., 1989. –S. 42.

Tartibsizlik holati – predmet, hodisa, hodisalar tizimining rivojlanishidagi qonuniy jihat, bosqich, bir tashkilot darajasi va shaklidan boshqasiga o‘tish demakdir. Bu nuqtayi nazardan tartibsizlik deganda, “qayta tuzilish” shakli, bosqichi, rivojlanish sur’atining o‘zgarishi tushuniladi. Tartib ma’lum munosabatda, ba’zi bir shartlarda, tartibsizlik manbai, uning boshlang‘ich holati yoki yashirin shakli bo‘lishi mumkin.

I. Prigojinning tartib va tartibsizlikka “bir-biridan ajralmas” nisbatan qarama-qarshi hodisalar, deb qarashi bejiz emas. Tartib va tartibsizlik o‘rtasida ma’lum teskari irsiy aloqalar mavjud¹. Bir qator hollarda tizimlar tartibdan tartibsizlikka qarab rivojlanadi. Bu huquq sohasida sodir bo‘lishi, tartibning haddan tashqari murakkablashishi va qattiqlashishi, xususan, ziddiyatli qonunlar, farmonlar va boshqa normativ hujjatlar sonining ko‘payishi, ular tegishli tarzda tizimga va tartibga solinmaganligi tartibsizlik va tartib samarasini vujudga keltirishi mumkin. Boshqa hollarda tartibsizlikdan tartibga qarab rivojlanish kuzatiladi. I. Prigojin va I. Stengers fanga “muvoziysizlik – modda yoki energiya oqimi, tartib manbai bo‘lishi mumkinligi ma’lum” ekanligini qayd etadilar.

Siyosiy ong – bipolyar, murakkab ichki tuzilishga, siyosiy ongning murakkab, jo‘shqin oqimlar doirasiga ega bo‘lgan ikki tipi, ya’ni etatizm va anarxizmni o‘z ichiga oluvchi izchil rivojlanuvchi tizim. Tizim yaxlit holda ham, tiplar va ularning ichidagi oqimlar evolyutsiyasi ko‘rinishida ham, o‘zi tarkibiga kiruvchi makrotizimlar bilan ham rivojlanadi (“ijtimoiy ong”, “ong”, “jamiyat” va h. k.). Siyosiy ong tartibsizlik va tartibning ko‘p qirrali dialektikasini obyektiv aks ettiradi va, o‘z navbatida, mazkur dialektikaga doir bilinuvchi qonuniyatlar, farazlar va shu kabilarni ongda (bilish va o‘zini o‘zi bilish) hamda amaliy-siyosiy voqelikda aks ettiradi.

Siyosiy ong jamiyat ma’lum “rivojlanish nuqtalari”ga kirishiga qarab siyosiy tizimning tartibsizlik va tartiblilik holatiga o‘z vaqtida hamda shaklan va mazmunan samarali o‘tishiga ko‘maklashadi,

¹ Shermuxamedova N. Falsafa. O‘quv qo‘llanma. T.: Noshir, 2009. – B. 462.

o‘zgarayotgan siyosiy tizimning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, uning “inqiroz davri”dan o‘tishiga yordam beradi. Maʼkuraviy va psixologik jihatdan u ijtimoiy taraqqiyotda siyosiy barqarorlashish mexanizmlarining “ulanishi” va “uzilishi”ni taʼminlaydi. Bunda jamiyatning saqlanishiga, ijtimoiy taraqqiyot talablariga siyosiy tizimning javob berishiga, siyosiy munosabatlarni uyg‘unlashtirish va voqelikning siyosiy tomonlarini teran bilish hisobiga ijtimoiy munosabatlarni uyg‘unlashtirishga yordam berish muhim vazifadir.

Anarxik ongga qayd etilgan hodisalarning alohida holati, ideal tartibsizlikning shakli, uning tarkibiy qismi, deb qarash mumkin. Ushbu “turdoshlik”ni ko‘rsatuvchi bir qator jihatlar, xossalari mavjud. Anarxik ongning g‘oyalari, obrazlari tizimi, aslida “o‘zini o‘zi tartibsiz tashkil etgan” jamiyatni modellashtirish vositasidir.

Ijtimoiy inqiloblar, urushlar, yirik islohotlar davrida “tartibsiz dunyoqarash”ning o‘ziga xos kuchayib boruvchi ta’siri vujudga keladi. Ijtimoiy ongda “tartibsiz ong” – anarxizm elementlarining jadal o‘lishi ijtimoiy tartibsizlikning kuchayishiga turtki beradi. Siyosiy ong tiplari, bir-biri bilan yaqin aloqa qilish va bir biriga faol ta’sir ko‘rsatish bilan birga, jug‘rofiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy omillar tizimi bilan belgilanuvchi o‘z rivojlanish sikli va sur’atiga, o‘z “faollik cho‘qqilari” kabi xususiyatlarga ega.

“Siyosiy ong yuz foiz “davrlatchilik” yoki to‘liq “aksildavrlatchilik” xususiyatiga ega bo‘lgan davrni tarix bilmaydi, deb qayd etadi L. S. Mamut. Zotan, siyosiy ongning bu ikki tipi bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi. Mantiqqa ko‘ra, ular bir-birini to‘ldiradi”¹.

Ongning ikkala qutbi ham bilishda, siyosiy hayotda va bir-biriga nisbatan ma’lum vazifani bajaradi. Jumladan, anarxizm, etatizm doirasidagi liberalizm singari, kuchli aksiltotalitaristik yo‘nalishga ega. Anarxizm va liberalizmni ta’qib qilish va yo‘qotish totalitar siyosiy tuzum va tegishli ongning vujudga kelishiga qulay zamin yaratadi.

¹ Mamut L.S. Shkala otsenok gosudarstva i protsess yego otsenki // Istoriya politicheskoy misli i sovremennost. – M., 1988. –S. 43.

Anarxik ongning tamoyillar (davlatchilik zavol topishi) va etatistik ongning tamoyillar (totalitar davlatning keskin shakli) ijtimoiy jihatdan xavfli bo‘ladi. Ammo siyosiy rivojlanish mexanizmida, jamiyat tarixan yetilgan “tartiblilik” va “tartibsizlik” holatiga o‘tishida etatizm va anarxizmning obyektiv roldan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Jamiyat hayotida, ayniqsa, globallashtirish sharoitida shiddatli o‘zgarayotgan ayni paytda siyosiy ongning ikkala tipi ham talab etiladi.

Etatizm tartib, barqarorlik tendensiyalarining ifodalovchisi bo‘lgan barqaror ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlariga tayansa, anarxizmning ijtimoiy negizi ancha o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Odatda, u omonat, beqaror ijtimoiy tabaqalarga – ijtimoiy-siyosiy hayotdan uzilgan tabaqalarga, sinfsizlashgan yoki lyumpenlashgan guruhlar va shaxslarga tayanadi.

Siyosiy ongning anarxik tipi tashkiliy jihatdan asosan hokimiyatni egallashga intilmaydigan, amalda tanqid, muxolifat, beqarorlashtirish va dezintegratsiya omili bo‘lib xizmat qiladigan siyosiy harakatlar bilan izohlanadi. Anarxizmning “tartibsiz” tabiati nazariyada ham, tashkiliy jihatdan ham o‘zining muvofiq aksini topgan. Anarxik harakatning tashkiliy shakllarida qattiq intizom kuzatilmaydi.

Taniqli olimlar H.Odilqoriyev va Sh.G‘oyibnazarov 2004-yilda chop etilgan yirik tadqiqotlarida siyosiy ongning ushbu funksiyalarini qayd etadilar¹:

Siyosiy ongning funksiyalari		
1.	Ilmiy-ma’rifiy	guruh va jamoa manfaatlariga bo‘lgan ehtiyojni ifodalash;
2.	Bilish	siyosiy voqelikni anglash, idrok etish, tegishli axborotni jamlash va tahlil etish;
3.	G‘oyaviy	manfaatlarni himoya qilish;
4.	Kommunikativ	aloqalar tizimini ta’minlash;
5.	Prognostik	bashorat qilish;
6.	Tarbiyaviy	odamlarning siyosiy faolligini shakllantirish, ularni to‘g‘ri tomonga yo‘naltirish;

7-jadval. Siyosiy ong funksiyalari.

¹ Odilqoriyev X. T., G‘oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat. – T.: IIV akademiyasi, 2004. –B. 116.

Professor S. Otamuratov ishlab chiqqan zamonaviy funksiyalar ko‘lami birmuncha keng bo‘lib, u quyidagi ustuvor masalalarni qamrab oladi¹:

Siyosiy ongning zamonaviy funksiyalari		
1.	Bilish	Bu shaxslar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning davlat hokimiyati, uning faoliyati va jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlarining ma’no-mazmunini tushunib olishda namoyon bo‘ladi. Ular haqida tegishli bilimga ega bo‘lmasdan turib siyosiy ong rivojlana olmaydi.
2.	Siyosiy jarayonlarni yuzaga keltirish	Siyosiy ong bo‘lmasa, davlat faoliyati va jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlar ham sodir bo‘lmaydi. Agar masalaga yanada chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, siyosiy ong bo‘lmasa umuman siyosiy institutlar ham shakllanmaydi. Siyosiy ong shakllanishiga asosiy turtki bergan omil ham siyosiy boshqaruvga ehtiyojning yuzaga keltirganligidir. Shu ma’noda ham siyosiy ong jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga munosabatlarning in’ikosi sifatida paydo bo‘lgan – deyish mumkin. Paradoks shundaki, siyosiy jarayonlarning in’ikosi bo‘lishi bilan bir vaqtda uni harakatga keltiruvchi asosiy omillardan biri hamdir. Siyosiy ong siyosiy jarayonlarni har doim ham ijobiy tomonga rivojlanishiga olib kelavermaydi, ba’zan jamiyat hayotida obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra yuzaga keladigan nomutanosiblik, inqirozlar va boshqa salbiy xolatlar <i>siyosiy ong siyosiy madaniyatdan uzilib qoladi va ular o‘rtasidagi muvozanat barham topadi</i>. Shunda u siyosiy jarayonlarning salbiy tomonga rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Bu siyosiy ongning jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar va parokandaliklar omiliga aylangani deganidir. Mazkur holat siyosiy ongning salbiy jihati hisoblanadi. Shuning uchun siyosiy ongning har doim siyosiy madaniyat doirasidan chiqib ketmasligi davlat

¹ Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. -T.: O‘zbekiston, 2015. – B. 40-43.

		faoliyatining muhim yo‘nalishiga kiradi
3.	Manfaatlarni muvozanatga keltirish	Siyosiy ongdagi bu funksiyasining mohiyati shundaki, jamiyatda mavjud bo‘lgan fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarini o‘zaro muvozanatga keltirishda siyosiy ong katta rol o‘ynaydi. Agar siyosiy ong jamiyat taraqqiyoti darajalariga mos ravishda rivojlangan bo‘lsa siyosiy kuchlar manfaatlarini o‘zaro muvozanatga keltirish imkoniyati ham kuchayadi. Uning aksi bo‘lsa, manfaatlar to‘qnashuvi sodir bo‘ladi va jamiyatda siyosiy beqarorlik bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik ham yuzaga keladi. Muammo, siyosiy ongdagi omilining yovuzlikni bartaraf etishga qay darajada yo‘nalganligiga bog‘liqdir. Ana shu jarayonda ezgulikning ustun darajada rivojlanganligi siyosiy ongning manfaatlarini o‘zaro muvozanatga keltirish omiliga aylantiradi. Siyosiy ong taraqqiyotining yuksaklik darajasi ham ana shu bilan belgilanadi.
4.	Demokratik qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish	Demokratik qadriyatlar o‘z ichiga fuqarolarning haq-huquqlari, erkinligining ta‘minlanganligi, fikrlar xilma-xilligining amal qilinishi, ko‘p partiyaviylik, saylovlarda muqobillikni mavjudligi, xalqning davlat hokimiyati ustidan nazorat qilish mexanizmining ishlashi va boshqalarni tashkil qiladi. Siyosiy ong ularning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy omillardan birini tashkil qiladi. Ayni paytda demokratik qadriyatlar ham siyosiy ong rivojlanishiga o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazadi. Ular o‘rtasida ana shu o‘zaro munosabatlar muvozanatda bo‘lsa siyosiy jarayonlar ham barqaror rivojlanadi. Bu jarayondagi asosiy muammo siyosiy ongning rivojlanishi demokratik qadriyatlarni “keng yoyish” bayrog‘i ostida jamiyatda siyosiy beqarorlikning yuzaga keltirish omiliga aylanmaslikning amal qilish bilan bog‘liqdir. Xuddi mana shu holatning yuzaga kelishining oldini olish bir tomondan davlat hokimiyati faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan fuqarolar, ijtimoiy tabaqalar va siyosiy kuchlarning siyosiy ogohlik va siyosiy mas‘uliyatni his eta bilish

		salohiyatiga bog'liqdir. Ularning real amal qilishi siyosiy ongning demokratik qadriyatlarning barqaror rivojlantirish omiliga aylanishiga olib keladi.
5.	Yo'naltiruvchanlik	Ongning boshqa shakllarida bo'lgani kabi siyosiy ongda ham fuqarolarni ma'lum maqsadlarga yo'naltiruvchanlik funksiyasi mavjud. Uning bu funksiyasi: a) fuqarolarning davlat hokimiyati faoliyatini bilish va unda ishtirok qilishga moyillikni shakllantirish; b) fuqarolarning amaldagi siyosatga nisbatan o'zlarining mustaqil pozitsiyalarini shakllantirish, kabilarda o'z ifodasini topadi. Bu funktsiyaning amaliy ahamiyati shundaki, <i>bir tomondan</i> , davlat hokimiyatini o'z siyosiy faoliyati ustidan, o'z nazoratini olib borishiga, uning fuqarolar bilan hamkorlik qilishga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Chunki, fuqarolar siyosiy ongning rivojlanishi nafaqat ularning o'zlari uchun, shuning bilan birga davlat hokimiyatining doim o'z fuqarolari nazoratida ekanligini anglab yetishga ham yordam bersa, <i>ikkinchi tomondan</i> , davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvida bir tomonlama ketib qolishidan ogoh bo'lishiga, turli variantlarni ishlab chiqishda, ularning eng samaralarini amaliyotga tatbiq etishga faolligini oshiradi. Ya'ni, siyosiy ongning yo'naltiruvchanlik funksiyasi davlat hokimiyati va fuqarolarning hamkorligini mustahkamlaydi hamda siyosiy boshqaruvning samarali ishlashiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

8-jadval. Siyosiy ongning zamonaviy funksiyalari.

Bu murakkab, maqsadga yo'naltirilgan funksiyalar siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o'zaro munosabatlarini zamon talablariga mos ravishda qurish va yanada takomillashtirishda qo'l kelishi mumkin.

Keling, endi siyosiy ongning darajalarini ko'rib chiqaylik. Olimlarning ta'kidlashicha, uning ushbu darajalari farqlanadi:¹:

– *empirik daraja – insonning siyosiy psixologiyasi sifatida odamlarning siyosiy hayoti ta'sirida shakllanadi;*

– *g'oyaviy-nazariy daraja – nazariy bilimlar tizimi;*

¹ O'sha joyda. – B. 117.

- *individual-siyosiy daraja –inson, shaxs ongi;*
- *jamoaviy daraja –ma'lum guruhlarining ongi;*
- *ommaviy daraja.*

Umuman olganda, siyosiy ong darajasiga ko'ra, elitar va ommaviy turlarga bo'linadi.

1.*Elitar siyosiy ong* – mafkura, fan, targ'ibot va tashviqot shaklidagi ong bo'lib, u turli ijtimoiy va siyosiy hodisalar o'rtasidagi sabab va oqibatni aniqlash, siyosiy voqelikni tushuntirish va tushunish, siyosiy hayotda mo'ljal olish imkonini beradi. Siyosiy elita bunday ongga ega bo'ladi, deyish mumkin. U o'zaro muloqot, din, an'ana, tarbiya, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, targ'ibot va tashviqot, san'at orqali fuqarolarga har xil yo'sinda va maqsadlarda singdiriladi. Uning asosida esa ommaviy ong shakllanadi.

2.*Ommaviy siyosiy ong* ko'p jihatdan elitar siyosiy ongning in'ikosi bo'lib, u yoki bu siyosiy mafkura, masalan, konservativ, liberal yoki boshqa turdagi mafkura ta'sirida shakllanadi.

Ommaviy ong deganda, ko'pincha empirik tadqiqot natijasida olingan individual qarashlar, moyilliklarning muayyan yig'indisi tushuniladi. Unga har xil ta'riflar beriladi. B. A. Grushin bu hodisani «gnoseologik va ijtimoiy tabiatiga ko'ra, xilma-xil bo'lgan, faqat psixika shakllari bilan cheklanib qolmagan, psixologiya va mafkura, ehtiros va mantiq, timsollar va munosabatlar, oddiy va nazariy ong, ratsional va irratsional (shu jumladan, fantastik) tasavvurlarning darajalariga mansub bo'lgan ma'naviy tuzilmalar majmui" deb ta'riflaydi¹. Globallashuv davrida jamiyatimiz ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlar, islohotlarni boshdan kechirmoqda, bu esa ommaviy siyosiy ontga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Ochig'ini aytish kerakki, o'tish jarayonlariga qadar amal qilgan mafkuraviy qarashlar va qadriyatlarning institutsional asoslari o'zgardi, ayrim hollarda esa umuman yo'qoldi. SSSRning parchalanishi bilan davlat maqomiga ega bo'lgan qudratli kommunistik mafkura ommaviy ongdagi ustunlik mavqeyidan mahrum bo'ldi.

¹ Grushin B.A. Mneniya o mire i mir mneniy. – M.: Praxis, 2011. – S. 546.

2.1.2.Siyosiy ong va siyosiy madaniyatning o‘zaro munosabatlari

Siyosiy ong va siyosiy madaniyat bir-birini to‘ldiradigan tushunchalar bo‘lishi bilan birga, ular o‘zaro uyg‘un holda rivojlanmasligi holati ham mavjud. Darajaning xilma-xilligi esa davlat hokimiyati va boshqaruvi, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlar faoliyatlarida ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Ya’ni, siyosiy ong rivojlanib ketishi, siyosiy madaniyatning orqada qolishi, u mamlakat hayotida siyosiy beqarorlikning yuzaga keltirishi jahon tarixida uchraydi (parchalanib ketgan Yugoslaviya, ayrim Arab davlatlari). Albatta, bunday holatda siyosiy “o‘yinlar” uchun vaziyat yuzaga keladi. Siyosiy jarayonlar umummanfaatlarga emas, ana shu o‘yinlarni tashkil etuvchilarga yo‘naltirilib yuboriladi. Natijada siyosiy beqarorlik milliy taraqqiyot uchun to‘siq bo‘ladi.

Yevropa davlatlarida bo‘lganidek, siyosiy ong siyosiy madaniyatga muvofiq rivojlangan taqdirda, barqaror taraqqiyot uchun shart-sharoit vujudga keladi. Ammo, shuni ham nazarda tutish lozimki, siyosiy ong siyosiy madaniyatga nisbatan oldin shakllanadi, ya’ni siyosiy qarashlar, tasavvurlarning paydo bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. O‘z navbatida, u siyosiy madaniyat shakllanishining muhim manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tarixga murojaat etsak, siyosiy ong davlatning paydo bo‘lishi bilan unda yashayotgan shaxslarda shakllana boshlagan. Yillar o‘tgan sari shaxs davlat hokimiyatining siyosiy boshqaruvidagi faoliyatiga nisbatan o‘z munosabatlarini shakllantiradi, bunda siyosiy ong shaxs faoliyatini ta’minlovchi *indikator* vazifasini bajaradi.

Siyosiy ong o‘zining barcha shakllari (individual ong, ijtimoiy ong, nazariy ong, milliy ong, estetik ong va boshqalar) bilan o‘zaro bog‘liq va ular bilan birga rivojlanadi.

Milliy ong degan tushuncha ham bor. Milliy ong har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, ma’naviy-diniy e’tiqodi, madaniy rivoji jarayonida shakllangan dunyoqarashi.

Tafakkuri, e'tiqod va ishonch tuyg'ularini ifodalovchi tushuncha. Milliy ong – milliy birlik va birdamlik tuyg'usi shakllanishining asosidir¹.

*“Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim turi, jamiyat a'zolari, millat, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar hamda har bir fuqaroning davlatning ichki va tashqi siyosatni tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z xatti-harakatlarini belgilash hamda ularni amalga oshirish madaniyati. Oldindan ko'ra bilish iste'dodi, harakat yo'nalishini o'zgartirish, nazariy va amaliy yo'nalishlarini aniqlay olish, tarafdorlar topish, ijtimoiy jarayonlarning tezligiga ta'sir o'tkazish siyosiy madaniyatning jihatlaridan sanaladi”*². Yana bir lug'atda *“siyosiy madaniyat – siyosiy ong va siyosiy faoliyat birligini ifodalaydi va shaxs, ijtimoiy guruh yoki butun jamiyatning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiradi”*³, degan ta'rif ham berilgan.

Siyosiy ong bilan siyosiy madaniyat o'rtasidagi munosabatlarga aniqlik kiritish uchun ularning har birining o'ziga xos funksiyalariga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi.

Siyosiy madaniyatning funksiyalari quyidagilar:

1.Siyosiy ongni tartibga solish. Siyosiy ongning jamiyatda mavjud turli manfaatlarni muvozanatda bo'lishida uning siyosiy madaniyat uyg'unlikda rivojlanishini ham bildiradi. Agar ular o'rtasidagi munosabatda uzilish yuzaga kelsa, eng avvalo, siyosiy madaniyatning sayozligi bilan bog'liq bo'ladi. Ikkinchi jihatdan bu siyosiy ongning ham betartiblik holatini ham bildiradi. Bu o'z-o'zidan siyosiy beqarorlik uchun zaminni ham yuzaga keltiradi.

2.Milliy o'ziga xoslikni aks ettirish. Siyosiy madaniyatning umum siyosiy jihatlari bilan bir vaqtda har millatning o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyatlari va mentalitetlari bilan bog'liq jihatlari ham mavjud. Ularning turli xalqlarda, millatlarda amal qilishi, ba'zi holatlarda ayrim “siyosatchilar” tomonidan u xalqda demokratik qadriyatlar rivojlangan,

¹ <https://www.oyina.uz/kiril/teahouse/2017> Milliy ong.

² Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.: Sharq, 1998. – B.191.

³ Falsafa. Qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004. – B. 365.

bunisi “rivojlanmagan” degan g‘ayriilmiy fikrlarni ilgari surishlari uchun asos hisoblanadi. Eng xatarlisi shundaki, xuddi ana shuni g‘ayriilmiy g‘oyani *dastak* qilib, g‘arazli maqsadlarni ko‘zlagan kuchlar tomonidan ayrim mamlakatlarga uni olib kirishga harakat qilinadi. Ular uchun bu holat “demokratiyaning taqchilligi” borligi deyдилar va bunday mamlakatlarga zudlik bilan harbiy kuchlarni olib kiritishga erishadilar. Aslida gap “demokratining taqchilligida” emas, balki yovuz kuchlarning g‘arazli niyatlarini amalga oshirish yo‘lidagi imkoniyatini yuzaga keltirib, undan foydalangan holda mamlakatlarni o‘z izmiga solish, ularning ustidan hukmronlikka ega bo‘lib, boyliklarga egalik qilishdan iboratdir.

Siyosiy madaniyatda milliy o‘ziga xoslikning namoyon bo‘lishi – deganimizda unda millat, xalqning asrlar davomida ajdodlari tomonidan milliy davlatchilikni shakllantirishdagi tajribalari ham o‘z ifodasini topadi. Bu amaliyotda fuqarolarning ijtimoiy tabaqalar va siyosiy kuchlarning qonunlarga itoatkorligi, siyosiy elitaga nisbatan hurmat, siyosiy munozarali masalalarni bosiqlik, vazminlik, hamjihatlik bilan hal etishga moyillikning kuchliligi yoki ularning taqchilligi kabilarda o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda ham demokratik qadriyatlarni u “taqchil” bo‘lgan hududlarga ko‘chirish nazariy jihatdan g‘ayriilmiy, amaliy jihatdan xatarli ishdir.

Aslida, *g‘arb demokratik qadriyalari ko‘chirilmaydi, balki shakllantiriladi*. Unda siyosiy hokimiyat va fuqarolarning bu qadriyatga nisbatan moyilligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Ya’ni, har ikki tomon uni shakllantirishda faol ishtirok qilishi talab etiladi. Davlat hokimiyati, demokratik qadriyatlarni shakllantirish bilan bog‘liq shart-sharoitni yaratsa-yu, fuqarolar, uni qabul qilishlariga salohiyatlari yetmasa va uni amaliyotga aylantirishda faollik ko‘rsatishmasa, demokratik qadriyatlar shakllanmaydi. Aksincha, fuqarolarning siyosiy faolligi oshib ketib, demokratik qadriyatlarni shakllantirishi kuchayib ketse-yu, davlat hokimiyati unga moyillik bildirmasa yoki bevosita ishtirok qilmasa ham demokratik qadriyatlar shakllanmaydi.

Ana shu jarayonlarda milliy davlatchilikni shakllantirish va xalqning o'ziga xosligi o'z ifodasini topadi. Bu siyosiy madaniyatning rivojlanishidagi o'ziga xoslikning namoyon bo'lishidagi eng murakkab jihatlaridan biri hisoblanadi.

3.Shaxslar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlar manfaatlarini muvozanatga keltirish. Yuqorida bu funksiyaning siyosiy ongga taalluqli ekanligi haqidagi fikr ham ilgari surildi. Uning siyosiy ongdagi funksiyasi amalda siyosiy jarayonlarning avj olishi sharoitida kechadi. Agar siyosiy ong yuqori darajada rivojlangan bo'lsa, siyosiy beqarorlikning jamiyatda mavjud barcha insonlar, fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlar uchun xatarli ekanligi anglab yetiladi va unga vazminlik bilan munosabatda bo'lish vaziyati yuzaga keladi. Ammo, yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik faqat siyosiy ongning yuksak darajada bo'lishi bilan hal etib bo'lmaydi, buning uchun, albatta, siyosiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi talab etiladi.

Keltirilgan bu omillardan ko'rinib turibdiki, siyosiy madaniyat siyosiy tizimning barqaror rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

4.Siyosiy kuchlar siyosiy madaniyati va siyosiy maqsadlari darajalarini aniqlash. Bu funksiyaning ma'nosi shundaki, siyosiy kuchlarning asosan maqsadi davlat hokimiyatini qo'lga kiritishdir. Ammo, uni qanday yo'l bilan egallash (misol uchun, Hindistonda 1949-yillarda M. Gandining kuch ishlatmaslik siyosati orqali mustamlakachi inglizlarni yengish) siyosiy madaniyatning darajalariga borib taqaladi. Agar siyosiy kuchlar davlat hokimiyatini qo'lga kiritishda dunyoda amal qiladigan demokratik qadriyatlarga tayansa, bu ularning siyosiy madaniyatning barqaror rivojlanganligining ko'rsatkichi, aksincha ular o'z atrofiga siyosiy hayotdan yiroq bo'lgan kuchlarni birlashtirib, jamiyat hayotidan siyosiy beqarorlikni vujudga keltirishsa (2010-yillarda ko'plab Arab davlatlaridagi siyosiy to'ntarishlar), siyosiy madaniyat taraqqiy qilmaganligi yoki inqirozining belgisi hisoblanadi.

5.Mamlakat xavfsizligiga nisbatan yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi fuqarolarda siyosiy immunitetni shakllantirish. Siyosiy

immunitet deganimizda, fuqarolar ongi va dunyoqarashida tashqaridan kirib keladigan va mamlakat ichkarisida shakllanishi mumkin bo'lgan turli yovuz va buzg'unchi siyosiy oqimlar hamda ularning g'oyalariga nisbatan qarshi turadigan siyosiy-ruhiy salohiyat tushuniladi.

“Siyosiy immunitet” tushunchasiga siyosiy falsafiy jihatdan fanda ta'rif berilmagan va tahlil etilmagan. Ammo, unga o'rganish, shakllantirishning imkoniyatlarini izlab topishga bo'lgan ehtiyoj shuningdek, amaliy ahamiyati kundan kunga oshib bormoqda. Xususan, yoshlar ongida siyosiy immunitetni shakllantirishga tobora ehtiyoj oshib borayotganligini alohida ta'kidlagimiz keladi.

Globalashuv sharoitida bugungi dunyo siyosiy “o'yinlar” va siyosiy oqimlar bilan to'lib-toshdi, boz ustiga ularni yer yuzida ommalashtirishning imkoniyatlari mavjud ehtiyojlar darajasidan ham oshib ketdi. Eng xatarlisi shuki, yoshlar ongi hamda qalbini egallash, u orqali esa dunyoda o'zlarining siyosiy hukmronligini o'rnatish uchun kurash avj olmoqda. Bular mamlakatlarning xavfsizligiga hatto ularning suverenitetiga nisbatan tahdidlarning kuchayib borishiga olib kelmoqda.

Ana shunday sharoitda fuqarolar siyosiy madaniyatni rivojlantirish va uning mamlakat xavfsizligiga bo'lgan ehtiyoj yanada oshadi. Bu siyosiy jarayonda moddiy qurol (harbiy qurollar) emas, balki ko'zga ko'rinmas ma'naviy-ruhiy (g'oya, mafkura) quroldan foydalanayotganligi bois ham mamlakat aholisi, ayniqsa, uning yoshlar ijtimoiy guruhi ongi va qalbida siyosiy immunitetni shakllantirishda siyosiy madaniyatning amaliy ahamiyati va samarasi beqiyos bo'ladi.

6. Milliy va umuminsoniy manfaatlarni uyg'unlashtirish. Har bir xalq va millatning o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohada manfaatlari bo'ladi. Ammo, ularning barqaror bo'lishi dunyoda kechadigan jarayonlarga ham bog'liq. Ayniqsa, XXI asr axborot asri dunyo mamlakatlarini bir-biriga shunday bog'lab qo'ydi, ularning o'zaro ayri holda hayot kechirishi mumkin bo'lmay qoldi.

7. Davlatlararo va mintaqalararo siyosiy munosabatlar hamda hamkorliklarni rivojlantirish va takomillashtirish. Bu funksiyaning amaliy ahamiyati shuki, 1991-yil kuz oylarida sobiq sho'ro hukmronligi

barbod bo'lganidan keyin uning qaramog'ida bo'lgan sobiq ittifoqdosh respublikalar o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, mustaqil siyosat olib borishga kirishdilar. Ammo, bu azaldan, bir-biriga tili, urf-odat, an'ana va qadriyatlari yaqin bo'lgan xalqlarning ba'zi davlatlar liderlarning ambitsiyalari, siyosiy his-hayajonlarga berilishi va siyosiy "men"ligini namoyish etishga qaratilgan pinhona, zimdan siyosat olib borganliklari oqibatida, deylik, Markaziy Osiyodagi xalqlarning o'zaro uzoqlashib borishiga ham o'zining ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Siyosiy ongning barqaror rivojlanishini tartibga solib turuvchi siyosiy madaniyat uning darajalaridan orqada qoladigan bo'lsa, u siyosiy jarayonlarni beqarorlikka yo'naltiruvchi omilga aylanishi turgan gap. Uning bu funksiyasi tor doiradagi yovuz kuchlar va oqimlar manfaatlariga xizmat qiladi. Shu ma'noda xam siyosiy ongning rivojlanishini mamlakat va uning fuqarolarining manfaatlariga yo'naltirib bilish siyosiy jarayonlardagi negiz vazifadir. U davlat, boshqa siyosiy institutlar va tashkilotlarning faoliyatlarida amal qilishi barqaror taraqqiyotning kafolati hamdir.

Shunday qilib, siyosiy ong va siyosiy madaniyat har birining o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, ularning rivojlanishi, takomillashuvi jamiyatda fuqarolar, millatlar, xalqlar va davlatlardagi siyosiy barqarorlikni ta'minlashga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ularning yoshlar ongida rivojlantirishga alohida e'tibor berilishini esa butun dunyoda avj olgan globallashuv jarayonining tezlashuvi taqozo qilmoqda.

O'z navbatida, fuqarolar, xususan, yoshlarimizning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini tobora rivojlantirib borish davrning talabiga aylanib ulgurdi.

2.1.3.Siyosiy madaniyatda demokratik qadriyatlarning shakllanish jarayoni

Ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan bir qatorda, shaxs, oila, nikoh, burch va turmush munosabatlari ham inson ma'naviy kamoloti uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi davrda jamiyatda

bo'lganidek, shaxs, oilada murakkab jarayonlar kechmoqda. Ularda muayyan tuzumning xarakteri, jihatlari, ziddiyatlari, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan jarayonlar o'z aksini topadi. Shu bilan birga, globallashuv hodisasi ta'sirini ham hisobga olishga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy institutlar ijtimoiy faoliyat va munosabatlarni o'zida ifodalagan, jamiyatda aniq vazifalarni bajaradigan ijtimoiy uyushmadir. U fuqaro faoliyatini rag'batlantiradi, boshqaradi, mazmun beradi, uni uyushtirib va takomillashtirib boraveradi.

“Umumiy sotsiologiya” nomli o'quv qo'llanmada uning amal qilish doirasi, vazifalari va ko'rinishlari ko'rsatib berilgan¹.

1. *Relyatsion institutlar* jins va yoshdan tortib to mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning tarkibini (rolga oid) aniqlab boradi;

2. *Regulyativ (idora etish) ijtimoiy institutlari* shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralarini va undan chiqib ketgandan keyin qo'llaniladigan sanksiyalari (ijtimoiy nazorat mexanizmlari)ni belgilab beradi;

3. *Integrativ (uyg'unlashtiruvchi) ijtimoiy institutlar* butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas'ul bo'lgan ijtimoiy rollarni ifodalaydi.

4. *An'anaviy ijtimoiy institutlar* odatlar, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalarni belgilaydi.

5. *Madaniy ijtimoiy institutlar* din, adabiyot, san'at sohalarini shakllantirib boradi.

Mazkur ijtimoiy institutlarning vazifalari quyidagilar:

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish va qaytadan tiklashga yo'naltirish;

b) ijtimoiylashish;

v) ishlab chiqarish va taqsimotni to'g'ri belgilash;

g) jamiyat tartiblariga rioya qilish va axloqni saqlab turish.

¹ Umumiy sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 1999. – B. 75.

Oila – ijtimoiy institutlarning eng asosiysi hisoblanadi. Uning faoliyati asosan ota-onalar, farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar va tarbiya (metodlar) uslublari orqali avlodni tarbiyalashdan iborat. Buning natijasi jamiyat uchun ulkan mazmun kasb etib, ijtimoiy jamiyatning huquqiy norma va qadriyatlarini aniqlab beradi.

Olimlar ijtimoiy-madaniy institutlarga o‘rta va oliy ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniy-tarbiyaviy, fan-texnika, diniy muassasalarni kiritadilar.

Ijtimoiy institutlarda ahil va do‘stona muhit bo‘lganida, turgan gapki, fuqarolarning siyosiy madaniyati ham rivojlana boshlaydi.

Ijtimoiy institutlarda ikki muhim holat o‘rganiladi:

1. *Disfunksiya*
2. *Depersonatsiya*

Disfunksiya ijtimoiy institutlarning jamiyat umummanfaatlariga muvofiq kelmaydigan passiv faoliyati bo‘lib, bu jamiyat uchun katta iqtisodiy-ijtimoiy zarar keltiradi.

Jarayon tashqi ko‘rinishi jamiyatda:

- 1) tashkiliy tartibsizlik;
- 2) kelishmovchilik;
- 3) nizo va ixtiloflikni yuzaga keltiradi.

Bu esa jamiyatni tashqaridan buzilishiga olib keladi.

Ichki disfunksiyalashuv yuz berishi xavfli bo‘lib, u maqsadsiz faoliyat, noaniq funksiya-vazifalar, fuqarolar ijtimoiy qiyofasi va obro‘-e’tiborining jamiyat a’zolari oldida tushib ketishida ko‘rinadi.

Ijtimoiy institutlar faoliyati tartibsizligi oqibatida ehtiyojlar xarakteri va kishilarning ish faoliyati ahamiyati yo‘qoladi, faqat nomigagina, namoyishkorona xizmat ko‘rsatish ko‘zga tashlanadi.

Depersonazatsiyalashuv (shaxslashtirish) jarayonida ijtimoiy institutlar barcha funksiyalarining, xususan, yuqoridan quyigacha bo‘lgan rahbarlik faoliyatida notenglik yuzaga keladi. Fuqarolarni ishga olishda, xizmat pillapoyalariga ko‘tarishda jamiyatga sodiqligi, yurtparvarligini hisobga olmasdan, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yishda xatoliklar, ya’ni kim to‘g‘ri kelsa, qabul qilish va ijtimoiy

institutlar, butun jamiyat taqdirini mas'uliyatsiz shaxslarga topshirib qo'yish holatlari yuz beradi, bu esa jamiyatni to'liq inqirozga sudraydi. Poraxo'rlik, olibsotarlik, o'g'rilik, yashirin mafiya avj oladi, jinoyatchilik va korrupsiya kuchayadi.

Oqibatda ijtimoiy institutlar faoliyat ko'rsatishdan to'xtaydi. Bu holatning belgilari xalq orasida sezila boradi, dastlab jinoyatchilar boshqaruv apparatlaridan joy olib boradi va keyinchalik jarayon tezlashadi. Agar bu noxush holatlarning oldi olinmasa, ijtimoiy institutlarda buzilishga, so'ng ijtimoiy inqirozga, Arab davlatlarida kuzatilganidek, inqilobga yoki siyosiy davlat to'ntarishiga olib kelishi mumkin.

Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish O'zbekiston jamiyatini tubdan isloh qilish jarayonining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlardagi siyosatshunos, huquqshunos, sotsiolog, faylasuf va jamiyatshunos olimlarning diqqat markazida turgan fuqarolik jamiyati institutlari muammosi O'zbekiston hayotida ham dolzarb ahamiyatga ega. Jamiyatimiz ma'lum siyosiy madaniyat darajasiga erishgani tufayli, respublikada fuqarolik jamiyatining asosiy elementlari ko'zga tashlanadi.

Fuqarolik jamiyati deganda, davlatning tazyiqsiz, qonun doirasida vujudga kelgan muayyan kishilik hamjamiyatining ixtiyoriy o'zini o'zi uyushtirish shakli tushuniladi. Fuqarolik jamiyati davlatga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan, ammo mamlakat doirasida faoliyat ko'rsatuvchi va hokimiyatga ta'sir etuvchi mustaqil jamoat, nohukumat tashkilotlari majmui. Bunday jamiyat davlat va shaxs o'rtasida o'ziga xos vositachi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda o'n mingga yaqin nohukumat va jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bular quyidagi guruhlariga bo'linadi: 1) siyosiy partiyalar; 2) ijtimoiy-siyosiy harakatlar; 3) demokratik saylov tizimi; 4) jamoat birlashmalari; 5) nodavlat notijorat tashkilotlar; 6) ommaviy axborot vositalari; 7) oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus markazlar, tashkilotlar; 8) ta'lim-tarbiya muassasalari; 9) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari; 10) diniy tashkilotlar; 11) milliy-madaniy markazlar; 12) jamoatchilik fikrini o'rganish institutlari.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan 200 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan. Bular: "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida" (1991), "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (1991), "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1992), "Siyosiy partiyalar to'g'risida" (1996), "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (1997), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" (1999), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (1999), "Jamoat fondlari to'g'risida" (2003), "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida" (2004), "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (2007), "Jamoatchilik nazorati to'g'risida" (2014), "Ijtimoiy sherikchilik to'g'risida"gi (2014) O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

Bu tizimda *o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)* ning o'rni beqiyos. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...*o'zini o'zi boshqarish organlari – bizning kelajagimiz*. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi. Biz bugun ana shu asoslarni qurishni boshladik"¹.

Mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an'analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida mahallalar maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga, mahalla tizimida birqator kamchiliklar to'planib qolganini tan olish lozim.

2023-yil 26-sentyabr kuni O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishida

¹Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'uldirmiz. –T. 9. T.: O'zbekiston. –B. 317-318.

mavjud muammolar ham tilga olindi¹. Qayd qilinishicha, O‘zbekistonda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berildi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o‘zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba‘zan samarasiz yo‘naltirilmoqda. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. *Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezonini yo‘q. Ularning ko‘p vaqti “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketmoqda.*

Demak, 2023-yil oktyabr oyidan boshlab bu sohaning tizimi o‘zgaradi hamda mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi qo‘shilib, *“mahalla yettiligi” shakllantiriladi.* Xususan, ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

Mahallada qulay va elektron ish yuritish yo‘lga qo‘yiladi. Amaldagi uchta platforma – *“Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o‘zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi.*

“Mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo‘ladi.

Prezident o‘tkazgan yuqoridagi videoselektor yig‘ilishida mahalla tizimini takomillashtirishning tashkiliy choralari belgilandi. Xususan,

¹ <https://kun.uz/news/2023/09/26/mahalla-yettiligi-tashkil-etiladi-mahalla-raisi-vakolatlari-kengaytiriladi>

mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etiladi. Respublika kengashiga – Bosh vazir, hududiy kengashlarga esa hokimlar rahbarlik qiladi. Kengashlar “mahalla yettiligi” qo‘ygan masalalarga yechim topadi, moliyaviy manbalarini hal qilib beradi.

– Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelyapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini¹,– dedi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati funksiyalarini amalga oshiruvchi ko‘plab harakatlar va tashkilotlar, huquqni himoya qilish tashkilotlari rivojlanmoqda. Ammo ularning ish ko‘lami fuqarolik jamiyatini shakllantirishning bugungi talablariga hali to‘liq javob bermaydi.

2.2. SHAXS VA SIYOSIY MADANIYAT

2.2.1. Yuksak siyosiy madaniyat – farovon jamiyat qurishning muhim sharti

Ayrim skeptiklar O‘zbekiston o‘z rivojlanishida G‘arb mamlakatlaridan qolib ketgani va unda fuqarolik jamiyati mavjud emasligini qayd etayotgan bo‘lsalar-da, mamlakatimizda bunday jamiyatning shakllanayotganligini ko‘rsatuvchi belgilar tobora ko‘zga tashlanib bormoqda. Yuksak siyosiy madaniyatga erishish – fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning muhim va zarur shartlaridan biriga aylanmoqda.

Ma’lumki, fuqarolar madaniyati fuqarolik jamiyatining muhim elementi bo‘lib, uning negizini demokratik siyosiy va huquqiy madaniyat tashkil etadi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida avtoritar siyosiy madaniyatda namoyon bo‘luvchi avtoritar mentalitet yetakchilik qiladi. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim sharti bo‘lgan

¹ O‘sha manba.

asosiy ijtimoiy qadriyatlar yuzasidan hanuz murosaga kelingani yo‘q. Bu “anomiya” deb ataluvchi vaziyatning yuzaga kelishiga olib keldi.

Anomiya deganda bir normativ qadriyatlar tizimi buzilgan, ammo uning o‘rnida yangi normativ qadriyatlar tizimi hali vujudga kelmagan vaziyat tushuniladi. Bu ma’noda birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning: “Yangi uyni qurmasdan, eski uyni buzming”, degan so‘zlari yodga tushadi. Liberalizm institutlari (erkinlik, demokratiya, qonun ustuvorligi va h. k.) hamda insoniylikning ayrim an’anaviy talablari (fuqarolar farovonligi haqida g‘amxo‘rlik, ularga munosib yashash sharoitini yaratish, muayyan ijtimoiy tenglikni ta’minlash, iste’dodlarni qo‘llab-quvvatlash va h. k.)ni sintez qilish maqsadida ijtimoiy davlatni birlashtirish g‘oyasi yetakchi o‘ringa chiqmoqda.

Ijtimoiy davlat odamlar o‘rtasida ijtimoiy adolat, ijtimoiy hamkorlik va fuqarolar totuvligi prinsiplariga asoslangan yangi ijtimoiy aloqalarni shakllantiradi. U o‘z fuqarolarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini va jamiyatda ijtimoiy totuvlikni saqlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar hozirgi kunda mazkur yondashuvni o‘z davlat qurilishiga tatbiq etishga harakat qilmoqda. Bunday yondashuvda davlatga jamiyat ishlarini boshqarish, ya’ni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va aholining turli tabaqalari manfaatlarini e’tiborga olish, ziddiyatlarni bartaraf etish yoki yumshatish va fuqarolar totuvligi yo‘llarini izlash mexanizmi deb qaraladi.

Shuni aytish lozimki, dunyo tajribasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, *ijtimoiy davlat* bu jamiyatning siyosiy tashkiloti, ya’ni tom ma’noda davlatdir. Ijtimoiy davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya’ni ular o‘rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo‘yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj

qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizim orqali yordam ko'rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, maqsad yaratilgan ne'matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Ikkinchidan, jahondagi sotsial-demokratik harakatlarning asosiy mazmunini ijtimoiy davlatning yaratuvchanlik va uning vositasida aholini o'ziga jalb qilish orqali davlatni boshqarishga harakat tashkil etadi. O'z navbatida, bu usul ko'pgina davlatning konstitutsiyalarida hamda boshqa qonunlarida aks etgan. Davlat tomonidan ijtimoiy kafolat iqtisodiyot (avvalambor, yirik biznes) va soliq siyosatini boshqarish orqali ta'minlanadi¹.

Ammo bu g'oyalar va siyosat oldingi sotsialistik g'oyalardan keskin farq qiladi. Sotsialistik g'oyalarga asoslangan sobiq ittifoq tizimiga aholini mulksiz qilib qo'yish, fuqarolarning ijtimoiy kafolati faqat qog'ozlarda qolib ketishi, ijtimoiy mas'uliyat va raqobatning yo'qligi xos edi. Natijada aholining ijtimoiy faolligi pasayib ketgandi. Kelajakni yaratish, yangilanishga, o'zgarishlarga bo'lgan harakat qo'llab-quvvatlanmagani uchun ijtimoiy mobillik va ijtimoiy yaratuvchanlik yo'qolgan edi. Umuman, bu tajriba jamiyat uchun teskari natija berishini hayotning o'zi tasdiqladi. Lekin tarixning boshqa kesimida ijtimoiy davlatchilik tajribasini ilgari surgan G'arb davlatlarida katta ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlar ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi², deb yozishadi professorlar S.Jo'rayev va Sh. Madayeva.

Birinchidan, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat byudjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o'z bo'yniga oladi. Bu davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Bu

¹ Qarang.: Ijtimoiy davlat deganda nimani tushunamiz? 14.06.2022. <https://darakchi.uz/uz/146657>

²O'sha joyda.

faoliyat davlat byudjeti va ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, yaʼni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga masʼul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish bilan shugʻullanmaydi. Ijtimoiy xarajalar davlat va xususiy ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmalari tomonidan qoplanadi. Yaʼni ijtimoiy taʼminot byudjetdan ajratiladigan mablagʻlar hamda ish beruvchi va xodimlarning sugʻurta badallaridan taʼminlanadi.

Shunday qilib, birinchidan, Skandivaniya, Kontinental, Amerika -Britaniya modellari boʻyicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablagʻlar ajratiladi, bir vaqtning oʻzida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama oʻrganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shugʻullanish natijasida olinadigan har tomonlama kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini taʼminlashning asosiy manbaidir.

Ikkinchidan, ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy neʼmatlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud.

Uchinchidan, ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni oʻz vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yoʻlga qoʻyilgan.

Toʻrtinchidan, ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida - Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda.

Ijtimoiy davlat fenomenining mazmunini aniqlashtirish uchun masalaning tarixiga murojaat qilaylik. Ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyoti garchi davlat g'oyasini oziqlantiruvchi ildizlar ancha oldin - davlatning o'zi institut sifatida paydo bo'lishi bilan bir vaqtda paydo bo'lgan bo'lsa-da, u XX asrning ikkinchi yarmida rivojlandi va tan olindi.

"Ijtimoiy davlat" tushunchasi birinchi marta fanga 1850-yilda Lorens fon Shtayn tomonidan kiritilgan. Shtayn ta'rificha, "ijtimoiy davlat" jamiyatdagi har xil ijtimoiy tabaqalar, hatto alohida, xususiyligi o'zini o'zi belgilaydigan shaxs uchun mutlaq tenglikni saqlashga majburdir. U barcha fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga hissa qo'shishi kerak, chunki oxir-oqibat, birining rivojlanishi ikkinchisining rivoji uchun xizmat qilishidan kelib chiqib, unga ijtimoiy davlat deyiladi"¹.

Ijtimoiy davlat nazariyasining umume'tirof etilgan nazariy asoschilari: Platon, J. J. Russo, J. S. Mill, O. Bauer, K. Kautskiy, J. M. Keyns, K. Renner, L. Erxard. E. N. Rudik ta'kidlaganidek, "Rossiyaning turli xil, ba'zan "qutbli siyosiy yo'nalishlar"dagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va huquqiy tafakkur egalari bu muammoni negadir e'tiborsiz qoldirishdi.

Ijtimoiy davlatning paydo bo'lishi amaliyoti ham xilma-xil variantlarga ega. Misol uchun, Paragvayda iyezuitlar davlati (XVIII asr o'rtalari), Otto von Bismarkning mashhur ijtimoiy islohotlari (1815-1898), Germaniya natsional-sotsialistlarining "oriylar uchun ijtimoiy davlat", "Salo ijtimoiy Respublikasi" (1943-yil noyabr-1945-yil aprelda fashistik Italiyaning so'nggi bosqichida poytaxtiga aylangan Salo shahri), ijtimoiy davlatning Sovetcha varianti².

Hozirgi vaqtda ijtimoiy davlatning demokratiya bilan bog'liq jihatlari Avstriya, Germaniya, Gretsiya, Ispaniya, Italiya, Gollandiya, Portugaliya, Skandinaviya mamlakatlari, Fransiya, shuningdek, sobiq

¹Sm.:<http://www.dslib.net/teoria-prava/publichnye-uslugi-teoretiko-pravovoy-aspekt.html>
Morozova YE.V. Publichniye usluga: teoretiko-pravovoy aspekt. . Avtoreferat kand. yurid. nauk. Ros. univ-t koop. – Mitishi, 2009.

² O'sha joyda.

postsovet respublikalarida (Armaniston, Belorussiya, Gruziya, Qozog‘iston, Tojikiston, Ukraina) u konstitutsiyaviy normaga kiritildi. Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari; ularning asosiy qonunlarida tegishli qoidalar mavjudligi yoki yo‘qligidan qat’i nazar, ular ko‘p yoki kamroq darajada amalda ijtimoiy davlatlar sirasiga kiradi. O‘zbekiston ham bundan mustasno emas¹.

“Biz Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurishni maqsad qilyapmiz. Buni Konstitutsiyada mustahkamlashimiz kerak. Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir, dedi prezidentimiz Sh. Mirziyoyev. Shu bois, birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. *“Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”*. Ma’rifatparvar jadid bobolarimizning bu so‘zlari deputat va senatorlarimiz, siyosiy partiyalar, mahalliy kengashlar, butun davlat apparati, keng jamoatchilikning amaliy harakatiga aylanishi kerak. Shu bois, maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash 2023-yildagi eng asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ayrim olimlar ijtimoiy davlatning o‘ziga xos belgilari mavjud ekanini ta’kidlab, Lorens fon Shteyndan (“ijtimoiy davlat” tushunchasini ilk bor 1850-yilda fanga kiritgan olim) farqli ravishda ushbu omillarini keltirib o‘tadilar²:

– aholining daromadlari va boyliklarini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi;

– ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti;

¹ O‘sha joyda.

² https://www.uzbekistan.org.ua/uz/uzbekistan-uz/107-yangiliklar_/6256-%D1%9E%D0%B7%D0%B1%D0%B5%D0%BA%D0%B8%D1%81%D1%82%D0%BE%D0%BD-%E2%80%94

- ko‘p tarmoqli va aralash iqtisodiyot;
- fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish;
- davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta‘minot va shaxs sifatida o‘zini o‘zi anglash yo‘lida teng boshlang‘ich sharoitlarni ta‘minlash maqsadlarini tasdiqlash;
- fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;
- sug‘urta ijtimoiy to‘lovlarining rivojlangan tizimi va byudjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to‘lovlarning yuqori miqdori;
- aholining barcha guruhlar uchun xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;
- byudjet ijtimoiy to‘lovlarining mavjudligi;
- ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta‘minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;
- jamiyatning barcha muhtoj a‘zolarini istisnosiz ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;
- fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o‘z zimmasiga olishi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi bir vaqtda huquqiy demokratik davlat ham rivojlanib borishini, shaxs va davlat hokimiyati huquqning teng subyektlari sifatida maydonga chiqishini taqozo etadi. Davlat ma‘lum kafolatlar tizimini tashkil etganligi tufayli, fuqarolik jamiyati faoliyat yuritish va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning o‘zaro bog‘liqligi ana shunda. Demokratik tuzumning zarur sharti hisoblangan huquqiy davlatning asta-sekin rivojlanishida hokimiyatning an‘anaviy tarzda uch bo‘g‘inga taqsimlanishigina emas, balki ularni to‘ldiruvchi hokimiyatning fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasida taqsimlanishi ham namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyati negizini kuchaytirish va davlat paternalizmini¹ kamaytirish uchun hozirgi kunda O'zbekistonda ham o'zini o'zi tartibga solish mexanizmi shakllantirilmoqda, iqtisodni monopoliyadan chiqarish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiylashtirishning birinchi darajali masalalari, ya'ni bozor iqtisodiga amaliy o'tish masalalari hal qilinmoqda.

Shuni qayd etish lozimki, bu mashaqqatli yo'lda yangi fuqarolik tuzilmalari va davlat hokimiyati o'rtasida ba'zan murakkab munosabatlar yuzaga kelmoqda. Davlat apparati fuqarolarning uyushmalari hisobiga o'z vakolatlarini bajarishga harakat qiladi. Bag'rikenglik va hamkorlikda ish olib borish o'zbek xalqining mentalitetiga xosdir. Umid bildirish mumkinki, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda ayni mana shu xususiyatlar doimo yetakchilik qiladi.

O'zbekistonda yoshlar fuqarolik jamiyati ijtimoiy negizining o'zagini tashkil etishi muhim masaladir. Biroq, bir tomondan, yoshlar fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etishga qodir bo'lgan an'anaviy qadriyatlardan hali uzoq, ammo, shu bilan bir vaqtda, ular qonun ustuvorligi, murosaga kelish singari huquqiy normalarni qabul qilishga intilmog'i lozim.

Ayni paytda, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy negizini o'rta avlod vakillari, shuningdek aholining oliy ma'lumotli qatlami tashkil etmoqda. Hokimiyat tuzilmalarida gender tenglik asosida xotin-qizlar vakillari hissasini oshirish jamiyat rivojlanishining hali yetarlicha foydalanilmagan salohiyat zaxirasidir.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi mulkni oqilona va izchil ravishda davlat tasarrufidan chiqarish, byurokratiya apparatini qisqartirish va mo'tadillashtirish, ko'p partiyali tizimni rivojlantirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'bat berish, maqbul ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish singari omillarga bog'liq bo'lib turibdi. Bu nuqtayi nazardan fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan

¹Paternalizm – lot. paternus – otalarcha, otalik – davlatning o'z fuqarolariga, bir mamlakatning boshqa mamlakatga homiylik, g'amxo'rlik munosabati. Paternalizm – Vikipediya (wikipedia.org)

asosiy munosabatlarni qaror toptirish va tartibga solish o‘ta muhim, deb hisoblaymiz. U huquq yordamida uch asosiy vazifani hal qilish: fuqarolik jamiyati ishlariga va fuqaroning shaxsiy hayotiga davlatning ortiqcha aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik, davlatning fuqarolik jamiyati oldidagi burchlarini qonunlar vositasida hal etish, huquqiy davlat to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy qoidalarining ro‘yobga chiqarilishini ta’minlash imkonini beradi.

Jamiyat hayotini yangilash va jahon andozalariga mos ravishda qurishda modernizatsiyalash katta rol o‘ynaydi. Siyosiy modernizatsiyalash – murakkab kompleks jarayon. Unda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-madaniy tarmoqlar o‘zaro bog‘lanib, bir-biriga mazmun bag‘ishlaydi; agar ular orasida ajralish yuz bersa, modernizatsiya qisman amalga oshishi mumkin.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha. “jamiyatda ijtimoiy guruhlarining daromadi keskin farqlansa, samarali iqtisodiy o‘shishga erishilmaydi; madaniy darajali yetuk shaxs shakllanmasa, bozor tuzilmalari shakllanmaydi; fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanmasa, demokratik qadriyatlar rivojlanmaydi”¹. Har bir talab va mezonlar bir-biriga bog‘lanib ketadi va ular to‘la hisobga olinmasa, jarayon uzoqqa cho‘ziladi va ko‘plab bosqichlarni talab etadi.

Xulosa shuki, globallashuv davrida jamiyatda kechayotgan yangilanishlar jarayoni murakkab va ziddiyatli jarayon bo‘lib, eskilik va yangilik, progressiv va regressiv ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning kurashi shaklida namoyon bo‘ladi. Bunday sharoitda fuqarolik jamiyati rivojlanishi kishilarning yuksak siyosiy madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi.

2.2.2. Axborot xavfsizligi va yoshlar

Respublika aholisining siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Biroq hozirgi kunda OAVdan aholi foydalanadigan

¹ Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. –T.: Aloqachi, 2019. – B. 14-15.

ijtimoiy-siyosiy axborot hajmi unchalik salmoqli emas. Tegishli materiallarni o‘qish, radio tinglash va televizor tomosha qilishga sarflanadigan jami vaqtning qisqarayotgani, OAV bozorini chet el axborot kanallari, ijtimoiy tarmoqlar asta-sekin egallayotgani, bozor munosabatlariga o‘tilishi munosabati bilan OAVga aholi ajratayotgan vaqtning qisqarib borayotgani, ya’ni iqtisodiy faollashuv natijasida televideniye, gazeta va jurnallarga kam vaqt qolayotgani kuzatilmoqda. Faqat radio bundan mustasno bo‘lib, so‘nggi besh yilda respublikada FM axborot-ko‘ngilochar radiokanallari sonining ko‘payishi bilan uni “iste’mol qilish” hajmi ham oshdi.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, axborot xavfsizligi va yoshlar masalasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Axborot xavfsizligiga tahdidlar ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi. Mutaxassislarning e’tirofiga, axborot xavfsizligining jamiyat hayotida dolzarb muammoga aylanishiga asosan tashqi manbalar sabab bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda axborot texnologiyalari va axborot boshqaruvi yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlar o‘zidagi bu ustunlikdan ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatish yo‘lida foydalanishdan manfaatdor bo‘ladi.

Axborot xavfsizligiga tahdidning tashqi manbalari ushbular:

- chet el josuslik va maxsus xizmatlarining faoliyati;
- chet el ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari;
- xalqaro guruhlar, tuzilmalar va alohida shaxslarning noqonuniy harakatlari;
- axborot tarqatish va foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar siyosatining amalga oshirilishi
- tabiiy ofatlar va fojialar.

Axborot xavfsizligiga tahdidning ichki manbalari quyidagilar:

- siyosiy, iqtisodiy va jamoat tashkilotlarining, alohida shaxslar va guruhlarining axborot to‘plash, tarqatish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari;

– axborot sohasida fuqarolar va tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi davlat tizimlarining qonuniy harakatlari va ko‘zda tutilmagan xatolari;

– axborot tizimlarining dasturiy-texnik vositalarining bazaviy texnologiyalarini yaratish, sinash va ishlab chiqarish bo‘yicha mahalliy sanoatining talab darajasiga emasligi¹.

Axborot makonining vujudga kelishi nafaqat uni bo‘lib olish, balki unda kechayotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishni xohlovchi tomonlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu guruhlarining kurash vositasi ham aynan axborot qurolidir. *Tahlilchilar axborot quroli deganda odamlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatadigan va ularning ustidan nazorat qilish imkonini beruvchi vositalarni, kompyuter viruslarini, mantiqiy bomba, telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini bostiruvchi moslamalarni, davlat va harbiy sohalarni boshqarishda axborotlarni soxtalashtirish kabi harakatlarni nazarda tutishadi.*

Axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning asosiy ta’sir vositasi bir martalik tashviqot aksiyalari, uzoq muddatli targ‘ibot kampaniyalari, mafkuraviy tazyiq, madaniy ekspansiya, axborot blokadası kabi ruhiy-informatsion ta’sir vositalari hisoblanadi.

Globalashgan axborot maydonida ruhiy-informatsion ta’sir vositalarini to‘liq cheklash yoki nazorat qilish imkonsiz, zero, demokratik boshqaruv, fikrlar xilma-xilligi bunga yo‘l qo‘ymaydi. Aslida tarqatilayotgan har bir axborot qayta-qayta tekshirilgan bo‘lishi lozim. Ammo reallik bu sarobni amalga oshirishga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun muammoning boshqa yechimlarini izlash maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz. Bular:

birinchidan, tashqi tahdid kuchlariga nisbatan munosabatni shakllantirish;

ikkinchidan, fuqarolarning bilimini va tahlil qilish mahoratini o‘chirish (oqni qoradan ajratib olish);

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risidagi” 439-II-son qonuni. 12.12.2002-y. <https://www.lex.uz/acts/52268>

uchinchidan, axborot oqimida jamiyat va davlat manfaatlariga mos bo'lgan axborotni odamlar tezroq qabul qiladigan va ishonadigan darajaga olib chiqish;

to'rtinchidan, milliy OAVga ishonchni oshirish;

beshinchidan, axborot boshqaruvi va texnologiyalari sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash¹.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvining kuchayishi ulardan global axborot maydonida o'z imijini yaratishni talab qilmoqda. Chunki globallashtirish inson hayotini qanchalik shiddatkor qilmasin, har bir millatning o'ziga xosligi, milliy qadriyat va an'analarga sodiqligi, umuman, uning millat sifatida o'zligini saqlab qolishiga jiddiy tahdid soladi. Shuning uchun ham axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari bugun nafaqat rivojlanayotgan, balki dunyoning yetakchi davlatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi².

Shaxsning axborot xavfsizligiga daxl qilganlik uchun javobgarlik normalarini qo'llash axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, mamlakatimizda 2007-yilda "Axborotlashtirish va ma'lumotlar uzatish sohasida qonunga xilof harakatlar sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi³.

So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning shiddat bilan rivojlanishi dunyoni ikki qismga bo'lib yubordi: *onlayn* va *oflayn*. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqining 2019-yil 5-noyabrdagi ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 4,1 milliard odam, ya'ni sayyoramiz aholisining yarmidan ko'pi internetdan foydalanmoqda va bu ko'rsatkich tobora ortib bormoqda. Ayni paytda, dunyoda yuzlab ijtimoiy tarmoqlar mavjud, har biri 10 milliondan ortiq a'zoga ega bo'lgan tarmoqlar soni ham 20 dan

¹ Internetda axborot xavfsizligi. <https://nargis.uz/?p=197>

² Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. – T.: 2012. – B. 54-55.

³ O'sha joyda.

oshadi. Mazkur tarmoqlardagi akkauntlarning umumiy soni 6 milliarddan ko‘proqdir.

Tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining asosiy qicmini 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etayotganini ko‘rsatmoqda. Bugungi yoshlarning deyarli barchasi ijtimoiy tarmoqlarda faol ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, bu tarmoqlarning qanchalik jiddiy kuch ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Demak, bu borada ulkan tashkiliy-huquqiy tadbirlarni amalga oshirishga zarurat kuchaymoqda.

Ma’lumki, ijtimoiy tarmoqlarda istalgancha do‘st orttirish, guruhlar a’zo bo‘lish, ulashilgan havolalarga kirib ko‘rish, tarqatilgan materiallarga layk bosish, o‘z qarashlarini targ‘ib qilish imkoniyatlari mavjud.

Ijtimoiy tarmoqlarning qulay jihat va imkoniyatlaridan ilm-fan, texnika va texnologiyalar, adabiyot va san’at, jumladan, huquq-tartibot tizimida ham faol foydalanilmoqda¹. Jumladan, ijtimoiy media huquq targ‘iboti va aholining huquqiy savodxonligini oshirishning eng qulay, ommabop vositasi ekanini bugun hech kim inkor etolmaydi. Faqat bu vositadan foydalanish samaradorligini oshirishda uning imkoniyatlarini to‘la o‘zlashtirish, kontentning qiziqarli va jozibadorligini oshirish, targ‘ibot materiallarining xalqchil, ommabop, oson til va usulda tayyorlanishiga erishish lozim.

Bugun “YouTube”, “Telegram”, “Facebook”, “Twitter” va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy mavzudagi yuzlab guruhlar, bot va kanallar, akkauntlar faoliyat ko‘rsatadi. Ularning ayrimlari allaqachon yuz minglab obunachilarni to‘plab ulgurgan.

Ijtimoiy tarmoqlar hayotimizni ancha osonlashtirish barobarida bizni o‘ziga yanada kuchliroq jalb etmoqda. Ular yordamida musiqa tinglash, kitob o‘qish, suratlar tomosha qilish va boshqa ko‘plab ishlarni bajarish mumkin. Ijtimoiy tarmoq tilimizdagi hali ohori to‘kilmagan atamalar qatoridan chiqmagan bo‘lsa-da, uning ildizlari ancha uzoqqa

¹Jabborov R. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot: tavsif, tahlil va tavsiyalar. <https://huquqburch.uz/uz/izhtimoiy-tarmo%D2%9Blarda-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bij-tar%D2%93ibot-tavsif-ta%D2%B3lil-va-tavsiyalar/>

borib taqaladi. U haqidagi ibtidoiy tasavvurlar bir qator yozuvchilarning asarlarida ham uchraydi. Bunga Tomas Mor, Gerbert Uelc, Jorj Oruell, Rey Bredberi, Genri Clizar, Janni Rodari singari adiblarning asarlarini misol keltirish mumkin.

Bugungi zamonaviy bloglar, ijtimoiy tarmoqlar, internet tizimi ruc yozuvchici va faylasufi Vladimir Odoevskiyning (1803-1869) “4338-yil” romanida ham o‘z aksini topgan edi. 1837-yilda yozilgan ushbu asarda tasvirlangan manzaralar nimasi bilandir XXI asrni esga soladi. Unda tasvirlanishicha, turli uylar o‘rtasida magnetik telegraf moslamalari o‘rnatilgan bo‘lib, odamlar uylaridan chiqmasdan turib o‘zaro muloqot qiladilar. Ushbu moslamalar orqali ular o‘z oilalarida yuz berayotgan voqea-hodisalar, jamiyatdagi o‘zgarishlar, kundalik masalalar yuzasidan fikr almashadilar¹.

O‘sha paytda o‘quvchilar bu tafsilotlarga shunchaki adibning taxayyuli mahsuli, deb qarashgan. Oradan bir yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tib bu taxayyul haqiqatga aylanishi hech kimning tasavvuriga sig‘magan bo‘lsa kerak.

“Ijtimoiy tarmoq” atamasini 1954-yilda sotsiolog Jeyms Barns muomalaga kiritgan bo‘lib, o‘sha paytlarda uning internetga aloqasi bo‘lmagan va unga shunday ta’rif berilgan: *«Ijtimoiy tarmoq – ijtimoiy obyektlar hisoblanadigan (odamlar va tashkilotlar) tugunlar guruhi va ular orasidagi aloqalar (ijtimoiy munosabatlar)dan tarkib topgan ijtimoiy tuzilmadir»*².

Oddiyroq qilib aytganda, ijtimoiy tarmoq – ma’lumotlar, bir taraflama yoki ikki taraflama aloqalarga ega bo‘lgan odamlar guruhidir.

1969-yilda internet tarmog‘i paydo bo‘lishi bilan Jeyms Barnsning nazariyasi dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy tarmoqlarning “xalqaro o‘rgimchak to‘ri” yanada keng ommalashuviga olib keldi.

¹ Odoevskiy V. F. Povesti i rasskazi, GIXL, 1959. Primechaniya E. Y. Xin No "Im Werden Verlag". Nekommercheckoe elektronnoe izdanie. Myunxen. 2006. <http://imwerden.de.4338-ygod>.

² Jeymc Barns. Sotsialnaya set (sotsiologiya). <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

Kompyuter texnikasi yordamida yaratilgan ilk ijtimoiy tarmoq 1971-yilga tegishli – uning a’zolari o‘sha paytlarda muomalada bo‘lgan ARPANET tizimi orqali o‘zaro ma’lumot almashishgan. Oradan 17 yil o‘tib, 1988-yilda finlyandiyalik olim Yarko Oykarinen “IRC” – qayta translyatsiya qilinadigan internet-chatga asos soldi. Bu esa foydalanuvchilarga real vaqt davomida o‘zaro muloqotga kirishish imkonini berdi.

Bugungi ko‘rinishdagi dastlabki ijtimoiy tarmoq – Klassmates.kom ilk bor amerikalik Rendi Konrads tomonidan tuzilgan. Unga dastlab turli oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari a’zo bo‘lishgan. Bu tarmoq orqali keyinchalik har bir bitiruvchi sinfdosh va kursdoshlarini izlab topa oladigan bo‘ldi. Bizda bir paytlar ancha ommalashgan “Odnoklassniki” ham ushbu ijtimoiy tarmoqning ruscha ko‘rinishi edi.

Ayni paytda ommalashgan ayrim ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga qisqacha ta’rif berib, ularda huquqiy targ‘ibotni qanday yuritishga doir tavsiyalarimizni bersak.

YouTube – foydalanuvchilarga videomahsulotni saqlab olish, etkazib berish va ko‘rish imkonini beruvchi videoxosting hisoblanadi. Foydalanuvchilar tarmoqqa chiqarilgan videolavhalarga izoh bildirishlari, baholashlari, saqlab olishlari, bo‘lishishlari mumkin. 2012-yil yanvar oyida saytga joylashtirilgan jami videolavhalar soni 4 milliardga etgan.

Bugungi kunda YouTube xalqaro reklama bozoridagi eng yirik platformalardan biridir. *2019-yil yakunlariga ko‘ra YouTube videoservisidagi reklamadan tushgan daromad 15,15 milliard AQSh dollarini tashkil etdi*¹.

Bu kanalda ish yuritish va kutilgan natijalarga erishish uchun ijtimoiy tarmoqlardagi faollikdan tashqari boshlovchilik, rejissyorlik, jurnalistlik, prodyuserlik mahorati ham talab etiladi. YouTube sahifasi orqali minglab, yuz minglab muxlislarga ega blogerlar juda ko‘p.

¹Jabborov R. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot: tavsif, tahlil va tavsiyalar. <https://huquqburch.uz/uz/izhtimoiy-tarmo%D2%9Blarda-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bij-tar%D2%93ibot-tavsif-ta%D2%B3lil-va-tavsiyalar/>

Har bir internet foydalanuvchisi deyarli har kuni huquqiy masalalar bilan to‘qnash keladi. YouTube esa bunday masalalarga yechim topishda muhim platforma ekani ko‘pchilikka ma’lum.

Shu bilan birga, YouTube videoblog yuritishning eng ishonchli va oson hamkorlaridan biri sanaladi. Chunki YouTube o‘z a’zolari soni oshishidan manfaatdor: namoyish etilayotgan materiallar uchun sizdan pul talab qilmaydi. Faqat buning evaziga sizning ushbu tarmoqqa joylagan kontentingiz orasida (agar obunachilar soni 10 ming kishidan oshsa) o‘z reklamalarini joylashtiradi va bundan pul ishlab olish imkoniyatini ham taqdim etadi.

YouTubeda bimalol yirik hajmdagi targ‘ibot filmlari, videoroliklar, videobloglar, ko‘rsatuvlarni joylash mumkin. YouTube asosan videokontent uchun mo‘ljallangan. Shu sababli undan internet tezligi yuqori bo‘lgan joylarda ko‘proq foydalanishadi¹.

Facebook bugungi kunda ikki milliarddan ortiq a’zosi bilan dunyodagi eng yirik ijtimoiy tarmoq bo‘lib turibdi. U foydalanuvchilar uchun o‘zi haqida suratlar va ma’lumotlar berish, do‘stlarni taklif qilish, ular bilan xabar almashish, o‘zining va boshqalarning “devor”larida xabar qoldirish, “tasma”da aylanayotgan suratlar va materiallarni izohlash, turli soha va qiziqishlardan kelib chiqib guruhlar yaratish imkonini beradi.

Tarmoqqa 2004-yil 4-fevral kuni Garvard universiteti talabasi Mark Sukerberg hamda uning saboqdosh do‘stlari Eduardo Caverin, Dastin Moskevis, Kris Xyuzlar asos solishgan. Tarmoqqa dastlab faqat Garvard universiteti, keyinchalik Bostondagi boshqa oliy ta’lim muassasalari va nihoyat AQShning barcha universitetlari talabalari kira olishgan bo‘lsa,

2006-yildan boshlab elektron pochtaga ega bo‘lgan butun dunyo internet foydalanuvchilari bunday imkoniyatga ega bo‘lishgan².

O‘zbekiston sharoitida Facebook orqali huquqiy targ‘ibot materiallarini tarqatish yaxshi samara berishi mumkin. Facebook

¹ Qosimova N. Onlayn jurnalistika. Darslik. – T.: 2019. – 184 b.

²https://www.arendator.ru/articles/157134-facebook_mdash_odna_iz_samyh_populyarnyh_sosialnyh_seteyh_v_mire/

nafaqat biror ma'lumotni qoldirish, balki u haqda boshqalarning fikrini, izohlarini o'rganish uchun ham ancha qulay. Facebookdan bugungi kunda deyarli butun dunyoda foydalanilishi undagi materiallarni xorijdagi hamyurtlarimiz bilan ham bo'lishish imkonini beradi. Har bir xabarga (post) munosabat bildirish imkonining borligi huquqiy sohadagi biron-bir o'zgarishni jamoatchilik qanday qabul qilayotganini bilishda muhim o'rin tutadi.

Postlar xatosiz, sodda, aniq va to'g'ri bo'lishi kerak. Imkoni boricha infografika, fotosurat, roliklardan foydalangan ma'qul. Chunki aksariyat foydalanuvchilar voqelikni vizual qabul qilishni afzal ko'radi. Ya'ni, o'qishni emas, ko'rishni xohlashadi. Shu sababli qaysidir qonun yoki qaror matnini sahifaga joylash yoki tegishli saytga havola (link) berish bilan maqsadga erishish qiyin¹.

Targ'ibot so'zi odamlarni cho'chitib qo'yishi mumkin. Shu sababli odatda targ'ibot imkon qadar engil, xalqchil, aholi oson hazm qiladigan darajada bo'lishi kerak. Qonun, qaror yoki farmondan to'g'ridan-to'g'ri iqtibos yoki ko'chirma keltirishdan qochish kerak. Chunki bunday matnlarni huquqiy saytlardan ham bema'lol topsa bo'ladi.

Instagram – ijtimoiy tarmoqlar ichida yulduzidir. Chunki bugun zamonamizning barcha yulduzlari o'sha erda. Balki shu sabablidir, instagram kontingenti bugun ijtimoiy tarmoqlar orasida eng shiddat bilan o'sayotgan tarmoqdir. U erda reklama va targ'ibot katta masshtabli, salmoqli va samarali bo'lishi mumkin. Faqat instagramni to'g'ri yuritishni va u erning "aholisi" qiziqishlarini hisobga olgan mos kontent taqdim qilishni bilish kerak.

Instagramga oldinroq kirganning oshig'i olchi, ularni kuzatuvchilar auditoriyasi allaqachon shakllangan va sodiq. Yangi ishtirokchi sifatida kirib borib birdaniga bunday muvaffaqiyatga erishish ancha mushkul vazifa. Chunki raqobatchilar yetarli, mushtariylar soni esa cheklangan (instagramda ularni folloverlar deb

¹Jabborov R. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ'ibot: tavsif, tahlil va tavsiyalar.<https://huquqburch.uz/uz/izhtimoiy-tarmo%D2%9Blarda-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bij-tar%D2%93ibot-tavsif-ta%D2%B3lil-va-tavsiyalar/>

atashadi). Lekin eplasa bo‘ladi, ayniqsa o‘zbek tilida yuritiladigan huquqiy mavzudagi instabloglar deyarli yo‘qligini hisobga olsak.

Xo‘sh, ishni nimadan boshlash kerak? Qanday qilib instagramga huquqiy mazmundagi kontentni tayyorlash va uni imkon qadar kengroq auditoriyaga tarqatish mumkin? Auditoriya bilan muntazam muloqot qanday amalga oshiriladi? Instafollowerlarning e‘tiborini qanday qozonish mumkin? Odamlarga ta’sir o‘tkazish – targ‘ibotchi uchun juda muhim, zarur sifat. Ammo ijtimoiy tarmoqda obunachilar bilan yaqin, samimiy aloqa o‘rnatmay turib, inflyuenser bo‘lish, ya’ni ommaning fikriga ta’sir o‘tkazish va uni ergashtirish mumkin emas. O‘quvchilaringiz sizni shunchaki o‘qishlari kifoya emas, ular sizga ishonishlari kerak.

Instagramning boshqa ijtimoiy tarmoqlardan farqi shundaki, unda ma’lumotlar asosan pozitiv yo’sinda taqdim qilinsa yaxshi ommalashadi. Chunki instagram ko‘pincha go‘zal, muammosiz, yorqin hayotni ko‘rsatadigan tarmoq.

Twitter so‘zi inglizcha tweet (chug‘urlash, vijirlash, sayrash) so‘zidan olingan bo‘lib, sayrovchi, bidirlovchi, vijirlovchi kabi ma’nolarni anglatadi. Ushbu ijtimoiy tarmoqda joylangan materiallar, ma’lumotlar, postlar “tvitlar” deb ataladi.

2011-yilda bu ijtimoiy tarmoq a’zolari soni 200 million kishi edi, 2019-yil fevral oyida ularning umumiy soni 320 milliondan oshdi. 2009-yil avgust oyidagi tadqiqot natijalariga ko‘ra Twitter tarmog‘idagi jami xabarlarining 41 foizini dunyodagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq munozaralar, 38 foizini oddiy so‘zlashuvlar, 9 foizini retvitlar (takrorlangan “tvit”lar) 6 foizini o‘z-o‘zini reklama, 4 foizini spamlar va faqat 4 foizini yangiliklar tashkil qilgan. 2017-yildan boshlab Twitterdagi har bir xabar hajmi 280 ta belgigacha oshirildi¹.

Mamlakatimizda Twitter foydalanuvchilarining aksariyat qismini ziyoli qatlam vakillari tashkil etadi. Ammo sekin-asta boshqa tarmoqlar qatori ommalashib bormoqda.

¹O‘sha manba.

E'tibor qilgan bo'lsangiz, ko'pgina yirik axborot agentliklari, telekanallar va saytlar mashhur siyosatchilar, davlat rahbarlari, kino va estrada yulduzlarining Twitterdagi sahifalaridan birlamchi manba sifatida foydalanadilar. Chunki mashhur insonlar o'zlarining aniq, lo'nda fikrlarini ifodalashda Twitter imkoniyatlaridan keng foydalanishadi.

Huquqiy targ'ibotda qisqalik va anqlik muhim hisoblanadi. Ayrim qonun va qarorlardagi uzundan-uzoq, murakkab jumlar Twitter uchun xos emas. Shu sababli Twitterga mo'ljallangan targ'ibot materiallari imkon qadar qisqa va tushunarli bo'lsa, ko'pchilikka manzur bo'ladi.

Telegram – bugungi kunda eng keng tarqalgan messenjerlardan biri. Rossiyalik dasturchi va tadbirkor Pavel Durov tomonidan 2011-yilda yaratilgan. Dastlab VKontakte ijtimoiy tarmog'iga asos solgan yosh milliarder Pavel Durov akasi Nikolay bilan yashirin yozishmalarni amalga oshirish uchun yangi messenjer yaratadi. Ko'p o'tmay bu messenjer katta tezlikda ommalashib ketadi.

Telegram messenjeri bugungi kunda 420 milliondan ortiq faol foydalanuvchiga ega. Bu messenjerdan asosan MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlari, Eron, Afg'oniston, Malayziya singari davlatlar aholisi keng foydalaniladi.

Dastlab faqat yozishmalar va xabar almashish maqsadida tashkil etilgan messenjer yil sayin o'z imkoniyatlarini kengaytirib kelmoqda. Hozir Telegram tarmog'ida tashkil etilgan minglab kanallar axborot yetkazishdagi muhim manbalar qatoridan o'rin olmoqda. Telegram - guruhlar turli maqsadlarda birlashgan jamoa a'zolarining ommaviy fikr almashishi uchun eng ishonchli vositalardan biriga aylangan. Turli korxona va tashkilotlar uchun jamoatchilik bilan ishlashda avtomatik tarzda faoliyat ko'rsatadigan telegram-botlar katta yordam bermoqda.

Mamlakatimizda Telegram messenjeri onlayn-muloqotning eng qulay vositasi sanaladi. Ayni paytda O'zbekiston aholisining 70 foizidan ortig'i ushbu tarmoq xizmatlaridan foydalanadi. Boshqa ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlardan farqli o'laroq, Telegramning

qamrovi keng. Bu ilovadan foydalanadiganlar orasida turli yoshdagilar, har xil qiziqish va kasb-kor egalarini uchratish mumkin¹.

Yurtimizda telegram-kanallar axborot tarqatishning eng qulay va tezkor vositasiga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda kun.uz, daryo.uz singari telegram kanallarning har biri milliondan ortiq o'quvchisiga ega. Shuningdek, ko'pgina blogerlar ham o'z bloglarini asosan Telegram tarmog'idagi kanallar orqali yuritishni afzal ko'rishmoqda.

Bunday telegram kanallar orasida huquqiy targ'ibotga yo'naltirilganlari ham anchagina. Ular qatorida Adliya vazirligining Huquqiy axborot telegram kanalini alohida ko'rsatib o'tish mumkin.

Kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, telegram foydalanuvchilari qisqalik, aniqlikni yoqtirishadi. Shu bois bu tarmoqda huquqiy mavzudagi xabarlar qisqa, tushunarli, sodda, aniq va lo'nda bo'lishi lozim.

Telegram - guruhlar ham bugungi kunda O'zbekiston mediamakonida eng asosiy axborot manbalaridan biri bo'lib qolmoqda. Uning telegram-kanaldan farqi guruh a'zolarining har biri o'zi tayyorlagan yoki boshqa manbalardan olgan ma'lumotlarini e'lon qilishi mumkin. Albatta, guruhda har xil saviyadagi, har xil qarashdagi insonlar bo'lishi tabiiy. Shu bois uni mavzu jihatdan boshqarish, materiallarni muayyan "filtr"dan o'tkazish imkoni yo'q. Shunday bo'lsa-da, guruh a'zolari fikrlar oqimini yo'naltirib turishi mumkin.

TikTok. Bu ijtimoiy tarmoq 2016-yilda Xitoyda "ByteDance" kompaniyasi tomonidan ishga tushirilgan bo'lib, asosan qisqa videotasvirlar platformasi hisoblanadi. U dastlab Xitoyda ichki foydalanish uchun "Douin" nomi bilan ochilgan, keyinchalik xalqaro bozor uchun TikTok nomi bilan chiqarilgan.

2019-yilda mazkur kompaniya TikTok dasturi orqali 300 million AQSh dollariga yaqin mablag' to'plagan. 2020–2021-yillarda kompaniya milliardlab dollar foyda ko'rishi taxmin qilinmoqda².

¹ O'sha manba.

² Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik acoslari. – T., 2012. – B.74.

Mazkur dastur kontentini asosan memlar, qo‘shiqlar, lablarni sinxronlash, komik videolar tashkil qilsa-da, ayni paytda undan reklama, ijtimoiy roliklar, huquqiy targ‘ibot maqsadlarida ham keng foydalanilmoqda. O‘zbekiston yoshlari orasida ham nihoyatda ommalashib borayotgan bu ijtimoiy tarmoqdan yigit-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirishda unumli foydalanish mumkin. Buning uchun esa TikTokdagi yoshlar nimaga ko‘proq qiziqish bildirayotganini o‘rganish zarur.

TikTok qisqa videolavhalar, suratlar bilan ancha mashhur. Shu bois ushbu tarmoq orqali huquqiy mavzudagi videoroliklarni tarqatish mumkin. Xususan, bu platformada yosh yigit-qizlar ishtirokidagi yengil, yumorga yo‘g‘rilgan, sodda va qiziqarli ko‘rinishda qisqa roliklar, savol-javoblar, infografikalar tarqatish samara beradi¹.

Bizga ma’lumki, O‘zbekistonda TikTok, Twitter va “VKontakte” ijtimoiy tarmoqlar faoliyatiga cheklov qo‘yilganidan so‘ng, VPN dasturiga talab birdaniga ortdi. So‘nggi marta bunday holat 2018-yilning kuzida, Facebook va YouTube bloklanganida kuzatilgan edi.

App Annie mobil tahlil xizmati ma’lumotlariga ko‘ra mobil VPN ning ommalashuvi O‘zbekistonda keskin o‘sdi, deya xabar bermoqda Spot. VPN dasturlari App Store da birinchi ikkita o‘rinni egallamoqda:

Google Play da TOP-3 ta ga kirdi:

2021-yil 2-iyul kuni O‘zbekistonda TikTok, Twitter va “VKontakte” ijtimoiy tarmoqlari faoliyati vaqtinchalik cheklangandan so‘ng, VPN larga qiziqish ortdi (bunga mamlakat tashqarisida bo‘lgan O‘zbekistonliklarning shaxsiy ma’lumotlarini saqlash va qayta ishlash sabab bo‘lgan)².

Mazkur holatni dinamikadan ham ko‘rish mumkin — ijtimoiy tarmoqlarning cheklanishidan oldin VPN dasturlari hatto TOP-50 ga ham kirmagan:

¹ O‘sha joyda.

² O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar faoliyati cheklanganidan so‘ng mobil VPN birdaniga ommalashdi <https://www.gazeta.uz/uz/2021/07/05/vpn/>

“So‘nggi marta VPN dasturlarini bunday katta yuklab olish ko‘rsatkichlari 2018-yilda, Facebook va YouTube mamlakatda bloklanganida kuzatilgan edi.

Ijtimoiy tarmoqlarga cheklovlar o‘rnatilgandan so‘ng, turli xil Telegram-kanallarda O‘zbekistonda VPNdan foydalanganlik uchun jinoiy javobgarlik borligi to‘g‘risida ma’lumotlar tarqalgan. Ammo bu unday emas.

2018-yilda haqiqatan ham javobgarlik joriy etilgan edi, ammo telekommunikatsiya tarmog‘iga noqonuniy kirish uchun — bu VPN bilan hech qanday aloqasi yo‘q. Shundan so‘ng, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi mazkur farqni batafsil bayon qilgan edi.

Namangan viloyati hokimi Shavkatjon Abdurazzoqov 2019-yil 3-iyul kuni yoshlar ko‘proq kitob va gazetalarni o‘qishlari uchun ijtimoiy tarmoqlarni bir oyga yopishni taklif qildi. O‘z navbatida, deputat Rasul Kusherbayev axborot asrida ijtimoiy tarmoqlarni cheklashni kulgili va absurd qaror deb atadi.

2019-yil yozida o‘sha paytdagi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining direktori Komil Allamjonov Alter Ego loyihasiga bergan intervyusida YouTube va Facebookga cheklovlar qo‘yganlar endi “qamoqda” ekanliklarini ta’kidlagan. Uning so‘zlariga ko‘ra, shu yo‘l bilan ular salbiy ma’lumotlar oqimini kamaytirishga harakat qilishgan. Komil Allamjonov ta’kidlashicha, internetni o‘chirib qo‘yish orqali hech narsaga erishib bo‘lmaydi. Bundan tashqari, VPN larning tobora ommalashib borishi ko‘plab kerak bo‘lmagan manbalarga kirish imkoniyatini ochadi va shu bilan xavfsizlik tizimlarini yo‘q qiladi”¹.

Bugun internet makonida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar juda ko‘p. Ularning barchasidan birdek foydalanishning esa imkoni yo‘q. Ammo har birining o‘ziga yarasha qulayliklari, auditoriyasi borligini hisobga olib, ularning har biridan xabardor bo‘lish, auditoriya bilan

¹ O‘sha joyda.

ishlash, imkoniyatlaridan xalqimiz, yurtimiz manfaatlari yo'lida foydalanish ayni muddao bo'lar edi.

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmashligini namoyon etayotir. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir.

Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bemislar darajada o'ziga "maftun" qilib turadi.

Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, bugungi kunda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati etadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirishadi. Yoki o'zlarining yozgan "asarlari" yo "maqola", "xabar", "she'r"larini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, bir-birlarini ko'klarga ko'tarib maqtashadi.

Qayd etish joizki, “ommaviy madaniyat” namoyon bo‘lish xususiyatlariga ko‘ra, til, din, e’tiqod, irq, makon, xalq va millat tanlamaydi. U jamiyatning madaniy va estetik qadriyatlariga raxna solish orqali ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini buzadi. Zero, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda, albatta, barchamiz media xavfsizlik haqida, G‘arb davlatlari olib borayotgan mafkuraviy kurash turlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz va buni yoshlarga o‘rgatishimiz lozim¹.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, “O‘zbekistonda bugungi kunda 35 million aholi bo‘lsa, 27,2 milliondan ortig‘i internet xizmatidan foydalanadi. Internet katta axborot manbai bo‘lib, u orqali istalgan ma’lumotni topish mumkin. Umuman olganda, internet hamda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib ulgurgan.

“Daryo” poytaxtliklarning bir kunda ijtimoiy tarmoqlarga necha soat vaqt ajratishi borasida kichik so‘rovnoma o‘tkazibdi. So‘rovnomada ishtirok etganlarning ko‘pchiligi ijtimoiy tarmoqlarda faol ekanini aytdi. Yoshi katta qatlam bir kunda ijtimoiy tarmoq uchun 2-3 soat vaqt sarflashini ta’kidlagan bo‘lsa, yoshlar 8-9 va undan ham ko‘proq vaqt internetda o‘tkazishini aytadi. Shuningdek, internet xizmatlaridan mutlaqo foydalanmasliklarini aytganlar ham bo‘ldi”².

Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish maqsadida g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazish, dizinformasion axborot tarqatish kabi holatlar, ayniqsa, hushyorlikni talab etmoqda. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta’sir o‘tkazish g‘oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatlari, uning o‘ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo‘yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan yovuz

¹ O‘sha joyda.

² Ijtimoiy tarmoqlarga qancha vaqt sarflaysiz? — “Daryo”da kichik so‘rovnoma. [https://daryo.uz /k/2022/07/07/ ijtimoiy-tarmoqlarga-qancha-vaqt-sarflaysiz-daryoda-kichik-sorovnomal/](https://daryo.uz/k/2022/07/07/ijtimoiy-tarmoqlarga-qancha-vaqt-sarflaysiz-daryoda-kichik-sorovnomal/)

va buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirini o‘z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo‘lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasini bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz”¹. *Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo‘hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o‘z qarmog‘iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma’naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o‘z xalqiga, yurtiga bo‘lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir.*

Shu o‘rinda xalqaro tajribalardan kelib chiqib hamda yoshlarning Internetning salbiy ta’siriga duch kelishlarini hisobga olgan holda, Yoshlarni Internetning salbiy ta’siridan himoya qilishga oid reja ishlab chiqishga zarurat oshmoqda. Ushbu siyosiy jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda “Internet tarmoqlari orqali yoshlar ma’naviy dunyosiga salbiy ta’sir qiluvchi axborotlarni oldini olish to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish;

- davlat organlarining veb-saytlarini rivojlantirish, foydalanuvchi uchun qulay shaklda interaktiv xizmatlarni taqdim etish. Milliy-ijtimoiy tarmoqlarni shakllantirish va rivojlantirish;

- matnli va audiovizual materiallarni birlashtiruvchi yagona axborot resurs maydonchasini mustahkamlash;

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. —T.: O‘zbekiston, 2017. —B. 247.

– milliy ijtimoiy tarmoqlarga tajribali pedagoglar, madaniyat va san’at vakillari, yozuvchilar, estrada yulduzlarini jalb qilib, uni ommalashtirish;

– Internet provayderlar mexanizmining darajasida “qora ro‘yxat”larni shakllantirish, salbiy ma’lumotlardan iborat bo‘lgan veb-saytlarni bloklash;

– salbiy ma’lumotlardan iborat bo‘lgan Internet reserslarini berkitishga imkon beruvchi dasturlar ishlab chiqish va targ‘ib etish;

– davlat va jamiyat tizimlari va o‘quv muassasalarini ushbu loyihaga jalb etish va birlashtirish;

– bolalarni salbiy ma’lumotlardan himoya qilishga bag‘ishlangan hujjatli dasturlar va roliklar yaratish;

– bolalarni salbiy ma’lumotlardan himoya qilishga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni elektron OAVda joylashtirish;

– ushbu muammoga bag‘ishlangan konferensiyalar, forumlar, seminar-treninglar, davra suhbatlarini doimiy o‘tkazishdan iborat.

2.3.3. Siyosiy yetuk shaxsning ijtimoiylashuvi

Shaxs – siyosatning asosiy obyekti, mezoni va omili. U siyosatni yaratadi, bir vaqtning o‘zida siyosatning subyekti va obyekti sifatida maydonga chiqadi, siyosat shaxsga nisbatan yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shaxs siyosatning, siyosat esa, o‘z navbatida, inson kundalik hayotining bir qismidir. Hatto *shaxs siyosat bilan shug‘ullanmagan taqdirda ham, siyosat shaxs bilan shug‘ullanadi.*

Shaxs va siyosatning o‘zaro munosabatlari asosan ijtimoiy normalar bilan tartibga solinadi. Inson o‘zi bilmaydigan yo‘l-yo‘riqlarga bo‘ysunishga majbur bo‘lsa, shaxsning fuqarolik majburiyati haqida hech qanday gap bo‘lishi mumkin emas. Uni farmon chiqarib, hukumat komissiyasi tuzib yoki teleko‘rsatuvlarning jamoaviy tomoshasini uyushtirib singdirib bo‘lmaydi. Avvalambor, mamlakatda shaxsning talablariga javob beruvchi siyosiy hayot mavjud bo‘lishi lozim. Ammo bu o‘rinda darhol “siyosiy hayot” va umuman “siyosat” nima degan savol tug‘iladi.

O'rta asrlarda "siyosat" va "boshqaruv" tushunchalari asosan bir-biriga mos kelgan. Siyosatni podshoga, hozirgi kunda esa davlat xizmati va boshqaruviga qiyoslash o'sha davrdan qolgan. Boshqaruv qoidalari qonunlarga aylantirilgan, buning natijasida huquqning siyosatdan ajralishi sodir bo'lgan. Ammo endi alohida shaxs emas, balki ma'lum ijtimoiy institutlar – oila, jamoa, harbiy qo'shilma (drujina), cherkov va, nihoyat, davlat boshqaruv obyekti tashkil etgan. Davlatning o'zi podsho shaxsiga tenglashtirilgan, bu Lyudovik XIV ning «Davlat bu – Men!» degan iborasida o'zining yaqqol ifodasini topgan. XVIII asrdan avval Yevropa va Amerikada, so'ng Osiyo va Afrikada davlat va siyosatga nisbatan boshqacha qarash yuzaga keldi. U fuqarolar totuvligining timsoli bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvchi shahar – antik polisga borib taqaladi. Shaharliklar barcha ommaviy ishlarni o'zaro kelishib hal qilardilar. O'zaro teng huquqli fuqarolarning mana shu o'zini o'zi boshqaruvi "siyosat" nomini olgan. Bunday qarash davlatni o'zini o'zi mustaqil boshqaruvchi tizim deb idrok etadi va uning suverenligini nazarda tutadi. Shu asno siyosatga odamlarni yuqoridan turib boshqarish san'atidan ham ko'ra ko'proq fuqarolarning manfaatlarini muvofiqlashtirish san'ati deb qarala boshlandi. Bu o'rinda boshqalar bilan birga o'zi uchun ham qonunlar o'rnatuvchi va ularni ijro etish uchun ommaviy hokimiyatni saylovchi fuqaroning shaxsi siyosatning asosiy subyekti. Bu esa, o'z navbatida, bunday shaxsda tegishli siyosiy madaniyatning mavjudligini nazarda tutadi.

"Shaxsning siyosiy madaniyati" – murakkab, ko'p qirrali tushuncha. Uning negizida insonning umumiy madaniyati yotadi. Shaxsning siyosiy madaniyati ideallar va, umuman, qadriyatlar, tegishli bilimlar va ko'nikmalar, hatto siyosiy his-tuyg'ular majmuini o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, siyosiy madaniyat – shaxsning umumiy madaniyati va ma'naviy olamining tarkibiy qismini tashkil qiladi. U fuqaroning siyosiy xulq atvorini belgilaydi. Shaxsning psixologik holati va uning madaniyati darajasini farqlash lozim. Odatda, siyosiy madaniyatning baland, o'rta va past darajasi tafovut qilinadi. Savodsiz odamlar,

lyumpenlashgan va quyi qatlamlar, umumiy qoidaga ko‘ra, siyosiy hayotda ishtirok yetmaydilar. Normal sharoitda, barqaror vaziyatda kundalik siyosiy hayotda fuqarolarning 4-10 % qatnashadi, xolos. Qolganlari siyosatda onda-sonda, odatda saylovoldi kampaniyalari va referendumlar paytida ishtirok etadi.

Sho‘ro tuzumi davrida shaxs davlat tazyiqi ostida yashar edi. Shuning uchun ham bizda boqimandalikka asoslangan hamda O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xalaqit berayotgan paternalistik siyosiy madaniyatning ta’siri seziladi.

Mamlakatimiz o‘z rivojlanishida vakillik demokratiyasi yo‘lini tutmoqda. Bu borada, bir tomondan davlatchilikni mustahkamlashga qonuniy intilish; ikkinchi tomondan, fuqarolik jamiyati funksiyalarini davlat funksiyalari hisobiga kengaytirish tamoyili namoyon bo‘lmoqda.

Bizning fuqarolik jamiyatimiz endigina shakllanmoqda, G‘arbda nosiyosiy vositalar va institutlar bilan hal qilinuvchi ko‘pgina masalalar va ziddiyatlar bizda hali siyosiy lashgan mazmunini yo‘qotganicha yo‘q. Shunday qilib, fuqarolarning moddiy ta‘minlanganligi, ularning huquq va erkinliklari masalalari, muayyan vaziyatga qarab, siyosiy muammolarga mansub bo‘lishi yoki mansub bo‘lmasligi mumkin.

Xo‘sh, O‘zbekiston tadrijiy taraqqiyot yo‘lidan muvaffaqiyatli borishi uchun shaxs siyosiy madaniyatining qaysi o‘ziga xos jihatlari qaror topishi talab etiladi? Bizningcha, bu yo‘l “boshqa”ni, “o‘zga”ni tushunish madaniyatini, bag‘rikenglik, ozchilikning fikrini hurmat qilish madaniyatini, muzokara madaniyatini, kelishish, fuqarolar totuvligi va xayrixoh tarzda hamkorlik qilish madaniyatini talab etadi.

O‘zbekiston jamiyati sharoitida faqat xilma-xil muzokara jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi siyosiy madaniyat odamlarni jipslashtira oladi. Ammo o‘zaro ishonch bo‘lmasa, milliy totuvlik va kelishuvga erishish qiyin kechadi. O‘z navbatida, hamkorlik munosabatlari, ijtimoiy munosabatlarning ochiqligi va oshkoraligi ma’lum demokratik tartiblardan foydalanishni nazarda tutadi.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi uning siyosiy o‘sishi, siyosat dunyosiga kirishi va hokimiyat munosabatlariga qo‘shilishi jarayoni demak.

Ijtimoiylashuv deganda, insonning ayni siyosiy tizimga moslashish hamda ma’lum siyosiy funksiyalar va rollarni bajarish uchun zarur xislatlarning shakllanishiga yordam beruvchi siyosiy madaniyat normalari va an’analarini o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi.

Shaxsni siyosiy ijtimoiylashuvi vazifalari:

- jamiyat siyosiy tizimi, uning normalari, qadriyatlari va munosabatlarini takomillashtirish jarayoniga shaxsni keng jalb etish;
- siyosiy madaniyat normalarida o‘z aksini topgan siyosiy tajribani yangi avlodlarga o‘tkazish;
- shaxsiy faoliyat hisobiga yangi siyosiy bilimlar olish, yangi siyosiy tajribani o‘zlashtirish (uni shaxsning faoliyatiga singdirish).

Siyosiy ijtimoiylashuv – siyosat sari bir tomonlama, izchil yuksalish emas, Bunda kimdir faol, kimdir passiv bo‘ladi, kimdir esa siyosatdan uzoqroqda bo‘lishni ma’qul ko‘radi.

Siyosiy ijtimoiylashuvning shartlari va omillari quyidagilar:

1) shaxs xislatlarining shakllanishi jarayoniga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi obyektiv shartlar va omillar (tarixiy vaziyat, iqtisodiy vaziyat);

2) keng ijtimoiy muhit (ijtimoiy siyosiy ong va jamiyatni uyushtirish);

3) bevosita ijtimoiy-siyosiy muhit (muayyan vaziyat, shaxsni kurashgan muhit);

4) shaxsning biogenetik va psixologik xususiyatlari;

5) tabiiy-jug‘rofiy sharoitlar;

6) ijtimoiy ahvol (shaxsning maqomi).

Ammo shu bilan birga, bugungi kunda shaxs dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan va ijtimoiylashuviga xalaqit berayotgan internet ta’siri haqida ham to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi. *Yurtimizga olomoncha madaniyat asosan internet tarmog‘i orqali kirib kelmoqda.* Bu hol odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat pasayishi kabi

ko‘plab noxushliklarni keltirib chiqaryapti. Yoshlarning hayosizlarcha kiyinishi, tanalariga rasm chizdirishi, quloq va burunlarini teshib, “zirak” taqib olishlari, qiz bolalarning o‘g‘il bolalarga o‘xshab kiyinishi kabi “moda” unsurlari aynan internet orqali yoyilayotgani aniq¹.

Global axborot tizimidagi xabarlarni “filtrsiz” qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma’lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning “falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi” kabi shov-shuvli e’longa ko‘zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U erda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldamchi xabarlarning davomini o‘qiydi. Shu tariqa g‘o‘r yoshlar g‘alamislarning tuzog‘iga ilinadi. Internetdagi g‘oyaviy tuzoqlar go‘yo madaniyatga o‘xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma’naviyat kushandasiga aylanmoqda. Achinarlisi, mazkur “madaniyat” ta’siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko‘pincha yoshlar o‘zlari sezmay qoladi.

Bunday jirkanch “madaniyat” ta’siriga berilgan o‘smir loqayd, hayotga yengil-yelpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo‘lib ulg‘ayadi. Shuningdek, olomoncha madaniyat tuzog‘iga ilingan bolalar inson istagan ishini qilaverishi mumkin, deb biladi, ya’ni o‘taketgan manqurtga aylanib qoladi.

Yoshlarning istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bermog‘i zarur. Bola tarbiyani turli kompyuter o‘yinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.

Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma’naviyat, odob axloq tarbiyasiga e’tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni diniy – milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o‘z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg‘ucini kuchaytirish, ularni xar-xil

¹Narzullaev O. Yoshlarni internetdagi axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlardan asrash.<http://fitrat.uz/yoshlarni-internetdagi-ahborot-huruzhlari-va-mafkuravij-ta-didlardan-asrash/>

buzg‘unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta tahdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli ko‘plab tinch-totuv oilalar barbod bo‘lib ketayotganidir. Internet, telegram, Facebook, yutub – tubsiz ummon, cheksiz olam. Shu vositalar chiqqanidan beri odamlar, qavm-qarindoshlar o‘rtasida, mehr-oqibat ko‘tarilib, hurmat yo‘qolmoqda.

2.3. SIYOSIY MADANIYAT TAKOMILIDA MODERNIZATSIYA OMILI

2.3.1. Modernizatsiya jarayonining siyosiy madaniyatdagi o‘rni

“Modernizatsiya” (fran. moderisatio, modere – eng yangi) zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgarish va takomillashtirish ma’nosini bildiradi. Gap nafaqat sanoat-texnika taraqqiyoti, balki insonning dunyoqarashi, uning metodologik yondashuvi, tafakkur uslublari, hatto turmush tarzi o‘zgarishi bilan belgilanadi. Bu tamoyillarning tubdan o‘zgarishi inson tomonidan qo‘llanilayotgan tushunchalar, konsepsiyalarning o‘zgarishiga olib keladi.

Bizga ma’lumki, har qanday jamiyat hayotida siyosiy rivojlanishni tadqiq etish uchun turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar tanlanadi. Hozirgi davrda modernizatsiya paradigmasi orasida formatsion, sivilizatsion yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi. Modernizatsiya – o‘ta murakkab siyosiy jarayon. Unda o‘zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro‘y berishi natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar va yondashuvlar ham yangidan shakllantirib boriladi.

O‘zbekistonda modernizatsi tuzilmasining strukturaviy-funksional tarkibi mustaqil ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kompleks-tizimli o‘rganilmagani bu sohaga qiziqishni kuchaytiradi. Ba’zi ilmiy tadqiqotlarda, darslik va o‘quv qo‘llanmalarda modernizatsiyaga muqobil qarashlar berilgan bo‘lsa-da, bugungi kungacha uning yagona

tuzilmasi, jamiyatni modernizatsiyalash tushunchasining mohiyati va maqomini belgilovchi mezonlar ishlab chiqilmagan. Ilmiy adabiyotlarda ham uning mazmuni turlicha talqinda berilmoqda. Misol uchun “Falsafa qomusiy lug‘ati”da tushunchaga umuman ta’rif berilmagan.

Bu siyosiy jarayon nima maqsadda amalga oshiriladi? Albatta, birinchi navbatda, unga katta ehtiyoj tug‘iladi, tobora shiddatli tus olayotgan globallashuv ham unga turtki berib, jarayonni tezlashtirib yuboradi. Asli *modernizatsiyalashdan ko‘zlangan maqsad*: an’anaviy turmush tarzidan zamonaviy jamiyatga o‘tish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda yuqoriroq bosqichga erishishdan iborat.

Modernizatsiyalashning yangi tarixi XVIII asrda Yevropa mamlakatlarida ixtirolarning yaratilishi, inson faoliyatiga ilmiy, muhandislik bilimlarining kirib kelishi va ulardan foydalanish mahsuli sifatida dunyoga kelgan. Bu atama asosan, XX asrning o‘rtalarida ilmiy taomilga kiritildi. Modernizatsiya nazariyasi 1950-1960-yillarda AQSh universitet ta’limida T. Parsons, R. Merton tomonidan dastlab ilgari surilgan edi. Uning asoschilari taniqli amerikalik mutaxassislar S. Lipset, F. Rigge, D. Enger, R. Uart, S. Xantington bo‘lishgan. XIX asr 80-yillarida modernizatsiyalash nazariyasi qayta ko‘rib chiqilib, u rivojlanishning sharti emas, balki funksiyasi sifatida qaraldi. Unda ko‘proq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarni o‘zgartirish ustuvor maqsad, deb qabul qilindi.

Faqat XX asrning 90-yillariga kelib, Xitoy, Yaponiya, Malayziya, Singapur kabi davlatlarning jadallashgan modellari olimlar tomonidan e’tirof etila boshlandi. Mazkur jarayonga o‘tishda “moddiy va madaniy boyliklar taqsimoti”, “o‘xshashlik”, “legitimlik” kabi inqirozlar sodir bo‘lishi tan olindi. Demak, inqirozlarni yengib o‘tgan xalq va davlatgina bu jarayonda yutib chiqadi va farovonlikka erishadi...

Modernizatsiyaning “quvib boruvchi”, “jadallashgan”, “takrorlanuvchi” nomli modellari mavjud. Modernizatsiya paradigmasi (andozasi) doirasida ko‘pdan-ko‘p nazariy-metodologik va xususiy fanlarga asoslangan yondashuvlar yaratilgan. Sharq mamlakatlari yangicha modellarni “kashf” etganidan keyin ularda G‘arb turmush

tarzini majburiy qabul qilish emas, balki uyg'unlashgan jamiyatni qurish imkoni vujudga keldi.

Modernizatsiya nima, degan haqli savol tug'iladi. Buning ilmiy talqinlari juda ko'p. G'arb va Sharq mamlakatlarida unga munosabat va qarashlar turlicha. Shulardan kelib chiqib, biz umumiy ta'rifni keltiramiz: *"Modernizatsiya deganda agrar (an'anaviy) jamiyatni industrlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni transformsiyalash tushunilib, bu jarayonda davlat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish, inson huquq-erkinliklarini yangi norma, standartlar asosida ta'minlash,*

*shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimini yangicha, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish ko'zda tutiladi"*¹.

Modernizatsiya nazariyasi o'z taraqqiyotida shartli ravishda uch rivojlanish bosqichidan o'tdi: XX asrning 50-60-yillari, 60-70-yillari va 80-90-yillar. 50-60-yillarda modernizatsiya nazariyasi universalizmga asoslangan edi. Barcha mamlakatlar va xalqlarning rivojlanishiga universalga hodisa, ya'ni bir yo'nalishda sodir bo'ladigan, bir xil bosqichlar va qonuniyatga ega bo'lgan hodisa deb qaralardi. Milliy xususiyatlarning mavjudligi e'tirof etilsa-da, ammo ular ikkinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblanardi.

Xo'sh, jamiyat hayotining muayyan sohalarini modernizatsiya qilish deganda uning tadqiqotchilari nimani tushungan? Ijtimoiy sohada modernizatsiya odamlar, jamoat va davlat institutlarining faoliyat turlari bo'yicha ixtisoslashishi bilan bog'langan, zotan, mazkur ixtisoslashish odamlarning jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy aloqalariga kamroq va – modernizatsiyaning rivojlanishiga qarab — insonning shaxsiy sifatlari, uning malakasi, ma'lumoti, g'ayratiga ko'proq bog'liq bo'lgan. Modernizatsiya nazariyotchilari an'anaviy jamiyatdan hozirgi zamon jamiyatiga o'tish jarayonida ongning o'рни va funksiyalari,

¹ Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 6-7.

demografik tuzilish qanday o'zgarishini, jadal urbanizatsiya mazkur o'zgarishlar bilan qay darajada bog'liqligini o'rganganlar.

Siyosiy modernizatsiya: birinchidan, hududlarni kengaytirish va ma'muriy-siyosiy chegaralarni tartibga solish, milliy yoki federativ davlatlarni tashkil etish, markaziy (qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi) hokimiyatni kuchaytirish va shu bilan bir vaqtda hokimiyatning taqsimlanishini; ikkinchidan, jamiyatda barqarorlikni va ichki totuvlikni saqlagan holda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarda strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirishga davlatning qodirligini nazarda tutgan; uchinchidan, siyosiy jarayonga keng aholi ommasini jalb etish (hech bo'lmasa saylovlar orqali) siyosiy modernizatsiyaning muhim jihati hisoblangan; nihoyat, to'rtinchidan, siyosiy modernizatsiya siyosiy demokratiya yoki hech bo'lmasa populistik boshqaruvni o'rnatishni, hokimiyatni qonuniylashtirish usullarini o'zgartirishni nazarda tutgan. Shu bilan bir vaqtda, modernizatsiya nazariyalarining mualliflari Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida rivojlangan fuqarolik jamiyati mavjud emasligi, shuning uchun ham ularda siyosiy modernizatsiyani amalga oshirish ancha qiyinligini qayd etib o'tganlar?.

Ma'naviy modernizatsiya madaniyat va qadriyat tizimlari hamda qarashlarni tabaqalashtirishni, ta'limni sekulyarizatsiya qilish va savodxonlikni oshirishni, falsafa va fanda maktablar hamda oqimlarning xilma-xilligini, diniy bag'rikenglikni (konfessional plyuralizmni), axborot berish va tarqatish vositalarini rivojlantirishni, madaniyat yutuqlari bilan aholini tanishtirishni, individualizm qadriyatlarini yoyishni nazarda tutgan. Bundan tashqari, modernizatsiya ilmiy bilimlar negizida ongni rivojlantirish va an'analarga muvofiq xulq-atvordan voz kechishni nazarda tutgan.

Shunday qilib, modernizatsiya hozirgi kunda klassik modernizatsiya sifatida emas, balki "moderniti", ya'ni milliy ijtimoiy-madaniy xususiyatlar, an'analar va partikulyarizmga asoslangan modernizatsiya sifatida tushuniladi. Biz G'arb tajribasi yoki boshqa tajriba qay darajada jozibali bo'lmasin, biz o'z xususiyatlarimizni unutmasligimiz, milliy o'ziga xoslik va mentalitetni

e'tiborga olishimiz kerak. Zotan, milliy xususiyatlar e'tiborga olinmagan har qanday modernizatsiya, shu jumladan siyosiy madaniyatni modernizatsiya qilish jarayonlari ham muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

2.3.2. Siyosiy modernizatsiyaning maqsad va vazifalari

Siyosiy modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan hozirgi zamon jamiyatiga o'tishdek murakkab jarayonning tarkibiy qismidir. *Siyosiy modernizatsiya deganda, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida sodir bo'lgan o'zgarishlarga muvofiq siyosiy tizimni o'zgartirish tushuniladi.* Siyosiy modernizatsiya jarayonida yangi siyosiy institutlar vujudga keladi, mavjud siyosiy institutlar esa, rivojlanadi va vaziyatga moslashadi. Bunda, bir tomondan, ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida siyosiy barqarorlikni saqlash obyektiv zarurat bo'lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolarning siyosiy ishtirok etish imkoniyatlari va shakllarini kengaytirish talab etiladi. Bunday shart-sharoitlarning yo'qligi inqirozli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida modernizatsiya tushunchasi mohiyati, mazmuni bo'yicha yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Ushbu dolzarb masalani o'rgangan R. Dal, G. Almond, L. Pay bu jarayonda o'rta sinfnings paydo bo'lishi, ta'lim darajasining o'sishi siyosiy hokimiyatda jiddiy o'zgarishlar yasashini, S. Xantington, K. Doych, X. Lindz qattiqqo'l avtoritar boshqaruv, hukmron partiya bo'lishi zarurligini¹ ilgari surdilar. XX asrning 60-yillarida ingliz olimi Sh. Eyzenshtadt birinchi marta modernizatsiyaning sodda ta'rifini topdi: "Tarixiy modernizatsiya G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada o'n yettinchi asrdan yigirmanchi asrgacha rivojlangan, keyinroq barcha Yevropa davlatlariga tarqalgan, o'n to'qqizinchi va yigirmanchi asrlarda Janubiy Amerika, Osiyo va Afrika qit'alariga ko'chirilgan g'oya bo'lib,

¹ Eisenstadt S.N. Modernization: Protest and Change. –Englewood Cliffs. – N.Y., 1966. –P.28.

u ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimning jiddiy o'zgarishiga olib keladi"¹,—deydi u.

D. Apter, S. Blek, S. Xantington, A. Turen, Sh. Eyzenshtadt Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrikadagi siyosiy rivojlanish obyektiv qonuniyatlari, mavjud tendensiyalarini o'rganib, modernizatsiyaning katta istiqboli mavjudligini isbotlab berdilar². G. Spenser, M. Xrox, E. Xobsbaumlarning tadqiqotlarida³ shaxs, davlat va jamiyat munosabatlari yagona tizimga keltirildi.

Sharq olimlari va davlat arboblari tomonidan jamiyatni yangilash, isloh etish muammosi maxsus o'rganilgan. O'rta asrlardagi musulmon Sharqidagi davlat arboblardan biri Nizomulmulk (1018-1092) "Siyosatnoma yoki "Siyar ul-muluk" asarida (1091) shaxs va davlat tushunchasiga e'tiborni qaratadi. "Jamiyatda adolatni qaror toptirish nochor, ilojsiz kishilarga moliyaviy ko'mak berish va insonlarning huquqlariga rioya qilishdir,—deb yozadi alloma.—Adolat arkonlari orqali davlatda tinchlik va barqarorlik o'rnatiladi. Shuning uchun davlat xizmatchilari har bir ishda oqsoqollar, olimlar va jamiyatning mo'tabar kishilari bilan maslahatlashib turishi lozim"⁴. Nizomulmulkning qarashida adolatli davlat siyosati jamiyatning yangilanishiga olib keladi, degan fikr yotadi, bu esa yevropalik olimlar I. Kant va J. J. Russolarning "jamiyat sulhi" g'oyasiga hamohang turadi.

Mashhur nemis faylasufi I. Kant (1724-1804) ning fikricha, inson erki uning empirik (tajriba) ta'sirlardan xoli holda, o'z xohishiga binoan

¹ Qarang.: Pugachev V., Solovyev A. Siyosatshunoslikka kirish. — T.: Yangi asr avlodi, 2004. — B. 436-437.

² Qarang.: Apter D. The politics of modernizatsion. —London, 1965; Black C.E. op.cit.; Huntington S.P. Political order in changing societies.—New haven, 1968; Huntington S.P., Nelson G.M No easy choice: political participation in developing countries. —Cambridge, 1976; Tourene A. Modernity and Cultural specificities // International Social Science Journal. November. 1998, № 18; Eyzenshtadt Sh. Revolyutsi preobrazovaniye obshestv. Sravnitelnoye izucheniye sivilizatsiy. —M.: 1999.

³Spenser G. Opiti nauchniye, politicheskiye i filosofskiy. —M.: Sovremenniy literator, 1998; Xrox M. Ot natsionalnix dvijenny k polnostyu sformirovivsheysya natsii; protsess stroitelstva natsiy v Yevrope // Natsii i natsionalizm. —M: Praksis, 2002. —S. 121-145; Xobsbaum E. Prinsip etnicheskoy prinadlejnosti i natsionalizm v sovremennoy Yevrope // Tam je.—S. 332-346

⁴ Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk. —T.: Adolat, 1997. — B. 256.

yo‘l tutishini talab etadi¹. Uning idealida siyosiy erkinlikning asosiy sharti jamiyat a‘zolarining qonun oldidagi tengligi. Kantchilik ta’limotining mohiyatida «kishilarning axloqiy ongini o‘stirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, shaxsiy g‘ururni o‘stirish, madaniyatni takomillashtirish va shunday yo‘llar bilan odamlar e’tiborini siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalardan ma’naviy-axloqiy tiklanishga, barcha ijtimoiy guruhlarining o‘zaro axloqiy aloqalarini mustahkamlash»² g‘oyasi yotadi.

XX asrning o‘rtalariga kelib, modernizatsiya tushunchasi keng tadqiq etila boshlandi. Masalaning tub mohiyati, mazmunini ilmiy ochib berishda amerikalik J. Xabermas, angliyalik M. Xorkxaymer, T. Adorno, J. Tomson, M. Shadson, K. Kelxaun, D. Kellner kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari muhim o‘rinni egallaydi. Masalan, J. Xabermas ijtimoiy farovon jamiyatni shakllantirish jarayonida hokimiyat tizimi aralashuvini cheklashni yoqlaydi. Muallifning nuqtayi nazariga ko‘ra, davlat hokimiyati orqali jamiyatni boshqarish fuqarolar siyosiy ishtirokini susaytiradi, natijada individ va shaxs, hokimiyat tizimi va erkin hayot tarzi o‘rtasidagi o‘ziga xoslik yo‘qoladi³.

M. Xorkxaymer, K. Kelxaun jamiyatning siyosiy modernizatsiyasi materialistik (ijtimoiy ta’minlanganlik, moliyaviy barqarorlik) va idealistik (mehr-oqibat, hurmat-e’tibor, xayrixohlik) o‘zaro yondashuvi asosida ro‘y beradi, deydi. D. Kellner fikricha, bozor munosabatiga moslashgan jamiyatda shaxs, jamiyat, davlat kabi falsafiy kategoriyalar mohiyatan moddiy qiymat bilan o‘lchanadi, ijtimoiy munosabatlar insoniylik emas, balki “barter” xususiyatiga ega bo‘ladi⁴. Bizningcha, bu yondashuvlar birmuncha bahsli bo‘lib, u faqat G‘arb mamlakatlariga mos tushadi.

¹ Kant I. Metafizisheskiye nachala ucheniya o prave // Sbor.soch. – M.: Misl, 1966. T. 4 (2). –S. 109-112.

²Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: Sharq, 2004. – B.190.

³Habermas J. Postmetaphysical Thinking.–Cambridge: Polity, 1992.– P. 127-132.

⁴Kellner D. Critical Theory, Marxism and Modernity.–Cambridge: Polity, 1989. – P. 64.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida ko‘plab ilmiy yondashuvlar kuzatildi. Siyosatshunos S. Verba va L. Pay modernizatsiyalashda jamiyat a‘zolari psixologiyasini o‘zgartirish va yangi qadriyatlar (demokratiya) tizimini qabul qilishni¹, U. Mur² va X. Eksteyn³ mamlakatni industrilashtirishni birinchi o‘ringa qo‘ydilar. Garchi bu fikrlar ilmiy asoslangan bo‘lsa-da, siyosiy jarayonni o‘tkazishda har bir mamlakatning shart-sharoiti, iqtisodiy imkoniyatlari inobatga olinmagan. Xususan, U. Mur va X. Eksteyn fikrini har bir makonda qo‘llab bo‘lmaydi. Misol uchun Sovet ittifoqi parchalangandan keyin o‘z mustaqil yo‘lini boshlagan yosh respublikalarda iqtisodiy asosning o‘zi mavjud bo‘lmagan. Iqtisodiy poydevor qurmasdan modernizatsiya tuzilmalarini yaratish va industrilashtirishni jadallashtirib bo‘lmaydi. Demak, MDH mamlakatlarida jamiyatni modernizatsiyalash uchun oldin mustahkam iqtisodiy zaminni tayyorlash masalasi ko‘ndalang turibdi, deb hisoblaymiz.

Siyosiy modernizatsiyalash – murakkab kompleks jarayon. Unda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-madaniy tarmoqlar o‘zaro bog‘lanib, bir-biriga mazmun bag‘ishlaydi; agar ular orasida ajralish yuz bersa, modernizatsiya qisman amalga oshadi. Jamiyatda ijtimoiy guruhlarining daromadi keskin farqlansa, samarali iqtisodiy o‘rishga erishilmaydi; madaniy darajali yetuk shaxs shakllanmasa, bozor tuzilmalari shakllanmaydi; fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanmasa, demokratik qadriyatlar takomillashmaydi. Har bir talab va mezonlar bir-biriga bog‘lanib ketadi va ular to‘la hisobga olinsa, jarayon zoq vaqt va bosqichlarni bosib o‘tadi. Hatto Yevropa davlatlarida u ikki yuz yilga cho‘zildi.

Siyosiy modernizatsiyaning quyidagi maqsadlari farqlanadi: tobora kengayib borayotgan ijtimoiy va iqtisodiy muammolar doirasini

¹Pye L.W., Verba S. Political Culture and Political Development. –Princeton, 1965. –P. 13.

²Moore J. Colonialism: The case of Mexican-Americans. in Social Problems, 1970, Nr.17. –P. 463-472; Capitalism over the Longue Duree: A Review Essay. In: Critical Sociology, 1997, Nr. 23 (3). – P. 103–116.

³Eckstein H. The Idea of Political Development: From Dignity to Efficiency. in: World Politics, 1982, NY. 34. – P. 451-486.

hal qilish uchun yangi siyosiy institutlar tashkil etish; elita va liderlarning ochiq kurashga nisbatan siyosiy qarashlarini o'zgartirish; oqilona byurokратиyani shakllantirish.

Siyosiy modernizatsiyani hozirgi zamon siyosiy institutlari va ularning amaliyotini, shuningdek zamonaviy siyosiy tuzilmani shakllantirish va rivojlantirish deb ta'riflash mumkin. Bunda hozirgi zamon siyosiy institutlari va amaliyoti deganda rivojlangan demokratik mamlakatlarning siyosiy institutlaridan ko'r-ko'rona andoza olishni emas, balki o'zgarayotgan sharoitlarga, zamon talabiga siyosiy tizimning muvofiq ravishda moslashishini ta'minlashga maksimal qodir bo'lgan siyosiy institutlar va amaliyotni tushunish kerak.

Siyosiy modernizatsiya deganda, ijtimoiy maqsadlarning yangi andozalariga moslashishga va ijtimoiy tizimning rivojlanishini ta'minlaydigan yangi institutlarni tashkil etishga siyosiy tizim imkoniyatining ortishi ham tushuniladi. Bu jarayon ham obyektiv (ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy), ham subyektiv (siyosiy rahbariyatning siyosiy tizimni ozmi-ko'pmi samarali o'zgartirishga qodirligi) omillar bilan belgilanadi.

Siyosiy modernizatsiya uzoq yillar davomida amalga oshiriladi. Bu davrda jamiyat beqarorlik va inqirozlar bilan ajralib turadigan alohida sifat holatiga o'ta boshlaydi.

Hozirgi zamon olimlarining tadqiqotlarida siyosiy modernizatsiya jarayonida sodir bo'ladigan inqirozlarning besh asosiy turi farqlanadi: muvofiqlik; legitimlik (qonuniylik); ishtirokchilik; kirib o'rnashish; taqsimlash.

Birinchi tip milliy yoki hududiy o'z taqdirini o'zi hal qilish talablari bilan ta'riflanadiki, buni biz hozirgi kunda hozirgi zamon O'zbekiston jamiyatida ham kuzatamiz.

Ikkinchi tip jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi bilan ta'riflanadi. Bunda keskin ijtimoiy-sinfiy tafovutlar milliy birlashishga to'sqinlik qiladi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini modernizatsiya qilish aholining turli tabaqalari ijtimoiy holatining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi.

Uchinchi tip etnik va milliy mansublik o'rtasidagi qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi. Millatchilikning kuchayishi muvofiqlik inqirozining ko'rinishlaridan biridir. Avvalgi ijtimoiy aloqalarning buzilishi millatning ijtimoiy namoyon bo'lishining muhim vositasi sifatidagi vazifasini kuchaytiradi.

Fikrimizcha, modernizatsiya jarayonlarini shakllantirish uchun shart-sharoit tug'diradigan omillarni hisobga olish zarur bo'ladi. Bular quyidagilar:

Huquqiy omil: fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiluvchi tizim (oilalar, maktab, oliy va o'rta maxsus ta'lim) darajasi modernizatsiyaning samaradorligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Chunki huquqiy masalalarni yaxshi bilish fuqaroning faollashuvi va ijtimoiylashuviga olib keladi. Modernizatsiyalashda aholining siyosiy ongi, bozor iqtisodi, demokratiyaning asosiy tushuncha va tamoyillarini qabul qilishga tayyorgarlik darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy omil: XVII asrda Yevropadagi sanoat inqilobi iqtisodiyotni rivojlantirib, odamlarning turmush tarzini yaxshilaydi. AQSh, Yevropa mamlakatlaridan texnika va texnologiyalarning Osiyo va Afrika davlatlariga "eksport" qilinishi ham asta-sekinlik bilan bu o'lkalarga g'arbona yashash tarzini singdira boshladi.

Ma'naviy-axloqiy omil: siyosiy hokimiyat tizimida modernizatsiyalash ijobiy hodisa hisoblanadi. Ammo ma'naviyat bobida, baribir, u milliy qadriyatlar, an'ana va urf-odatlarining buzilishiga olib kelishini biz ayrim sharq mamlakatlari misolida ko'ramiz.

Yuqoridagi ilmiy nazariyalar va qarashlarni tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelindi¹:

birinchidan, modernizatsiya tushunchasi tarixiy voqelikdagi mavjud holatning zamonaviy hayot tarziga mos kelmay qolganligi

¹ Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Monografiya. – T.: Alohqachi, 2019. – B. 15-16.

sababli unda kompleks siyosiy yangilanishlarga kuchli ehtiyoj tugʻilganini anglatadi;

ikkinchidan, anʼanaviy jamiyatda modernizatsiyalashni amalga oshirish oldidan muayyan joyning obyektiv shart-sharoitlari, iqtisodiy va siyosiy resurslari hisobga olinadi;

uchinchidan, agrar jamiyatdan zamonaviy jamiyatga oʻtishda shaxs, jamiyat va davlat hayotining maʼlum bir sohasigina emas, balki jamiyatning siyosiy hayoti toʻlaligicha yangilanadi va isloh qilinadi;

toʻrtinchidan, jarayon tizimli, izchil davom etgudek boʻlsa, mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, maʼnaviy va ilmiy-texnikaviy sohalarida ijobiy oʻzgarishlar roʻy beradi, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi ham oshadi.

2.3.3. Oʻzbekistonda siyosiy modernizatsiya jarayonlari: yutuqlar va muammolar

Modernizatsiyalash anʼanaviy jamiyatlarni zamonaviylashtirish, milliy rivojlanishda bir qadam olgʻa siljish. Modernizatsiyaga quyidagicha taʼrif berish mumkin: “**Modernizatsiyalash** eski ijtimoiy hodisalarni buzish; ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlarni yasash; anʼanaviy jamiyatdan industrilashtirilgan jamiyatga oʻtish; ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni transformatsiyalash; rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy paradigmasini almashtirish va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini oʻzgartirish demak”¹. Bu taʼrifda siyosiy jarayonning jamiki vazifalari va maqsadlari oʻz mujassamini topgan.

Dunyoda qabul qilingan xalqaro andozalar talablariga javob berish niyatida *Oʻzbekistonda modernizatsiyaning jadallashgan modeliga oʻtili*. 2017-yildan boshlab mamlakatimizda siyosiy islohotlarning tamoman yangi bosqichi boshlandi. Jumladan, 2017-yilning 7-fevralida qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi mazkur jarayonga metodologik asos

¹ Oʻsha joyda. – B. 175.

bo‘lib xizmat qilmoqda¹. Bunday yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqishga quyidagi obyektiv omillar sabab bo‘lgan: birinchidan, mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili; ikkinchidan, jahon bozori konyunkturasining keskin o‘zgarayotgani; uchinchidan, globallashtirish sharoitidagi tobora kuchayayotgan raqobat.

Siyosiy hokimiyatning asl maqsadi – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdir. Bunday keng miqyosdagi islohotlardan maqsad esa xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishiga erishishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktyabrda PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bu boradagi islohotlarning tubdan yangi bosqichini boshlab bergani holda ayni sohani takomillashtirishga Uchinchi Renessans sari qadam qo‘yayotgan Yangi O‘zbekistonda katta zarurat mavjudligini ko‘rsatdi.

Prezidentimizning Farmoni² (PF–158-son, 11.09.2023-y.) bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi hamda uni 2023-yilda o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha Prezident qarori³ (PQ–300-son, 11.09.2023-y.) qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalish hamda 100 ta maqsad ko‘rsatib o‘tildi.

1-yo‘nalish. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

2-yo‘nalish. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

3-yo‘nalish. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. [www. Lex. uz](http://www.lex.uz)

² Qarang.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.

³ Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 07/23/300/0693-son; 11.11.2023-y., 06/23/193/0844-son; 24.11.2023-y., 06/23/199/0882-son.

4-yoʻnalish. Qonun ustuvorligini taʼminlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

5-yoʻnalish. “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

Oʻrni keldi, davlat boshqaruvi tizimida va fuqarolar siyosiy madaniyatidagi ayrim nuqsonlarni taʼkidlab oʻtmoqchimiz. Ilmiy tahlillarimiz Oʻzbekiston jamiyati qatlamlarida *totalitarizmdan meros qolgan illatlar saqlanib qolayotganidan* darak beradi. Milliy ongimizda davr bilan hamohanglik masalasida oqsash masalasini koʻramiz. Siyosiy fanlar nomzodi U. Muhammadiyev mentalitetimizga xos boʻlgan ikkita jihatni tahlil etib, xalqimizda “birinchidan, bir paytning oʻzida, hokimiyatga hurmat bilan birga, oʻziga xos “qoʻrquv” hissi mavjud; ikkinchidan, siyosiy hayotga munosabatda qonunga tayanishdan koʻra, koʻproq “anʼanalarga” tayanish ruhiyati ustuvorroq”¹, deb yozadi. Ana shu psixologik toʻsiqning mavjudligi modernizatsiyalash jarayonlariga salbiy taʼsir oʻtkazmoqda.

Professor A. Qodirov masalaning ildiziga chuqurroq kirib boradi: “Unitar davlat tizimi qoldiqlarining saqlanib qolishi, eskicha rahbarlik uslublari; davlat apparatida maʼmuriy-buyruqbozlik (byurokratizm), tanish-bilishlik, qarindosh-urugʻchilikning kuchayishi; yuqori lavozimdagi rahbarlarning oʻz lavozimini suisteʼmol qilishi; fuqarolar ongi va madaniyati, umumiy saviyasining pastligi; har bir ishni pora berish va olish yordamida bitirishga intilishning mavjudligi; maʼmuriy shaxslarning taʼmagirligi va boshqalar korrupsiyani yuzaga keltiradi”².

Chindan ham, jamiyat rivojiga xalaqit berayotgan bunday noxush hodisalar, salbiy illatlar davlat siyosatining samaradorligi va obroʻyiga putur yetkazmoqda. Ayniqsa, bu masalada jamiyatda xatarli illatga aylangan korrupsiya salbiy rol oʻynamoqda. Bu illat huquq-tartibot organlarida, moliya-iqtisod, bank tizimlarida saqlanmoqda. Garchi “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonunga imzo chekilib

¹Muhammadiyev U. Oʻzbekistonda siyosiy madaniyat va milliy maʼnaviyatning oʻzaro munosabati muammosi. Siyo. fan. nom. dis. avtoref. –T.: 2002. – B. 25.

² Qodirov A. Siyosat falsafasi. –T.: TDYU, 2005. – B. 115.

(2016), maxsus agentlik 2017-yilda o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lishiga qaramay, bu masalada Singapur, Gruziya tajribasiga o‘xshagan samarali mexanizm hamon topilmagan.

Aniq faktlarga murojaat qilamiz: *Transparensy Internatsional Corruption Perceptions Index (CPI) e‘lon qilgan ma‘lumotda O‘zbekiston 2017-yilda 157 ta o‘rinda e‘tirof etilgan.* Oliy Majlis yuqori palatasi raisi Nig‘matilla Yo‘ldoshev 2019-yil 15-iyunda Senatda bo‘lib o‘tgan majlisda quyidagilarni ta‘kidlab o‘tgandi: “Ijtimoiy fikr” respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2019-yilda o‘tkazilgan korrupsiya bo‘yicha so‘rov natijalari xavotirlidir. Chunki so‘rovda qatnashganlarning 66,5 foizi O‘zbekistonda korrupsiya singari salbiy illat tarqalgan, deb hisoblamoqda. Qariyb 17 foiz ishtirokchilar korrupsiya hamma joy va sohalarni qamrab olgan, degan fikrda bo‘lsa, so‘ralganlarning 29 foizi mansabdorlarning har ikkinchisi korrupsioner, deb hisoblaydi”¹.

Eng achinarli jihat shundaki, korrupsiyaga qarshi kurashning oldingi saflarida turuvchi, bunga bevosita mas‘ul bo‘lgan ba‘zi huquq-tartibot organlarining o‘zida ham korrupsiyaga to‘liq barham berishga erishilmagan.

Xulosa shuki, mamlakatda davlat hokimiyati tizimini modernizatsiyalash, xususan, ma‘muriy islohotlarni tezlashtirish fursati yetib keldi. Siyosiy islohotlar kushandasi bo‘lgan korrupsiya masalasiga yechim topilmas ekan, jamiyatda modernizatsiyalash ham, isloh qilish ham, milliy rivojlanish ham yuz bermaydi. Iqtisodiyot qiyin ahvolga tushadi.

Masalaning yechimida xorijiy tajribasidan foydalanish zarur, degan fikrdamiz. Masalan, AQShda reportyor jurnalistlar otryadi korrupsiyaga qarshi kurashda eng samarali jamoat nazorati sanaladi. MDHda, jumladan O‘zbekistonda ham jamiyatdagi jinoyatchilik va korrupsiya holatlari chuqur tahlili haqidagi jurnalist surishtiruvi, OAV

¹Qarang.: Ro‘zioxunov A. Tabiiy savol: nega xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonni korrupsiya botqog‘ida ko‘rmoqda. [www. kun.uz](http://www.kun.uz)

tahlillari hozircha ancha sayoz holatda bo‘lib, bugungi davr ehtiyojidan orqada qolmoqda.

Bizningcha, avvalo oilada, bog‘chada, maktabda o‘g‘il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo‘rlik yomon illatgina emas, balki jamiyatimiz tanazzuliga olib boruvchi qudratli kuch ekanligi haqida tarbiyaviy va targ‘ibot ishlarini olib borishimiz kerak. Albatta, siyosiy hayotimizga “parlament nazorati”, “jamoatchilik nazorati” degan qoidalar, tartibotlar kirib kelishi muhim qadamlardir. Endi gap, qonunlar va shu tartibotlarni amaliyotga kiritish mexanizmini takomillashtirishda qolgan.

Biz tub islohotlarga, jamiyat modernizatsiyasiga kuchli ehtiyoj sezmoqdamiz. Bunday jarayon boshlangudek bo‘lsa, qanday o‘zgarishlar kutiladi, degan haqli savol tug‘iladi. O‘zbekistonda siyosiy modernizatsiyalash jarayonlari tezlashgudek bo‘lsa, jamiyat hayotida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi:

Birinchidan, iqtisodiy sohada: bilimlarga asoslangan texnologiyalarni ko‘proq qo‘llash, industriallashtirish, bank, tovarlar va mehnat bozorini rivojlantirish, innovatsiyani amaliyotga joriy etish va rag‘batlantirish mexanizmlari yaratilishi natijasida siyosiy modernizatsiya jarayoni tezlashadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy sohada: fuqarolar, jamiyat, davlat institutlarini yo‘nalishiga qarab ixtisoslashtirish va rivojlantirish lozim. Ixtisoslashuvda ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, ma’lumotiga emas, balki shaxsning bilimdonligi, professional kasbiy mahoratiga ko‘proq e’tibor beriladi.

Uchinchidan, siyosiy sohada: milliy davlatchilikni qaytadan tashkil etish, hokimiyatlarning teng taqsimlanishiga erishish, jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun davlatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tarmoqlarida bozor iqtisodiga mos tuzilmaviy o‘zgarishlar o‘tkazishi oqibatida (Singapur, Xitoy tajribasi), davlatning demokratik tizim o‘rnatilishiga layoqati oshadi, bu masalada yangidan shakllangan siyosiy institutlar, nodavlat, notijorat tashkilotlari ko‘maklashadi.

To'rtinchidan, ma'naviy sohada: ilm-ma'rifat ahliga, xususan, maktab ta'limiga e'tiborni keskin oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirish, o'qituvchilarni jahon andozasiga ko'ra rag'batlantirish, xorijiy tillar, musiqaga ixtisoslashgan maktab va maxsus kurslarni ochish, xususiy maktablarni ko'paytirish, so'z, vijdon va fikrlar erkinligini ta'minlash, OAV va sud tizimini erkinlashtirish, individualizm qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini amaliyotga kiritish vaqti yetib keldi¹.

¹Batafsil qarang.: Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Monografiya. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 196-197.

UCHINCHI BOB

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY MADANIYAT: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



3.1. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR

3.1.1. Globallashuv jarayonining yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri

Bugun “globallashuv” juda keng darajada ommaviylashib ketgan tushunchaga aylandi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki uning ta’sir o‘tkazmagan birorta sohasi qolmadi. Uning moddiy kuch sifatida shakllanishi tarixiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Globallashuvning avj olishi bir qator ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltirdi. Bu, o‘z navbatida, unga dunyo miqyosida turli qarashlarning shakllanishiga ham olib keldi. Bunday qarashlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga XX asrning 80-yillarida jahon iqtisodiy hayotida sodir bo‘lgan tabiiy integratsion jarayonlarga nisbatan G‘arb olimlarining qarashlarni kiritish mumkin. Albatta, tabiiy integratsion jarayon uning barcha ishtirokchilarining manfaatlariga xizmat qilgan. Ammo mamlakatlar iqtisodiy tuzilmasida transmilliy korporatsiyalarning rivojlanib ketishi, ularning katta kuch sifatida maydonga chiqishi tabiiy integratsion jarayonlarda tengsizlikning yuzaga kelishiga olib keldi. Shunga qaramasdan, dastlab bu jarayonga dunyoni bir butunlikka olib keladigan jarayon sifatida qaralgan va taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazishi haqida fikrlar bildirilgan.

“Globallashuv” tushunchasi amerikalik olim T.Livitt tomonidan 1983-yilda “Garvard biznes revyu”¹ jurnalida e’lon qilingan maqolada qo‘llanilgan. U bu tushunchani qo‘llash orqali jahon, xususan, taraqqiy topgan mamlakatlarda iqtisodiy sohada yuzaga kelgan o‘zgarishlarni, ularda transmilliy korporatsiyalarning vujudga kelishi va ularning o‘zaro birlashib bozorlarni egallashi, shu tariqa yagona iqtisodiy

¹ Mirovaya ekonomika i mejdunarodnie otnosheniya. – M., 1988. – №1. – C.13.

makonni vujudga keltirishga qaratilgan harakatlarni ko'rsatish maqsadida qo'llagan. Bu davrda Yevropaning bir qator mamlakatlari va AQShda iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sodir bo'ldi hamda ularning jahon iqtisodiyotida yetakchiligi ta'minlandi. Eng asosiysi, ular jahon bozorida yagona kuch sifatida mustahkam o'rin egallashga muvaffaq bo'lgan edilar.

Bu jarayonning avj olishi uni ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqishni ham orttirib yubordi. Bu jarayonni birinchilardan bo'lib Roland Robertson 1985-yildan boshlab ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rgana boshladi¹. Roland Robertson globallashuvga taraqqiyotning ma'lum bosqichi, uning tobora rivojlanishi jahonda bir butunlikka olib keluvchi omil sifatida qaradi. Uning bu jarayonni o'rganishdagi xizmati shunda bo'ldiki, u globallashuvni taraqqiyotni tezlashuviga, iqtisodiyotning markazlashuviga va yutuqlarning ommaviylashuviga olib keluvchi omil ekanligini, shuning uchun uni ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil qilish hamda uning imkoniyatlaridan foydalanish zarurligini anglab yetdi.

Keyingi vaqtlarda "globallashuv" tushunchasi mazmun-mohiyatini va uning mamlakatlar hamda insonlar hayotidagi o'rnini o'rganishga bo'lgan qiziqishlar ortdi, unga nisbatan turli qarashlar, ziddiyatli fikrlar shakllandi. Bugungi kunda globallashuvga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanlar, seminar, treninglar o'tkazib kelinmoqda, maxsus ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo uning ijobiy yoki salbiy jihatlari haqida yagona fikrga kelinmagan. Bu tabiiy hol, chunki vaqt o'tishi bilan globallashuvning yangi qirralari yuzaga chiqmoqda, uning jahon taraqqiyotiga va insoniyat hayotiga o'tkazayotgan ta'siri kuchayib bormoqda. Ayni paytda, bu jarayonlarda bir qator ziddiyatlar ham yuzaga kelmoqda. Ularni chuqur o'rganmasdan turib esa insoniyat barqaror taraqqiy qila olmaydi.

Globallashuv o'ta ziddiyatli jarayondir. Dastlab uni G'arb olimlari o'rganganlar va bugun ham o'rganishda davom etmoqdalar. Agar ular dastlab globallashuvni taraqqiy topgan mamlakatlar iqtisodiyotida

¹ [http \(www.word.widewar\)](http://www.word.widewar)

kechayotgan jarayonlar orqali o'rganishga e'tibor bergan bo'lsalar, bugungi kunda uni kompleks holatda tahlil qilib, istiqbolda uning rivojlanishi nimalarga olib kelishi mumkinligini bashorat qilishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, Kolumbiya universitetining professori Jozef Stiglis globallashuv jarayonini taraqqiyotga olib keluvchi, insonlar hayotini yaxshilashning omili sifatida qarab, shunday yozadi: "Globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining hayoti yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo'nalishlari hozirning o'zida, masalan, ilmning globallashuviga, sog'liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib kelmoqda"¹.

Dunyoning taniqli iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati globallashuvning aniq yo'nalishi haqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflaydi: "Globallashuv deganda, savdoni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, transmilliy korporatsiyalar faoliyati, mamlakatlar o'rtasidagi moliyaviy oqim, xalqaro migratsiyalarni o'z ichiga oluvchi iqtisodiy globallashuv tushuniladi"².

Globallashuvni ko'pchilik olimlarning fikrlaridan farqli o'laroq, mafkura sifatida ko'ruvchilar ham topiladi. Jumladan, nemis olimi Ulrix Bek: "Globallashuvni men dunyo bozori siyosiy faoliyatini siqib chiqaruvchi yoki o'rni bosuvchi jahon bozori hukmronligi mafkurasi yoki neoliberalizm mafkurasi, deb tushunaman", deb yozadi³.

Rus olimi L.E.Grinin "Globallashuv – bu mintaqalar va umuman dunyoning integratsiyalanishuvi va yaqinlashuvining natijasidir"⁴, deydi. Yana bir rossiyalik olim Karen Momdjyan "Globallashuv – bu faoliyat emas, bu bizni o'ziga faqat subyekt sifatida, shuningdek, obyekt sifatida bog'lab qo'ygan jarayondir. Globallashuv – bu insonlar

¹ Uzbekistan and Central Asia – Sentr politicheskix issledovaniy. Informatsionno-analiticheskiy byulleten, 2007. IX. – C. 42.

² O'sha manba. – B. 44.

³ Cumerki globalizatsii: Nactolnaya kniga antiglobalicta. Avtor-sostavitel A.Ashkerov. – M.: OOO "ACT", 2004. – C. 48.

⁴ Grinin L.E. Globalizatsiya i natsionalniy cuverenitet // Istoriya i suverenitet, 2005. – №1. – C. 8.

qiladigan, bu insonlarda sodir bo‘ladigan, ularda sodir etiladigan jarayon”¹, degan fikrni ilgari suradi.

Qozoq olimi A.N.Nisanbayevning fikricha, “Globallashuv jahon hamjamiyati taraqqiyotidagi yetakchi tendensiyalardan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga, shuningdek, madaniy tamaddunlar (sivilizatsiyalar) sohasi munosabatlariga ham ta’sir o‘tkazadi”².

Bu fikrlardan kelib chiqadigan **xulosalar** quyidagicha:

Birinchidan, olimlarning ayrimlari globallashuvga tushuncha sifatida va taraqqiyotga ta’sir o‘tkazuvchi omil sifatida qarashadi;

Ikkinchidan, unga dastlab mamlakatlar iqtisodiyotining o‘zaro integratsiyalashuvi va yaqinlashuvining natijasi, deb bilishgan. Keyingi rivojlanishi jarayonida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarga qarab, unga bir tomonlama emas, balki kengroq, ya’ni nafaqat iqtisodiyotda, shuningdek, uning ta’sirida mamlakatlararo, mintaqalararo va jahondagi turli munosabatlardan kelib chiqqan holda³, ko‘p tomonlama ta’sirga ega bo‘lgan jarayon sifatida qarashlar shakllangandi;

Uchinchidan, globallashuvning dunyoda boshlangan vaqti, turli jarayon va hodisalarga ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari to‘g‘risida G‘arbda, hatto AQSHlik olimlarda yagona fikr shakllanmagan. Lekin ularning ko‘pchiligi fikrlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bir-biriga ziddiyatli, hatto bir-birini inkor qiladigan fikrlar mavjud⁴.

To‘rtinchidan, G‘arb va AQSHlik olimlar globallashuvning millat va uning ma’naviyatiga ta’siri, istiqbolda u nimalarga olib kelishi mumkinligi masalasini qo‘ymaganligini ko‘ramiz.

Shu bilan birga, hozirda ham globallashuvning milliy ongimizni sayozlashuviga, ma’naviyatimizning yemirilishiga o‘tkazayotgan ta’siri moddiy kuch sifatida namoyon bo‘layotgan sharoitda ham uning faqat

¹ O‘sha joyda. – C. 48.

² Nisanbaev A.N. Gumanisticheskie osnovi konfessionalnogo dialoga i filosofiya vzaimoponimaniya / Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. – Almati, 2012. – C.13.

³ O‘sha joyda..

⁴ Grinin L.E. Globalizatsiya i natsionalniy suverenitet // Istoriya i suverenitet, 2005. – №1. – C. 9.

ijobiy natijalariga mahliyo bo‘lib, salbiy natijalariga e‘tiborsizlik bilan qarash holatlari uchrab turibdi. Bundan qat’i nazar, O‘zbekistonda, ayniqsa, keyingi paytda bu jarayonga nisbatan turli qarashlar, o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Tadqiqotchi olim Bahodir Zokir globallashuvning ziddiyatli jarayon ekanligi haqida: “... Jamiyat hayotining barcha sohalari – iqtisodiyot, siyosat, mafkura, madaniyat hatto shaxsiy turmush tarzini qamrab olgan globallashuv bilan bog‘lanmoqda”¹, degan g‘oyani dastlab ilgari surib, globallashuvga jamiyat hayotini tubdan o‘zgartirayotgan jarayon sifatida qaragan edi.

Taniqli olim, falsafa fanlari doktori, professor Sa’dulla Otamuratov “globallashuv”ning milliy ma’naviyatning yemirilishiga o‘tkazadigan ta’siri va uning oldini olish omillariga bag‘ishlangan “Globallashuv va millat” (2008), “Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik” (2013) kabi yirik monografiyalarini chop ettirdi. “Globallashuv, bir tomondan insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lishi bilan ijobiy jarayon bo‘lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog‘lanib qolishiga olib keladigan salbiy jarayondir”², deb yozadi professor S. Otamuratov. Shu ma’noda ham uni obyektiv jarayon sifatida qabul qilsa bo‘ladi. U insoniyat va mamlakatlar taraqqiyotiga o‘zining ta’sirini o‘tkazmoqda, jumladan, fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi, ularning jahonda keng ommaviylashuviga, inson moddiy farovonligining oshishiga o‘zining ijobiy ta’sirini o‘tkazuvchi omilga aylanmoqda. *Muammo globallashuvninig o‘zida emas, balki uning boshida kimlar turganligida va undan asosiy manfaatlarni kimlar ko‘rayotganligidadir*³, deydi professor S. Otamuratov.

Chindan ham, bu jarayon ommalashishida g‘arblik siyosatdonlarning “xizmatlari” beqiyos. Uning boshida yuksak taraqqiyotga erishgan mamlakatlar turganligi, moddiy va intellektual imkoniyatlar bilan shakllantirilayotganligi, asosiy manfaatni ham o‘zlari

¹ Zokirov B. Globallashuv ziddiyatlari // Tafakkur, 2004. – №1. – B. 26-27.

² Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. – T.: O‘zbekiston, 2018. – B. 73

ko‘rayotganligi, taraqqiyot yo‘lidan borayotgan va orqada qolayotgan mamlakatlarning iqtisodiy, texnik va texnologik jihatdan ularga bog‘lanib qolayotganligi globallashuvning umuminsoniyatga xizmat qilish funksiyasining barbod bo‘lishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev bu borada jiddiy fikrlarni bildirdi: “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – G‘arbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, o‘zimizdan, o‘z oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yo‘q. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan ba’zi klip va kinolarni, efirga berilayotgan qo‘shiq va raqslarni kuzatib, sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy”¹. Bulardan xulosa shuki, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy tizimimizda bo‘shliqlar mavjud. Davr ana shu tashkiliy-tuzilmaviy institutlarni yanada takomillashtirish orqali yoshlar qatlamiga yaqinlashish va ularda milliy g‘ururni ko‘tarishni taqozo etmoqda.

3.1.2. Yoshlarga oid qonun – yosh avlod siyosiy madaniyatini yuksaltirishning huquqiy asosi

Yoshlar – kelajagimiz. Yoshlar – bunyodkor kuch. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtida amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi. 2017-yil 5-avgust.

dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Yuqorida keltirilgan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun 33 moddadan tashkil topgan. Quyida tarixiy hujjatning eng zarur moddalari bilan tanishtiramiz¹:

“3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

yoshlarga oid davlat siyosati — davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi;

yoshlar (yosh fuqarolar) — o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan shaxslar;

yosh oila — er-xotinning ikkisi ham o‘ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o‘ttiz yoshdan oshmagan yolg‘iz otadan yoki yolg‘iz onadan iborat bo‘lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol);

yosh mutaxassis — oliy yoki o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasasini bitirgan, ta’lim muassasasini bitirganidan so‘ng olgan ixtisosligi bo‘yicha uch yil ichida ishga kirgan va ma’lumoti to‘g‘risidagi hujjatda ko‘rsatilgan ixtisosligi bo‘yicha ishlayotganiga uch yildan ko‘p bo‘lmagan o‘ttiz yoshdan oshmagan xodim;

¹ O‘sha joyda.

yoshlar tadbirkorligi — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sischi lari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati.

4-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

ochiqlik va shaffoflik;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;

yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;

ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi.

5-modda. Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;

yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;

yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish" va hokazo

Ko'rinib turibdiki, yoshlarga katta g'amxo'rlik, ishonch va mas'uliyat yuklanmoqda. Yoshlar kelajak bunyodkori ekanligiga urg'u berilmoqda. Ma'lumki, 2017-yildan e'tiboran, yurtimizda 30-iyun — "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi. Turli sohalarda yuksak

natija va yutuqlarga erishayotgan fidoyi yoshlarimizni ragʻbatlantirib borish maqsadida “Mard oʻgʻlon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali taʼsis etildi.

Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi toʻgʻrisida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat boʻldi, deyish mumkin. Farmon bilan “Yoshlar – kelajagimiz” jamgʻarmasi tashkil etildi va ushbu jamgʻarma yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, gʻoyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali *yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qoʻyildi*. Ushbu hujjatga eʼtibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganini koʻrish mumkin¹.

Oʻz navbatida, Oʻzbekistondagi barcha oʻzgarishlarning negizi hisoblangan taʼlim-tarbiya tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Ayni vaqtda *taʼlim, shu jumladan, ijtimoiy soha uchun xarajatlarning miqdori davlat byudjeti xarajatlari umumiy qiymatining yarmidan koʻprogʻini tashkil etmoqda*. Tabiiyki, har qanday davlat ham bunday katta xarajatlarni koʻtara olmaydi, ammo qanchalik ogʻir boʻlmasin, buning uchun zarur mablagʻ va resurslar izlab topilmoqda.

Oʻzbekiston rahbari mazkur xarajatlarni xarajat emas, balki kelajak uchun qoʻyilgan eng samarali sarmoya deb hisoblab, taʼlim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beradigan muhim omil ekanini taʼkidlamoqda. Haqiqatan ham, islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda, kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga nechogʻli javob bera olishiga bogʻliq.

Shu maqsadda mamlakatda Maktabgacha taʼlim vazirligi tashkil etildi, maktab taʼlim tizimi tubdan isloh qilinib, 11 yillik umumiy oʻrta taʼlim qayta joriy etildi. Viloyatlarda yangi oliy taʼlim muassasalari, ilmiy va ijodiy markazlar tashkil etilmoqda. Oliy oʻquv yurtlariga qabul kvotalari sezilarli darajada kengaytirildi. Sirtqi va kechki oliy taʼlim

¹ <https://strategy.uz/index.php?news=615> 24.07.2019.

shakllari tiklandi. Keyingi ikki yil ichida 20 dan ziyod rivojlangan davlatlarning 60 ga yaqin nufuzli universitetlari filiallari ochildi.

Yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularning axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligini oshirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga olgan *beshta muhim tashabbus* yo'lga qo'yildi.

Yoshlar siyosati borasida ko'plab sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son *"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"*gi Farmoniga binoan, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-dekabrda mamlakat yoshlari bilan uchrashuvida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi.

Demak, yoshlarimizga keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz e'tiborida bo'lib turgan ijtimoiy qatlamlardan biri ham yoshlar hisoblanadi. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ulardagi bor imkoniyatlardan foydalanishga va o'z iqtidorlarini yanada namoyon etishiga shart-sharoit yaratib berish, barkamol yosh avlodni tarbiyalash va yoshlarning huquqlari va manfaatlarini ta'minlash davlatimiz oldida turgan vazifalardan biriga aylanmoqda.

Yoshlarni rag'batlantirishga doir beshta muhim tashabbusni olaylik. Bizga ma'lumki, bu tashabbus dastlab Toshkent viloyatining Bo'ka, Quyichirchiq tumanlari va Toshkent shahrining Uchtepa tumanida tajriba sifatida joriy etilgan edi¹. O'shanda 42 ta tuman va shaharlarning 168 ta

¹ Jonajon O'zbekistonimizni yanada obod qilaylik. <https://uza.uz/uz/posts/>

olis va og‘ir ahvoldagi mahallalarda tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Shuningdek:

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish yo‘nalishida:

Yoshlarni madaniyat va san’atga jalb etish yo‘nalishida baxshichilik va maqom maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Termizda Baxshichilik, Qo‘qonda Hunarmandchilik xalqaro festivallari o‘tkazildi.

Respublikamizdagi barcha tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta’lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etildi. 6 ta madaniyat markazi qayta ta’mirlandi.

“Men nechun sevaman O‘zbekistonni!” mavzusida ijodiy ishlar tanlovi tashkil etildi. Tanlovda 1 mln 730 ming nafarga yaqin o‘quvchi yoshlar ishtirok etdi¹.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasidagi qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berish yo‘nalishida:

2019-2023-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi.

Olimpiya o‘yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g‘olibi bo‘lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga biriktirildi.

186 marotaba “Milliy o‘yinlar” (*arqon tortish, kurash, tosh ko‘tarish va boshqa*) sport musobaqalari tashkil etilib, ularda jami 16 200 nafar yoshlar ishtirok etdi.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar orasida kompyuter texnologiyalari va internetdan foydalanishni tashkil etish yo‘nalishida:

Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni joriy etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman shaharlarida 50 ta Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari

¹ yoshlar.gov.uz

tashkil etildi. Mazkur o‘quv markazlarida 50 ta yangi ish o‘rinlari yaratilib, ularda 19 ta maxsus fan dasturi ishlab chiqildi¹.

Toshkent shahri, Sirdaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida yoshlarning startap loyihalarini rivojlantirishga qaratilgan IT parklar qurildi.

Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlarida qisqa va uzoq muddatli o‘quv kurslari tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 5 ming nafardan ortiq tinglovchilar o‘quv kurslarini yakunlagan.

Bugungi kunga qadar 3 672 ta xalq ta’limi, 1 205 ta maktabgacha ta’lim va 1 469 ta sog‘liqni saqlash muassasalarining yuqori tezlikdagi internet tarmog‘iga ulanishi ta’minlandi. Shuningdek, 3 433 ta xalq ta’limi, 1 836 ta maktabgacha ta’lim va 1 127 ta sog‘liqni saqlash muassasalariga jami 4 154 km optik tolali yangi aloqa liniyalari tortildi².

To‘rtinchi tashabbus – aholi, ayniqsa, yoshlar madaniyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yo‘nalishida: 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi³ amalga oshirildi. Hududlarga “Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 mln. dan ortiq kitoblar yetkazib berildi. “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomdagi 590 ming dona badiiy adabiyotlar chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi⁴.

“Yosh kitobxon” respublika tanlovining saralash bosqichlarida 2019-yilda 1 mln 200 mingdan ortiq yoshlar faol ishtirok etib, Respublika bosqichida g‘olib bo‘lgan 3 nafar yoshlarga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sovg‘asi sifatida “Spark” avtomashinasi berildi.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash ishlarini tizimli tashkil etish yo‘nalishida:

¹ Norkulova N. Shaxs ijtimoiy xulqi va affiliatsiyasi motivatsiyasi diagnostikasi. T.: TDPU nashriyoti, 2017. –B. 34.

²Loyihalar. // <https://yoshlar.gov.uz/uz/project/teztap/>

³O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020 -2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020-yil 14-dekabrda 781-son qarori <https://lex.uz/docs/5160827>

⁴ Biznes sayohatlar. // <https://yoshlar.gov.uz/uz/privilege/biznes-sayohatlar/>.

Qizlarimizning kasb ko'nikmalarini mustahkamlashi, hayotda munosib o'rin egallashi, ularni doimiy ish bilan band qilish maqsadida 75 ta tumanda 111 ta tikuv-trikotaj majmualari tashkil etilib, 35 ming nafar qizlar ishga joylashtirildi.

Xotin-qizlar uchun jami 170 mingga yaqin ish o'ri yaratildi. Tijorat banklari, Xotin-qizlar va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq xotin-qizlarga jami 4,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

Haqiqatan ham, tan olish kerakki, respublikamizda beshta tashabbus doirasida katta hajmli ishlar bajarildi. Yoshlarning demografik holatini hamda dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni hisobga olib, mamlakatni demokratlashtirish va yangilash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida yoshlarning faolligini oshirish, ularning manfaatlarini qo'llab-quvvatlash, jismonan va ma'nan sog'lom, aqlan yetuk avlodni voyaga yetkazish maqsadida davlat va jamiyat oldiga chuqur o'ylangan va ilmiy asoslangan maxsus dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish kabilar bu boradagi eng dolzarb vazifalarga aylanmoqda¹.

3.1.3. Siyosiy islohotlar – yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish omili

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan inqilobiy o'zgarishlar fuqarolarning siyosiy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Siyosiy madaniyat shaxsning ijtimoiy tuzumga, hokimiyatga, davlat amalga oshirayotgan ichki va tashqi siyosatga munosabatini aks ettiribgina qolmay, balki shaxsning siyosiy ongi bilan siyosiy faoliyati birligini ham ifodalaydi. Shaxs siyosiy madaniyatining holati, darajasi qancha baland bo'lsa, uning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtiroki shuncha yuqori bo'ladi.

Jahon tajribasi ham, o'zimizning o'tgan yillar tajribamiz ham shundan dalolat beradiki, jamiyatda amalga oshirilayotgan har qanday

¹ Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil 26-dekabr, №273.

islohotlarning, jumladan, siyosiy islohotlarning ham ko‘zlangan yutuqlarga erishuvi, mazkur islohotlarning jamiyat a‘zolari tomonidan faol ravishda qo‘llab-quvvatlanishi orqali yuz beradi. Davlat bilan jamiyat o‘rtasida bo‘ladigan o‘ziga xos ijtimoiy hamkorlik taraqqiyotning garovi bo‘lib xizmat qiladi. Siyosiy madaniyat turli ijtimoiy guruhlarining davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlarga, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlatlar va millatlar bilan munosabatlar hamda shu kabilarga qarashlarining tizimga solingan nazariy ifodasidir. Demak, siyosat –davlatni, jamiyatni boshqarishda muayyan maqsadlarga erishishni ko‘zda tutishi, turli ijtimoiy guruhlar hamda davlat o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatini saqlab turuvchi xalqning iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqib amalga oshiruvchi vositadir. Har bir mamlakatda nazariy bilimlar qancha chuqur va keng bo‘lsa, siyosat shu qadar mustahkam va real bo‘ladi. Siyosiy madaniyat, mafkura va ma‘naviyat darajasi jamiyat hayotida inson ishtiroki qandayligini belgilaydi. Siyosiy madaniyatga ega har qanday fuqaro qonun va qarorlar qanday qabul qilinishi va ularning ijro etilishiga munosabat bildiradi.

Siyosiy madaniyat ijtimoiy ongning unsurlari va fenomenlarini, u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-siyosiy institutlari va siyosiy jarayonlari bilan aloqador bo‘lgan ma‘naviy madaniyatni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy hayotida bir qancha muhim *vazifalarni*, xususan:

birinchidan, jamiyatda va milliy manfaatlarni ro‘yobga chiqarishni siyosiy jihatdan ta‘minlash;

ikkinchidan, ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, milliy va milliy tuzilmalar manfaatlari yo‘lida siyosiy munosabatlarning qayta o‘zgarishi va o‘zlashtirish;

uchinchidan, siyosiy jarayonlarda tartibga soluvchilik (siyosiy tizim, siyosiy tashkilotlar va boshqalar);

to‘rtinchidan, tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Shu ma'noda olganda, siyosiy madaniyat – jamiyat siyosiy tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri. Uning taraqqiyot darajasi mazkur tizim sifatlarini o'zida ifoda etadi. Fuqarolar, jamoatchilik va siyosiy arboblarning siyosiy va huquqiy bilimdonligini, ularning siyosiy fe'l-atvorini aks ettiruvchi siyosiy madaniyat siyosiy institutlarning shakllanishi va amal qilishiga kuchli ta'sir etadi, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirning tabiatini belgilab beradi.

Siyosiy jarayonlar va siyosiy xulqda namoyon bo'ladigan e'tiqodlar, his-tuyg'ular va qadriyatlar oldidagi bunday chegaralash, o'z navbatida, siyosiy madaniyatning muhim unsuri hamdir.

Siyosiy madaniyatning shakllanishida jamiyatda amal qiladigan siyosiy mafkuralarning o'rnini alohida ta'kidlash lozim.

Mafkura nima? Mafkura, avvalo, muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Mafkuraning asosiy funksiyasi – aholining ommaviy siyosiy ongini egallash, unga jamiyatning bugungi va kelgusidagi taraqqiyotini baholash, o'zining mezonlarini joriy qilish, siyosiy makonda kishilar mo'ljalladigan maqsad va vazifalarni belgilashdan iborat.

Mafkura amalga oshirmoqchi bo'lgan yo'lning oqilona va xolisona obrazini yaratishga, uning u yoki bu sinf, millat, davlat manfaatiga mos kelishiga intiladi. Bu borada mafkura u yoki bu ideallar va qadriyatlarni targ'ibot qilish bilan chegaralanib qolmasdan, fuqarolar, siyosiy partiyalar va boshqa siyosiy tuzilmalarning maqsadga muvofiq faoliyatini rag'batlantirish bilan shug'ullanadi.

Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijasi ko'p jihatdan davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tamomila yangicha pog'onaga ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Ushbu vazifa amalga oshirilishining asosida esa, fuqarolarimizning, ayniqsa, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish yotadi, siyosiy madaniyat darajasining yuksalib borishi esa, ana shu faoliyatning Konstitutsiyamiz va boshqa qonunlarimizni hurmat qilish,

jamiyat barqarorligi uchun mas'uliyatni doimo his qilib turish kabi jihatlar bilan to'ldiradi. Bu esa shu jamiyatda, mana shu davlatda yashayotgan har bir shaxsning ertangi kuni, kelajagi uchun doimo mas'uliyatli bo'lishga chorlaydi.

Xalqning siyosiy madaniyati yuksalgan sari u siyosiy jarayonlarga tobora yaqin kirib boraveradi. Ayni shu jarayonlarga kirib borgan fuqaro esa tez orada shu jamiyatning boshqaruvida bevosita ishtirok etadi. Hozirda davlatimiz oldiga qo'ygan asosiy vazifasi ham shu – xalqning, fuqarolarning jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashdir.

Xo'sh, yoshlarning siyosiy madaniyatini yuksaltirish qanday amalga oshiriladi? Buning uchun ma'lum bir muassasa, tashkilot yoki fuqaroning o'zi mas'ulmi? Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish, siyosiy madaniyat va siyosiy faollikni targ'ib etuvchi partiyalar zimmasiga qanday vazifa va mas'uliyat yuklanmoqda? Mas'uliyat yuki turmush tarzimiz hayotimizda aks etmoqdami? Ushbu savollarga ijobiy javob topish esa siyosiy partiyalar faoliyatidagi faollikni talab etadi. Shu bilan birga, yoshlardan ham siyosiy jarayonlarga qiziqish, faollik va bilim talab etiladi.

Mamlakatimizda yoshlar hayotiga doir qonunlar qabul qilishi, ularning haq-huquqlari belgilab berilishi, va albatta, har bir yoshning mazkur jamiyat fuqarosi sifatida siyosatda faol ishtirok etishini e'tiborga olish yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalash omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, yoshlarni siyosiy faolligini oshirish, siyosiy madaniyatlilik darajasining ko'tarilishi, ularning barkamol avlod sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu o'rinda yoshlarni barkamol avlod darajasiga ko'tarilishi, siyosiy faol fuqaroga aylanishida siyosiy ta'lim-tarbiyaning to'g'ri amalga oshirilishi har jihatdan muhim. Siyosiy ta'lim-tarbiya – bu ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amaliy iqtidorining tarkib topishi, siyosiy harakat, faol hayotiy pozitsiyani vujudga keltirishidir. Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirib borish, avvalo oilada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mehnat jamoalarida va ommaviy xizmat ko'rsatish joylarida amalga oshiriladi. Bu jarayon oilada, avvalo,

ota-onaning ibrati, iliq oilaviy munosabatlar orqali amalga oshadi. Oila a'zolarining gazeta, jurnallar o'qish va tahlil qilishga qiziqishi, teledasturlarni muntazam kuzatib borishi yoshlar siyosiy madaniyatini o'sishiga xizmat qiladi.

Yoshlar taqlidchan, qiziquvchan va tez o'rganuvchan bo'ladi. Shu jihatdan ularda mas'uliyat, ishtiyoq, "havasmandlik" kabi hissiyotlarni hisobga olish lozim. Shunday ekan, oilaning yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Shaxsning individuallashtirish jarayoni qanchalar tezlashsa, uning ijtimoiylashuvi ham shu qadar tez shakllanib boradi. Natijada ularning asta-sekin barkamol avlod sifatida shakllanishi tez kechadi.

Yoshlar siyosiy madaniyati – ularning ongi orqali siyosiy tizimning mohiyatini bilish, uning maqsadini idrok etish va siyosiy jarayonda erkin ishtirok etishga tayyor bo'lishini anglatadi. Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish jarayoni milliy g'oyaning amalga oshishida muhim omil bo'lishi bilan ham belgilanadi. Milliy g'oyaning maqsadga erishuvida yosh avlod vakillarining siyosiy madaniyatining shakllanishi yuksak ahamiyatga ega. Sababi milliy g'oya inson manfaatlarini to'liq ro'yobga chiqishini ta'minlaydigan yangi demokratik jamiyat qurishni nazarda tutadi. Demokratik siyosiy jamiyatni barpo etish esa siyosiy ongi yuqori, siyosiy faol va siyosiy madaniyati yuksak yoshlar ko'p bo'lganda tezlashadi.

Yoshlarning davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida faol ishtirokini ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Bu yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda obyektiv ijtimoiy roli bilan bog'liq. Uning u yoki bu ijtimoiy-siyosiy tizimga integratsiyasi, ular bilan moslashuvchanligi jamiyatda o'zaro hamkorlik munosabatlarning shakllanishi va uning birligi hamda xavfsizligining saqlanib qolishi omili hisoblanadi.

"Yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvida ishtiroki" va "yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvida ishtirokini ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlash" tushunchalari farqini hisobga olish lozim. Birinchisi, yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvi sohalaridagi

faoliyatini bildirsa, ikkinchisi, ularning bevosita davlat hokimiyati bo'g'inlarida ishga qabul qilishi va ishlashi uchun yaratilgan huquqiy asoslarining mavjudligi nazarda tutiladi.

Yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvida ishtiroki uning o'zini tashkil qilishning turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Plyuralizm, erkinlik sharoitida yoshlarning o'zini namoyon qilishi imkoniyati kengayadi. Bunda huquqiy asoslar yoshlar foydasiga ishlaydi.

“Yoshlarning jamoaviy harakatlari yangi ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarning shakllanishiga yoki mavjudlarini transformatsiyasiga yo'naltirilgan bo'ladi. O'z-o'zini boshqarishda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy subyektiv ekanligi deyarli to'liq namoyon bo'ladi. Yoshlar ijtimoiy harakatlari o'z-o'zini boshqarishning yorqin misoli bo'lib xizmat qiladi¹.

Davlat hokimiyati va boshqaruvida yoshlar bu o'zining ijtimoiy, psixologik, psixofiziologik xususiyatlari mavjud bo'lgan, jamiyat hayotida faoliyat olib boruvchi, ichki differensiyaga ega, jamiyatning ijtimoiy bo'linishiga hamda o'zining submadaniyatiga mos keluvchi ijtimoiy demografik guruh hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar aholining eng ko'p o'rganilayotgan bo'g'inidir. Chunki ular jamiyat rivojlanishidagi o'zgarishlarni amalga oshiruvchi hamda belgilab beruvchi muhim indikator hamdir.

V.T.Lisovskiy ta'rifiga ko'ra: “Yoshlar – ijtimoiylashuv bosqichidan o'tuvchi, ta'lim, kasbiy va madaniy vazifalarni amalga oshiruvchi va jamiyatda ijtimoiy rollarni qabul qiluvchi va bajaruvchi avlod”². Bu tushunchaga I.S.Kon kengroq ta'rif beradi: “Yoshlar - o'z ko'rsatgichi, ijtimoiy roli, u yoki bu ijtimoiy psixologik xususiyatlarga egaligi asosida aniqlanuvchi ijtimoiy demografik guruh.

Yoshlik hayot davomidagi ma'lum bir bosqich bo'lib, u biologik jihatdan universal, lekin unda ijtimoiy maqom, ijtimoiy psixologik

¹ Minchenya Y.A.. Sotsiologiya molodeji. GUVPO Belorussko-Rossiyskiy universitet. – Mogilev: 2017. – S.8.

² Lisovskiy V.T. Metodologiya i metodika izucheniya idealov i jiznennix planov molodeji: Avtoref. diss. kand. psix. nauk. – L., 1968. – S.19.

jihatlar bilan bog‘liq yosh to‘siqlari, chegaralar ijtimoiy hayot sohalari, madaniyat va ijtimoiylashuvning ushbu jamiyatga xos qonuniyatlariga bog‘liq bo‘ladi”. Albatta, bu fikrlarga qo‘shilish mumkin. Unda yoshlar ijtimoiylashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar va murakkab jarayonlar hisobga olingan.

Jamiyatda yoshlarimizning faolligi nimaga olib kelishi masalasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

Birinchidan, yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvida faolligini oshirish masalasi strategik masalaga aylangan. Mamlakatning milliy rivojlanishida markaziy davlat hokimiyati va unda yoshlarning ulushi masalasi shunchaki oddiy masala emas. Yoshlarning hokimiyat tizimida bo‘lishi, turgan gapi, qonunlar, qarorlar ishlab chiqishda faolligini ta’minlashga, parlamentdagi qizg‘in faoliyatlariga ulanib ketadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda dunyo tajribasiga asoslangan holda yoshlarni parlament faoliyatidan xabardor bo‘lish uchun dastlabki ko‘nikma va malakalarni shakllantirib borish maqsadida Yoshlar parlamentining tashkil etilganligi yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimi bilan tanishtirishga hamda ularni ishtirokini ta’minlashga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, Respublika Oliy Majlisi Quyi va Yuqori palatasi tarkibida yoshlarning ulushini o‘rganish shundan dalolat beradiki, deputatlar orasida 30 yoshgacha bo‘lganlar juda kam yoki ayrim mahalliy kengashlarda umuman mavjud emas. Bu holatni jiddiy o‘ylab ko‘rish va yoshlarni parlament faoliyatida faol ishtirokini ta’minlash talab etadigan shart-sharoitlar va omillarga kompleks yondashish zarur.

To‘rtinchidan, yoshlarga nisbatan saylovchilar orasida mavjud bo‘lgan an’anaviy qarash bilan bog‘liq stereotiplarni ham o‘zgarish taqozo etiladi. Yoshlar qatlami parlamentda yangicha tafakkur va qarashlarni shakllanishiga asos yaratishga imkoniyat beradi.

Beshinchidan, mahalliy kengashlarda ham yosh deputatlarni saylash, hokimlikka ko‘tarish jamiyatda yoshlar tashabbusi bilan bog‘liq yangicha taklif va mulohazalarni kirib kelishi, yangi qonun va qarorlarni

qo‘llab-quvvatlash uchun o‘ziga xos siyosiy makon yaratish imkoniyatini beradi.

Oltinchidan, boshqaruv sohasida axborot kommunikatsiya tizimining roli oshib borayotganligini hisobga olsak, boshqaruv kadrlari orasida yosh rahbar kadrlarni qo‘llab-quvvatlash masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lishi tarafdorimiz.

Lo‘nda qilib aytganda, yoshlarni plyuralizm, fikrlar xilma-xilligi sharoitida yuksak darajada tarbiyalash jamiyat rivojida muhim rol o‘ynaydi. Fikrimizni quyidagilar bilan izohlaymiz:

1. Yoshlardan siyosiy voqea hodisalarning mohiyatini anglashni, yuksak siyosiy ong va madaniyatga ega bo‘lishlarini davrning o‘zi talab qilmoqda.

2. Plyuralizm odatda fikr erkinligi, demokratik muhit va tamoyillar bilan uzviy bog‘liq holda kechadi. Har bir jamiyatda demokratiya va fikrlar xilma-xilligi yetakchi rol o‘ynaydi.

3. Fikrlar xilma-xilligi ijtimoiy hayot va turli fan sohalarida bir-biridan farq qiladi hamda o‘ziga xos ma’no mazmunga ega bo‘ladi. Shunga mos falsafiy va siyosiy fikrlar xilma-xilligini bir-biridan farqlash lozim.

4. Fikrlar xilma-xilligi deganda har bir kishida mustaqil fikrga ega bo‘lish, fikrga qarshi fikr bilan javob berish madaniyatini shakllantirish lozim.

5. Plyuralizm, erkinlik, fikrlar xilma-xilligi yoshlarning siyosiy madaniyati yuksalib borishi uchun katta imkoniyat eshigidir. Ayni paytda, yoshlardan unga alohida mas’uliyat va kompetentlik bilan yondashish talab etiladi.

3.2. O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH VAZIFALARI

3.2.1. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlari

Bugun jahondagi murakkab va tez o‘zgaruvchan globallashuv sharoitida har qanday davlatning zamonaviy jamiyatga transformatsiyalanganlik darajasi ular tomonidan siyosiy, iqtisodiy hamda sotsiomadaniy voqelikdagi yoshlarning siyosiy madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Yoshlar siyosiy madaniyatining rivojlanish jarayonlari muammolarini hal qilish sohasidagi samarali davlat siyosatini amalga oshirish hamda unda qo‘llaniladigan mexanizm va texnologiyalarni takomillashtirib borish ijtimoiy barqarorlik kafolati bo‘lish bilan birga ijtimoiy taraqqiyotning ham garovi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlarida zamonaviy metodlarni qo‘llagan holda amalga oshiriladigan uzoq muddatli siyosat modelini ishlab chiqishga bo‘lgan zaruratni yanada kuchaytirmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoning aksariyat mamlakatlarida yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish bilan ishlashning yangicha modellarini yaratish hamda ularni amalga oshirishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni yaratishga oid ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ko‘pgina mamlakatlarda bunday modellarni ishlab chiqishda ularning zamon talablariga mosligiga, bajaradigan vazifalariga katta miqdordagi mablag‘larni jalb qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari, yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha milliy modellarning nafaqat lokal nuqtayi nazardan muvaffaqiyatli amal qilishi, balki ularning mazkur sohadagi xalqaro munosabatlarga integratsiyalasha olishi, mazkur siyosatning samaradorligini belgilovchi muhim mezonlar sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida boshqa sohalar qatori yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlariga ham alohida e‘tibor qaratib kelindi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama barkamol bo‘lib ulg‘ayishlari uchun barcha

shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish va uni yanada takomillashtirish va rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish jamiyatimiz, qolaversa, davlatimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14 sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son, 2018-yil 28-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-son qarori hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda bir qator vazifalar belgilanib, amalga oshirildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g‘oyalardan siyosiy fanlar, davlat boshqaruvi, xalqaro siyosiy munosabatlar, falsafa, ijtimoiy falsafa, psixologiya, sotsiologiya, fuqarolik jamiyati va tarix fanlari bo‘yicha tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Siyosiy madaniyat o‘z ichiga siyosiy bilimlar doirasidagi an‘analalar, qadriyatlar, siyosiy xulq-atvorlar birligini mujassam

etganligi bois, uning mavjudligi davlat va jamiyatning taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilishini bildiradi. Ammo bu jarayon murakkab va xilma-xillik xususiyatiga ega. Chunki siyosiy tizimlar, an'analar xar bir xalq, millat uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Jamiyat boshqaruvini joriy etgan mamlakat va jamiyatlar misolida aynan bir xil siyosiy institutlarning turlicha faoliyat ko'rsatishlari, aynan bir xil siyosiy sohadagi yangiliklarni qaysidir mamlakatda osonlik bilan, qolganlarida umuman joriy etib bo'lmashligi kabi muammolarni tushunish, ularning yechimini topib berishda siyosiy madaniyatning o'rnini katta. Chunki, bu yangiliklar insonlar guruhiga xos xususiyat bo'lib, ular esa avtomatik faoliyat ko'rsatuvchi mexanizm emas. U asta-sekin moslashuvchanlik, shuningdek, unga yuklatilgan vazifalarni bir maromda bajaruvchi tabiatga ega bo'lgan mavjudotdir. Aynan shu holatlarni amalga oshirishning manbai inson jamiyatning muayyan sohasiga ega bo'lgan qadriyat va an'analari yig'indisi, ya'ni madaniyat bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat siyosiy tizimlar va davlat haqidagi bilimlar, qarashlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy madaniyat shakllanishi bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va davomiylik xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiyizatsiya, ya'ni ijtimoiylashuv jarayonini bosib o'tishi lozim.

Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq har qanday tadqiqot ko'p yoqlama xarakter kasb etadi. Zero, mazkur muammolarning yechimi mahalliy va davlat boshqaruvi, sotsiologiya, ijtimoiy ish, pedagogika sohasidagi amaliyotchi va nazariyotchi mutaxassislarning o'zaro hamkorligini talab qiladi. Ayni sohalarning har biri yoshlar muammolarini hal qilish bilan bog'liq o'z kategorial apparatiga ega. Shu ma'noda, "yoshlar" tushunchasi bir so'z bilan ifodalansa-da, mazmuni va hajmiga ko'ra, turli sohalarda turlicha qo'llaniladi. Bu esa, o'z navbatida, jiddiy kommunikativ va tadqiqotchilik muammolarini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish jarayonlariga oid davlat siyosatining shakllanish va amalga oshirish jarayonini ikki bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich


O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining me'yoriy-huquqiy, tashkiliy asoslarining shakllanishi va yoshlarga oid davlat siyosati subyektlarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi tashkil etib, u 1991-2016-yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich 2016-yildan to 2023-yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Hozirgi kunda davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar davrida siyosiy madaniyatning o'rni qanday bo'lishi kerak? Siyosiy madaniyatning o'zi nima? Uni qanday shakllantirish mumkin? Bu kabi chuqur tahlil talab, muammoli savollarga bot-bot duch kelmoqdamiz. Bugungi kunda bunday savollarga tegishli hamda mantiqli javob topish, ushbu soha bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi olimlarning oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim ajralmas tarkibiy qismi, jamiyatning siyosiy rivojlanishi jarayonida fuqarolarning tegishli siyosiy bilim va tajribalarga ega bo'lishida, siyosiy voqealarga o'z munosabatlarini bildirishlari hamda baho berishlari va shu kabi holatlarda namoyon bo'ladi. Davlatning ichki hamda tashqi siyosatini tushuna bilish, uni tahlil qila olish va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z xatti-harakatini belgilay olish, siyosiy voqealarni oldindan ko'ra bilish, nazorat qilish va amaliy yo'nalishlarni aniqlay olish kabi xislatlar esa fuqarolar, xususan, yoshlarning siyosiy madaniyatini belgilovchi mezonlardir.

Yoshlar intellektual madaniyati ular siyosiy madaniyatining asosi sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kitobxonlik, so'z, nutq madaniyati, mustaqil o'qilgan manbalarning asosiy mazmunini anglash, verbal intellekt;
- shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muammolar yechimini topish qobiliyati;
- belgilangan maqsadlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan shaxsiy layoqat, ya'ni amaliy intellekt.



1-rasm. Intellectual madaniyat komponentlari

Hozirgi kunda davlat va hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar vatanimizning istiqboli, tinchligi va farovonligiga yo‘naltirilgan. Respublikamizning bu borada taraqqiyoti va farovonligini, o‘zining hayot faoliyati hamda kelajagi bilan uzviy bog‘lab maqsad sari intiladigan intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan sanaladi. Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste’dodi va qobiliyatlarini to‘liq amalga oshirishga e’tibor berishga bog‘liq bo‘ladi. Bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida" O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida "Yoshlarga oid davlat siyosati – davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimini yaratish" deb belgilangan.

Mamlakatimiz insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, vatanini sevish kabi ijobiy xislatlarni ro‘yobga chiqarishga katta e’tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida yoshlarga davlat siyosati darajasida e’tibor berilib, fan, ta’lim

va ishlab chiqarish jarayonida yoshlarning intellektual salohiyati va tafakkur tarzi yildan-yilga ijobiy tarafga o'zgarib bormoqda.

Biroq, zamonaviy transformatsion jarayonlar hozirgi dunyoda tobora jadallashib bormoqda va mazkur jarayonlarning yoshlar hayotiga ko'rsatayotgan ta'siri har qachongidan ham dolzarblashib, madaniyatning universiallashtiruvini kuchaytirmoqda. Hozirgi paytda mazkur jarayonlarning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiya, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezkorlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarining umuminsoniy negizida uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi, tabiiyki, yoshlar masalasiga jiddiy e'tibor berish va ularni turli ma'naviy tahdidlardan himoya qilish va dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini topishga ko'maklashish zarurligini dolzarblashtirmoqda.

3.2.2.Intellektual yoshlar – siyosiy madaniyatning negizi sifatida

Bugungi yoshlarimiz yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo'lishga intilmoqda. Uning asosi esa intellektual qobiliyat va intilishdir. Ayniqsa, 2000-yillardan boshlab axborot kommunikatsiya texnologiyalarining yuqori sur'atdagi taraqqiyoti insoniyat tafakkurida o'zgarish va hayotida mazmunga ega bo'lib bormoqda. Axborot asri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So'ngi rusumdagi telefon, planshet, noutbuk va kompyuterlar internet orqali bizga kerakli ma'lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi.

Hozirgi zamonda internet tarmog'idagi saytlardan o'zimizga kerakli bo'lgan axborotlarni bir necha daqiqalarda olishimiz mumkin. Bu biz uchun juda qulay, oson va vaqtdan yutishimiz imkonini beradi.

Ammo masalaning ikkinchi tarafi ham borki, Internetdan keraksiz va buzg‘unchi g‘oyalar yoki axborot xuruji hamda har xil yoshlarni miyasini zaharlovchi vosita sifatida foydalanuvchilar ham topiladi. Albatta, tajribadan ma’lumki, mustaqil tafakkuriga, intellektual ilmiy salohiyatga ega yoshlar har qanday xurujlardan o‘zini himoya qila oladi. Bu borada yoshlar ma’naviyati va siyosiy madaniyati rivojlanganligi, shubhasiz, foyda beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ta’kidlaganidek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O‘zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi”¹.

Chindan ham, bugungi kun yoshlardan ijtimoiy-faollik, innovatsion yondashuvni amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Chunki dunyo jadal o‘zgarishlarga yuz burgan bo‘lib, yoshlarning ijtimoiy-innovatsion faolligiga ehtiyoji tug‘ilgan. Bugungi yoshlar yurt taraqqiyoti, istiqbolini belgilovchi kuchlar sifatida ertaga estafetani qo‘lga oladilar. O‘z navbatida, jamiyatni modernizatsiya qilinishida kecha amal qilib kelgan uslublar bugungi shiddat bilan kechayotgan o‘zgarishlar talablari va ehtiyojlariga javob bermay qolmoqda. Modernizatsiya jarayonlaridagi sustkashlik, noaniqlik, nazariya va amaliyotdagi birlikning yetarli darajada amal qilmayotganligi yoshlarda moddiy,

¹ <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarning tez oshib borayotgani omillarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qilmoqda. Ya'ni, ijtimoiy tuzilma tarmoqlarida yoshlar ijtimoiy guruhlar faolligini mamlakatda kechayotgan modernizatsiya jarayonlaridagi bugun yuzaga kelgan ehtiyojlardan kelib chiqqan holda innovatsion yondashuvni shakllantirish zarur.

Shu bilan birga, ba'zi yoshlarimiz internet kafelari, kompyuter o'yinlari markazlariga intiladi. Aslida, ular navqiron, ayni kuchga to'lgan yoshida bilim egallash, kasb-hunar o'rganish, o'zini kelajagini yaratish uchun harakat qilishlari lozim. Internetda tarqaladigan turli yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan xabarlar, be'mani rasmlar, videolar va kompyuter o'yinlari natijasida yoshlarning saviyasi pasayib, hayotga, atrof-muhitga va insonlarga bo'lgan munosabati tubdan yomonlashib bormoqda.

Yoshlarda ijtimoiy-innovatsion faollikni oshirish jamiyatga nima uchun kerak bo'lmoqda, degan savolga sotsiologiya fanlari doktori Sarvar Otamuratov shunday izoh beradi¹: birinchidan, jamiyat ijtimoiy tuzilmasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, yangi sinflar, ijtimoiy guruhlar (o'rta sinf shakllanib bormoqda, band bo'lmagan yoshlar guruhlar, nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi, amal qilib kelayotgan qadriyatlarning sayozlashuvi, yangilarining jadallashib borayotgan ehtiyojlardan orqada qolishi) paydo bo'ldi. Ularning ijtimoiy tuzilmada barqaror rivojlanishiga erishish uchun yangi yondashuvlarni shakllantirish zaruriyati vujudga keldi; ikkinchidan, yoshlarning azaldan amal qilib kelayotgan ayrim qadriyatlardan begonalashuv holatlari yuzaga keldi. Oilaga nisbatan befarqlik, qarindosh urug'chilikda bir-birini qo'llab-quvvatlash ommaviy bo'lmasa-da ular tobora rivojlanmoqda. Halol mehnat bilan pul topish, farovon yashashdan ko'ra uni mehnat qilmasdan, oson topishga intilish kuchaydi; uchinchidan, yoshlarda o'zligidan begonalashuv milliy o'zligini anglashning susayishiga ta'sir o'tkazmoqda. Yoshlar qalbi,

¹ Otamuratov S. Yangilanayotgan O'zbekiston ijtimoiy-innovatsion jarayonlarida yoshlar faoliyati. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaauyi, 2021. –B. 200-201.

ongi va amaliy harakatlarida boylikni har qanday qadriyatdan ustun qo'yish ruhiyati shakllanishi oqibatida boylik ularni boshqaradigan xavfli hokimiyat shakliga aylanmoqda. Endilikda bu ijtimoiy guruh safiga o'z "men"ligini pul, boylik, har qanday axloqsizlikni "zamonaviy" axloq sifatida anglaydigan yoshlar guruhlarining yangi avlodi shakllanmoqda; to'rtinchidan, bugun jamiyatda amal qilayotgan g'oyaviy-ma'naviy turli-tumanliklar, yoshlarning ongi va dunyoqarashlaridagi ikkilanish, o'z istiqboliga xizmat qiladigan yo'nalishlarni tanlashda qiyinchiliklar, salohiyatning sayozligi holatlari sezilmoqda. Bu yuzaga kelgan muammolarni hal qilmay turib, jamiyatda barqaror rivojlanishga erishib bo'lmaydi. Ularni hal qilishning asosiy omili esa yoshlar ongi va dunyoqarashini ijtimoiy-innovatsion g'oyalar bilan boyitishga yo'naltirishdir". Olim mantiqli va asosli fikrlarni bildirgan. Bunday omillarning tub mohiyatini anglab yetish va yangi vazifalarni hal etishni kechiktirmaslik kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor vazifalarining ko'lami tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, intellektual yoshlar tarbiyasi, tashabbuskorlik qobiliyati, ilmiy salohiyati, ularda ijodkorlik va ijtimoiy faollikni oshirish tamoyillari muhim sanaladi. Yoshlarni tinchlik, toqatlilik, insonparvar, millatlararo muloqot ruhida tarbiyalash hamda ularni jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlar o'z dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi.

– Yoshlarning kelajagini o'ylab samarali faoliyat olib borish, intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa bo'lib qolishini alohida ta'kidlagan holda, malakali yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'la amalga oshirish borasida quyidagi tavsiya va mulohazalarimizni keltiramiz:

– Yoshlar o'rtasida media madaniyatni shakllantirishda ularning e'tiboriga asosli, muhim, zarur va foydali axborotlarni o'rganishlarini tavsiya etish;

- Ota-onalarning media savodxonligini oshirib, oila, ta'lim muassasalari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish;
- Tarbiyaviy ishlar bahs-munozaralar, debatlar, muammoli va ziddiyatlarni tahlil qilish pedagogik-psixologik profilaktika ishlarini olib borish;
- Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida voyaga yetmaganlarning media muhitga samarali harakatlanish, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlovchi o'quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish;
- Media ta'limni samarali tashkil etish yuzasidan to'plangan xorijiy va mahalliy tajribalarni ommalashtirish;
- Ta'lim muassasalarida media ta'limni tashkil etilishini yo'lga qo'yish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-huquqiy faollik yoshlarning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-huquqiy va ma'rifiy-huquqiy tadbirlarda faol ishtirok etishlarida aks etadi. Ushbu faoliyat jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ta'sir qiladi. Bu o'rinda bir-biriga bog'liq ikki jarayon uyg'unlashib keladi. Birinchidan, yoshlar jamiyatning ijtimoiy-huquqiy va ma'rifiy-huquqiy faoliyatida faol subyekt sifatida qatnashadilar, bu jarayonda o'zida ijtimoiy, jamoatchilik xislatlarini (masalan, tashkilotchilik, kommunikatsiya, rekreatsiya kabilarni) shakllantiradilar. Ikkinchidan, ular huquqiy bilim va tajribalarini oshiradilar. Ko'rinib turibdiki, jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy va ma'rifiy-huquqiy tadbirlar talaba yoshlarni ijtimoiy-amaliy faoliyatga, huquqiy amaliyotga jalb etish bilan to'ldirilgan maxsus chora-tadbirlardir.

3.2.3. Jamiyatda yoshlar siyosiy madaniyatining o'rni

Insoniyat taraqqiyotidagi barcha jamiyatlarda mamlakat ijtimoiy tuzilmasi (strukturasi)da yoshlar mustaqil ijtimoiy guruh sifatida muhim o'rinni egallab kelgan va bundan keyin ham o'z o'rnini yo'qotmaydi. Buning sabablari quyidagilar:

a) mamlakat taraqqiyotini ta'minlashda ular kuchli mehnat resurslari;

b) ajdodlarni avlodlar bilan bog'lab mamlakat, millat barhayotligi va istiqbolini ta'minlashda yetakchi kuch;

v) mamlakat suvereniteti xavfsizligi va chegaralari mustahkamligini ta'minlashda faol ishtirokchi;

g) ajdodlardan qoldirilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni asrash va o'zlaridan keyingi avlodlarga yetkazuvchi, mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan fan, texnika va texnologiyalarni o'sib boradigan ehtiyojlarga mos ravishda rivojlantirishda o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shadigan ijtimoiy guruhdir.

Demak, *yoshlarining ijtimoiy-innovatsion faolligini* oshirish davlat siyosatida ustuvor vazifalardan biri bo'lishi kerak. Ammo muammo yoshlarning o'sib boradigan ehtiyojlari bilan mavjud mehnat resurslariga bo'ladigan ehtiyojlar o'rtasidagi nomutanosiblikning doimo saqlanib qolishi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Yoshlarimizning ma'lum qismi shiddat bilan o'zgarayotgan globallashuv ritmlariga "moslasha" olmayotganligi ham muammoning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Katta avlodning vazifasi esa mavjud holatlarni bartaraf etib borish va ularni mamlakatda amalga oshiriladigan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishdir.

Gapning ochig'i, yoshlarning siyosiy madaniyati davlat siyosiy salohiyatining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Mamlakat ichki siyosatida aholi, xususan, yoshlarning siyosiy huquqlari ta'minlanganligi, demokratik saylov tizimi, hokimiyatning taqsimlanish prinsipi va fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokining faolligi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga asos bo'ladi.

Jamiyatimizni modernizatsiyalashning vazifalaridan kelib chiqqan holda, ularni amalga oshirishda yoshlarning faol ishtirokini ta'minlashda moddiy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmlari sifatida:

a) ularning jamiyat ijtimoiy tuzilmasi (strukturasi)dagi mavqeyini ko‘tarish va mustahkamlash, tuzilma tarmoqlarida mavjud bo‘ladigan qarama-qarshilik va ziddiyatlarni bartaraf etish;

b) yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonlarini pozitiv (ijobiy) dunyoqarash va amaliy faoliyatga aylanishiga erishish ularda jamiyat va mamlakat manfaatlariga nisbatan zid bo‘lgan turli kuchlar, oqimlar maqsadlari nimaga va kimlarning manfaatlariga qaratilganligini obyektiv va xolisona baholay oladigan ongini va intellektual salohiyatni shakllantirishni taqozo qilmoqda¹.

Shu o‘rinda bir xavf-xatar haqida to‘xtalib o‘tishga to‘g‘ri keladi Siyosiy madaniyatning keng ma‘nodagi madaniyat bilan bog‘liqligini hisobga olganimizda, “ommaviy ma‘naviyat”ning yoshlar ongi, dunyoqarashi va qalbini egallashi jamiyat hamda mamlakatda tuzatib bo‘lmaydigan keng ma‘nodagi ma‘naviy inqirozni ham vujudga keltirishi mumkin. Bu — mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, hatto boshi berk ko‘chaga kirib qolishiga sabab bo‘ladi.

“Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish har bir oliy maqsadni ko‘zlaydigan mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlaridan birini tashkil qiladi, – deydi professor S. Otamuratov. –Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish quyidagi ehtiyojlar bilan bog‘liq: a) mamlakatda davlat hokimiyati faoliyatini qo‘llab-quvvatlash; b) har qanday siyosiy jarayonlarga sergaklik va ogohlik bilan munosabatda bo‘lish; v) yoshlarning mamlakatda amalga oshiriladigan siyosiy strategiyaning ma‘no-mazmunini anglab yetishlari va ularni amalga oshirishda faol bo‘layotgan siyosiy jarayonlardan xabardor bo‘lishlari, ularda kechadigan siyosiy ziddiyatlardan tegishli xulosalar chiqara bilish salohiyatiga ega bo‘lishlari kabilarda o‘z ifodasini topadi².

Yuqoridagilardan xulosa shuki, Yangi O‘zbekistonni qurish pallasida jamiyatni isloh qilish faqat siyosiy-iqtisodiy masala

¹ Otamuratov S. Yangilanayotgan O‘zbekiston ijtimoiy innovatsion jarayonlarida yoshlar faoliyati. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. –B. 243.

² Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – T.: O‘zbekiston, 2015. –B. 67.

sanalmaydi. Biz olimlar globallashuv sharoitida ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy sohalar, odamlar turmush tarzi, axloq-odobida vujudga keladigan va kutilayotgan inqirozlarning ildizini jiddiy tadqiq qilishimiz kerak. Har bir davlatda jamiyatning yuqori elita qismi ommaviy madaniyat, globallashuv muammosi va asoratlarga yechim izlagandagina millat oldidagi vazifasini vijdonan ado etgan bo'ladi.

3.3. O'ZBEKISTON -2030 STRATEGIYASI – SIYOSIY MADANIYATNING RIVOJLANISH ASOSI

3.3.1. O'zbekiston Konstitutsiyasida siyosiy institutlarning takomillashuvi jarayoni

Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan.

Bunga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15-marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.

Quyida *Kun.uz* nazaridagi eng muhim o'nta yo'nalishda ro'y bergan o'zgarishlar hujjatdagi ketma-ketlik bo'yicha keltirib o'tiladi¹.

1. O'zbekiston – huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

Konstitutsiyaning 1-moddasidagi "*O'zbekiston – suveren demokratik respublika*" jumlasini quyidagicha o'zgartirilmoqda:

O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Boshqaruvning respublika shakli – davlat hokimiyatining oliy organlari xalq tomonidan muayyan muddatga saylanishini anglatadi.

¹ <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>

Suveren davlat – o‘z hududida to‘la-to‘kis mustaqil hukmronlik va mutlaq yurisdiksiyaga ega bo‘lish demakdir.

Demokratiya esa xalq hokimiyatini ifoda etib, davlat boshqaruvida saylanish va o‘z vakillarini saylash orqali barchaning teng huquqli ishtiroki ta‘minlanishini ko‘zda tutadi.

Huquqiy davlatda barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston o‘zini **ijtimoiy davlat** deb e‘lon qilishi bilan, har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini olmoqda. Bu – mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo‘l qo‘ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta‘lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo‘llovga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyroq aytganda, eng kambag‘al oilaning bolalarida ham sog‘-salomat o‘sib-ulg‘ayib, yaxshi ta‘lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo‘lishi kerak.

Dunyoviy davlatda davlat va din bir-biridan ajratilgan bo‘ladi. Davlat diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi, dinga oid masalalarda neytral pozitsiyani egallaydi.

Yangi konstitutsiyaning 154-moddasi bilan, **1-moddadagi qoidalarini qayta ko‘rib chiqish mumkin emas**, deb belgilandi. Xuddi shuningdek, 154-moddaning o‘zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Boshqacha aytganda, bu norma – O‘zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligi, monarxiyaga yoki islomiy respublikaga aylanmasligini nazarda tutadi.

2. Konstitutsiya to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi

15-moddaga quyidagicha qo‘shimcha qo‘shildi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi.

Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyadagi normalarga ham asoslangan holda ish olib borishga, xususan sudga murojaat qilishga imkon beradi.

Referendumda qabul qilingan qonunga binoan, Oliy sud 3 oy ichida tegishli Plenum qarorini qabul qilishi kerak. Bu qaror asosida sudlar tomonidan konstitutsiya normalarini to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiluvchi hujjat sifatida qo‘llash yuzasidan yagona sud amaliyoti joriy etiladi.

3. Imtiyozlar qonunda yozib qo‘yilishi shart emas

Yangi konstitutsiyaning 19-moddasi (avvalgi 18-modda) fuqarolarning jinsi, millati, mavqeyi va hokazolardan qat’i nazar qonun oldida tengligi haqida. Bu moddaning 2-qismi quyidagicha o‘zgarmoqda:

Eski: *Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo‘yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*

Yangi: *Imtiyozlar faqat qonunga muvofiq belgilanadi va ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo‘lishi shart.*

Bu bilan konstitutsiyaning amalda ishlamay kelgan normalaridan biri real voqelikka moslashtirilmoqda. Amaliyot shundayki, turli jabhalardagi imtiyoz va preferensiyalar nafaqat qonunlar asosida, balki ko‘p holatlarda qonunosti hujjatlar – qaror va farmonlar asosida berib kelinyapti.

4. Barcha noaniqliklar – inson foydasiga

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan:

Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi.

Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz.

Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o'tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak.

5. Inson huquqlari ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash maqsadida cheklanishi mumkin

Huquq va erkinliklarning cheklanishi masalasi avvalgi konstitutsiyada quyidagi ikkita norma bilan tartibga solingan edi:

Insonning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

Konstitutsiyaning yangi tahririda yuqoridagi ikkita norma deyarli o'zgarishsiz saqlab qolindi. Shu bilan birga, quyidagicha yangi norma qo'shildi:

Insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan doirada cheklanishi mumkin.

Huquqlar cheklanishiga doir bu me'yorlar, yangi konstitutsiyaning boshqa bir moddasiga asosan, so'z erkinligi huquqiga ham tegishli. Ya'ni axborot izlash, olish va tarqatish huquqi faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholi sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini ta'minlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa

sirning oshkor etilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida cheklanishi mumkin.

Ta’kidlash lozimki, “ijtimoiy axloq” tushunchasi O‘zbekiston qonunchiligiga hali kiritilmagan. Ushbu tushuncha hamda mazkur modda bo‘yicha inson huquqlari “jamoat tartibini ta’minlash maqsadida” cheklanishi bo‘yicha vakolatli organning huquqiy sharhiga zarurat bor. Huquqlar ta’minlanishi bilan ijtimoiy axloq va jamoat tartibini saqlash o‘rtasidagi oltin o‘rtalik aniq belgilab qo‘yilishi kerak. Shu bilan birga, yuqorida aytganimizdek, konstitutsiyaga binoan endilikda barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi.

Shu o‘rinda, namoyishlarga oid moddani ham eslatib o‘tish o‘rinli. Bu modda avvalgi holida, o‘zgarishlarsiz saqlab qolindi:

Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtayi-nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega.

6. O‘qituvchilar alohida e’tirofda

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar haqida modda qo‘shildi. U ikki baddan iborat:

O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasi – huquq sohasi vakillari (sudyalalar, prokurorlar va advokatlar). Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap

ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

7. Yer xususiy mulk bo'lishi mumkin

O'zbekistonda 2022-yildan e'tiboran qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylash-tirish boshlangan. Shu bilan deyarli bir vaqtda, o'tgan yili e'lon qilingan yangi konstitutsiya loyihasining birlamchi versiyasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni xususiylashtirish mumkin emasligiga ishora qilingan edi. Yakuniy talqindan bunday cheklov olib tashlandi va yerni xususiylashtirishga oid norma quyidagicha shaklga keltirildi:

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

Bosh qomusning o'tgan yili e'lon qilingan birinchi loyihasida unga quyidagicha jumlani kiritish taklif etilgan edi: *"Iqtisodiy faoliyatda insofsiz raqobatga, monopollashtirishga yo'l qo'yilmaydi"*. Yakunda bu boradagi normalar quyidagicha ko'rinish oldi:

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish va halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

Hujjatning birlamchi loyihasida mavjud bo'lgan: *"Xususiylashtirish natijalari qayta ko'rib chiqilmaydi hamda bekor qilinmaydi"* degan normani konstitutsiyaga kiritmaslikka qaror qilindi. Eslatib o'tamiz, amaldagi qonunchilikda ham bunaqa qoida yo'q.

8. OAV faoliyatiga to'sqinlik qilish javobgarlikka sabab bo'ladi

Avvalgi konstitutsiyaning "Ommaviy axborot vositalari" nomli bobi bitta moddadan iborat edi. Unda shunday deyilgandi: *"Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi"*.

Yangi konstitutsiyaga ko'ra, bu bob ikkita moddadan iborat bo'ldi:

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. Ommaviy axborot vositalari o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir.

Senzuraga yo'l qo'yilmaydi. Ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.

Asosiy yangilik – OAV faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlik konstitutsiya darajasida belgilandi. MJtK va Jinoyat kodekslariga tegishli javobgarlik kiritilishi haqida 4-5 yildan beri gapirib kelinadi, lekin ularning barchasi og'izda va qog'ozda qolib ketmoqda.

Endilikda, referendumda qabul qilingan qonunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi qonunchilikni yangi konstitutsiyaga moslashtirish dasturini 2 oy muddat ichida ishlab chiqib, parlamentga kiritishi kerak.

9. Davlat boshqaruvidagi o'zgarishlar. Prezidentning vakolat muddati 7 yil bo'ldi

O'zbekistonning yangi tahrirdagi konstitutsiyasiga binoan:

Prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi. Prezidentning "davlat boshlig'i" maqomi, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq prezident bo'lishi mumkin emasligi, prezidentning qasamyodi matni va prezidentga taalluqli boshqa aksariyat normalar o'zgarishsiz qoldirildi. Ma'lumot uchun, prezidentning vakolat muddati 2003-yilda ham 5 yildan 7 yilga uzaytirilgan, 2011-yilda esa qaytib 7 yildan 5 yilga tushirilgan edi.

Bosh vazir nomzodini endi prezident taqdim etadi. Prezident bosh vazir nomzodini taqdim etishdan oldin parlamentga kirgan barcha partiyalarning fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazishi belgilandi. Qonunchilik palatasi prezident taqdim etgan nomzodni ko'rib chiqadi, agar deputatlarning yarmidan ko'pi ma'qullasa, bosh vazir lavozimiga tasdiqlanadi. Agar deputatlar nomzodni uch marta rad etsa, prezident bosh vazirni tayinlab, Qonunchilik palatasini tarqatib yuborishga haqli.

Avvalgi tartibga ko'ra, bosh vazir nomzodini Qonunchilik palatasida eng ko'p o'rinni egallagan partiya taklif qilar, prezident ma'qullagach, nomzod ikki palata tomonidan tasdiqlanishi talab etilardi.

Senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushiriladi. 14 ta hududdan 6 nafardan emas, 4 nafardan senator saylanadi, prezident tomonidan tayinlanadigan senatorlar soni 16 nafardan 9 nafarga qisqaradi. Bu o'zgarish 2024-yilda bo'ladigan parlament saylovi vaqtida kuchga kiradi. Qonunchilik palatasi deputatlari sonini (150 nafar) oshirmaslikka, o'zgarishsiz qoldirishga qaror qilindi.

Bosh vazirni tayinlash va unga ishonchsizlik votumi bildirishda Senatning ishtiroki bekor qilindi. Endilikda buning uchun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismi ovoz berishi yetarli (avval har ikki palata a'zolarining uchdan ikki qismi ovoz berishi zarur edi; eslatib o'tamiz, ishonchsizlik votumi e'lon qilinsa, prezident bosh vazirni lavozimidan ozod etadi). Bosh vazir va hukumat a'zolarining hisobotlarini eshitish ham quyi palataning vakolatiga o'tkazildi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi hukumat a'zolarini iste'foga chiqarish to'g'risida prezidentga taklif kiritish vakolatiga ega bo'ldi.

Korrupsiyaga va monopoliyaga qarshi kurashish organlari rahbarlarini prezident taqdimiga binoan saylash Senatning vakolatiga kiritildi. Senat, shuningdek, eng yuqori rangdagi sud mansabdorlarini saylaydi, bosh prokuror va Hisob palatasi raisligiga nomzodlarni ko'rib chiqib ma'qullaydi, DXX raisligiga nomzod bo'yicha prezident bilan maslahatlashuv o'tkazadi, Markaziy bank raisini tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi, xorijdagi asosiy diplomatlarni tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi (bularning barchasi prezident taqdimiga binoan amalga oshiriladi). Bundan tashqari, Senat mahalliy kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega bo'ldi.

Qonunchilik palatasi qonunlar bo'yicha qo'shimcha vakolat oldi. Unga ko'ra, endilikda Senat qonunni ma'qullash yoki rad etish to'g'risida 60 kun ichida qaror qabul qilmasa, Qonunchilik palatasi qonunni prezidentga yuboradi. Qonunlarning prezident tomonidan

imzolanishi va e'lon qilinishi uchun belgilangan muddat 30 kundan 60 kunga uzaytirildi. Prezident tomonidan qaytarilgan qonun parlament palatalari tomonidan yana qabul qilingan taqdirda, prezidentning bu qonunni imzolash va e'lon qilish muddati o'zgarishsiz (14 kun) qoldirildi.

Prezident muddatidan ilgari prezident saylovini tayinlashga haqli ekani belgilandi. Bundan tashqari, Qonunchilik palatasi va Senatga o'zini o'zi tarqatib yuborish vakolati berildi (palata a'zolarining kamida uchdan ikki qismining ovozi talab etiladi). Shuningdek, jiddiy voqealar ro'y berganida, ikki palata qo'shma qaror qabul qilgan holda parlament tekshiruvi o'tkazishi mumkinligi yozib qo'yildi.

Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Konstitutsiyaga qo'shilgan bu norma bo'yicha ham huquqiy sharhga zarurat bor. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda "hisobdor" tushunchasi uchramaydi. Sudyalarning o'zlari chiqargan qarorlari bo'yicha hisobdor bo'lmasligi odil sudlovni ta'minlashga qanday ta'sir qilishi – izohtalab holat, bizningcha. Bu kabi mavhum qoidalar pirovardida yangi konstitutsiyani uning targ'ibotida ko'p marta aytilgan va hujjatning o'zida ham belgilangan to'g'ridan to'g'ri ishlaydigan qonun bo'lishini savol ostida qoldiradi.

Konstitutsiyaviy sud sudyalari 10 yil muddatga saylanadi va qayta saylanishi mumkin bo'lmaydi. Avvalgi tartibga ko'ra, bu muddat birinchi marta saylanganida 5 yil, keyingisida 10 yil edi.

Ayni bir shaxs surunkasiga ikki martadan ortiq bitta lavozimni egallashi mumkin emasligi haqidagi qoida, prezidentdan tashqari, Senat raisi, Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy sud raisi va o'rinbosari, Sudyalar oliy kengashining raisi va o'rinbosari, Markaziy saylov komissiyasi raisi, bosh prokuror, hokimlar va kengashlar raislariga nisbatan ham tatbiq etiladigan bo'ldi.

Referendumda qabul qilingan qonunning 7-moddasi bilan, barcha darajadagi davlat mansabdorlarining ayni paytga qadar egallab kelgan muddatlari nollashtirildi. Ular lavozimlarini egallab kelayotganining surunkali muddatlari sonidan qat'i nazar, boshqa fuqarolar bilan teng

ravishda xuddi shu lavozimlarga saylanish va tayinlanishga haqli, deb belgilandi.

10. Mahalliy davlat hokimiyatidagi o'zgarishlar. Hokimlar kengash raisligidan ketadi

Mahalliy davlat boshqaruvida vakillik va ijro etuvchi organlar bir-biridan ajratilmoqda. Bu boradagi hozirgi tartib hokimiyatning bo'linish va hokimiyat bo'g'inlarining o'zaro tiyib turish prinsipiga zid. Bosh qomusning yangi tahririga asosan, bunga barham berilib, mahalliy kengashlar saylanadigan vakillik organlari, hokimliklar esa ijro organlari deb belgilanmoqda.

Shunga muvofiq, quyidagi sanalardan boshlab, hokimlarning kengashlarda raislik qilishiga barham beriladi:

viloyatlarda va Toshkent shahrida 2024-yilgi deputatlik saylovlari yakunlari bo'yicha;

tuman va shaharlarda 2026-yil 1-yanvardan boshlab.

Mahalliy kengashlar raislari kengash deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi. Hokimlar esa 5 yil muddatga tayinlanadi, tayinlangan hokimni kengashlar tasdiqlaydi. Shu tariqa, kengash raislari ham, hokimlar ham to'g'ridan to'g'ri aholi tomonidan saylanmaydi.

Kengashlarning vakolatlariga, jumladan, quyidagilar kiradi:

mahalliy byudjetni ko'rib chiqish va qabul qilish, uning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash;

hokimni lavozimga tasdiqlash, uning faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni eshitish.

Hokimlarning vakolatlari esa, jumladan, quyidagilardan iborat bo'ladi:

konstitutsiya va qonunlarni, parlament palatalarining qarorlarini, prezidentning farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining, yuqori turuvchi hokimlarning va tegishli xalq deputatlari kengashlarining qarorlarini bajarish;

hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish.

Hokimlar va mahalliy kengashlarning faoliyatini tashkil etish tartibi bo'yicha alohida qonunlar qabul qilinadi. Mahalliy masalalar bo'yicha ularning vakolatlari qanday taqsimlanishi ana shu qonunlarda aks etadi.

Yuqoridagilardan tashqari, konstitutsiyaga boshqa ko'plab normalar ham qo'shilgan, jumladan:

O'zbekistonda o'lim jazosi taqiqlanadi.

Agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas.

Qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlovni amalga oshirish chog'ida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Har kim o'z shaxsiga doir noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Eslatib o'tamiz, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021-yil 6-noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o'tgan edi. Jumladan, "Barcha nomzodlarning saylovoldi uchrashuvlarida elektorat vakillari tomonidan bugungi kunda hayotning o'zi, islohotlarimiz mantig'i talab etayotgan yana bir muhim taklif ilgari surildi. U ham bo'lsa, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishdan iborat. Agar dunyo tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, tub burilish davrida ko'pgina davlatlarda konstitutsiyaviy islohotlar amalga oshirilganini ko'ramiz. Shu sababli, avvalo, senator va deputatlarimiz, keng jamoatchiligimiz, xalqimiz bilan yana bir bor

maslahat qilib, jahon konstitutsiyaviy tajribasini o‘rganib, puxta o‘ylagan holda bugungi va kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan asosiy qonunimizni takomillashtirish masalasini ham ko‘rib chiqishimiz kerak”¹, degan edi.

Davlat rahbari 2021-yil dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta’kidlagan edi. 2022-yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya uzilib², hujjatni yangilash jarayoni boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, akademik Akmal Saidov mazkur komissiya raisi etib tayinlangan edi.

Rasmiylarga ko‘ra, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992-yil 8-dekabr sanasi e’tirof etiladi, 8-dekabr – bayram sanasi o‘zgarmaydi.

Xulosa shuki, qayta ishlangan Konstitutsiyamiz (2023) da siyosiy institutlarning o‘rni va ahamiyatiga katta e’tibor qaratilgan. Bu omilning o‘zi demokratik huquqiy davlat qurishda poydevor vazifasini o‘taydi. Ozod va obod Vatan qurish har bir fuqarodan cheksiz mehnat, iroda va qonunga teng bo‘ysunishni, adolat mezonini saqlashni taqozo etadi. Bu borada qiladigan ishlarimiz esa nihoyatda ko‘p.

3.3.2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining istiqbollari

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

¹<https://kun.uz/news/2021/11/06/ozbekistonda-konstitutsiyani-takomillashtirish-masalasini-ko'rib-chiqish-rejalashtirilmoqda> O‘zbekistonda konstitutsiyani takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish rejalashtirilmoqda. 06.11.2021.

² <https://kun.uz/news/2022/05/20/konstitutsiyaviy-islohotlar-bo'yicha-kengash-tarkibi-tasdiqlandi> Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha kengash tarkibi tasdiqlandi. 20.05.2022.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o'tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to'liq qo'llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining siyosiy e'tiqodini mustahkamlash ularning siyosiy madaniyatini shakllantirish, yetuk barkamol komil insonni tarbiyalash bilan bog'liq strategik vazifalar davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan. Ta'kidlash lozim siyosiy madaniyatni ijtimoiy hayotda yuksaltirish ijtimoiy va siyosiy faollikni tarbiyalash yangi O'zbekiston taraqqiyot konsepsiyasining muhim strategik yo'nalishidir. Ayniqsa yoshlarimizni vatanparvarlik tarbiyalash xususida prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Barchasizga yaxshi ma'lumki vatanparvarlik xar bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni xar tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon etadi". O'zbekiston taraqqiyotining strategik, ustuvor yo'nalishlari aynan ana shu konsepsiya asosida shakllantirilgan. Yangi davlat va yangi jamiyat qurish jarayoni avvalo inson va uning salohiyatini ro'yobga chiqarish bilan bog'liq munosib shart-sharoitlarni yaratish taqozo etadi. Ushbu vazifa 44 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Ayni paytda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining ilmiy nazariy va politologik tahlili shundan dalolat beradiki globallashuv sharoitida informatsion raqobat tobora kuchayib borayotgani va davlatimizni yanada barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish uchun yangicha yondashuv hamda taomillarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish davr talabiga aylanib bormoqda. Insonning salohiyati uning siyosiy madaniyati mamlakatimizning ulug'vor strategik vazifalarini anglash bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'zbekistonni rivojlanish strategiyasi mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar shu jumladan ma'naviy-madaniy sohalarda ularni samarasini

yanada oshirish davlat va jamiyatni xar tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish. Mamlakatimizning innovatsion texnologiyalar asosida rivojlanishi va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida belgilangan vazifalardan biri bu barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash masalasidir. Mazkur vazifani bajarish o'z ichiga o'n yettida maqsadni qamrab oladi. Umuman olganda "O'zbekiston 2030" strategiyasining barcha yo'nalishlari kabi ular bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan yangi konseptual g'oya: "Inson – jamiyat - davlat" haqidagi g'oyalari strategik taraqqiyotimiz asosi hisoblanadi. Ma'lumki aholi farovonligini ta'minlash va aholi va tadbirkorlarni o'ylantiradigan dolzarb masalalarni o'rganish huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy amaliyotni qo'llash, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida shakllangan strategik vazifalar bevosita iqtisodiyotning barqaror o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori darajadagi iqtisodiy o'sish jarayonlariga erishish va uni saqlab qolish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash qishloq xo'jaligini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish shuningdek bu jarayonda davlat ishtirokini kamaytirish bo'yicha tarkibiy institutsional islohotlarni davom ettirish strategik ustuvor yo'nalishlardan biridir. Ta'kidlash lozimki barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash xususiy mulk huquqini qonuniy himoya qilishga uning ustuvor mavqeyini yanada rivojlantirish kichik va o'rta biznes va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish joylarda investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali aholi farovonligini ta'minlash va ularning ma'naviy hamda moddiy ehtiyojlarini qondirish muhim ahamiyatga ega. Shaharda iqtisodiy madaniyatni shakllantirish esa yoshlarning siyosiy madaniyatiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va bu sohalarning rivojlanishining yo'naltirilgan iqtisodiy munosabatlar hamda aholi daromadlarini realni va izchil oshirib borish. Ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash ham muhim

ahamiyatga egadir. Ta'kidlash lozimki iqtisodiy munosabatlar bevosita ekologik muhit va suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni tejash bilan ham bog'liq bo'ladi. Ma'lumki iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish esa bevosita tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish bilan o'zaro bog'liqdir. Yoshlarda siyosiy madaniyatni shakllanishi ularni ekologik madaniyati va tafakkuri bilan ham bog'liq bo'ladi.

O'zbekiston yoshlarining siyosiy ongi va siyosiy madaniyati bevosita ularning huquqiy madaniyati bilan bog'liq jarayondir. Qonun ustuvorligini ta'minlash xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish va ularning faoliyati samaradorligini ta'minlash huquqiy va siyosiy madaniyat mushtarakligi asosida amalga oshiriladi. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib jamiyatda qabul qilingan yuridik hujjatlarni bilish, baholash va ularga rioya qilishda namoyon bo'ladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat muayyan huquqiy normalar va qonunlar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati siyosiy madaniyatning asoslaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa huquqiy ongning tarkibiy qismlari uning elementlarining funksional tabiati siyosiy madaniyat shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy hissiyot huquqiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida yoshlarning siyosiy hissiyoti va siyosiy faolligi bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy voqelikdagi voqea-hodisalarning subyektlari asosida anglangan insonning haq huquqi va ozodligi yangilanish va daxldorlik hissiyotlari mana shu jarayon bilan bog'liq. Huquqiy ko'nikmalar ham Yangilanayotgan O'zbekistonda muayyan darajada yoshlar siyosiy-huquqiy madaniyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy bilimlar barcha huquqiy ongning tarkibiy natijasida shakllanadi va yoshlarning siyosiy ongiga ta'sir etadi. Jamiyatimiz xavfsizligini ta'minlash huquqiy ong va siyosiy madaniyat mushtarakligi bilan bog'liq bo'lib, O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlarida belgilab qo'ygan "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom

etgan vazifasi o‘zida o‘n bitta maqsadni mujassam etgan holda yuqorida qayd etilgan strategik vazifalarni mujassamidir.

Mamlakatimiz yoshlarining siyosiy madaniyati ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurash shu jumladan turli xil destruktiv, g‘ayri insoniy yod bo‘lgan ma‘naviy madaniy qadriyatlarning zararli oqibatlarini oldini olishda ham muhim ahamiyatga egadir. Bu qadriyatlar davlatimiz xavfsizligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadigan tahdidlar bo‘lib buyuk davlatchilik g‘oyasi irqchilik, agressiv millatchilik, shovinizm, aqidaparastlik va diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm, “ommaviy madaniyat” yoshlar siyosiy madaniyatiga ta‘sir etuvchi omillar hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki bunday destruktiv aksilmadaniy g‘oyalar mutaxassislarining fikriga ko‘ra o‘zining quyidagi xususiyatlariga egadir. Ya‘ni: “G‘oyaviy yakka hokimlikka intilish, demokratik qadriyatlarni tan olmaslik, fikrlar plyuralizmini rad etish, Jamiyatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni tan olish, mutlaq haqiqatga davo qilish, yagona hukmron mafkuraga urinish, ijtimoiy ixtiloflarni qo‘llash, aqidaparastlik va siyosiy, madaniy ekstremizm va boshqalar”¹ dir. Shunday qilib “O‘zbekiston 2030” strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari va unda belgilangan asosiy vazifa va maqsadlar bevosita davlatimiz rivojlanishining istiqboli va uning barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim dasturiy ahamiyatga molik bo‘lgan manba hisoblanadi. Zero inson va uning ma‘naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirish va uni ro‘yobga chiqarish bilan bog‘liq vazifalar mazkur konsepsiyada o‘z ifodasini topgan. Modomiki gap inson va uning ehtiyoj va manfaatlari haqida borar ekan bularning barchasi insonning siyosiy tafakkuri va madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxs siyosiy madaniyati pirovard natijada jamiyat siyosiy madaniyatining asosi hisoblanadi. Bu esa jamiyatdagi mavjud barcha ijtimoiy-siyosiy mafkuraviy-ma‘naviy tashkilotlarning faoliyatining samaradorligiga bog‘liqdir.

¹To‘ychiyev B.T, Ergashev I. va boshqalar. Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. –T.: 2020. –B. 158.

3.3.3.Siyosiy madaniyat yo‘nalishidagi vazifalar

Ma'lumki, yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishning ichki va tashqi ehtiyojlari bo'ladi. Uning birinchisi, mamlakatning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarni izchillik bilan taraqqiy qildirish; ikkinchisi, yoshlarning davlat, mamlakat, umumxalq manfaatlari yo'lida birlashuviga erishish; uchinchisi, yoshlarning siyosiy madaniyatini mamlakat taraqqiyoti darajalariga mos ravishda rivojlantirish va jamiyat manfaatlarini anglab yetishdan iborat.

Yoshlarning manfaatlarini hisobga olish va qo'llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, deb hisoblaymiz. Qayerda ana shu ehtiyojlar hisobga olinmasa, yoshlarning faolligi susaya boshlaydi, noroziligi kuchayadi, demak, ular imkoniyatlari boy beriladi. Bu esa davlat va jamiyatga ma'naviy va ijtimoiy zarar keltiradi. Vaqtida e'tibor va ko'ngildagi rag'bat bo'lmas ekan, maqsadlar va orzular amalga oshmaydi, besamar yillar havoga uchadi. Shu jihatdan olganda, davlat hokimiyati va yoshlar munosibini bozor iqtisodi talablari asosida qurishga zarurat tug'ilmoqda.

Yoshlar nazdida manfaat – naf, foyda, samara, natija, individ faoliyatini, huquqini belgilaydigan asosiy omil, ehtiyoj ma'nosini beradi, bu omilni hisobga olish: birinchidan, o'z erkinligi, ozodligini hayotga tatbiq etish; ikkinchidan, “men”ni harakatga keltiruvchi kuch, qudrat; uchinchidan, hokimiyatga intilish, umid ma'nolarini bildiradi. Bular hammasi birlashib, yoshlarga qanot bag'ishlaydi.

Yoshlar siyosiy ongining keskin o'sib ketishi va siyosiy madaniyat rivojining undan orqada qolishiga davlat amaliy faoliyatida yoshlarning o'sib boradigan ehtiyojlarini hisobga oluvchi aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan izohlaymiz.

Yana bir muammo – murakkab globallashev sharoitida otaning Rossiya yoki Janubiy Koreyaga ishlash va daromad topish uchun yillar mobaynida ketishi oilada kemtiklikni keltirib chiqarmoqda. Oila o'zbek jamiyatida ilk marta 2000-yillardan boshlab, ijtimoiy tuzilma tarmoqlari

ichida faoliyati susaygan institut darajasiga kelib qolmoqda. Farzandlar bilan ota-onalar o'rtasidagi azaliy qadriyatlarga darz ketmoqda, oila tashvishlari xotin-qizlar zimmasiga tushmoqda. Oilada obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, otalarning farzandlarga tarbiyaviy ta'siri ham pasayib bormoqda.

Mamlakatimizni modernizatsiyalash jarayonida uning samarali amalga oshishida yoshlarimiz ichidan yetishib chiqayotgan iqtidorli yoshlarning bir qismi xorijiy mamlakatlarga ketib qolayotgani ham intellektual salohiyatimizni talab darajasida rivojlantirishga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Uni sun'iy ravishda to'xtatishning esa imkoniyati yo'q. Ammo, ta'lim va tarbiya tizimimizda bir qator real chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ularning oldini olish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning *zamonaviy tendensiyalariga* ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar faoliyati kiradi. Ularning bu jarayondagi o'rnini: ma'lumot, voqea-hodisalar va turli jarayonlarni ommaga yetkazishda hozirjavoblighi, ilg'or texnologiyalarning mavjudligi; ommaviyligi orqali o'z ifodasini topadi. Mamlakatimizda islohotlarning demokratik mazmunga egaligi, unga xos bo'lgan transformatsion jarayonlarda chuqur, jadal ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, diniy bag'rikenglik, millatlararo tolerantlikni ta'minlashda, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rnining mustahkamlanishida global internet tarmog'i muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston sharoitida Internet tarmog'i va undagi milliy segment faoliyatining sotsiologik tahlili va global kompyuter tarmog'ining ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini olimlar tomonidan jiddiy tadqiq qilish vaqti keldi. Rasmiy va norasmiy internet kommunikatsiyalarining ommaviy auditoriyaga bevosita ta'siri, transformatsiyalashayotgan jamiyat sharoitidagi ijtimoiy o'rnining siyosiy-falsafiy jihatlarini mustaqil o'rganish jarayoni nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini ulkan vazifalarni oldimizga qo'yimoqda.

O‘zbekistonda fuqarolar siyosiy madaniyati yo‘nalishida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. “Siyosiy madaniyat tizimi deganda davlat hokimiyati va fuqarolar siyosiy munosabatlarida amal qiladigan elementlar yaxlitligi tushuniladi”.

Bu tizimga siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy mafkura siyosiy axloq, siyosiy tarixiy tajriba, siyosiy immunitet, siyosiy qadriyatlar kiradi. Bularning har biri siyosiy madaniyatning mustaqil elementi sifatida o‘ziga xos tarzda shakllanadi va tegishli vazifalarni bajaradi.

2. “Siyosiy madaniyat deganda siyosiy ong, siyosiy tafakkur, siyosiy ogohlik, siyosiy vazminlikni o‘zida uyg‘unlashtirgan xolda shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar umummanfaatlar va maqsadlar yo‘lida o‘z faoliyatlarida amal qilishining ko‘rsatkichi anglashiladi”.

Mazkur ta’rifimizdagi muhim g‘oya siyosiy madaniyatning shaxs, fuqaro, davlat hokimiyati, ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning siyosiy beqarorlik yoxud siyosiy mojarolarni hal qilishdagi ijobiy faoliyatining ko‘rsatkichi ekanligini ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi.

3. “Yoshlar siyosiy madaniyati deganda, ularning siyosiy hokimiyat, siyosiy jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari, ularni idrok etishdagi siyosiy qarashlar, siyosiy tafakkur va siyosiy faoliyatlarida amal qiladigan madaniyat shakli tushuniladi”.

Bu ta’rifdagi asosiy g‘oya yoshlarning siyosiy madaniyatini belgilab beradigan, ularning siyosiy hokimiyatga munosabati, siyosiy jarayonlar rivojiga qarashlari, uni idrok qilishlari va o‘z siyosiy faoliyatlarida ijobiy jihatdan rivojlanishiga hissa qo‘shishdagi ishtiroki ular siyosiy madaniyatlarining muhim ko‘rsatkichi barometri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish lozimki, O‘zbekistonda yoshlarimizning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini o‘zaro muvozanatda rivojlantirish siyosiy tarbiyaviy faoliyatimizning muhim yo‘nalishiga aylanishi kerak.

Yoshlar siyosiy madaniyatining rivojlanishi mamlakatimizda siyosiy barqarorlikning yanada mustahkam bo'lishiga va yoshlarimizning siyosiy ongida bunyodkorlik ruhiyatining taraqqiy qilishiga yordam beradi.

Jamiyatda siyosiy ong va siyosiy madaniyat bugungi holatining tahlillaridan ma'lum bo'ldiki, ana shu ikki omilning rivojlanishida o'zaro muvozanat amal qilishi mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o'rtasida muvozanatning amal qilmasligi esa siyosiy beqarorlikni yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkini.

Ana shu jihatdan ham mamlakatimiz fuqarolarining, xususan, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o'zaro muvozanatda rivojlantirish davrning talabidir.

Shu bilan birga, yoshlar siyosiy madaniyati g'oyaviy-siyosiy evolyutsiyasini o'rganish natijasida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1.Global mafkuraviy jarayonlardagi o'zgaruvchan tendensiyalar hamda mafkuraviy ta'sir ko'lamining yetarlicha baholanmasligi milliy siyosatshunoslik tadqiqotlari tizimida zamonaviy siyosiy mafkuralar mohiyatini yanada chuqur o'rganish zaruratini taqozo etayotganligidan kelib chiqib, "Zamonaviy siyosiy mafkuralar" nomli o'quv fanini joriy etish maqsadga muvofiq.

2.Siyosatshunoslik sohasida mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari qoshida milliy siyosatshunoslik tadqiqotlarini rivojlantirishga qaratilgan, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda siyosiy tahlil bilan shug'ullanuvchi "Analitik markaz"larni tashkil qilish.

3. Ota-onalar va o'smir-yoshlar uchun "Maktab o'quv dasturi orqali, "Internet madaniyati", "Virtual pedagogika", "Media madaniyati" kabi o'quv qo'llanmalarini yaratish maqsadga muvofiq.

Bugungi kunda "Informatika asoslari" fani kabi virtual madaniyatni shakllantiruvchi, media savodxonlik darslarining maktab dasturiga kiritilishi, yoshlar orasida virtual madaniyatning

rivojlanmaganligi sababli keltirib chiqarayotgan dolzarb muammolarga asta-sekin yechim topishiga ishonamiz.

4.Siyosatshunoslik sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari magistratura bosqichida "Siyosiy madaniyat va mafkura" mutaxassisligini ochish.

3.4. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATINING HOLATI VA ISTIQBOLLARI

3.4.1.O'zbekiston yoshlari siyosiy madaniyati haqida mulohazalar

Mamlakatimizda boshqa sohalarda bo'lganidek, siyosiy ong va madaniyat bobida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bir so'z bilan aytganda, jamiyatimiz hayotida madaniy transformatsiya jarayoni qizg'in kechmoqda. Transformatsiya lotincha *transformatio* — qayta o'zgarish, qayta hosil bo'lish ma'nosini anglatadi. U asosan, madaniyat, jamiyat va inson taraqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda o'z ifodasini topadi.

Transformatsiya – qayta o'zgarishdir. O'zgarishlar har doim bizga hamroh bo'ladi va bu hayotning hammasi – tabiiy o'zgarish, o'sish, taraqqiyot. Madaniy transformatsiya – bu madaniyatda korporativ madaniy makon kuchlari ta'sirida implitsit holatda bo'lgan xususiyatlarni mustahkamlash jarayonidir. Bu jarayon madaniyatning o'zligini yo'qotmaydi, balki uning madaniy elementlarini mustahkamlashga qaratilgan bo'lib, u makondagi madaniyatlar sinergiyasini ta'minlaydi.

Bugungi globallashuv jarayoni shunday jarayonki, undan chetda turaman degan davlat o'zi istamagan holda uning ta'siriga tushib qolishi mumkin.

Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishning amaliy transformatsiyasi, yoshlar siyosiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishning o'zaro aloqadorligi, mamlakatimiz yoshlarining siyosiy madaniyati va milliy o'zlikni anglash konsepsiyasi bo'yicha

xalqaro tajriba va O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini o'lchash mezonlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini oshirishda e'tibor qaratiladigan muhim masalalar, deb hisoblaymiz. Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan har qanday mamlakatda siyosiy va huquqiy madaniyat saviyasi demokratik davlatlarga mos bo'lmog'i lozim.

O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishning amaliy transformatsiyasi G'arb mamlakatlaridan farq qiladi. G'arb namunasi esa ko'p hollarda individualizm falsafasiga tayanadi va ommani haddan tashqari siyosiylashtirishga olib keladi.

Mamlakatimizda shakllangan siyosiy madaniyatning quyidagi umumiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- alohida olingan shaxs manfaatlarining davlat va jamiyat manfaatlariga hamohangligi;

- ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat va jamiyatning hal qiluvchi ahamiyatga molik rolining e'tirof etilishi;

- hokimiyatga hurmat bilan munosabatda bo'lish an'anasining mavjudligi, rahbar legitimligiga yuksak talablar qo'yilishi;

- parlament va boshqa vakillik organlarining ijtimoiy hayotdagi o'rniga e'tiborli munosabatning mavjudligi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, har qanday jamiyatning siyosiy hayotini anglashga uning siyosiy madaniyatini har taraflama o'rganish orqali erishiladi. Faqat shu jihatdan siyosiy tizimning manbai, xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatda hukmronlik qilayotgan siyosiy tartibot, ijtimoiy guruhlarining xatti-harakati va siyosiy ongi, siyosiy jarayonlarning yo'nalishi va harakati haqida ma'lumotga ega bo'lishi natijasida ma'naviy va madaniyat saviyaning yuqori darajaga ko'tarilishi ta'minlanadi. Ba'zida turg'unlik holati yoki buning aksi ham kuzatiladi (sobiq ittifoqning 1980-yillarini eslang.)

Shaxsning siyosiy faoliyatini takomillashtirishning muhim sharti, bu – siyosiy ta'lim tizimini demokratlashtirish! Shu bilan birga, siyosiy ta'limni shakllantirishning eng muhim yo'nalishi mamlakatning oliy va o'rta ta'lim muassasalarida byurokratiya va qog'ozbozlikni

kamaytirishdan iborat. Shu maqsadda ta'limning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish, siyosiy va axloqiy jihatdan bilimli insonni tarbiyalashga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish muhimdir.

Oliy o'quv yurtlarida siyosiy ta'lim va siyosiy bilimlarga e'tibor fuqarolarning muhim hayotiy ko'nikmalarini — murakkab va ziddiyatli siyosiy jarayonlarni mustaqil anglash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 29-yanvardagi “Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilinganligi¹ ushbu yo'nalishda muhim qadamlardan bo'ldi. Jumladan, qarorda yozilganidek, siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslarining shakllanishi va rivojlantirish sohasida kompleks tizimli tadqiqotlar olib borish, globallashtirish sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, shu asosda ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish maqsadida “Siyosatshunoslik”, “Amaliy siyosatshunoslik”, “Siyosiy fanlar” fani tarmog'i ixtisosliklari bo'yicha birqator oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalari berildi. Bunday yangiliklar davr talabi bo'lib, globallashtirish sharoitida siyosatshunos yosh kadrlarga talab oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Siyosiy madaniyatni chuqur o'rganmay turib, har bir jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni harakatlantiruvchi kuchini anglash qiyin kechadi. Siyosiy madaniyat esa siyosiy jarayonlarning rivojlanishi uchun yetarlicha imkoniyat yaratadi, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning xulq-atvorini belgilab beradi. Ayni paytda, siyosiy madaniyat jamiyatda fuqarolar turmush tarzi va intilishlarida yangiliklar hosil bo'lishiga shart-sharoit yaratuvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi “ijtimoiy iqlim”ning ajralmas va muhim qismiga aylanib boradi. *Siyosiy madaniyat jamiyat siyosiy tizimining eng barqaror, ta'bir joiz bo'lsa, eng konservativ unsuri ham*

¹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2019-y., 07/19/4139/2544-son.

*hisoblanadi*¹. Bu holat katta tarixiy o'zgarishlar davrida yanada yorqinroq ko'zga tashlanadi. Xuddi shunday o'zgarishlar bizning mamlakatimizda ham ro'y bermoqda.

Haqiqatan ham, yoshlar ongi va siyosiy madaniyatini rivojlantirmasdan hech bir davlat taraqqiyotga erisha olmaydi. Chunki, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivojlanishi nafaqat siyosiy hayotning bir maromda taraqqiy qilishiga, shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda taraqqiy qilishiga, xalqaro nufuzining oshishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi.

Tahlillarimizga ko'ra, yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishning ichki va tashqi ehtiyojlari bo'ladi. Uning birinchisi, mamlakatning barqaror rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarni izchillik bilan taraqqiy qildirish; ikkinchisi, yoshlarning davlat, mamlakat, umumxalq manfaatlari yo'lida birlashuviga erishish; uchinchisi, yoshlarning siyosiy madaniyatini mamlakat taraqqiyoti darajalariga mos ravishda rivojlantirish va jamiyat manfaatlarini anglab yetish.

Yoshlarning manfaatlarini hisobga olish va qo'llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotida, shubhasiz, katta rol o'ynaydi. Yoshlar nazdida manfaat – naf, foyda, samara, natija, individ faoliyatini, huquqini belgilaydigan asosiy omil, ehtiyoj ma'nosini beradi, bu omilni hisobga olish: birinchidan, o'z erkinligi, ozodligini hayotga tatbiq etish; ikkinchidan, "men"ni harakatga keltiruvchi kuch, qudrat; uchinchidan, hokimiyatga intilish, umid ma'nolarini bildiradi.

Yoshlar siyosiy ongining keskin o'sib ketishi va siyosiy madaniyat rivojining undan orqada qolishiga davlat amaliy faoliyatida yoshlarning o'sib boradigan ehtiyojlarini hisobga oluvchi aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan izohlash mumkin.

Hozirgi kunda oila ijtimoiy tuzilma tarmoqlari ichida murakkablashib borayotgan institut bo'lib qolmoqda. Unda farzandlar

¹Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: Yangi asr avlodi, 2013. –B. 387.

bilan ota-onalar o'rtasidagi azaliy qadriyatlar susaymoqda. Oilada otalarning farzandlarga tarbiyaviy ta'siri pasayib bormoqda.

Mamlakatimizni modernizatsiyalashtirish jarayonida uning samarali amalga oshishida yoshlarimiz ichidan yetishib chiqayotgan iqtidorli yoshlarning bir qismi xorijiy mamlakatlarga ketib qolayotgani ham intellektual salohiyatimizni talab darajasida rivojlantirishga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Uni sun'iy ravishda to'xtatishning esa imkoniyati yo'q. Ammo, ta'lim va tarbiya tizimimizda bir qator real chora-tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan ularning oldini olish imkoniyatlari mavjud.

O'zbekistonda yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning *zamonaviy tendensiyalariga* ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar faoliyatini kiritish mumkin. Ularning bu jarayondagi o'рни: ma'lumot, voqea-hodisalar va turli jarayonlarni ommaga yetkazishda hozirjavoblighi, ilg'or texnologiyalarning mavjudligi; ommaviyligiorqali o'z ifodasini topadi. Mamlakatimizda islohotlarning demokratik mazmunga egalighi, unga xos bo'lgan transformatsion jarayonlarda chuqur, jadal ijtimoiy o'zgarishlar, iqtisodiy rivojlanish, diniy bag'rikenglik, millatlararo tolerantlikni ta'minlashda, mamlakatning xalqaro maydondagi o'rnining mustahkamlanishida global internet tarmog'i muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida Internet tarmog'i va undagi milliy segment faoliyatining sotsiologik tahlili va global kompyuter tarmog'ining ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini tadqiq qilish vaqti keldi. Rasmiy va norasmiy internet kommunikatsiyalarining ommaviy auditoriyaga bevosita ta'siri, transformatsiyalashayotgan jamiyat sharoitidagi ijtimoiy o'rnining siyosiy-falsafiy jihatlarini mustaqil o'rganish jarayoni nazariy, metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadigan vazifalarni ilgari suradi.

3.4.2. Yoshlar siyosiy madaniyatining o'ziga xos jihatlar

Siyosiy madaniyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, u voqelik haqida umumiy tasavvur hosil qilishda ishtirok etadi, u shaxsning

ongiga qotib qolgan stereotiplarning singib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi, shu tariqa dunyoqarashning yaxlitligi va yagonaligini ta’minlaydi. Bilimning vorisiyligini ta’minlash orqali siyosiy madaniyat ijtimoiy voqelik an’analarini saqlab qolish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Siyosiy madaniyatda ijtimoiy faoliyatning birlamchi sxemalari va obyektiv fikrlash shakllari o‘zining muayyan ifodasini topadi. Ayni shu sxemalar shaxs faoliyatining barcha darajalari va shakllari o‘rtasida bog‘lovchi bo‘g‘inlarni tashkil etadi. Binobarin, siyosiy madaniyat anglab yetilayotgan voqelikni tasavvur qilish imkoniyatlarini belgilovchi o‘ziga xos gnoseologik sxema (o‘rganilayotgan borliq manzarasi) vazifasini bajaradi.

Siyosiy madaniyatning funksional shakllari jamuljam holda siyosiy madaniyatning tarkibiy tuzilishini belgilaydi. Siyosiy madaniyatning harakatchanligi, o‘zgaruvchanligi va rivojlanish jarayonini hisobga olib, biz uning tarixiy xususiyatini aks ettirishga harakat qildik, zero u ilmiy omillar bilangina emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham belgilanadi. Siyosiy madaniyatning amalda mavjudlik va amal qilish sohalari siyosiy nazariyaning kategoriyalar va tushunchalar majmui hamda voqelikni inson tomonidan oqilona o‘zlashtirishning turli xil shakllaridir. Bu holda siyosiy madaniyat ijtimoiy bilimlarni tashkillashtirish, jamg‘arish, saqlash, saralash va retranslyatsiya qilish mexanizmining muayyan usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Siyosiy madaniyatning negizini esa inson faoliyatining o‘ta umumlashgan sxemalari va dasturlari tashkil etadi. Shu tariqa siyosiy madaniyat shaxslarning intellektual faoliyatini oqilona tartibga solish omiliga aylanadi.

Siyosiy madaniyat –shaxs o‘z ijodiy niyatlari va ularni amalga tatbiq etish shakllarining rang-barangligi orqali yaxlit namoyon bo‘lishidir. Siyosiy madaniyatning o‘zgarishiga tafakkur inersiyasiga barham berish kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Siyosiy madaniyatning rang-barangligi ikki holat: tarixiy sharoitlar va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi. Siyosiy madaniyatning o‘zgarishi fikrlovchi subyekt ijodiy faoliyatining xususiyati bilan bog‘liq. Bu xususiyat kategoriyalarning

tarkibiy tuzilishi va ijod jarayonining o'zida aks etadi. Shu bilan birga, siyosiy madaniyat davlat mafkurasining obyekti, yo'nalish va shart-sharoitlariga sezilarli darajada bog'liq. Turli davlatlar siyosatchilari tafakkurining xususiyati ayni shu omil bilan belgilanadi.

Siyosiy madaniyatning shakllanishida milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik muhim omil sifatida ulkan ahamiyat kasb etadi. Ushbu omilning ahamiyati shundaki, u milliylikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi, o'zbek xalqining milliy an'analar, urf-odatlar va milliy madaniyatni o'zlashtirish yo'lidagi sa'y-harakatlari va ulardan ilmiy izlanishlarda foydalanishga ko'maklashadi. Milliy qadriyatlarga baho berishda milliylik va millatchilikning ayniylashtirilishiga yo'l qo'ymaslik, atoqli tarixiy shaxslar insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga konkret sharoitlar, joy va vaqtni hisobga olib xolisona baho berish juda muhim.

Siyosiy madaniyatga baho berishda uning muayyan birlikka mansubligi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik insonning kishilar muayyan tarixiy birligiga mansubligi bilan belgilangan konkret tarixiy xususiyatga ega. Shu bilan birga, vatanparvarlikda davrlar va avlodlar hamkorligi o'z aksini topadi, u insoniyat tarixiy xotirasining manbai hisoblanadi. Vatanparvarlik go'yoki turli tarixiy davrlar va kishilarning avlodlarini birlashtiradi. Vatanparvarlikning teran mazmuni inson ijtimoiy manfaatlarni anglab yetishida namoyon bo'ladi. Bizningcha, milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik milliy mahdudlikka barham beradi, turli etnoslar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida o'zaro aloqalarning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Har qanday mamlakatning taraqqiyoti davomida yosh avlod bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Bunday muammolar ichida eng dolzarblari, eng muhimlari ajralib turadi, bular yoshlar muhitida mavjud turli moyillik va o'ziga xosliklarni ifodalaydi. Chunonchi, yoshlar o'z hayotining asosiy jihatlariga, ayniqsa, siyosiy jarayonlar, ijtimoiy maqom, madaniyatlilik darajasi, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muassasalarning ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillarga befarq emas.

Shu bilan birga, ularni ma'lum davr nuqtayi nazaridan o'zgartirishga, rivojlantirishga, yangi mazmun kasb etishga o'zlarida moyillik sezishadi. Yoshlarda tashabbuskorlik, tashkilotchilik, siyosiy jarayonlarga sezgirlik, harakatlardagi ildamlilik va sog'lom fikrlashga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalash ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlaydi. Yoshlar muhitida mavjud bo'lgan bunday jihatlar aksariyat hollarda e'tibordan chetda qolib ketishi mumkin, ya'ni ko'pincha yoshlarga siyosiy bilimi, tajribasi yetarli bo'lmagan, har qanday ishni uddalay olmaydigan, hali pishib yetilmagan, navnihol deb qaraladi va ularning real ijtimoiy-siyosiy faolligi, zamon talablariga mos ilg'or texnologiyani amaliyotga tatbiq etib, yangi kuch sifatida roli unutib qoldiriladi. Shu bilan bir qatorda, yoshlarning jamiyatdagi barqarorlikka ziyor yetkazadigan xatti-harakatlari va faoliyatlariga ba'zan beparvo qarashlar ham mavjud. Bunday qarama-qarshi tendensiyalar vaziyatni imkoni boricha o'rganish, tahlil va tadqiq etishni, shuningdek, ushbu jarayonda vujudga keluvchi muammolarni aniqlab, ularni hal etish yo'llari xususida tegishli xulosalar chiqarishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda yoshlar hayotiga doir qonunlar qabul qilinishi, ularning haq-huquqlari belgilab berilishi, albatta, har bir yoshning mazkur jamiyat fuqarosi sifatida siyosatda faol ishtirok etishini e'tiborga olish ularni barkamol avlod qilib tarbiyalash omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, yoshlarning siyosiy faolligini oshirish, siyosiy madaniyatlilik darajasining ko'tarilishi ularning barkamol avlod sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Shu o'rinda yoshlarni barkamol avlod darajasiga ko'tarilishi, siyosiy faol fuqaroga aylanishida siyosiy ta'lim-tarbiyaning to'g'ri amalga oshirilishi har jihatdan muhim. Siyosiy ta'lim-tarbiya ijtimoiy-siyosiy faoliyatda amaliy iqtidorning tarkib topishi, siyosiy harakat, faol hayotiy pozitsiyani vujudga keltiradi.

Mamlakat taqdirini, kelajagini belgilaydigan asosiy kuch zavq-shavq bilan mehnat qilayotgan, bilim olayotgan yosh avlodidir. Zero, ularning ong-shuurini, tafakkurini to'g'ri shakllantirishi, shu asosda tarbiyalash har qachongidan ham muhim va dolzarbdir.

Bugungi yoshlar bundan 15-20 yil ilgari yoshlardan tubdan farq qiladi. Chunki shiddat bilan inson ongiga ta'sir etayotgan "siyosiy axborotlarning oqib kelishi", elektron texnologiyalarning jamiyat hayotidagi o'rni, G'arb urf-odatlarini, san'ati (kuy-qo'shiq, kinofilmlar), shu bilan bir qatorda, liberal tarzdagi qarashlar barchasi yoshlar madaniyatini, dunyoqarashini chetlab o'tolmaydi.

3.4.3. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari

Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirib borish, avvalo, oilada, maktabda, oliy o'quv yurtida, mehnat jamoalari va ommaviy xizmat ko'rsatish joylarida amalga oshiriladi. Bu jarayon oilada, avvalo, ota-onaning ibratini, iliq oilaviy munosabatlar orqali amalga oshadi. Oila a'zolarining gazeta, jurnallar o'qish va tahlil qilishga qiziqishi, teledasturlarni muntazam kuzatib borishi yoshlar siyosiy madaniyatini o'sishiga xizmat qiladi. Yoshlar taqlidchan va qiziquvchan, tez o'rganuvchan bo'ladi. Shu jihatdan ularda mas'uliyat, ishtiyoq, havasmandlik kabi hissiyotlarni hisobga olish lozim. Shunday ekan, oilaning yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashdagi o'rni beqiyos. Shaxsning individuallashtirish jarayoni qanchalar tezlashsa, uning ijtimoiylashuvi ham shu qadar tez shakllanib boradi. Natijada, ularning asta-sekin barkamol avlod sifatida shakllanishi tez kechadi. Bunda asosiy rolni maktab o'ynaydi. Maktab nafaqat shaxs, yoshlar e'tiqodini, oriyat, g'ururini, hissiyotini shakllantirish bilan birga, odamiylik, dunyoqarash, dunyoni his etish, uni idrok etish va shu asosda kishilarga munosabatda bo'lish kabi xislatlarni shakllantirib borishning asosiy o'chog'idir. O'zligini anglagan shaxs ijtimoiy barkamol davlat va jamiyat qurilishi, Vatan ravnaqi va taqdiriga befarq, loqayd bo'lmaydi. Yoshlarning siyosiy madaniyatini yanada o'stirish va shu asosda siyosiy o'zligini anglash murakkab, uzoq davom etadigan, chuqur va har taraflama mehnat talab etadigan tarbiyaviy, nazariy, amaliy jarayondir. Maktab davrida shakllangan dunyoqarash, barkamol avlod sifatida tarbiyalanishini litsey va kollejlarda mantiqiy tarzda davom ettirish, uni yanada yuksak darajaga ko'tarish, jamiyat taraqqiyotida, xususan,

yoshlar siyosiy ongini o‘stirish kafolatidir. Yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashning muhim manbalaridan biri-o‘tmish, o‘tgan hayotimiz, davlat va jamiyat qurilishiga, hayotiga daxldor bo‘lgan sharqona boy merosimiz namunalaridan bahramand bo‘lish. Yoshlarning, umuman, insonning barkamolligi jismonan, ma’nan va aqlan yetuklik darajasi bilan bog‘liq. Ana shu uch elementning uyg‘unlikda rivojlanishi barkamollikni ta’minlashi muqarrar.

Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishda yana bir muhim omil, bu — *siyosiy tarbiya* hisoblanadi. Siyosiy tarbiyaga turli qarashlar va fikrlar bildirilib kelinmoqda. Jumladan, falsafa qomusiy lug‘atida “Siyosiy tarbiya – ijtimoiy tarbiyaning siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan muhim shakllaridan biri”¹, degan ta’rif berilgan. Ammo bu tushunchaga O‘zbekistonda e’lon qilingan boshqa lug‘atlarda ta’rif berilmaydi, shuningdek siyosatni o‘rganishga bag‘ishlangan monografiyalarda ham ilmiy ta’riflar uchramaydi.

“Siyosiy tarbiya” jamiyat hayotida siyosiy ong va siyosiy madaniyatni rivojlantirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. U siyosiy ong va siyosiy madaniyatni rivojlanishiga ta’sir o‘tkazuvchi omildir. “Ikkinchi jihatdan, ayni paytda, uni siyosiy jarayonlardagi murakkab omillarni muvozanatini yuzaga keltiruvchi tarbiya shakli, deyish mumkin. Siyosiy tarbiyaning yana bir jihati, shaxsning siyosiy mavjudot sifatida o‘zining “men”ligini anglab yetishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. *Siyosiy tarbiya deganda* davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari institutlarining fuqarolarning siyosiy ongi va siyosiy madaniyatini muvozanatda rivojlantirish, ana shu institutlar bilan fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarini umummanfaatlarga yo‘naltirish, shaxsning siyosiy mavjudot sifatidagi “men”ligini anglab yetishga qaratilgan siyosiy faoliyatini tushunish mumkin”².

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar zamonaviy yoshlar siyosiy faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish

¹ Falsafa. Qomusiy lug‘at. –T.: Sharq, 2004. –B. 366.

² Otamurodov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – T.: O‘zbekiston, 2015. – B. 106.

bilan birqatorda ularning siyosiy madaniyati rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 14 sentyabrdagi 406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida jamiyat hayotining barcha ustuvor sohalari, jumladan, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim, madaniyat, sport, mehnat, prokuratura, ichki ishlar, adliya organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlarning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlari aniq belgilab berildi. Xususan, qonunning 4-moddasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi ta'kidlandi: ochiqlik va shaffoflik; yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi; yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi; yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi¹.

Bugungi kunda respublikamizda "uyushmagan yoshlar" atamasi o'rniga "yoshlar daftari" qo'llanilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-martdagi 152-son qarori bilan "Mahallabay" ishlash tizimi amaliyotga joriy etildi. Bu yo'nalishda manzilli, har bir shaxs bilan individual va tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish maqsadida moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar bo'yicha mutlaqo yangi "Temir daftar", ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb-hunar o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan xotin-qizlar va yoshlar bo'yicha tegishli "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" tizimlari hayotga tatbiq etildi. Bulardan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 312-son "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori² bu borada katta qadam bo'ldi. Qarorga binoan, moddiy ahvoli og'ir yoshlarga bir martalik moddiy yordam, xorijiy

¹Qarang.: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; "Xalq so'zi" gazetasining 2016-yil 15 sentabrdagi 182 (6617)-soni.

² <https://lex.uz/docs/6051791>

tillarni o'rganishi uchun 7,2 mln so'mgacha subsidiya beriladi. Shuningdek, ushbu qarorda tasdiqlangan "Yoshlar daftari"ni yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga quyidagi yordam turlari ko'rsatiladi¹: moddiy ahvoli og'ir yoshlarga bir martalik moddiy yordam (*BHMning 4 baravarigacha*) beriladi; yoshlarni tadbirkorlikka va kasb-hunarga o'qitish uchun sarflangan xarajatlarning 75 foizigacha qismi (*bir oygacha BHMning 4, bir oydan ikki oygacha BHMning 8, ikki oydan ortiq muddatli o'quv kurslari uchun BHMning 12 baravaridan ko'p bo'lmagan qismi*) qoplab beriladi; tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan yoshlarga faoliyatini amalga oshirayotgan noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarining bir yilda 30 foizi, biroq BHMning 25 baravarigacha bo'lgan qismi qoplab beriladi; Respublikadagi professional ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan, shuningdek, O'zbekistondagi barcha oliy ta'lim tashkilotlarida bakalavriatning kunduzgi, sirtqi va kechki shaklida, magistraturaning kunduzgi yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchi-talabalarga to'lov-kontrakt asosida o'qish bo'yicha yillik xarajatlarining bir qismi qoplab beriladi; yoshlarga ta'lim, madaniyat va san'at, sport, axborot texnologiyalar sohasiga va fanlarni o'qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta'lim tashkilotining 3 oy muddatgacha noturar joy ijara xarajatlari uchun BHMning 50 baravarigacha miqdorda qoplab beriladi;

nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan yoshlarga yakka tartibdagi o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun 33 mln so'mgacha garovsiz kredit ajratiladi.

Nizomga ko'ra, yoshlarga quyidagi miqdorlarda subsidiyalar ajratiladi:

- 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydoni ajratilgan yoshlarga urug'lik va ko'chatlar xarid qilish uchun BHMning 8 baravarigacha;

¹"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga qator yordamlar ko'rsatiladi – tafsilotlar. 08.06.2022. <https://sputniknews-uz.com/20220608/yoshlar-daftariga-kiritilgan-yoshlarga-qator-yordamlar-korsatilad.i-tafsilotlar-25137325.html>

- tadbirkorlik yoki o‘zini o‘zi band qilish faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan yoshlarga asbob-uskuna yoki mehnat qurollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha;

- yoshlarga zamonaviy kasblarni egallashi, axborot texnologiyalarni o‘rganishi va ularni xorijiy tillarga o‘qitish bo‘yicha 6 oygacha muddatli o‘quv kurslari uchun har oyda BHMning 4 baravarigacha;

- yoshlarning ilm-fan, sport, san’at va madaniyat yo‘nalishlaridagi 6 oygacha muddatli o‘quv kurslari uchun har oyda BHMning 1 baravarigacha;

- yoshlarning ilm-fan, sport, san’at va madaniyat yo‘nalishlaridagi olimpiada, tanlov va musobaqalarning mahalliy bosqichlarida qatnashish uchun ishtirokchilarning yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun BHMning 4 baravarigacha hamda ushbu olimpiada, tanlov va musobaqalarning xalqaro bosqichlarida qatnashish xarajatlari uchun BHMning 40 baravarigacha;

- “Yoshlar daftari”ga kiritilgan bemor yoshlarga mamlakatda yoki xorijiy davlatlarda davolanish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun BHMning 50 baravarigacha;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga 12 oygacha turar joy uchun ijara kompensatsiyasi har oyda BHMning 3 baravaridan oshmagan miqdorda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan¹, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalari etib belgilandi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 07/22/92/0046-son.

Yuqoridagi tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy tadbirlar yoshlar muammolarini hal qilish va siyosiy madaniyatini oshirishga zamin vazifasini o‘tamoqda, deyishga haqlimiz. Yoshlar siyosiy madaniyatining shakllantirish va rivojlantirish har qanday taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlat uchun muhim vazifalardan birini tashkil etadi. Chunki, davlat taraqqiyotining bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tishida kechagi avlodning yaratgan moddiy va ma’naviy ne’matlarini bugungi avlod davom ettirishi, rivojlantirish va yangi yuqori bosqichga ko‘tarishini taqozo qiladi. Aniqroq qilib aytganda, mamlakat taraqqiyotining bugungi va ertangi istiqboli yoshlarning qanday tarbiya olishiga bog‘liq bo‘ladi. Ular nafaqat mehnat resurslari, shu bilan birga, ajdodlar davomchilari, vorislaridir.

3.5. JAMIYATDA SIYOSIY MADANIYATNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

3.5.1. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini oshirishning imkoniyatlari

Hozirgi zamon O‘zbekiston jamiyatida siyosiy madaniyat yetakchi mavqeni egallaydi. Madaniyat umuman hayotdagi xulq-atvor normalarini belgilagani singari, siyosiy madaniyat ham jamiyat hayotidagi xulq-atvor normalari va “o‘yin qoidalari”ni belgilaydi, eng muhimi, tizimni birlashtiradigan qudratga aylanadi.

Har qanday ijtimoiy-siyosiy tizimning yashovchanligini ta’minlash va vorisiyligini saqlashda siyosiy madaniyatning tub qadriyatlari birinchi darajali ahamiyatga ega. Siyosiy madaniyatga umummilliy madaniyatning shakli, uning ajralmas qismi deb qaragan taqdirda, uni to‘g‘ri tushunish mumkin. Bu aholining ko‘pchiligi qo‘llab-quvvatlovchi qadriyatlar, normativlar, siyosiy xulq-atvor qoidalari va stereotiplari tizimidir. Bularning barchasi uzoq yillar davomida, butun milliy tarix mobaynida shakllanadi.

Sovet davridan qolgan salbiy meros mustaqil O‘zbekistondagi siyosiy madaniyat darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan

ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi muammolardan biri hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni isloh qilishning zarurligini partiya byurokratik doiralaridan tashqari, SSSRning yaqin o‘tmishdagi barcha oliy rahbarlari yaxshi anglar edilar. “Turg‘unlik” davrida avvalgi yaxshi o‘sinh sur‘atlari boy berildi, bu G‘arb mamlakatlariga strukturaviy islohotlarni amalga oshirish va SSSR bilan bo‘lgan “sovuq urush”da g‘alaba qozonish hamda tarixiy taraqqiyotning sifat jihatidan yangi bosqichiga qadam qo‘yish imkonini berdi.

Ijtimoiy taraqqiyotda, ozgina bo‘lsa ham oqsash zamondan orqada qolishni istamagan keyingi avlodlar uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirishini tarix yana bir karra namoyish etdi. Metindek mustahkam bo‘lib tuyulgan SSSR qumdan yasalgan uydek bir lahzada to‘kilib tushganidan so‘ng, xalqaro hayotning mustaqillikni qo‘lga kiritgan yangi subyektlari jahonning yetakchi mamlakatlaridan ancha orqada qolganliklarini his etdilar. Bunday parchalanish natijasida o‘zining ko‘pgina iqtisodiy aloqalarini yo‘qotgan O‘zbekiston qiyin ahvolda qoldi. U “taraqqiyotni quvib yetish” paradigmasiga qaytishga majbur bo‘ldi. Bu esa siyosiy madaniyatda eski stereotiplar tiklanishiga qulay zamin hozirladi. Mamlakatning hozirgi avlod rahbarlari hal qilishi kerak bo‘lgan vazifalar salmog‘i ko‘paydi. Hozirgi zamon O‘zbekiston jamiyatining manzarasini ijobiy tomonga batamom o‘zgartirib yuboradigan tub islohotlarni amalga oshirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Ba’zi bir olimlar hozirgi rivojlanish bosqichini kapitalizmga va hatto yovvoyi kapitalizmga o‘tish bosqichi, deb ta’riflaydi. Ammo bu yangilanish jarayonlari XX asrning oxiri — XXI asrning boshida sifat jihatidan boshqa sharoitlarda sodir bo‘layotganini unutmashlik lozim. Bunda O‘zbekiston ko‘pgina aktorlari (teng ishtirokchilari) u bilan yaqinlashish va hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘lgan jahon hamjamiyatining tarkibiy qismi bo‘lib qolayotir. Bu nuqtayi nazardan so‘nggi yillardagi tashqi xalqaro vaziyat eng muhim ichki islohotlarni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ilg‘or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborot

kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda"¹.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy, ma'muriy, huquqiy va boshqa sohalarini qamrab olgan. Bu islohotlarning barchasini bir vaqtda amalga oshirish talab etiladi, ammo amalda bu juda mushkul vazifa. Islohotlarning hali davom etayotganligi bugungi kunning o'ziga xos jihatlaridan biridir, ammo so'nggi yillarda sodir bo'lgan yangilanish jarayonlarining ortga qaytmasligi odamlar ongida ildiz otganining o'zi mamlakatni rivojlantirish istiqbollari umidbaxsh bo'lishiga kafolat beradi.

Shu bilan birga, jamiyatni jipslashtiradigan o'zak — milliy g'oya shakllanayotgani katta yutug'imiz, deyish mumkin. Milliy mustaqillikning asosiy maqsad deb e'lon qilinishi butun xalqni bir bayroq ostiga birlashtirish, mustaqillikning ilk davrida demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan olg'a siljishga yordam berdi. Hozirgi rivojlanish bosqichida demokratiya va demokratik qadriyatlar yo'lida so'nggi hal qiluvchi qadamni tashlash uchun xalqni birlashtirishga yana bir marta yordam beradigan yangi milliy g'oyalarni aniq ifodalash talab etiladi. Bu nuqtayi nazardan, urushdan keyingi davrda har uch-besh yilda yangi g'oyalar va prinsiplar ilgari surilgan Yaponiya tajribasi e'tiborga molikdir. Zotan, mazkur g'oyalar va prinsiplar pirovard natijada mamlakatga sobiq militaristik tuzumning ta'siri oqibatlarini bartaraf etish, vayrongarchilikni tugatish va yangi jamiyat, liberal-an'anaviy tipga mansub jamiyat qurish va pirovardida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra jahonda ikkinchi o'ringa chiqishga yordam berdi.

Mamlakat ko'p partiyali tizim yo'lidan bormoqda. Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi tegishli qonunlar va huquqiy mexanizmlar bilan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 12 oktyabrdagi MDH Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi. <http://press-service.uz/ru/lists/view/1132>

uyushtirilmaganida turli guruhlarning o‘z manfaati yo‘lida yashirincha harakati avj oladi. Bunday sharoitda barcha vositalar — adolatning oyoq osti qilinishi, haqiqatning buzilishi, qonunni mensimaslik ishga solinadi. Jamiyatni inqirozga olib boruvchi bu yo‘lga qarama-qarshi o‘laroq, guruhlarning o‘z manfaatlarini himoya qilishi uchun siyosiy partiyalarga birlashishdek demokratik yo‘l ham mavjuddir.

Siyosiy hurfiylik, erkinlik va ozodlik g‘oyalarining, ma’rifatchilik harakatining keng yoyilishi bilan demokratik qadriyatlarni himoya qiluvchi, davlatning yakka hokimligini cheklashga da’vat etuvchi siyosiy birlashmalar, partiyalar ijtimoiy-siyosiy tizimda o‘z o‘rnini topa boradi. Natijada siyosiy partiyalar o‘z oldiga siyosiy xohish va istakning shakllanishiga doimiy ta’sir etishni maqsad qilib qo‘yib, uni amalga oshirish yo‘lidagi barqaror tashkiliy tuzilma sifatida shakllanadi. “Siyosiy partiyaning xarakterli xususiyati o‘z ta’sirini hukumatga o‘tkazish, hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlab turish va ta’sir o‘tkazish uchun saylovlarda ishtirok etishdir. Partiya maqsadini amalga oshirish uchun partiya a’zolari partiyaning jamiyatdagi ta’sirini o‘tkazib borishda siyosiy tizimda rahbarlik o‘rinlarini egallashlari lozim. Demak, hokimiyatga intilish partiyaning asosiy belgisidir. Bizda esa aksariyat bu haqiqatni yo tushunmaydi yoki tan olgisi kelmaydi”. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda siyosiy partiyalar faoliyatidan, tutgan pozitsiyasidan qoniqmaslik, hatto ularning mavjudligi, tadbirlari va dasturlari bilan qiziqmaslik keng tarqalgan. Siyosatshunos Sh. Mamadaliyevning ma’lumot berishicha, “O‘zbekistonda tashkil etilgan siyosiy partiyalarning dasturlaridan xabardormisiz?”, degan savolga respondentlarning 71,8% – “yo‘q”, 21,2% – “yaxshi emas”, atigi 6,2% – “ha” deb javob bergan. “Yo‘q” deb javob berganlarning 80% ga yaqinini 35 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etgan. Demak, biroz bo‘lsa-da, salbiy xulosalarga kelish mumkin. Hozirgi yoshlar tushunchasida siyosiy partiyalar o‘z mavqeyiga, obro‘yiga ega emas yoki ularning nima bilan shug‘ullanishi ularni qiziktirmaydi. 35 yoshgacha bo‘lganlarning atigi 2,8% u yoki bu partiya tadbirlaridan, dasturlaridan xabardor ekanligini aytganlar.

Siyosiy partiyalarni faollashtirish ulardagi ayrim nuqsonlarni bartaraf qilishni taqozo etadi. Siyosiy partiyalarda ichki demokratiya hali keng rivoj topmadi. Bahs-munozara ular hayotining asosiy mezoniga aylanmagan. Xuddi shuningdek, partiyalararo bahslar ham kuzatilmayapti. Parlamentga saylangan partiya yetakchilari, faollari kelgusi saylovgacha partiya ichki faoliyatini jonlantirishga emas, balki erishgan mandatini, lavozimini saqlab qolishga intiladilar, xolos. Natijada partiya hayoti mo‘rt bo‘lib qolishga majbur. Demak, partiyalarda ichki demokratiya va hurfiylikni, partiyalararo bahsni, munozarani, o‘zini o‘zi tanqidni shakllantirish mexanizmlarini yaratish zarur. O‘zbekistonda odamlarni siyosiy muammolardan ham ko‘ra ko‘proq o‘tish davrining iqtisodiy muammolari tashvishlantiradi. Zotan, 90-yillarning boshida aholining turmush darajasi ancha pasaydi. Iqtisodiy islohotlar ijtimoiy yo‘naltirilgan holda bo‘lsa-da, evolyutsiya yo‘li bilan amalga oshirilgan aholining boqimandalik kayfiyatlari kuchli bo‘lgan, eskicha ishlashga o‘rganib qolgan qismiga, ayniqsa, zamonga moslashuvchanlik darajasi yoshlarga qaraganda ancha past bo‘lgan katta avlod vakillariga muayyan qiyinchiliklar tug‘dirdi. Mamlakatimizda demokratiyaning shakllanishi bilan bog‘liq qiyinchiliklar ko‘p jihatdan demokratik tipga mansub real siyosiy madaniyatning sustligi bilan izohlanadi. Zero, bir qator mansabdor shaxslar va oddiy fuqarolar, ba‘zan o‘zlari sezmagan holda, eski siyosiy madaniyat imperativlari bilan fikrlaydilar va harakat qiladilar. O‘zbekiston yana ma’lum vaqt mobaynida sovet siyosiy madaniyatining muayyan ta’sirini o‘zida his etadi deb hisoblash uchun ayrim asoslar mavjud. Shunga qaramay, bugungi O‘zbekistonda siyosiy madaniyatning muayyan o‘ziga xos tipi mavjud va uni o‘rganish bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borilmoqda.

Tadqiqotlarda ilgari surilayotgan farazlarda va ayrim boshqa jihatlarda mavjud tafovutlarga qaramay, ularning barchasi bir narsada yakdil: hozirda O‘zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Bunda OAV va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni yuqori, milliy televideniyaning o‘rni kamroq ko‘rinadi, nazarimizda.

Respublikada G'arb demokratiyasiga xos bo'lgan prinsiplar: saylab qo'yiladigan prezident va parlament, siyosiy partiyalarning xilma-xilligi, erkin matbuot va hokazolarga asoslangan yangi siyosiy tizim vujudga keldi. Ammo O'zbekistonning siyosiy hayotida ko'p narsalar "taraqqiy etgan" G'arb jamiyatlaridagidan boshqacha sodir bo'lgan va sodir bo'lmoqda. Bu tabiiy holdir. O'tkazilgan tadqiqotlar ko'pgina fuqarolar "demokratiya" tushunchasining mazmuni haqida aniq tasavvurga ega emasligini ko'rsatadi. Ammo mamlakatimiz fuqarolarining tub qadriyatlari G'arb mamlakatlari fuqarolariniki bilan bir xil (tenglik, adolat, erkinlik va hokazo).

O'zbekiston fuqarolarining mutlaq ko'pchiligi hozirgi kunda saylovda ovoz berishni siyosatchilarga nisbatan o'z munosabatini ifoda etishning yagona usuli, deb biladi. Siyosiy madaniyatni o'zgartirishdagi qiyinchilik respublika aholisining madaniy-tarixiy mentalitetini o'zgartirish zarurligi bilan bog'liq. Demokratik institutlar, demokratiya amaliyoti jamiyatimizda chuqur ildiz otishiga hali bor. Bunga mamlakatdagi rahbar doiralar va oddiy xalqning bahamjihat harakati bilan erishiladi. Bularning barchasi katta mehnatni, irodani, vaqtni va muayyan tajriba to'planishini talab etadi.

Shunday qilib, O'zbekistonning o'tish davridagi siyosiy madaniyatini klassik "fuqarolar" madaniyatiga ham, "ishtirokchilik" madaniyatiga ham mansub, deb bo'lmaydi. Chunki bunday qarashlar jamiyatimizda hali keng tarqalgani yo'q, ammo ularning ilk kurtaklari hozirgi kunda nishona bermoqda.

3.5.2. Yangicha siyosiy madaniyatni shakllantirishning asosiy omillari, yo'llari va usullari

O'zbekistonda siyosiy madaniyatning rivojlanishiga doir bashoratlarni ilmiy adabiyotda asosan XX asrning 90-yillari boshida, mamlakatimiz qaysi yo'ldan borishi hali konseptual darajada ishlab chiqilmagan, siyosiy va huquqiy jihatdan tegishli tadbirlar va hujjatlar bilan rasmiylashtirilmagan davridayoq qilingan edi. O'sha vaqtda ko'plab tadqiqotlarning mualliflari "demokratik" siyosiy madaniyat

shakllanishi uchun xalq “uning uchun an’anaviy qadriyatlari bilan ma’lum darajada hamohang bo’lgan” yangi qadriyatlar va qarashlarni qabul qilishi kerakligini qayd etgan edilar.

O‘zbekistonda yangi siyosiy madaniyat to‘rt manbadan tarkib topishi tavsiya etiladi:

- siyosiy amaliyot (yangi tajriba, an’analar va h.k.);
- chet el tajribasini o‘zlashtirish;
- sovet davridan qolgan ijobiy meros;
- o‘ziga xos tarixiy madaniyatni tiklash.

Ammo O‘zbekiston siyosiy madaniyati qanday ko‘rinishga ega bo‘ladi, u AQSh va Buyuk Britaniyada hukm surayotgan “fuqarolar madaniyati”ni esga soladimi yoki hech qaysi madaniyatga o‘xshamaydigan, sof o‘zbekona hodisa bo‘ladimi, degan savolga hech kim aniq javob bera olmadi. Hozirgi vaqtda mamlakat siyosiy madaniyati o‘ziga xos yo‘nalishda rivojlanishga moyil, deb komil ishonch bilan ayta olamiz. Shu tariqa, biz ko‘pgina davlatlar e’tirof etgan taraqqiyotning o‘zbek modeli mavjudligi va ishlaganini qayd etishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. A. Karimov davlatimiz tashqi siyosatining oltita asosiy prinsipini aniq ko‘rsatib bergan edi¹:

1) o‘z milliy davlat manfaatlarini ustuvor qo‘ygan holda, o‘zaro manfaatlarni jahon miqyosida e’tiborga olish;

2) tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash; mojarolarni tinch yo‘llar bilan hal qilish; mamlakatning yadro zonasisiz qolishi; inson huquqlarini muhofaza qilish, bahsli masalalarni hal qilishda kuch ishlatishdan va kuch ishlatish bilan tahdid solishdan voz kechish;

3) teng huquqlilik, o‘zaro manfaatdorlik va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

4) tashqi siyosatda ochiqlik, mafkuraviy qarashlardan xolilik prinsipi;

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura.1 jild. –T.: O‘zbekiston, 1996. – B. 310.

5) xalqaro huquq normalari davlatning ichki huquqi normalaridan ustunligini tan olish;

6) ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatish hamda ularni rivojlantirish.

Har bir mamlakatning siyosiy madaniyati o'zining o'tmishdagi madaniyatlari va boshqa mamlakatlarning madaniyatlari ta'sirini his qilishi, shubhasiz. Ammo bunda O'zbekiston o'zining shakllanish jarayonida, hozirgi kunda va yaqin kelajakda, o'z tarixiy madaniy qadriyatlari durdonalaridan, sobiq sovet tuzumi merosidan va G'arb mamlakatlarining siyosiy madaniyatlari namunalaridan faqat eng yaxshi jihatlari oqilona jamlab oldi, deb ayta olamiz.

U yoki bu mamlakatda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonga siyosiy madaniyatning xususiyati ta'sir ko'rsatishi, har xil guruhlarining manfaatlarini muvofiqlashtirish va siyosiy barqarorlikni ta'minlash ehtimolini oshirishi yoki kamaytirishi shubhasiz. O'zbekiston bilan bog'liq holatda siyosiy madaniyat, uning mavjud siyosiy voqelikka muvofiqligi muammosi dolzarb, zotan, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar aholining siyosiy qarashlari yangilanishiga turtki berishi lozim. Mazkur shart bajarilmagan taqdirda, odamlarni siyosatdan uzoqlashtiruvchi siyosiy madaniyat shakllanadi va bu fuqarolarning ijtimoiylashuvini susaytiradi.

Bu o'rinda siyosiy madaniyatdagi o'zgarishlarga davlat izchil ta'sir ko'rsatishi mumkinmi, agar mumkin bo'lsa, davlat siyosiy madaniyatdagi o'zgarishlarga qanday vositalar yordamida ta'sir ko'rsatadi, degan haqli savol tug'iladi. Siyosiy madaniyatni shakllantiruvchi omillar va subyektlarning tahlili, umuman olganda, ularning sxemasi ma'lum qarashlar va qadriyatlarning o'zgarishi sodir bo'ladigan ijtimoiylashish jarayoni mexanizmiga mos keladi, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. Bizni ko'proq qiziqtiradigan jamoaviy ijtimoiylashishning quyidagi shakllari farqlanadi:

- an'anaviy (madaniyatni an'analar orqali o'tkazish); safarbar etuvchi (tashqi, favqulodda omillar ta'sirida sodir bo'ladi);

-modernizatsion (madaniyatni o'zgartirishning an'anaviy mexanizmlari ta'sir qilmaydigan jamiyatlarda mavjud bo'ladi);

- o'tish shakli (an'anaviy mexanizmlardan — modernizatsion shakllarga o'tish).

Jamiyatimiz ijtimoiylashish jarayonida madaniy an'analardan ham ko'ra ko'proq madaniyatdagi yangiliklar yetakchi o'rin tutadigan modernizatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. Bunda ikkilamchi ijtimoiylashishning ta'siri kuchayadi, uni amalga oshirishda an'anaviy institutlar inqirozga uchragan sharoitlarda har xil innovatsion vositalar, shu jumladan ularning eng ta'sirchani — televideniye yetakchi o'rin egallay boshlaydi. Fan-texnika inqilobi jarayonida u, aslida, birlamchi ijtimoiylashish omiliga ham aylanadi va shaxs madaniyatining rivojlanishiga uning shakllanishining dastlabki bosqichlaridayoq ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning bir qismi sifatida tarixiy tajriba to'planishiga qarab rivojlanib boradi. Ronald Inglsartning fikricha, "...madaniyat – o'zgaras mezon emas. Madaniyat shunday bir tizimki, jamiyat mazkur tizim yordamida atrof muhitga moslashadi. Agar atrof muhit o'zgarsa, ma'lum vaqtdan so'ng madaniyat ham o'zgarishi mumkin". "Yangi" demokratik mamlakatlardagina emas, "eski" demokratik mamlakatlarda ham madaniyat vaqti-vaqti bilan o'zini o'zi yangilab turadi. Har qanday madaniyat odamlar siyosiy ongi va xulq atvorining yangi va an'anaviy elementlarini o'zida mujassamlashtiradi. Uning mana shu xossasi jamiyatga yutuqlarni to'plab borish va atrof muhitdagi o'zgarishlar moslashish qobiliyatini takomillashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham siyosiy madaniyatning an'anaviy va yangi elementlarining o'zaro ta'siri muammosi jahonning barcha mamlakatlarida mavjud.

XXI asrda iqtisodning rivojlanishi va jadal o'sishi hisobiga O'zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyati ijobiy tomonga o'zgarib borsa, unda "ishtirokchilik" elementlari yetakchilik qiluvchi "fuqarolik" madaniyatiga o'tadi. Ammo hozirgi kunda O'zbekiston fuqarolarining siyosiy madaniyati, klassik tipologiyaga ko'ra, aralash tipga mansub.

Bir tomondan, xalq saylov jarayonlarida faol ishtirok etadi (respublikada o‘tkaziladigan saylovlarda o‘rta hisobda ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan mamlakat aholisining 90-92% qatnashadi), ammo, boshqa tomondan, odamlarda “aynan mening ovozim” umumiy natijada hech narsani hal qilmaydi, degan qarash ham ancha keng tarqalgan.

Shunday qilib, fuqarolarning faolligi haqida faqat shaxsiy kuzatishlarga asosan hukm chiqarish qiyin. O‘zbekistonda siyosiy madaniyatni rivojlantirish yo‘llari haqida ishonch bilan so‘z yuritish uchun yuqorida zikr etilgan masala yuzasidan ancha keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.



2-rasm. Siyosiy madaniyatni shakllantirish modeli

O‘zbekiston qaysi yo‘ldan borishi kerak, degan bahslar hali nihoyasiga yetgani yo‘q, ammo shuni aniqlik bilan aytish mumkin, Prezidentimiz qayd etib

o‘tganidek, bizni tanlagan yo‘limizdan ortga qaytarib bo‘lmaydi. Demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘li yagona to‘g‘ri yo‘ldir. Bu yo‘nalishda siyosiy madaniyat alohida ahamiyatga ega, zotan u omma va alohida shaxslarning siyosiy xulq-atvori nazariyasi va amaliyotini, siyosiy an‘analari va hodisalarni, siyosiy psixologiya va ongi rivojini belgilaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonning yangilanish jarayonlarini boshdan kechirayotgani yuqorida zikr etilgan masalalar yuzasidan uzil-kesil xulosa chiqarish imkonini bermaydi. Bunday xulosalarni faqat mazkur jarayonlar nihoyasiga yetib, respublikada yashayotgan odamlarning mutlaq ko‘pchiligi oyoqlari tagida mustahkam zaminni his qila boshlaganidan so‘ng chiqarish mumkin. Bu borada XXI asr to‘lma‘noda mamlakatimizning yuksalish davri bo‘lishi lozim.

3.5.3. Jamiyat siyosiy madaniyatini oshirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni

Jamiyat siyosiy madaniyatini yuksaltirishda milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtarakligini sezish kerak. Milliy qadriyatlar dunyoviy taraqqiyot tamoyillaridan orqada qolmasligiga e‘tiborni qaratish davr talabidir. Jahon tajribasidagi umuminsoniy demokratik qadriyatlarning mohiyatini tahlil qila borish va hayotga tatbiq eta borish milliy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam berishini unutmaslik har bir yuksalish ma‘naviyatli shaxsni diqqat e‘tiborida turishi talab etiladi. Buning uchun har bir shaxsning, fuqaroning siyosiy madaniyatini takomillashtirish, dunyoviy muammolarni to‘g‘ri tushunishga yetaklash kun tartibiga quyiladi.

Jamiyat inqirozga yuz tutganda mutafakkir-u donishmandlar, shuningdek, bir tizimdan ikkinchisiga o‘tishda davlat yetakchilarining qadriyat masalasini jiddiy tarzda maydonga tashlashi ham elni boshqarish zaruratidan kelib chiqqan. Masalan, eramizdan oldin Afina demokratiyasi inqirozga uchraganida yunon faylasuflari qadriyat masalasini ko‘targan edi. Ular ijtimoiy-siyosiy, huquqiy tafakkur tarixida birinchi bor “Inson-oliy qadriyat”, deb ko‘rsatdi, olamdagi barcha jihatlarni “insoniylik mezonini” bilan o‘lchashni targ‘ib etdi.

Buyuk mutafakkir Suqrot esa “qadriyat nima degan savolga” “har bir insonning o‘zligini anglashi” deb javob bergan. Ijtimoiy tafakkur rivojida qadriyatlarning jamiyatni boshqarishdagi o‘rniga oid nuqtayi nazarlar qadimgi yunon faylasuflari Aristotel va Epikur asarlarida ham uchraydi. Bunday qarashlar bugungi kunda ham bir qator xalqaro tashkilotlar hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Bu borada Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy asarlarida ham qimmatli fikrlar bildirilgan.

Qadimgi grek va o‘rta asr Sharq mutafakkirlari ma’naviyatli va axloqli insonning jamiyat rivojidagi o‘rnini yuksak baholaydi: “Ezgulikni kasb etgan inson hech kimga zarar yetkazmaydi, aksincha, ezgulikdan uzoq inson eng gunohkor va yovvoyi mavjudotdir, jinsiy lazzatlanish va yeb-ichishga nisbatan u har qanday hayvondan ham tubandir. Axir, turli hayvonlardan inson ezgulik va yovuzlik, adolatlilik va adolatsizlik kabilarni idrok etishi bilan farqlanadi”.

Ma’naviyatni umuminsoniy qadriyatlarning eng oliy maqomi sifatida tarannum etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiydir. U “Hayratul-abror” asarida ma’naviyatli insonni kuyidagicha tasavvur qilgan: “Sen insonlarga foyda yetkazishni o‘zingga shior etding; shundan keladigan nafni o‘zingga yor aylading. Sening xalqqa ko‘rsatgan foydang shak-shubhasizdir; lekin bilib qo‘yki, bundan o‘zingga tegadigan naf ko‘proqdir. Kimki boshqalarga zarar yetkazishni odat qilsa, bundan elga emas, avvalo o‘ziga jabr etgan bo‘ladi. Kimning xalq g‘amidin g‘ami bo‘lmasa, haqiqiy odam bo‘lsang, uni odam dema”¹.

Insoniyatning jamiyatga uyushib yashashi, kishilarning o‘zaro hamkorligi, jamiyat hayotining barqarorligi va farovonligini ta’minlashning ichki manba ham ma’naviylik, xam ma’rifiylikdir. Ma’naviy boylik chegara bilmaydi, millatni tan olmaydi, u qaysi mamlakat yoki jamiyatda bo‘lmasin, bu o‘sha joydagi ma’naviy komil insonlar mulkidir.

¹ Alisher Navoiy. Hayratul-abror. –T.: G‘.G‘ulom, 1989. – B. 95.

Umuminsoniy qadriyatlar qaysi hududda rivojlangan bo'lsa, o'sha joyda ma'naviyatning unib-o'sishi uchun muhit, har tomonlama shart-sharoitlar tug'iladi. Lev Tolstoy ma'naviy boy va ma'naviy qashshoq odamni shunday ta'riflagan edi: "Eng yaxshi odam — o'z fikri va o'zgalar his-tuyg'ulari bilan yashayotganidir, insonning eng past toifasi esa — o'zgalar fikri va his-tuyg'ulari bilan yashayotganidir".

Mashhur adib Chingiz Aytmatov ma'naviy qadriyatlarni quyidagicha baholaydi: "Insoniyat ideallari yutuqlari sifatidagi modellarda bizning ijtimoiy tuzumimizni xarakterlaydigan ma'naviy prinsiplarning bahridan o'tmasligimiz lozim. Bu prinsiplar ichida eng asosiylari — jamiyat farovonligi yo'lidagi halol mehnat, kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlar va o'zaro hurmat, halollik va haqgo'ylik, adolatsizlik bilan kelishmaslik kabilardir. Aslida, bular diyonatning tarkiblari bo'lib, o'z o'rnida, diyonat fuqaroviylikni harakatga keltiruvchi kuchdir... Ma'naviyat — bu inson uchun dastlabki va eng asosiy mavjudlik qonunidir. Uni har bir avlod, har bir individ o'tmish ajdodlarning muqaddas va buzilmas merosi sifatida qabul qiladilar"¹.

Adolatli va fozil jamiyat qurish uchun davlat boshqaruvi, hokimiyat va siyosat ma'naviy qadriyatlar asosida qurilmog'i va faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Shuning uchun xam hozirgi davrga kelib siyosat bilan ma'naviy qadriyatlarning uyg'unlashuvi umuminsoniy qadriyatlar talablaridan biriga aylandi.

Shu bilan birga, ma'naviyat faqat merosiy, tarixiy va an'anaviy qadriyat emas, balki doimo rivojlanib, takomillashib, yangi hayot tarzi bilan uyg'unlashib boruvchi voqelikdir. Aksariyat olimlar ma'naviyatga doir o'z izlanishlarini faqat o'tmish bilan cheklaydilar, hozirgi kunning dolzarb maqsad va vazifalari bilan bog'lamaydilar. Har bir nazariy izlanish bugungi kun amaliy hayoti talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqqandagina, u yanada rivojlanish va islohotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini hayotga tatbiq etish bilan hamohang tarzda bozor

¹ <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/insonparvar-adib>

iqtisodiyotiga o'tish, demokratik qadriyatlarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, shaxs erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, ko'ppartiyaviylik tizimini demokratik me'yorlar asosida takomillashtirish kabi yangidan-yangi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi.

Yangi jamiyat qurishdagi bu omillarning barchasi umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi nazaridan qaraganda ko'proq ma'naviyatga yaqin mezonlardir. Har bir millatning turli tabaqalari o'rtasida qadriyatlar rivojlanishi va amal qilishda milliy ong, milliy birdamlik tuyg'usining ahamiyati kattadir. Milliy qiyofa va ma'naviyatdan mahrum bo'lgan kishilar boshqa millatlar madaniyati ta'siriga tez berilishi, o'z tili, tarixi an'alariga esa nigilistik munosabatda bo'lishi mumkin. Agar shunday ahvol ma'lum siyosat ta'sirida kengayib borsa, millat birligi va kamoloti uchun nihoyatda xatarli bir hol yuzaga keladi. Albatta, agar har bir millat o'z milliy qadriyatlari qobig'ida o'ralashib qolsa, shu millatning taraqqiyotiga putur yetadi. Milliy mahdudlik va kalondimog'lik hech vaqt ma'naviy kamolot omili bo'lgan emas. Boshqa millatlarning madaniyati, qadriyatlarini o'rganish hamma vaqt ham taraqqiyotning omillaridan biri bo'lib kelgan.

Ma'naviyat insonning o'z erkinligini his etishi, mutelik ruhiyatidan poklanishi, millat, jamiyat va o'z Vataniga nisbatan muhabbat va ezgulikka erishish kafolati hamdir. Faqat ma'naviyatli inson o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan past qo'ya oladi. Inson jamoa, millat va davlat manfaatlarini ifoda etish va qondirish uchun faollik ko'rsata olsa, o'zining ham manfaatlarini anglashda ma'naviyatlilik darajasi yuksalib boraveradi. Haqiqiy barkamol va ma'naviyatli insonda jamiyatdagi barcha manfaatlar va ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga intilish, bu faoliyatni u xuddi o'zining umri mazmunidek his qilish xarakteri shakllanadi.

Siyosiy madaniyat – ijtimoiy hayotning hali lozim darajada atroflicha o'rganilmagan elementlaridan biri. Siyosiy madaniyat amal qilishining fiziologik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlari ilmiy adabiyotlarda to'laqonli o'rganilmagan va yoritib berilmagan. Siyosiy

madaniyatni belgilovchi inson ruhiyatining kam o'rganilgan va hali noma'lum bo'lgan xossalari va tomonlari, masalan, onglilik va ongsizlik, mantiqiylik va intuitivlikning o'zaro nisbati muammolari mavjud.

Siyosiy madaniyat – bu shaxs o'z ijodiy niyatlari va ularni amalga tatbiq etish shakllarining rang-barangligi orqali yaxlit namoyon bo'lishidir. Siyosiy madaniyatning o'zgarishiga tafakkur inersiyasiga barham berish kuchli ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy madaniyatning rang-barangligi ikki holat: tarixiy sharoitlar va ijtimoiy omillar bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'tmish, hozirgi zamon va kelajakni uyg'unlashtiruvchi qadriyatlar tizimi biz qurayotgan demokratik jamiyatning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelajak avlodni tarbiyalash, ularda milliy iftixor, ona Vatanga mehr-muhabbat tuyg'ularini singdirish va yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim. O'tmishga berilgan baho albatta xolisona, eng muhimi, turli mafkuraviy qarashlardan holi bo'lishi zarur.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin o'tgan davrda yoshlar ehtiyojlari davlatimiz siyosatidagi eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Yoshlarning ta'lim olishi, ish bilan ta'minlanishi va intellektual jihatdan o'sib-ulg'ayishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari borasida quyidagi vazifalarni belgilab bergan edi: "Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarga, o'z mustaqil fikrlariga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir"¹.

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston 2017. – B. 88-89.

Bugungi kunda yoshlar siyosiy madaniyati shakllanishining obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari fan va texnika taraqqiyotining ta'siri ostida o'zgarib, takomillashib bormoqda. Ma'lumki, har qanday davrdagi jamiyatning ijtimoiy tuzumi va siyosiy tizimi yoshlar siyosiy madaniyatini oshirishning muhim obyektiv shart-sharoiti hisoblanadi.

XOTIMA

Ushbu kitob so‘nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan murakkab inqilobiy o‘zgarishlar, geosiyosiy qadriyatlarning keskinlashuvi, globallashtirish sharoitida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini egallashga tahdidlar kuchaygan sharoitda yozildi. Buni yozishdan asosiy maqsad yoshlarning ana shu voqea-hodisalardan boxabar etish, siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylantirish va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shadigan farzandlar qilib yetishtirishga hissa qo‘shishdan iborat. Bu borada qiladigan ishlarimiz ko‘p.

Birinchidan, yoshlarimizning siyosiy ijtimoiylashuvi, jamiyatimizda kechayotgan islohotlarga daxldorlik hissini uyg‘otish, ikkinchidan, oila -mahalla-ijtimoiy institutlar, shuningdek, jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tuzilmalarning faoliyatida yoshlar siyosiy dunyoqarashini shakllantirish, uchinchidan, yoshlarning fuqarolik madaniyatini yuksaltirish, to‘rtinchidan, ta‘lim tizimida yoshlarning mafkuraviy-ma‘rifiy madaniyatini takomillashtirishga e‘tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Ayni paytda, O‘zbekiston keng imkoniyatlar mamlakati. Bu imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish taraqqiyot strategiyasining asosiy vazifalaridan biridir. Shu masalada yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirishga bee‘tibor bo‘lish, ularning turli g‘arazli maqsadlarni ko‘zlayotgan kuchlar va oqimlar ta‘siriga tushib qolishiga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, siyosiy beqarorlik uchun xatarli xavf-xatar hisoblanadi. Yoshlar siyosiy madaniyatining barqaror rivojlanishi mamlakatimizda siyosiy barqarorlikning yanada mustahkam bo‘lishiga va yoshlarimizning siyosiy ongida bunyodkorlik ruhiyatining taraqqiy qilishida amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Eng muhimi shuki, O‘zbekistonning kelajagiga ishonch yoshlarimizning qat’iy ma‘naviy e‘tiqodiga aylanib bormoqda.

Agar yuqoridagi ustuvor yo‘nalishlar rivojiga ushbu monografiyada tilga olingan ilmiy ko‘rsatmalar, tavsiyalar va takliflarimiz xizmat qilsa, behad xursand bo‘lardik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Rahbar adabiyotlar

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2023.
- Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017.
- Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: O'zbekiston, 2018.
- Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: O'zbekiston, 2019.
- Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 2020.
- Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021.
- Karimov I.A. Erishgan marralar bilan chegaralanmasdan, boshlagan islohotlarimizni yangi bosqichga ko'tarish – bugungi kundagi eng dolzarb vazifamizdir 23-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. -395 b.
- Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 135-136..
- Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'uldirmiz. – T. 9. T.: O'zbekiston. –B. 317-318.

Asosiy manbalar

- Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. / Abdusodiq Irisov tarjimasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 320 b.
- Almond G. A. Grajdanskaya kultura. Podxod k izucheniyu politicheskoy kulturi / G. A. Almond, S. Verba // Politiya. – 2010. – № 2 (57). – S. 122-144.
- Alisher Navoiy. Hayratul-abror. –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. – B. 95.
- Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: Ilm -Ziyo-Zakovat, 2020. – 144 b.
- Antologiya mirovoy politicheskoy misli. V 5-ti tomax. T. 2. Zarubejnaya politicheskaya misl XX v. – M., 1997. – S. 601.

- Aristotel. Politika / perevodchik S.A.Jebelyov; pod obshey red.
A. I. Dovatura. – Moskva: Yurayt, 2019. –297 s
- Aflotun. Davlat / Tarjimon: Urfon Otajon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – 464 b.
- Ashirov A. O‘zbek milliy mentaliteti haqida ba’zi mulohazalar.”O‘zbek xalqining kelib chiqishi: ilmiy-metodologik yondashuvlar, etnogenetik va etnik tarix”. Toshkent-2004, 78-bet.
- Vatan tuyg‘usi / Mas’ul muharrirlar B. Omonov, K. Bo‘ronov. – T., O‘zbekiston, 1996. — B. 115.
- Veber M. Politika kak prizvanie i professiya. / Perevod s nemeskogo i vstupitelnaya statya A. F. Filippova. – M.: Ripol Klassik, 2018.
- Gilinskiy Ya.I. Globalizatsiya, deviantnost, obshestvenniy kontrol / Ya. I. Gilinskiy. — SPb.: DEAN, 2009.
- Grinin L.E. Globalizatsiya i natsionalni suverenitet // Istoriya i suverenitet, 2005. – №1. – C. 8.
- Grushin B.A. Mneniya o mire i mir mneniy. – M.: Praksis, 2011. – S. 546.
- Jabborov R. Ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy targ‘ibot: tavsif, tahlil va tavsiyalar.<https://huquqburch.uz/uz/izhtimoiy-tarmo%D2%9Blarda-%>
- Zokirov B. Globallashuv ziddiyatlari // Tafakkur, 2004. – №1. – B. 26-27.
- Kant I. Metafizicheskiye nachala ucheniya o prave // Sbor.soch. – M.: Misl, 1966. T. 4 (2). –S. 109-112.
- Lansov S.A. Politologiya. 2-ye izd., ispr. i dop. / Uchebnik dlya vuzov. – Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2020.454 s.
- Legoyda V.R. Grajdanskaya religiya SShA: nekotore simvol i ritual //Politiya, 1999. № 4. -S. 28.
- Makiavelli N. Hukmdor. / Abu Muslim tarjiması. – Toshkent: Davr-Press, 2019. – 144 b.
- Malleva E.M. “Fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari” siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –T., 2020.
- Malaxov V. S. Natsionalizm kak politicheskaya ideologiya / V. S. Moxov. — M., 2005.

Mamut L.S. Etatizm i anarxizm kak tipi politicheskogo soznaniya. Domarksistskiy period –M., 1989. –S .42.

Mametova M. O‘zA. Poytaxtimizda Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil institutining O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan an’anaviy konferensiya. 2016-yil. 14 sentyabr. www.minjust.uz.

Minchenya Y.A.. Sotsiologiya molodeji. GUVPO Belorussko-Rossiyskiy universitet. –Mogilev: 2017. S.8.

Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug‘at. T.: Sharq, 1998. 191-bet.

Muhammadiyev U. O‘zbekistonda siyosiy madaniyat va milliy ma’naviyatning o‘zaro munosabati muammosi. Siyo. fan. nom. dis. avtoref. –T.: 2002. – B. 25.

Nizomulmulk. Siyosatnoma. T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 256 b.

Norqulova N. Shaxs ijtimoiy xulqi va affiliatsiyasi motivatsiyasi diagnostikasi. –T.: TDPU nashriyoti, 2017. –B. 34.

Odilqoriyev X. T., G‘oyibnazarov Sh. R. Siyosiy madaniyat. – T.: IIV akademiyasi, 2004. –B. 85-90.

Otamuratov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik. - T. O‘zbekiston, 2013. – 456 b.

Otamuratov S. Yangilanayotgan O‘zbekiston ijtimoiy-innovatsion jarayonlarida yoshlar faoliyati. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021. — B. 200-201.

Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. Toshkent, Aloqachi, 2019. 6-7, 14-15 b.

Meleshkina Ye, Yu., Tolpigina O.A. Politicheskaya kultura// Politicheskii protsess: osnovnie aspekti i sposobi analiza: Sbornik uchebnix materialov – M.:, 2001.

Odilqoriyev H.T., G‘oyibnazarov Sh.G‘. Siyosiy madaniyat. O‘zbekiston IIV Akademiyasi – T.: 2004.

Otamuratov S. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish omillari. – T.: O‘zbekiston, 2015.

Pivovarov Yu.S. Politicheskaya kultura: Metodolog. ocherk. INION RAN. – M.: 1996.

Politicheskaya kultura: uchebnoe posobie / G. L. Tulchinskiy i dr. – M.: Yurayt, 2015. – 324 s.

Politicheskaya kultura. V 2 ch. Chast 2. Strani Vostoka: ucheb. posobie dlya akademicheskogo bakalavriata / Yu.V. Irxin. – 2-ye izd. ispr. i dop. – M.: Yurayt, 2017. – 242 s.

Politicheskaya kultura: ucheb. posobie dlya akademicheskogo bakalavriata / A.S. Panachyova. – 2-ye izd. ispr. i dop. – M.: Yurayt, 2017. – 292 s.

Parsons C. Introduction to Political Science. Textbook. Pearson. USA, 2017.

Paxrutdinov Sh. Tahdid–halokatli kuch.–T.: Akademiya, 2001. –B. 155.

Paxrutdinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. T.: Akademiya, 2006. – B. 88-90.

Politicheskaya identichnost i politika identichnosti : v 2 t. / otv. red. I. S. Semenenko. – M. : Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya, 2012.

Politicheskaya psixologiya: uchebnik dlya bakalavrov / A.A. Derkach, L.G. Laptev. – 2-ye izd. – M.: Yurayt, 2015. – 591 s.

Politologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: Abdulla Qodiriy, 2002. 178-bet.

Pugachev V., Solovev A. Siyosatshunoslikka kirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 436-437.

Ro‘zioxunov A. Tabiiy savol: nega xalqaro tashkilotlar O‘zbekistonni korrupsiya botqog‘ida ko‘rmoqda. www.kun.uz

Cumerki globalizatsii: Nastolnaya kniga antiglobalista. Avtor-sostavitel A.Ashkerov. – M.: OOO “ACT”, 2004. – C. 48.

Tulenov J. Hayot falsafasi. — T., O‘zbekiston, 1993. -B. 112.

Tuychiyev B. T. Politicheskaya kultura i demokratizatsiya obshestva. –T.: Universitet, 2011. — S. 82.

Tuychiyev B.T. Sotsialnaya filosofiya. T.: Universitet, 2015. S. 292.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risidagi” 439-II-son qonuni. 12.12.2002-y. <https://www.lex.uz/acts/52268>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. [www. Lex. uz](http://www.lex.uz)

Umumiy sotsiologiya. O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 1999. – B. 75.

Xrox M. Ot natsionalnix dvijenny k polnostyu sformirovivsheysya natsii: protsess stroitelstva natsiy v Yevrope // Natsii i natsionalizm. –M: Praksis, 2002. –S. 121-145.

Xobsbaum E. Prinsip etnicheskoy prinadlejnosti i natsionalizm v sovremennoy Yevrope // // Natsii i natsionalizm. –M: Praksis, 2002.–S. 332-346.

Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2013. – 379, 387.

Qosimova N. Onlayn jurnalistika. Darslik. T.: 2019.– 184 b.

Qosimova N. Internet jurnalistikaning texnologik asoslari. T.: 2012. – B. 54-55 b.

Qodirov A. Siyosat falsafasi. –T.: TDYuI, 2005. – B. 115.

Falsafa Qomusiy lug‘at. T.: Sharq, 2004. 365-b.

Xarrison L. Glavnaya istina liberalizma: Kak politika mojet izmenit kulturu i spasti yee ot samoy sebya / L. Xarrison. - M. : Novoe izd-vo, 2008.

Sharp D. Ot diktaturi k demokratii. Strategiya i taktika osvobojdeniya / D. Sharp. - M. : Novoe izd-vo, 2012.

Shemanov A. Yu. Samoidentifikatsiya cheloveka i kultura / A. Yu. Shemanov. - M., 2007.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Tarjimon: Abduhamid Parda. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2018. – 556 b.

Yusupov E., Yusupov O‘. Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyoti. - Xo‘jand, 1996. — B. 65.

Ingliz tilida

Almond Gabriel A., Sidney Verba. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton University Press, 1963. – R.574.

White L. The science about culture. -Washington, 1943. — R. 21.

Eisenstadt S.N. Modernization: Protest and Change. –Englewood Cliffs. – N.Y., 1966. –P.28.

Tuychiev B. Political culture. Monography. – New York, 2019. R. 59.

Uzbekistan and Central Asia – Sentr politicheskix issledovaniy. Informatsionno-analiticheskiy byulleten, 2007. IX. – C. 42.

Habermas J. Postmetaphysical Thinking.–Cambridge: Polity, 1992.– pp. 127-132.

Kellner D. Critical Theory, Marxism and Modernity. – Cambridge: Polity, 1989. – p. 64.

Pye L.W., Verba S. Political Culture and Political Development.– Princeton, 1965.–p. 13.

Moore J. Colonialism: The case of Mexican-Americans. in Social Problems, 1970, Nr.17. –p. 463-472; Capitalism over the Longue Duree: A Review Essay.In: CriticalSociology, 1997, Nr. 23 (3). – p. 103–116.

Eckstein H. The Idea of Political Development: From Dignity to Efficiency. in: World Politics, 1982, NY. 34. – p. 451-486.

Internet manbalari

www.president.uz – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti

www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

www.natlib.uz – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

www.ziyonet.uz – Ta’lim portali.

www.ziyouz.uz – Fan va ta’lim portali

Jeyms Barns. Sotsialnaya set (Sotsiologiya).
<https://ru.wikipedia.org/wiki/>

Ijtimoiy davlat deganda nimani tushunamiz? 14.06.2022.
<https://darakchi.uz/uz/146657>

<https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-matbuot-va-ommaviy-axborot-vositalari> Xabar. 27.06.2023.

<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A2%D0%B8%D0%BF%D0%BE%D0%BB%D0%> Tipologiya kulturi Pitirima Sorokina.

<https://www.oyina.uz/kiril/teahause/2017> Milliy ong.
<https://kun.uz/news/2023/09/26/mahalla-yettiligi-tashkil-etiladi-mahalla-raisi-vakolatlari-kengaytiriladi>
 Programmi YUNESKO “Informatsiya dlya vsekh” /
<http://www.unesco.org/webworld/ifap>; www.ifar.ru
https://www.arendator.ru/articles/157134-facebook_mdash_odna_iz_samyh_populyarnyh_socialnyh_setej_v_mire
 Inson qadri, halollik standartlari, pragmatik tashqi siyosat. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 100 maqsadi
<https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/31/strategiya/>
 Internetda axborot xavfsizligi. <https://nargis.uz/?p=197>
 O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlar faoliyati cheklanganidan so‘ng mobil VPN birdaniga ommalashdi <https://www.gazeta.uz/uz/2021/vpn/>
 Yoshlar – O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasini // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-yil 26-dekabr, №273.
<https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-Shavkat-Mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
 Yangi konstitutsiyada o‘nta asosiy o‘zgarish. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>
<https://kun.uz/news/2021/11/06/ozbekistonda-konstitutsiyani-takomillashtirish-masalasini-ko'rib-chiqish-rejalashtirilmoqda>
 O‘zbekistonda konstitutsiyani takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish rejalashtirilmoqda. 06.11.2021.
<https://kun.uz/news/2022/05/20/konstitutsiyaviy-islohotlar-bo'yicha-kengash-tarkibi-tasdiqlandi> Konstitutsiyaviy islohotlar bo‘yicha kengash tarkibi tasdiqlandi. 20.05.2022.
<https://strategy.uz/index.php?news=615> 24.07.2019.

Ilmiy-ommabop nashr

BERDIQUL TO‘YCHIYEV, BAXTIYOR OMONOV

SIYOSIY MADANIYAT

MONOGRAFIYA

Toshkent, “TAFSIR BOOKS” nashriyoti, 2024.

Muharrir Akbar O‘tamurodov

Rassom Uyg‘un Solih

Texmuharrir Vasila Xo‘jayeva

Korrektor Islomxo‘ja Xo‘jaxonov

Bosishga ruxsat etildi 26.01.2024. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Bosma tabog‘i 13,5. Shartli bosma tabog‘i 14,0. Adadi 100 nusxa.

Buyurtma № . Bahosi kelishilgan narxda.

O‘zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.

Toshkent, Talabalar shaharchasi, 4.